

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida

**KAMOLIDDIN
Shamsiddin Sirojiddin o‘g‘li**

**MARKAZIY OSIYO TARIXI
ZAMONAVTY TARIXSHUNOSLIGIDAGI
YONDASHUVLAR**

5A120304 – Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy
tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo mamlakatlari)
mutaxassisligi bo‘yicha magistratura talabalariga
mo‘ljallangan darslik

Toshkent – 2019

Ushbu darslik Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutida Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari (Markaziy Osiyo mamlakatlari bo'yicha) mutaxassisligi (5A120304) bo'yicha ta'lim oluvchi magistratura talabalariga "Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligi konsepsiyalari" maxsus kursini o'qitish uchun mo'ljallangan. Unda umumlashtiruvchi darslik va akademik nashrlarda kam e'tibor berilgan Markaziy Osiyo tarixshunosligining dolzarb muammolari, xususan, Markaziy Osiyo zamonaviy tarixshunosligining konsepsiyalari keng yoritilgan. Darslikdan Respublika Oliy ta'lim tizimining tarix, tarixshunoslik va manbashunoslik bo'yicha mutaxassislari foydalanishi mumkin.

Muallif:

Sh.S. Kamoliddin – tarix fanlari doktori,
Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti
“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va manbashunosligi”
kafedrasi professori

Mas'ul muharrir:

M.M. Iskhoqov – tarix fanlari doktori,
Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti
“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va manbashunosligi”
kafedrasi professori

Taqrizchilar:

A.A. Asqarov – tarix fanlari doktori, professor,
O'zR FA akademigi
R. Alimova – tarix fanlari nomzodi,
“Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va manbashunosligi”
kafedrasi mudiri

Darslik Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Kengashi
tomonidan nashrga tavsiya etilmagan

Nashrga tavsiya etilmagan darslik

Ushbu darslik 2018 yilda yozilgan bo‘lib, 2019 yilning boshida muhokama uchun “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va manbashunosligi” kafedrasiga berilgan edi. Muhokama sal kam yarim yil davom etib, bu vaqt ichida darslik ko‘p odamlarning qo‘lidan o‘tdi. Xususan, darslik O‘zbekiston FA ning Tarix institutiga muhokama uchun berildi. U yerdan ekspertlar komissiyasi a’zolari t.f.d. A.Otaxo‘jaev, t.f.n. Sh.Ergashev va t.f.n. A.Qayumov nomidan rasmiy taqriz keldi. Taqrizda bir qator fikrlar bildirilgan va oxirida quyidagi so‘zlar bilan xulosa qilingan: “Umuman, Sh.Kamoliddinning ushbu darsligi ta’lim jarayonida o‘quv adabiyotlariga bo‘lgan bo‘shliqni to‘ldirishga qo‘shilgan kata hissa bo‘ladi. Darslikda bayon qilingan ilmiy fikrlar olimning katta mehnati, ko‘plab tillarda e’lon qilingan juda katta hajmdagi adabiyotlarni ilmiy tahlil qilish natijasi ekanligi ko‘rinib turibdi. Shu sababli yuqorida keltirilgan tanqidiy fikr va mulohazalar ushbu katta mehnatning ilmiy ahamiyatini kamsitmasdan, darslikning yanada samarali chiqishiga yordam beradi, degan umiddamiz. O‘z FA Tarix instituti ekspertrining ushbu fikrlaridan kelib chiqib, yuqorida aytilgan takliflarning muallif ma’qul topgan qismi tuzatilgandan, qolganlariga esa asosli javob berilgandan so‘ng qo‘lyozma qayta ko‘rib chiqilib, nashrga tavsiya etilishi mumkin, deb hisoblaymiz”. Mazkur taqrizda aytib o‘tilgan fikr-mulohazarlar jiddiy ahamiyatga ega bo‘lmaganligi sababli men ularning deyarli hammasini (14 tadan 13 ta) inobatga olib, darslik matniga tegishli qo‘sishchalar va aniqliklar kiritdim. Shundan keyin qo‘lyozmani “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi va manbashunosligi” kafedrasini a’zolari, shuningdek, Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti xodimlaridan shu sohani tushunadigan olimlar o‘qib, o‘z fikr-mulohazalarini bildirdilar. Xususan, t.f.n. Sh.Saidov, t.f.n. O.Qoriev, shuningdek, yosh tadqiqotchilar R.Xudoyberganov, S.Bekmuradov, Z.Alimov, I.Xudoynazarov va A.Madraimov ijobjiy taqrizlar berdilar. Bir kishi, t.f.n. X.Fayziev, darslik haqida hech qanday fikr bildirmadi. Bir kishi, t.f.d. A.Doniyorov, darslikning nashr etilishiga qarshi chiqdi. Kafedra mudiri t.f.n. R.Alimova ham dastlab rasmiy ichki taqrizchi sifatida ijobjiy taqriz yozgan edi. Keyinchlik Doniyorovning ta’siri ostida fikridan qaytdi va taqrizini qaytib oldi. Muhokamaning yakuniy bosqichida Tarix institutining ijobjiy taqrizi, mas’ul muharrir t.f.d. M.Is’hoqovning ijobjiy xulosasi va tashqi taqrizchi akademik A.Asqarovning ijobjiy taqrizini hisobga olganda, jami 13 ta taqrizdan 10 tasi ijobjiy, 1 ta qarshi, 1 ta betaraf, 1 tasi esa o‘z fikriga ega emas. Bunday vaziyatda qoida bo‘yicha va mantiqan darslik nashrga tavsiya etilishi lozim edi. Lekin unday bo‘lmadi. Darslik har xil bahonalar bilan rad etildi va qo‘limga qaytarib berildi.

Buning asosiy sababi shundan iboratki, bizning tarixchilar va ayniqsa rahbarlar umuman siyosat haqida gapirishdan, hatto og‘iz ochishdan ham qo‘rqadilar. Bu darslikdagi ayrim mavzularda esa qo‘shni respublikalarda Markaziy Osiyo tarixi zamonaviy tarixshunosligida qabul qilingan yonda-shuvsalar tanqid qilingan. Lekin ushbu fanning maqsadi va vazifalari ham ayni shundan iborat-ku. Bu fan 2 o‘quv yili davomida magistratura talabalariga o‘qib kelinmoqda. Undan oldin xuddi shu mavzular “Markaziy Osiyo tarixshunosligining dolzarb muammolari” nomli fan dasturida 3 o‘quv yili davomida o‘qib kelingan. Ikkala fanning ishchi o‘quv dasturlari avval Institut o‘quv-uslubiy kengashida, keyin Institut Kengashida, o‘quv dasturlari esa Oliy va o‘rta ta’lim vazirligida tasdiqlangan. O‘quv dasturida har bir mavzuning qisqacha mazmuni berilgan va yuqorida so‘z yuritilgan tanqidiy fikrlar ham o‘z ifodasini topgan. Ushbu darslik esa aynan mazkur tasdiqlangan o‘quv dasturi asosida yozilgan va undan bir qadam ham chetga chiqilmagan. Darsliklarga qo‘yilayotgan asosiy talab ham shundan iboratda. Demak, men o‘z vazifamni astoydil bajarganman va hamma talablarga javob beruvchi darslik yozib muhokamaga taqdim etganman. Endi esa Institut rahbarlari (direktor va kafedra mudiri) jon jahdi bilan darslikka qarshi chiqib, uni nashrga tavsiya etishdan bosh tortmoqdalar. Yuqorida aytib o‘tilgan 10 ta ijobiy taqriz ham hech qanday yordam bermadi. Aslida esa ular o‘zlarining qilgan ishlariga qarshi chiqmoqdalar. Axir shu fanini o‘quv dasturiga kiritgan ham ular, uning o‘quv dasturini har yili qayta-qayta tasdiqlaganlar ham ular. Ularni bunday qilishga hech kim majburlamagan. Qanday qilib o‘zlarii tasdiqlagan narsaga o‘zlarii qarshi chiqishi mumkin. Bularda mantiq bormi o‘zi? Demak, ular shuncha vaqt davomida o‘zlariga yuklatilgan vazifani astoydil bajarmaganlar va shunday “zararli” mavzularni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturini tasdiqlab, o‘quv jarayoniga joriy qilganlar. Bundan chiqdi, haqiqiy aybdor men emas, balki ulardir, ya’ni Institut rahbariyati va vazirlikdagi mutasaddilar. Shuning uchun agar bu darslik bo‘yicha kimnidir javobgarlikka tortish kerak bo‘lsa ham, bu faqat ularga tegishli. Chunki men oddiy o‘qituvchiman, ular esa mas’uliyatlari lavozimlarni egallab o‘tiribdilar va shunga yarasha davlatdan maosh oladilar.

Endi darlikning siyosat bilan bog‘liqligi haqida bir og‘iz so‘z yuritsak. 1999 yilda president I.Karimov tarixchilar bilan uchrashganda, bizning “akademik” larimizdan biri aytgan ediki, “tarix har doim va har yerda siyosatga xizmat qilgan”. Bu bilan u “biz ham siyosatga xizmat qilishimiz kerak” deb aytmoqchi edi. Aslida esa bu gap unchalik to‘g‘ri emas. To‘g‘ri, tarixda siyosatga xizmat qilgan tarixchilar ko‘p bo‘lgan. Ular odatda “saroy tarixchilari” deb yuritiladi. Masalan, Markaziy Osipyoda Somoniylar davrida vazir al-Jayhoniy, Abu Bakr Narshaxiy, Abu ‘Ali al-Bal’ami, G‘azna-

viylar davrida Abu-l-Fazl Bayhaqiy va Abu Zayd Gardiziy, Saljuqiylar davrida Nizom al-Mulk va al-Husayniy, Xorzmshohlar davrida an-Nasavi, Mo‘g‘ullar davrida Juvayniy va Rashid ad-Din, Temuriylar davrida Sharaf ad-Din Ali Yazdiy va Nizom ad-Din Shomiy va h.k. Lekin hamma tarixchilar ham saroyga, ya’ni siyosatga xizmat qilmagan. Masalan, Saljuqiylar davrida yashagan Abu Hafs an-Nasafiy va Abu Sa’d as-Sam’oni, Mo‘g‘ul larning bosqini haqida yozgan Ibn al-Asir, o‘sha davrda yashagan Yoqut al-Hamaviy, Mo‘g‘ullar davrida sayohat qilgan Ibn Battuta, Temuriylar tari-xini yozgan Ibn Arabshoh, va boshqa ko‘p olimlar shular jumlasiga kiradi. Hozir ham hamma tarixchilar bir xil emas. Bizda siyosatga xizmat qiluvchi tarixchilar ko‘pchilikni tashkil qiladi. Men bunday tarixchilarni “yollangan olimlar” deb atayman. Bunday olimlar siyosatning o‘zgarib borishiga qarab fikrlarini o‘zgartirib yuradilar. Yuqorida qanday talab bo‘lsa, o‘shanday asarlar yozadilar. Kimni tanqid qilish kerak bo‘lsa, o‘shani tanqid qiladilar; kimni maqtash kerak bo‘lsa, o‘shani maqtaydilar. Umuman olganda, bizda tarix fani siyosatga bo‘ysindirilgan. Tarixchilar siyosatga qarab qadam bosadilar. Men esa hech qachon siyosatga xizmat qilmagaman. Nimaiki yozgan bo‘lsam, barchasi o‘zimning shaxsiy fikrim. Fikrlarimning ba’zilari rasmiy qabul qilingan ko‘rsatmalarga mos kelishi mumkin, ba’zilari esa ularga zid keladi. Lekin shunga qaramasdan men o‘z fikrimni o‘zgartirmayman. Mening fikrim shuki, tarix fani siyosatga bo‘ysinishi kerak emas, aksincha, siyosat tarixiy tadqiqotlarga asoslanishi kerak.

Endi yana darslik muhokamasiga qaytsak. Men tuzgan o‘quv dasturi va uning asosida yozilgan darslik O‘zbekistonda rasman qabul qilingan milliy davlatchilik mafkurasiga asoslanib yozilgan. Unda o‘zbek xalqining milliy manfaatlari, toptalgan haq-huquqlari himoya qilingan, uning tashqi dush-manlari tomonidan ilgari surilgan va hamon surilayotgan asossiz da’vo-larga ilmiy asoslangan javoblar berilgan. Yuqorida aytib o‘tilgan 10 ta ijobiy taqrizni yozgan taqrizchilar ham buni ta’kidlaganlar. Demak, tabiiyki, bu fikrlarga qarshi chiqqan har qanday odam o‘zbek xalqining manfaatliga va O‘zbekistonda qabul qilingan milliy mafkuraga qarshi chiqqan bo‘ladi. Afsuski, bunday kimsalar va yot unsurlar, shuningdek, ularga ko‘rko‘rona ergashuvchi ongsiz manqurtlar oramizda bor ekan. Buni yuqorida aytib o‘tilgan darslik muhokamasi tasdiqlab turibdi.

Bu vaziyat menga yurtimizda o‘tgan asrning 30-yillarida yuz bergen mudhish voqealarni eslatdi. O‘shanda milliy qadriyatlar va millat manfaatlari uchu jon kuydirgan o‘zbek ziyyolilari “turkparast”, “islomparast”, “mil-latchi” singari soxta ayblovlar bilan otib tashlangan edi. Ularga bunday ayblovlarni qo‘yishda o‘zlarini “tojik” deb atagan dushmanlarning xizmati katta bo‘lgan. O‘zbek xalqining ichiga “o‘zbek” niqobi ostida kirib olgan yot unsurlar esa ularga yordam bergenlar. Bolshevik shiorlar bilan quol-

langan bu dushmanlar va sotqinlar o‘zbek xalqining deyarli barcha ongli qismining qatag‘on bo‘lishiga sababchi bo‘lganlar. O‘sha vaqtida o‘zbek xalqining boshi tanasidan judo qilingan murdaga aylandi. Uning tarkibida faqat ongsiz manqurtlar qoldi.

Bunday yot unsurlar hozirgi kunda ham oramizda bor. Ular o‘beklar-ning bag‘rikengligidan foydalanib, ichimizga ilon singari kirib olganlar. Ular o‘zlarini “o‘zbek” man deydilar, lekin zimdan o‘zbek xalqining milliy manfaatlariga qarshi harakat qiladilar. Ular ochiq harakat qilishga ojizlik qiladilar, chunki bunga ularning qurbi ham, bilimi ham yetishmaydi. Lekin ular paytini poylab yuradilar va vaqt kelganda, sizga qarshi fursatdan foydalanib qoladilar. Favqulodda vaziyat bo‘lib qolsa, ular birinchi bo‘lib sizni tashqi dashmanga sotib beradilar. Ongsiz manqurtlar esa ularga ko‘rko‘rona ergashadilar. Achinarlisi shuki, ulardan qutulishning iloji yo‘q. Chunki bunday kimsalar oramizda juda ko‘p. Ular jamiyatimizning ko‘pchilik qismini tashkil etadi. Chunki ularning bir qismi sho‘rolar mafkurasi hukmronligi davrida, qolganlari esa “o‘tish davri” dagi ma’muriy buyruq-bozlik, siyosiy tazyiqlar va g‘oyaviy bo‘shliq sharoitida shakllangan. Lekin ularni nazorat qilish va bostirib turish mumkin, bunda esa rahbarlarning mas’uliyati katta. Agar rahbar ham ongsiz manqurt bo‘lsa, unda dushmanlar va yot unsurlar g‘alaba qozonadilar. Millat manfaatlarini ko‘zlab qilingan barcha sa’y-harakatlar ushbu darslik “muhokamasi” singari masxarabozlikka aylantiriladi va oxir oqibatda yo‘qqa chiqariladi. Rahbar birinchi navbatda ongli, jur’atli,adolatli va, eng muhimi, yuragida o‘ti va milliy g‘ururi bor vatanparvar inson bo‘lishi kerak. Afsuski, bizda bunday rahbarlar juda sanoqli. Bizning sohada esa yo‘q desa ham bo‘ladi. Har qalay men o‘z tajribam davomida o‘zida mazkur fazilatlarni mujassamlash-tirgan bunday mard rahbarni ko‘rganim yo‘q. Bizning rahbarlar uchun eng muhim narsa egallab o‘tirgan kursisida iloji boricha uzoqroq o‘tirish yoki undan ham kattarog‘ini egallashdir. Davlat, millat, ilm-fan manfaatlari ular uchun ikkinchi va uchinchi darajali tushunchalardir, yoki umuman hech qanday ahamiyatga ega emas. Mantiqan to‘g‘ri va adolatli qaror qabul qilish haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, bizning jamiyatda yot unsurlar va ongsiz manqurtlar hali ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Shuning uchun biz haligacha lotin alifbosiga to‘liq o‘tganimiz yo‘q (yaqin orada o‘tishimiz ham gumon, borib-borib bu masala umuman kun tartibidan olib tashlanishi ham mumkin), o‘zbek tili davlat tili maqomiga ega bo‘lsa ham, haligacha jamiyatda o‘zining qonunda belgilangan haqiqiy o‘rnini egallagani yo‘q. Endi esa “rus tili davlat tili bo‘lishi kerak” deb da’vo qiluvchilar sahnaga chiqdi. Ertaga “O‘zbekiston yana Rossiyaga qo‘shilishi kerak” deb taklif kirituv-chilar paydo bo‘lsa ajab emas. Buning nafasi esa hozirdan sezilib turibdi.

XX asr boshida Turkiston rus mustamlakasi bo‘lgan davrda istilochilar Rossiyadan aholining uysiz, qashshoq va kam ta’minlangan qatlamlarini rejali ravishda ko‘chirib kelish va mahalliy aholini ruslashtirish siyosatini olib brogan edilar. Sh‘orolar davrida bu siyosat “xalqlar do’stligi” niqobi ostida davom etdirildi. Yangi ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish (20-yillar), qatag‘on (30-yillar,) Ikkinci jahon urushi (40-yillar), qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish (50-yillar), zilzila oqibatlarini bartaraf etish (60-yillar), sanoatlashtirish (70-yillar) bu siyosatni qonuniylashtirish va amalga oshirish uchu bahona bo‘lib xizmat qildi. Bu maxsus rejalashtirilgan tadbirlarning oxirgisi mash’um “o‘zbek ishi” edi (80-yillar). Aslida bu ruslarning qatag‘on siyosatining navbatdagi bosqichi edi. Maqsad O‘zbekistonda mutlaq hokimiyatga ega bo‘lish, milliy boshqaruva tizimini cheklash va mahalliy aholini tahqirlash orqali ommaviy ravishda ruslarni ko‘chirib kelish va ruslashtirish siyosatini yana ham jadallashtirish edi. Bu oxirgi tadbir nihoyasiga yetmay qoldi, chunki 1991 yilda Sho‘rolar davlati parchalanib ketdi. Nattijada ruslar ilgari bosib olgan va qo‘lga kiritgan ko‘p mustamlaka yerlarni, shu jumladan O‘zbekistonni yo‘qotdilar. Keyingi 25 yil davomida ular buning alamini yutib keldilar. Endi yo‘qotilgan hududlar va mavqelarni qayta egallah vaqtি keldi shekilli. Kavkazda Gruziya, Yevropada Ukraina parchalab yuborildi. Endi navbat O‘rta Osiyoga keldi. Bu yerda esa asosiy mo‘ljal O‘zbekistondir. Gruziya va Ukrainadagi singari bu yerda ham voqealar rivojining faqat 2 ta yo‘li bor: birinchisi – Rossiyaga bo‘ysinish, unda Tojikiston va Qirg‘iziston singari O‘zbekiston ham Rossiyaning yangi mustamlakasiga aylanadi; ikkinchisi – mustaqillikni saqlash uchun kurash, unda Andijon va O‘sh voqealari singari qonli to‘qnashuvlar, urush va oxir oqibatda hududiy yo‘qotishlar bo‘lishi aniq.

Hozirgi kunda bu jarayonlar yana yangi kuch bilan avj olmoqda. Ishqilib biz “neokolonializm”, ya’ni yangi ko‘rinishdagi mustamlakachilik sari qadam bosayatgan bo‘lmaylik. Darslik nashr etilmasa etilmas, men bunga roziman. Isqilib mening taxminlarim to‘g‘ri bo‘lib chiqmasin. Aks holda bu eng katta fojia bo‘ladi. Unda tarix qaytarilib, O‘zbekiston yana qaram bo‘ladi va mustamlakaga aylanadi. Bu safar endi qullik abadiy bo‘ladi, hech qanday “oshkoraliq”, “qayta qurish” lar yordam bermaydi va hech kim bizga mustaqillikni qaytarib bermaydi.

SO‘Z BOSHI

1991 yilda Sho‘rolar davlati parchalangandan keyin Markaziy Osiyo mintaqasidagi sobiq sho‘ro respublikalari – O‘zbekiston, Qozoq‘iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg‘iziston siyosiy mustaqillik e’lon qilib, jahon hamjamiyatining teng huquqli a’zolariga aylandilar. Shu bilan birga bu davlatlarning har birida o‘zining milliy mafkurasi shakllanib, ularda Markaziy Osiyo mintaqasining tarixini o‘zlarining milliy mafkurasiga moslashtirgan holda qayta ko‘rib chiqish vazifasi asosiy masalalardan biri bo‘lib qoldi va ayrim hollarda hattoki davlat siyosatiga aylantirildi. Shuni ham aytish joizki, mintaqadagi ba’zi davlatlarning milliy konsepsiyalarnida ayrim g‘ayriilmiy va bir yoqlama yondashuvlar, tarixning ko‘p nazariy muammolarini hech qanday ilmiy asossiz o‘zlarining foydasiga hal qilish hollari ko‘plab uchraydi. Masalan, Turkmaniston Respublikasida nashr etilgan “Ruhnama” kitobida turkman xalqining Markaziy Osiyo mintaqasining tarixida tutgan o‘rni juda bo‘rttirib berilgan. Xususan, mintaqa tarixida mavjud bo‘lgan deyarli barcha davlatlar va ularda hukm surgan sulolalar turkmanlar, mintaqada yashagan xalqlarning erishgan barcha madaniy yutuqlari esa turkman xalqiga tegishli deb ko‘rsatilgan. Tojikiston Respublikasida nashr etilgan oriylar, Somoniylar haqidagi va yana bir qator kitoblarda Markaziy Osiyo mintaqasining qadimgi va o‘rta asrlardagi tarixi faqat tojiklar bilan bog‘liq, mintaqa xalqlarining jahon sivilizasiyasiga qo‘sghan hissasi esa faqat tojiklarga tegishli deb uqtirilgan.

Shunga o‘xshash g‘ayriilmiy qarashlar va bir yoqlama yondashuvlar, xususan, o‘z millatini o‘ta ulug‘lash, boshqa millatlardan ustun qo‘yish, ularni kamsitish, barcha madaniy qadriyatlarni va yutuqlarni o‘zlashtirish hollari oxirgi vaqtida Qozog‘iston va Qirg‘izistonda ham kuzatilmoqda. Ayniqsa, o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasida bir yoqlama g‘ayriilmiy yondashuvlar ilgari surilmoqda, o‘zbek xalqiga nisbatan yolg‘on va bo‘xtonlar yog‘dirilmoqda. Bu esa milliy totuvlik va millatlararo munosabatlarga salbiy ta’sir etmoqda va ayrim hollarda qonli to‘qnashuvlarga ham olib kelgani sir emas. Shuning uchun har bir O‘zbekiston vatandoshi, xususan, talabalar ham bunday g‘oyaviy hamlalarga ilmiy asosda javob berishga qodir bo‘lishi va haqiqiy holatni aks ettiruvchi bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Ushbu fan talabalarga aynan shunday bilimlar va ko‘nikmalarni berishga mo‘ljallangan.

Shuni ham hisobga olish kerakki, oxirgi bir yil ichida Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi xalqaro munosabatlarda yangi bosqich boshlandi. Oxirgi 25 yil davomida adovat ruhida aytilgan ko‘p gaplarga chek qo‘yila boshlandi, millatlararo totuvlik, ahil qo‘shtinchilik munosabatlari tobora avj

olib bormoqda. Bu esa xalqlarimizning ertangi kunga ishonchini va yaqinlashuv jarayonlarining ijobiy natijalarga olib kelishiga umidini yanada oshirmoqda. Shunday bo'lsa-da, qabul qilingan milliy koncepziyalarni va ular asosida yozilgan kitob va maqolalarni, internet saytlarini hali hech kim bekor qilgani va olib tashlaganicha yo'q. Shuning uchun talabalar bu koncepziyalar haqida haqqoniylumotga ega bo'lishlari zarur.

Mazkur fanning maqsadi "Markaziy Osiyo xalqlari tarixi" kafedrasi magistrantlariga bugungi kunda Markaziy Osiyo tarixi tarixshunosligida mavjud bo'lgan dolzarb muammolar haqida umumiylushuncha va tasavvurlar berishdan iborat. Shuningdek, qo'llanmada ko'rib chiqiladigan masalalarning ilmiy-nazariy va amaliy-usuliy asoslari haqida ham batafsil ma'lumotlar beriladi. Ushbu fan dasturida magistrantlar tarixchi mutaxassis uchun zarur bo'lgan darajada Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi tarixshunosligining nazariy muammolari bo'yicha yangi tarixiy voqelikdan kelib chiqqan holda hozirgi kunda mavjud bo'lgan yangicha ilmiy qarashlar va yondashuvlar bilan tanishtiriladi, shuningdek, turli ilmiy qarashlar ichida milliy g'oya manfaatlariga xizmat qiluvchi ilmiy qarashlardan ilmiy tadqiqotlarda asos sifatida foydalanishga o'rgatiladi.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- talabalarni hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasidagi mustaqil davlatlar (Qozog'iston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirg'iziston) dagi tarixchi olimlarning bir yoqlama yondashuvlari va ularning salbiy jihatlari bilan tanishtirish;
- talabalarga O'zbekiston Respublikasining milliy g'oya mafkurasining asosiy tamoyillari va uning boshqa mafkuralarga nisbatan haqqoniylumotga ega ekanligini ko'rsatish;
- talabalarni O'zbekiston Respublikasida tarixiy tadqiqotlarni olib borishda belgilangan asosiy tamoyillar bilan tanishtirish;
- talabalarni Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi tarixshunosligining nazariy muammolarini haqqoniylumotga ega ekanligini ko'rsatish;
- talabalarni Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi tarixshunosligining nazariy muammolari bo'yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqot olib borish uchun zarur bo'lgan bilimlar va ko'nikmalar bilan tanishtirish.

I-bob. MARKAZIY OSIYO TARIXINING DUNYODA TADQIQ ETILISHI

1.1. G‘arb mamlakatlarida Markaziy Osiyo tarixining o‘rganishi

Darsning o‘quv maqsadi. Evropa va Amerika tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixining o‘rganishi haqida umumiy tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: sayohatchilar, tarjima faoliyati, arxeologik kashfiyotlar, sharqshunoslik, kartografiya, yevropocentrizm, geosiyosat.

Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G‘arbni, Shimol va Janubni bog‘laydigan yo‘llarning kesishuvida joylashgan bo‘lib, strategik ahamiyatga ega hudud hisoblanib kelgan. Shuning uchun jahoning qudratli va buyuk davlatlari, shu jumladan, Yevropa mamlakatlari bu mintaqaning tarixi va madaniyatiga har doim qiziqish bildirib kelgan va haligacha qiziqishda davom etmoqda. Markaziy Osiyo haqidagi dastlabki ma’lumotlar qadimgi yunon tarixchilari va geograflarining asarlarida keltirilgan. Arab xalifaligi davrida yevropaliklar Markaziy Osyoning musulmon olimlari – Farg’oni, Forobiy, Xorazmiy, Ibn Sino (Avicenna), Beruniy va boshqalar haqida ma’lumotga ega bo‘lganlar. XIV – XV-asrlarda Yevropaning ba’zi hukmdorlari Amir Temur va Temuriylar sulolasiga mansub hukmdorlar bilan diplomatik munosabatlarni yo‘lga qo‘yanlar. XVI – XVIII asrlarda yevropalik kartograflar va sayohatchilar Markaziy Osyoning tasviri va ta’rifi tushirilgan ko‘plab xaritalar tuzdilar.

XIX asr o‘rtalarida G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida “yevropocentrizm” tarixiy-madaniy va geosiyosi konsepsiysi yoyiladi. Unga ko‘ra, jahondagi taraqqiyot va madaniy jarayonlarda G‘arbiy Yevropa xalqlarining qadriyatlari alohida mavqega va ahamiyatga ega bo‘lgan. Bunday g‘oyalilar o‘rtalarda ham mavjud bo‘lib, ularning ta’siri va keng tarqalishining eng dastlabki va yorqin namoyishlari sifatida dunyoning turli dinlari tarafдорлари o‘rtasidagi davlatlararo va mintaqalararo to‘qnashuvlarni ko‘rsatish mumkin. Xususan, o‘rtalarda Evropa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq mintaqalari katoliklar bilan aqidaparast ortodokslar, nasroniyalar bilan musulmonlar o‘rtasidagi diniy to‘qnashuvlar maydoniga aylandi. Ayniqsa Katolik cherkovi yevropocentrizm g‘oyalilarini qo‘llab-quvvatlashda eng katta faoliyot ko‘rsatdi. U odamlarni musulmon dunyosiga qarshi qurolli kurash olib borib, Pireney yarim orolini musulmonlardan ozod qilishga rag‘batlantirdi, salbchilarining Quddus

shahriga harbiy yurishlarini tashkil qildi. Uning tashabbusi bilan Baltikaga yurishlar amalga oshiridi. Ushbu siyosat oxir-oqibatda Sharqiy Yevropa davlatlari bilan keskin qarama-qarshilikka olib keldi va unda ularning raqiblari muhim g‘alabani qo’lga kiritdilar (1410 y.). Yevropocentrizm g‘oyasi avval Saljuqiylar, undan keyin esa Usmonli imperiyasidan chiqqan tahdid ta’siri ostida sezilarli darajada rivojlandi. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida yevropaliklar dunyodagi boshqa ko‘plab xalqlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Lekin ularning madamiy qadriyatlarni baholashdagi noto‘g‘ri yondashuvi, boshqa xalqlar madaniyatining o‘ziga xosligini, ularning ilm-fan va texnika sohasidagi yutuqlarini tan olishga imkon bermadi. Ularning fikriga ko‘ra, mahalliy aholining tarixiy qismati qullik va mustamlakaga qaramlikdan iborat edi. XIX asrda yevropaliklarning boshqa xalqlarga nisbatan qarashlarida birmuncha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Bunga Yaqin Sharq, Hindiston, Xitoy va Amerikadagi noyob arxeologik kashfiyotlar sababchi bo‘ldi. Yevropaliklarning ongiga Yevropa tamaddunidan ko‘ra yana ham qadimgiroq bo‘lgan tamaddunlar mavjudligi haqida dalillar taqdim etildi. Lekin hatto ular ham an’anaviy nuqtai nazarni butunlay o‘zgartira olmadi, shunday bo‘lsa ham, yevropaliklar bilan boshqa xalqlar o‘rtasidagi munosabatlardagi bir qator jihatlarda o‘zgarishlar yuz berdi. Yevropalik bo‘lmagan xalqlarning iqtisodiy (ayniqsa, sanoat va harbiy) rivojlanish darajasi va sur’atlarida yaqqol ko‘zga tashlanuvchi qoloqligi yevropocentrism g‘oyasining tarafdarlariga kuch bag‘ishlar edi va past darajadagi irqlar mavjudligi haqidagi g‘oyaning kelib chiqishiga asos bo‘lib xizmat qildi. XX asr boshlarida Yevropa va jahon hamjamiyatida yetakchilik qilish masalasi keskinlashdi. Bu masala tez orada Yevropaning kommunistik va kapitalistik qismlarga bo‘linishiga olib keldi. Ular orasida jahonda yetakchilik qilish va ta’sir o‘tkazish uchun keskin geosiyosiy va harbiy raqobat boshlandi. 2-Jahon urushida davom etgan qarama-qarshilikdan so‘ng, Yevropa o‘zining jahondagi yetakchilik ahamiyatini yo‘qotdi va XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab yevropocentrizm tushunchasi ikkilamchi ma’noga ega bo‘ldi. Bir tomondan, unda Yevropa qit’asida qolganlarning o‘zlarining Shimoliy va Janubiy Amerika, Avstraliya va Janubiy Afrikadagi sobiq vatandoslarining taqdiri haqida tashvishlari o‘z aksini topdi. Eski Yevropaga Yaponiya raqobatlashuvchi davlat edi. Boshqa tomondan, “Anglo-Sakson” (Angliya-Amerika) dunyosining umumiy qadriyatlarning jahonda ustunligi haqida ilgari surilgan yangi g‘oyalar yevropocentrizm g‘oyasining rivojlanishiga yangi turki bo‘ldi. XX asrning oxiriga kelib G‘arbiy Yevropada birlashuv jarayonlari kuchayib, milliy chegaralarining “ochilishi” ga olib keldi. Yevropada socialistik tuzumming qulashi Vashingtondan Vladivostokgacha

yahlit hududni o‘z ichiga oluvchi loyihalarni ilgari surish imkoniyatini vujudga keltirdi. Yevropaning qit‘a doirasidagi birlashuvi Germanianing qayta birlashishi, Markaziy va Janubiy Evropada, shuningdek, Boltiqbo‘yi davlatlarida amalga oshirilgan islohotlar tufayli yangi istiqbollarga ega bo‘ldi. Zamonaviy texnogen sivilizasiyaning hozirgi kundagi qiyofasini shakllantirgan G‘arbiy Yevropa madaniyati o‘zining yangilanishi va ta’siri nuqtai nazaridan dunyoda o‘z ahamiyatini hozirgi kunda ham saqlab turibdi. G‘arbiy Evropada barqaror iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy-siyosiy muammolarning ma’lum darajada hal etilishi XXI asrning boshiga kelib yagona Yevropa makonining madaniy va geosiyosiy g‘oyasini amalda hayotga tatbiq etish imkonini berdi [Loiko 2001: 337-338].

Yevropoliklar uchun Markaziy Osiyoni tadqiq etish sharqshunoslik, ya’ni Osiyo va Afrika mamlakatlarda bosqinchilik va mustamlakachilik davrida vujudga kelgan fanning bir qismi hisoblanadi. Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o‘rganishga ixtisoslashgan eng yirik ilmiy markazlar Germaniya, Angliya, Fransiya, Italiya, Avstriya va Niderlandiyada joylashgan. Bu mamlakatlarda Markaziy Osiyo xalqlarining tillari ham o‘rganiladigan maxsus markazlar mavjud. Germaniyada “Central Asiatic Journal” nomli jurnal chop etiladi. Yevropalik olimlarning qiziqishlari davr jihatdan mintaqaning qadim zamonlardan tortib eng yangi zamongacha bo‘lgan butun tarixini o‘z ichiga oladi, mavzu jihatdan esa tarix, arxeologiya, etnografiya, geografiya, din, adabiyot, siyosat singari sohalarni qamrab oladi. Umuman olganda, zamonaviy Yevropadagi ilm-fan chuqur va izchil izlanish, ilmiy yondoshuvda haqqoniylik va tarixiy tadqiqotlarda siyosiylashtirish yo‘qligi bilan ifodalanadi. Ammo XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi olimlarning asarlarida yevropocentrizm g‘oyalarining ta’siri yaqqol seziladi. Xususan, ko‘pgina evropalik olimlarning asarlarida Osiyodagi Hind-Eron xalqlarining tarixiga qiziqish nihoyat darajada katta, chunki ular Yevropa xalqlari bilan kelib chiqishi umumiyligi bo‘lgan oriylarning avlodlari hisoblanadi. Shu bilan birga, ularning asarlarida Osiyodagi tamaddun taraqqiyoti tarixida turkiy tilli xalqlarning qo‘sghan hissasi kamsilib, ahamiyatsiz va ko‘pincha salbiy bo‘lgan deb noto‘g‘ri xulosalar chiqarildi. Shu bois, Yevropada va umuman jahon ilm-fanida eronshunoslik sohasi turkshunoslik va turk xalqlarining tarixi sohasiga nisbatan ancha ko‘proq rivojlandi. Faqat so‘nggi o‘n yilliklar davomida Markaziy Osiyodagi qadimgi turklar tarixi va madaniyati tarixi bo‘yicha faol tadqiqotlar olib borildi, bir qator olimlar, xususan, ayrim yevropalik (P. Golden, S. Stark va boshqalar) va rus (D. Vasiliev, I.V. Stebleva, I.L.Kyzlasov, T.Arzhantseva va boshqalar) olimlarning tadqiqotlaida turkiy xalqlarning jahon tamadduni taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi ta’kidlangan.

Savollar:

1. Evropadan Markaziy Osiyoga sayohat qilgan qanday sayohatchilarni bilasiz?
2. Yevropada Markaziy Osiyoning birinchi geografik tavsifi qachon va kim tomonidan yozilgan?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Hind-Yevropa tillarining rivojlanishi va tarqalishi tarixi.
2. Hindo-Yevropaliklarning Markaziy Osiyoga ko‘chishlari.

1.2. Eron va Afg'onistonda Markaziy Osiyo tarixining o'rganilishi

Darsning o'quv maqsadi. Eron va Afg'oniston tarixshunosligida Markaziy Osiyo tarixining o'rganishi haqida umumiy tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: indoyevropeizm, eronshunoslik, Eron millatchiligi, paneronizm, panislomizm, oriyalar, Markaziy Osiyodagi hind-yevropa madaniyatidan oldingi madaniyatlar.

Eronda XI asrdan XX asrning o'rtalarigacha, ya'ni deyarli 1000 yil davomida turkiy sulolalar hukmronlik qilganlar: avval G'aznaviylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar; mo'g'ullar bosqinidan keyin esa Temuriylar, Safaviylar va Qajarlar. Shuning uchun ham o'tgan davr mobaynida bu yerda forsiyzabon va turkiy tilli aholi o'rtaida o'zaro hamjihatlik va bir-biri bilan qorishuv jarayonlari kechgan. Barcha eronliklar tilidan qat'iy nazar o'zlarini yagona xalq deb bilganlar, chunki ularni yagona siyosiy hokimiyat va umumiyligi shi'a mazhabiga e'tiqod birlashtirib turgan. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Yevropa olimlari va siyosat arboblarining ta'siri ostida forslar orasida "milliy o'zligini anglash" jarayoni boshlanib, milliy shovinizm va irqiy ustunlik go'yalarini rivojlana boshladi [Hanaway 1993: 147 – 150]. 1924-yildan keyin esa "qizil ruslar" (bolsheviklar) ning tashabbusi bilan va sho'ro olimlarining rahbarligi ostida tojiklarning "milliy o'zligini anglash" jarayoni boshlandi [Atkin 1993: 151 – 184; Battis 2016: 155 – 183]. Ushbu bir-biriga o'xshash ikki jarayon o'zaro bog'liq bo'lib, bir xil natijaga, ya'ni millatchilikning vujudga kelishiga olib keldi. Agar fors millatchiligi yevropocentrizm g'oyalarini kuchli ta'siri ostida vujudga kellegan bo'lsa, tojik millatchiligi yangi qiyofaga kirgan rus mustamlakachiligining bosib olingan yerlarni o'z hokimiysi ostida saqlash va mahalliy aholini tobeklida ushslash maqsadiga yo'naltirilgan rejali harakatlari natijasida vujudga keldi. Bu ikkala jarayon ham qo'shni xalqlarga, asosan, turkiy tilli xalqlarga qaratilgan edi.

XIX asr oxirida panislomizm diniy-siyosiy oqimi vujudga kelib, uning asoschisi Jamol ad-Din al-Afg'oniy (1839 – 1897) butun jahon musulmonlarining birligi va ularning yagona xalifalik davlati bayrog'i ostida birlashish zarurligi g'oyalarini ilgari surdi. XX – XXI asr boshidagi Eron tarixshunosligi mazkur go'yalar, ya'ni paneronizm va panislomizm go'yalarining kuchli ta'siri ostida bo'lib, hozirgi kunda ham shu holda saqalanib turibdi. Hozirgi vaqtida Eron va Afg'oniston davlat tuzumi jihatdan islomiy davlatlar hisoblanadi, ulaning jamiyatlaridagi butun hayotiy masalalarning tartibga solinishi faqat shariat ko'rsatmalariga

asoslangan. Shuning uchun bu ikki davlatda panislomizm go‘yalari paneronizm go‘yalari bilan uyg‘unlashib ketgan.

Paneronizm bu – Eron davlat milliy shovinizmining millatchilik ta’limotidir. Jumladan ushbu ta’limotning tarafdarlari antik davrdan boshlab eroniy tillarda so‘zlashuvchi xalqlardan iborat “yagona Eron millati” mavjudligini ta’kidlaydilar, va Sosoniylar davlati hududida “Buyuk Eron” davlatini tiklashni da‘vo qiladilar. Paneronizm g‘oyalarining nazariy asoschilaridan biri XX asr boshlarida yashagan Og‘axon Kermoniy edi. 2-Jahon urushidan oldin paneronizm harakati o‘ta ketgan millatchilik kayfiyatidagi yirik biznes vakillari, yer egalari, yuqori lavozimli davlat amaldorlari va harbiy mulozimlar, shuningdek, qisman ziyorolar orasida keng tarqaldi. Paneronizm shiori ostida ozarbayjonlar, kurdlar va Erondagi boshqa kam sonli xalqlar, ya’ni milliy ozchilikni majburiy qorishtirish amalga oshiriladi. 1946-yilda paneronchilar “Buyuk Eron” davlatini tiklash va uning tarkibiga Kavkaz, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va boshqa davlatlarning hududlarini qo‘sib olishni targ‘ib qiluvchi “Paneronchilik” partiyasini tuzdilar.

Paneronizm g‘oyalar Eron va afg‘on olimlarining O‘rtal Sharq va Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlarida to‘liq namoyon bo‘ldi. Xususan, Eron tarixshunosligida Markaziy Osiyo Eronshahrning asl hududi bo‘lib, bu yerlar o‘tmishda Eronga qarashli bo‘lgan va uning aholisi ham eronliklardan iborat bo‘lgan. Shuningdek, bu g‘oyalar maktab o‘quvchilarining ongiga yoshlikdan singdirildi va jamiyat ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida o‘z aksini topdi. Bunday yonashuvni Eron millatchiligining rivojlanishiga asos solgan Yevropa sharqshunoseronshunos olimlari va arxeologlari faol ravishda qo’llab-quvvatladilar. Shuningdek, rus tarixchilari uchun ham Markaziy Osiyo va butun Yevrosiyoning tub aholisi eroniy tilli qabillalar bo‘lgan deb ilm-fanda qabul qilinishi muhim edi, chunki bu ularga o‘zlarini “yangi oriyalar”, qadimgi oriyarning xaoskorlari va merosxo‘rlari deb e’lon qilishga, natijada bosib olingan yerlarga abadiy egalik qilishga asos bo‘lib xizmat qilar edi. Bu yerda yevropocentrizm va rus imperializmi g‘oyalarini bir-biri bilan qo‘silib ketgan edi, va Eron milliy shovinizmi g‘oyalarini bilan birgalikda paneronizm ta’limotining mafkuraviy asosini tashkil etgan edi. Bu ta’limotning mazmun-mohoyati shundan iborat ediki, uningtarafdorlari hamma yerda, har narsada faqat hind-eroniy va hind-yevropa tillari va madaniyatining ildizlarini ko‘rishga harakat qilar edilar.

Aslida barcha eroniy tilli xalqlarning ajodolari bo‘lmish oriyalar hozirgi yashab turgan yerlarga boshqa hududlardan ko‘chib kelganlar. Oriylarning ommaviy ko‘chib kelishiga qadar bu yerlarda umuman boshqa xalqlar, hind-yevropa tillariga hech qanday aloqasi yo‘q aholi yashagan. Hind-

Yevropa tilli xalqlargacha bu yerlarda yashagan ushbu aholining moddiy madaniyati “Anov”, “Hisor” va “Kalta Minor” nomlari bilan mashhurdir. Ulardan kaltaminorliklar ural-oltoy tillarida so‘zlashgan bo‘lsalar, Anov madaniyati sohiblari oltoy tillari oilasiga kiruvchi dravid tilida so‘zlashganlar. Shu sababli ularni Markaziy Osiyoning zamonaviy turkiy tilli aholisining uzoq davrlardagi ajdodlari deb hisoblash mumkin. Bu haqda yanada batafsilroq ma’lumot olish uchun 3-bobning 1-qismiga qarang.

Afg‘oniston tarixshunosligida mintaqqa tarixida turklarning tutgan o‘rtni rasmiy ravishda inkor etiladi. Ma’lumki, arablar istilosiga qadar To‘xoriston (Shimoliy Afg‘oniston) da deyarli 130 yil davomida turklarning *yabg‘u / jabg‘u* unvonli sulolasi, Kobul va G‘aznada esa turklarning Kobulshoh unvonli sulolasi hukm surgan. Afg‘oniston hududidagi Araxosiya, Zabuliston va boshqa viloyatlarda ham arablargacha turk sulolalari hukm surgan. Afg‘onistonning islomdan oldingi va ilk islom davridagi tarixida turklarning *xalach* qabilasi ham muhim o‘rin egallagan, Hozirgi Afg‘oniston va Pokiston aholisining katta qismini tashkil qiluvchi *pushtun* qabilalarining kelib chiqishi ham xalachlar bilan bog‘liq. Bularning hammasi jahon ilm-fanida ma’lum, lekin Afg‘onistonning rasmiy tarixshunosligida rad etiladi va oshkora qilinmaydi.

Savollar:

1. *Islom davrida Eronda kelib chiqishi fors bo‘lgan qaysi sulolalar hukm surgan?*
2. *Oriylarning asl vatani qayerda bo‘lgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Eroniy tillarning rivojlanish tarixi.*
2. *Eronshahrning tarixi va geografiyasiga oid islomdan oldingi manbalar.*

1.3. Turkiyada Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi

Darsning o‘quv maqsadi. Turkiya tarixchiligidagi Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi haqida ummumiylashtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: turklar, Usmonli turklar imperiyasi, turkchilik, millatchilik, panturkizm, panislomizm, turkiy tilli xalqlar birlashivi

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Usmonlilar imperiyasining ziylolilari va Rossiya imperiyasi hukmronligi ostida bo‘lgan musulmon xalqlar orasida Evropada, Rossiyada va Sho‘rolar davlatida “panturkizm” deb atalgan millatchilik mafkurasi keng tarqaldi. Ushbu mafkuraga ko‘ra, turkiy tillarda so‘zlovchi barcha xalqlar, ayniqsa islom diniga e’tiqod qiluvchi turkiy xalqlar bir millatdir va Turkiyaning hukmronligi ostida g‘arbda Bolqon yarim orolidan Uzoq Sharqqa qadar hududlarni o‘z ichiga oluvchi Turon davlatiga birlashishi kerak. Dastlab panturkizm turkiylik, ya’ni turk millatchiligining davomi sifatida rivojlandi. Ammo 1908 yilgi “Yosh Turklar” inqilobidan so‘ng unda turk millatchiligidan ko‘ra ko‘proq panturkizm go‘yasi ustuvor bo‘la boshladidi, 1-Jahon urushi (1914 – 1918 yy.) arafasuda esa turkiylik g‘oyasini butunlay siqib chiqardi. Panturkizm 1914-1918 yillar birinchi jahon urushi arafasida ustunlik qila boshladidi. Yosh Turkarning “Ittihod va taraqqiy” (Ittifoq va rivojlanish) partiyasi o‘z siyosiy dasturining asosi sifatida panturkizmni qabul qildi. Panislomizm bilan bir qatorda, panturkizm ham Yosh Turklarga Rossiyaga qarshi urushda Turkiyaning ishtirok etishi uchun targ‘ibotning asosiy vositasi sifatida xizmat qildi. Turkiyaning 1-Jahon urushida Germaniya tomonida ishtirok etishi Rossiya imperiyasining rasmiy doiralarida bu harakatga qarshi kurashni yanada chuqurlashtirishga olib keldi. Panturkizm go‘yasi Markaziy Osiyo va Kavkazda mustaqillikka erishishga intilayotgan ayrim milliy partiyalari va harakatlari (masalan, “jadidchilik” harakati) tomonidan faol targ‘ibot qilindi. Kavkazorti va Turkistondagi rus mustamlakachilarining hokimiyyati mahalliy aholining Chor Rossiyasi zulmiga qarshi ko‘tarilgan barcha xalq qo‘zg‘olonlarining asosida panaturkizm va panislomizm g‘oyalari yotibdi, deb ko‘rsatishga harakat qildi. Natijada, Kavkazorti va Turkistondagi barcha milliy ozodlik harakatlari rasmiy ravishda “panturkchilar” deb e’lon qilindi.

Rossiyada Chor hokimiyyati qulaganidan keyin “qizil ruslar” (bolsheviklar) bu siyosatni davom ettirib, Markaziy Osiyo va Kavkazortidagi milliy ziylolilarning sho‘rolarga qarshi barcha harakatlarini

panturkizm va panislomizm bilan bog‘ladilar. Ayniqsa 20-30-yillarda milliy ziyolilarga qarshi qattiq va shafqatsiz quvg‘inlar va ta’qiblar olib borilib, ular panturkizm va panislomizm g‘oyalariga moyillikda ayblangandilar. 2-Jahon urushi (1939–1945) davomida Turkiya panturkchilari yana ham faollashib, nemis fashistlari bilan yaqin aloqa o‘rnatdilar, sho‘rolarga qarshi ashaddiy targ‘ibot olib bordilar va ularning yerlarini bosib olishga chaqirdilar. 2-Jahon urushidan keyin Turkiyada panturkchilik go‘yalari antikommunizm siyosatining asosiy vositasi sifatida ishlatildi. Shuning uchun sho‘rolarning ijtimoiy-siyosiy adabiyotida panturkchilik o‘ta aksilinqilobiy millatchi harakatlardan biri sifatida talqin etilgan.

Aslida turkiy xalqlarning birlashuvi va birligi g‘oyasida hech qanday salbiy jihat yo‘q. Bu go‘ya ayniqsa bugungi kunda dolzarb bo‘lib, jahon miqqosida kechayotgan yaqinlashuv, birlashuv va umumlashuv jarayonlari, turli xalqlar va mamlakatlar iqtisodiy, siyosiy va harbiy tuzilmalarga birlashuvi jarayoni bilan hamohangdir. Misol uchun XX asrning ikkinchi yarmida Yevropa xalqlarini yagona konfederasiya – Yevropa Ittifoqiga birlashtirish g‘oyasi ilgari surildi va muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Arab davlatlari Arab mamlakatlari Arab Mamlakatlari Ittifoqiga birlashdilar, shunga o‘xhash tashkilotlarga Afrika, Lotin Amerikasi, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari ham birlashtirilganlar. Slavyan xalqlari ham o‘zlarining Slavyan xalqlari Ittifoqiga birlashishga harakat qildilar, lekin bu g‘oya amalga oshmadi. Ushbu jarayonlarning oldida turkiy xalqlarning madaniy, iqtisodiy va hatto siyosiy birlashuvi g‘oyasi mantiqan tabiiy va qonuniy ko‘rinadi. Masala faqat uni qanday shaklda amalga oshirishdadir.

Sho‘rolar Ittifoqining parchalanishi va aholisi asosan turkiy tilli xalqlardan iborat yangi mustaqil davlatlarning tashkil topishi natijasida turkiy xalqlarning birlashishi uchun yangi istiqbollar ochildi. Turkiya bilan sobiq Sho‘rolar davlati hududlarida tashkil topgan mustaqil davlatlar o‘rtasida ilmiy, madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalar faollandi. Shunda rus tilining o‘rniga qaysi til turkiy tilli xalqlar o‘rtasida xalqaro muloqot tili vazifasini o‘tashi kerak degan savol o‘rtaga qo‘yildi. Turk ziyolilari, shu jumladan tarixchi olimlarining fikricha, bu vazifani shubhasiz Turkiyaning davlat tili bajarishi lozim. Bu yondashuvda 1-Jahon urushi davridagi panturkizm g‘oyasining ta’siri yaqqol sezilib turibdi. O‘sha vaqtida ko‘pchilik musulmon xalqlarini birlashtirib turgan Usmonli imperiyasi tugatilgandan keyin turklar uchun yangi siyosiy birlashuv tuzish zarurati tug‘ilgan edi. Menimcha har qanday birlashuv uning a’zolarining tengligi asosida qurilishi kerak. Shundagina bu birlashuv uzoq davom etadi va odamlarga foyda keltiradi. O‘zimning turkey xalqlar o‘rtasidagi xalqaro muloqot tili haqidagi fikrlarimni men 4-bobning 2-qismida bayon etdim.

Typklar Turkistonni, ya’ni Markaziy Osiyonni o‘zlarining boshlang‘ich vatani deb hisoblaydilar va “ota yurti” deb ataydilar. Shuning uchun turk olimlari Usmonli imperiyasi davridan boshlab bu mintaqaning tarixiga katta qiziqish bildirib kelganlar. Turkiyada eng yaxshi va chuqur o‘rganilgan davr Saljqiylar davri hisoblanadi, chunki ular Usmonli turklarining ajodolari bo‘lib, turklarning Yaqin Sharqdagi davlatchiligiga asos solganlar. Markaziy Osiyo respublikalai mustaqillikka erishgandan va Turkiya bilan yaqin aloqalar o‘rnatilgandan keyin turk olimlarining Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi va madaniyatiga qiziqishi yana ham oshdi. Ularning eng ko‘p qiziqishi Turk xoqonligi davriga qaratilgan, chunki bu davr barcha turkiy tilli xalqlarning umumiy tarixi hisoblanadi. Oxirgi yillarda Turkiyada Somoniylar, G‘aznaviylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar tarixiga oid maxsus tadqiqotlar ham nashr etildi. Bu yerda shuni ham aytib o‘tish lozimki, bu sulolalarning tarixi bizning ham tariximizning bir qismi hisoblanadi, lekin shunday bo‘lsa ham, O‘zbekistonda ularning tarixiga oid birorta ham ilmiy tadqiqot amalga oshirilmadi. Faqat Somoniylar tarixi bundan istisno, lekin bu tadqiqot ham mening shaxsiy tashabbusim bilan o‘z hisobimga yozildi va nashr etildi, rasmiy tashkilotlar tomonidan esa bunga hech qanday qiziqish bildirilmadi va hatto to‘sinqinliklar qilindi. Shunga umid qilardimki, kelajakda bizning siyosiy arboblar va ularga bo‘ysunuvchi ilmiy tashkilotlar e’tiborlarini faqat Temur va Temuriylar tarixiga qaratmasdan, tariximizning undan boshqa davrlarini ham o‘rganishga e’tibor beradilar.

Savollar:

1. *Usmonli turklarining tili turkey tillar oilasining qaysi guruhiга kiradi?*
2. *Tirkiston tarixining qaysi davri barcha turkey tilli xalqlar uchun umumiy hisoblanadi?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Turkiy tillarning rivojlanish tarixi.*
2. *Turkiston tarixi va tarixiy geografiyasuga oid turk tilidagi manbalar.*

1.4. Xitoyda Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi

Darsning o‘quv maqsadi. Xitoy tarixchiligidagi Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi haqida umumiy tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: Xitoy, Xitoy imperiyasi, Tang sulolasi, “G‘arbiy o‘lka”, turklar, Xitoy sayohatchilar, Sharqiy Turkiston.

Xitoy jahonning eng qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lib, bu yerda insoniyat taraqqiyotidagi ko‘pgina yutuqlar, xususan, Xitoyda choy, ipak, qog‘oz, miltiqdori va boshqalar ixtiro qilingan. Markaziy Osiyo esa Sharq bilan G‘arbni, Xitoyni Hindiston va Yaqin Sharq tamaddunlari bilan bog‘lovchi yo‘llar kesishuvida joylashgan. Shu sababli, Xitoy qadim zamonlardan boshlab bu strategik jihatdan o‘ta muhim mintaqaga qiziqish bildirib kelgan. Ba’zi arxeologik topilmalar shuni ko‘rsatadiki, jez davridayoq Xitoy bilan O‘zbekiston janubidagi Sopolli madaniyatini qoldirgan odamlar o‘rtasida aloqalar mavjud bo‘lgan. M. a. II asrda Xitoy elchisi Jang Jian Farg‘ona vodiysidagi Davan mamlakatiga safar qilib, uning, shuningdek, unga qo‘shni bo‘lgan xalqlar va mamlakatlarning batafsil tavsifini yozib qoldirgan. Shundan keyin Buyuk Ipak yo‘li faoliyatining boshlanishi tufayli Sharq va G‘arb o‘rtasida mustahkam aloqalar o‘rnatildi. Xitoy manbalarida, xususan, Tang sulolasi hukmronligi davrida (VI – X asrlar) tarixiy yilnomalarda Markaziy Osiyo davlatlari va xalqlari haqida juda ko‘p ma’lumotlar mavjud. Ayniqsa VII – VIII asrlarda Xitoy va Markaziy Osiyo o‘rtasida yaqin aloqalar o‘rnatilgan, chunki bu davrda Turk xoqonligi va uning tarkibiga kirgan Markaziy Osiy mintaqasi Xitoy imperiyasiga bo‘ysungan edi. Bu davrda Xitoydan Markaziy Osiyoga bir qator Buddaviy ziyoratchilar (Xuan Zang, Xui Chao va boshqalar) sayohat qilganlar, Markaziy Osiyoning turli mamlakatlaridan Xitoy imperatorining saroyiga to‘xtovsiz elchilar kelib turgan. Arablar Markaziy Osiyoni dosib olganidan keyin 751-yilda xitoy qo‘shinlari Talas daryosining bo‘yida bo‘lib o‘tgan mashhur jangda arablardan mag‘lubiyatga ucradi, shundan keyin Xitoy bilan Markaziy Osiyo o‘rtasidagi aloqalar uzildi. Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar tarixidagi yangi davr Qora-Xitoylar, ya’ni Kidanlar hukmronligi davriga (1140-1212) to‘g‘ri keladi, chunku bu davrda Markaziy Osiyo ma’lum bir vaqt davomida ularga bo‘ysungan edi. Shu sababli, Xitoy manbalarida Markaziy Osiyoning ushbu davri tarixi bo‘yicha ba’zi ma’lumotlar uchraydi. Biroq Markaziy Osiyo haqida batafsil ma’lumotlarni mo‘g‘ullar bosqinidan keyingi davrda – XIV – XV va XVI –

XVIII asrlarda yozilgan manbalarda topish mumkin. XVIII asrda Xitoy imperiyasining g‘arbga yurishi boshlanib, ular Sharqiy Turkistonni bosib oladilar, Xitoy tarixshunosligida bu yerlar “G‘arbiy o‘lka” (Xi yu) deb ataladi.

Bugungi kunda Xitoy nafaqat Osiyoda, balki butun dunyoda hukmronlik qilishi kutilayotgan va shubga da’vo qilayotgan dunyodagi eng yirik va kuchli davatlardan biridir. Iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va harbiy-siyosiy sohalarda erishilgan yutuqlar Xitoy intellektuallari orasida hududiy da’volarga ega bo’lgan buyuk davlatchilik va milliy-shovinistik qarashlarning tiklanishiga sababchi bo’ldi. Xitoyning ayrim ta’lim uchun mo‘ljallangan xaritalarida Xitoy davlatining hududi hozirgi chegaralarida ko‘rsatilmagan, balki Sibir, Uzoq Sharq, butun Markaziy Osiyo va unga qo‘sni mamlakatlarning boshqa hududlarini ham o‘z ichiga oladi. Hozirgi xitoy tarixshunosligida “G‘arbiy o‘lka” atamasi faqat Sharqiy Turkistonni emas, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasini anglatadi. Xitoy olimlarining fikricha, Tang sulolasi hukmronligi davrida Xitoy Turk xoqonligini bosib olgan va uning tarkibiga kirgan yuqorida sanab o‘tilgan barcha hududlar Xitoy imperiyasiga bo‘ysungan. Shu sababli, Xitoy bu hududlarni o‘ziga qaytarishi va Xitoy imperiyasining sobiq kuch-qudratini qayta tiklashi kerak.

Sho‘rolar davlati parchalanib ketganidan keyin, Xitoyning Markaziy Osiyondagi mustaqillikka erishgan yangi davlatlarga bo‘lgan qiziqishi sezilarli darajada oshdi, ushbu mintaqa xalqlarining tarixi va madaniyati bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar faollashdi. Hozirgi vaqtda Xitoyda Markaziy Osiyo bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni tadqiq etuvchi bir nechta ilmiy markazlar mavjud. Ulardan eng kattalari Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi huzuridagi Xalqaro muammolarni o‘rganish markazi hamda Sharqiy Evropa va Markaziy Osiyo ijtimoiy taraqqiyoti ilmiy-tadqiqot institutidir. Eng eski ilmiy-tadqiqot markazlaridan yana biri Xitoy Xalq Respublikasi Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi huzuridagi Sharqiy Evropa va Markaziy Osiyo institutidir. Xuddi shu Akademiya huzurida Tarix instituti mavjud bo‘lib, unda Markaziy Osiyo tarixi bo‘yicha tadqiqotlar olib boriladi. Bundan tashqari, Xitoy Xalq Respublikasidagz yana bir qator ilmiy-tadqiqot markazlarida Markaziy Osiyo muammolarini o‘rganish bo‘yicha maxsus bo‘limlar mavjud. Bunday markazlarning ko‘pligi, Markaziy Osiyo davlatlarini o‘rganish uchun ko‘p sonli olimlarning safarbar etilishi va ushbu mintaqaga bag‘ishlangan nashrlarning jadallahuvi Xitoy Xalq Respublikasining o‘zining g‘arbdagi qo‘snilariga bo‘lgan katta qiziqishidan dalolat beradi [Xodjaev 2007: 57-60].

Savollar:

1. Tang sulolasining tarixiga oid qaysi Xitoy manbalarini bilasiz?
2. Tang sulolasi davrida qaysi Xitoy sayyoohlari Markaziy Osiyoga tashrif buyurganlar?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Markaziy Osiyo tarixiga oid Xitoy manbalari.
2. Xitoy olimlarining Markaziy Osiyo tarixiga oid tadqiqotlari.

1.5. Rossiya Federasiyasi va Ukrainada Markaziy Osiyo tarixining o‘rganilishi

Darsning o‘quv maqsadi. Sho‘rolar davlati parchalangandan keyin Rossiya Federasiyasida tarixshunoslik sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarda bir yoqlama qarashlar va ularning tahlili. Konstruktivizm nazariyasining hayotga tatbiq etilishi va uning asl maqsadlari. Ukrainada olib borilayolgan millatchilik siyosati va tarixni yoritishdagi bir yoqlama qarashlar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: ruslar, slavyanlar, Rossiya imperiyasi, buyuk millatchilik shovinizmi, kolonializm, konstruktivizm, yagona millat konsepsiyasi, ukrain millatchiligi.

O‘zining o‘tmishini maqtash va tarixni soxtalashtirish kasalligi sobiq ittifoqning boshqa respublikalarida ham kuzatiladi. Masalan, Rossiyada akademik A.Fomenko va uning izdoshlari tarixni qayta ko‘rib chiqib, unda ruslarning tarixini qadimiy lashtirishga va ularning ahamiyatini bo‘rttirib ko‘rsatishga urinmoqdalar. Ularning fikriga ko‘ra, ruslar juda qadimiy xalq bo‘lib, qadimgi etrusklardan tortib Botuxon davriga qadar barcha manbalarda qayd etilgan. Butun Yevroсиyo qit’asining tarixi ham faqat ruslar tomonidan yaratilgan, bu yerda ulardan boshqa hech qanday xalqlar bo‘lmagan.

A.Fomenko va G.Nosovskiy ning “Novaya xronologiya Rusi” (“Rusning yangi yilnomasi”) nomli kitobida (M.: Faktorial, 1999) yozadilarki, Amir Temurning kelib chiqishi mo‘g‘ul emas, rus bo‘lgan, Mo‘g‘ul imperiyasi esa aslida Rus imperiyasi bo‘lgan (209-bet). Mo‘g‘ul-tatarlar aslida oddiy rus kazaklari edi. Shuning uchun aytish mumkinki, Amir Temur mo‘g‘ul bo‘lsa ham aslida u rus kazaklarining harbiy qo‘mondoni, ya’ni atamani edi (211-bet). Boshqa yerda esa uni “yevropalik” (208-bet) yoki “Yaik orti tatarlaridan” deb ataganlar (216-bet). Amir Temurning poytaxti aslida Samarqand emas Samara shahri bo‘lgan ekan (216-bet). Amir Temurning jahonning yarmini zabt etishdan asosiy maqsadi Urus-xon, ya’ni ruslarning yerlarini himoya qilish edi, va u bunga butun umrini bag‘shlagan edi. Uning raqibi To‘xtamish-xon aslida Dmitriy Donskoy bo‘lib, qirol Avgustning avlodи edi. Amir Temurning unga qarshi urushi esa Rus O‘rdasidagi hokimiyat uchun ichki kurash edi. Shuning uchun Temur uni bir necha marta yenggan bo‘lsa ham, o‘ldirmagan (215-bet). Mazkur “olimlar” ning fikricha, Chingiz-xon ham aslida buyuk rus knyazi Georgiy Danilovich, uning davlati esa Buyuk Rus-

Mo‘g‘ul Imperiyasi bo‘lgan ekan (112-bet). Botu-xon bu Georgiyning ukase Ivan Kalita edi, uning ismi ham ruscha “batya” (“batyushka”), ya’ni “ota” so‘zidan olingan ekan (120-bet).

Bu gaplar Rossiya Fanlar Akademiyasining haqiqiy a’zosining kitobida yozilga. Rossiyada bu kitobga hech kim hech qanday fikr bildirmagan. Demak tarixchi olimlar va rasmiy doiralar shu gaplarga qo‘shladilar va unga e’tiroz bildirmaydilar. Rossiyada shunday “olimlar” akademik darajasiga ko‘tarilgan ekan, demak u yerda bunday “olimlar” ga va bunday g‘ayri ilmiy yondashuvlarga talab bor, deb aytishimiz mumkin.

Ukrainalak tarixchi olim Yu.A.Shilov “Nachala sivilizasii” kitobida keltirilgan “Praistoriya Rusi VII tis. do n.e. – I tis. n.e.” nomli ma’ruzasida butun jahon tarixini qaytadan ko‘rib chiqishga harakat qilgan. Uning fikriga ko‘ra, jahondagi eng qadimgi madaniyat o‘chog‘i va davlatchilik an’analari Yaqin Sharq va Mesopotamiyada emas, balki Ukrainada vujudga kelgan. Qadimgi shumerlar aslida Ukraina hududidan kelib chiqqan va bu yerdan Yaqin Sharqqa ko‘chib borganlar. Ularning ilk davlati m. a. VII (ehtimol XII) ming yillikda Dunay va Dnestr daryolari bo‘ylarida joylashgan va “Aratta” deb atalgan. Aynan shu davlat o‘rnida keyinchalik Kiev Rusi tashkil topgan. Shunday qilib, unga ko‘ra, ukrain davlatchiligi ham uyg‘urlarnikidek mezolit va neolit davrlarida vujudga kelgan.

Ma’ruzada yana ta’kidlanishicha, “tarixning otasi” aslida Gerodot emas, balki A Enzu ismli bir hukmdor bo‘lib, u m. a. VII ming yillikda hozirgi Ukraina hududida tashkil topgan Shu nun davlatining tarixini yoza boshlagan [Rtveladze 2007: 10, 11, 12]. Bizga ma’lumki Gerodotning “tarixning otasi” deb atalishiga asosiy sabab uning eng qadimgi tarixchi bo‘lganligi emas. Ungacha ham tarixchilar bo‘lgan. Masalan, “Persika” asarini yozgan Ktesiy. Gerodot birinchi bo‘lib, butun jahon tarixini yozishga kirishgan. Shuning uchun ham uni “tarixning otasi” deb atashgan. Ktesiy va boshqalar esa ayrim hududlar, sulolalar va davrlarning tarixini yozganlar.

Rossiyalik olimlar Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining akademigi A.Tyunyaev, Kosmonavtika akademiyasining muxbir a’zosi P.Sviridov, tarixshunoslar P.Oleksenko, A.Asov va boshqalar bundan han uzoqqa ketdilar. Ularning fikriga ko‘ra, Buyuk Xitoy devorini xitoyliklar emas, balki ruslar qurbanlar. Xitoyning g‘arbiy qismi o‘rta asr Yevropa xaritalarida “Cataio” (Xitoy) deb atalgan, bu atama esa qadimgi Xitoy tilida “Rusya” ma’nosini anlatgan. Xitoy so‘zi esa *kiy* va *toy* so‘zlaridan iborat bo‘lib, “baland devor” ma’nosida ishlatalgan.¹ Mazkur xaritalarda

¹ Aslida esa Yevropa xaritashunoslari bu so‘zni arab geograflaridan o‘zlashtirgan bo‘lib, arablar Xita (y) yoki Qita (y) nomi ostida Xitoyning sharqiy qismidagi Kidan (Qora-

ko‘rsatilgan va butun Yevrosiyo hududlarini egallagan Tartaria mamlakatida qadim zamonlardan rus va slavyan xalqlari yashab kelganlar, qadimgi xitoyliklar esa ularni “oq xudolar” deb ataganlar.²

Xitoy hududidan topilgan neolit davriga oid sopol buyumlarning sathiga o‘yib chizilgan runik yozuvlar, yuqoridagi olimlarning fikricha, qadimgi rus runik yozuvining dastlabki shaklidir.³

Sharqiy Turkistondagi Tarim vohasidan topilgan neolit davriga oid mashhur mumlangan murdalar genetik jihatdan hozirgi ruslar bilan bir xil ekan. Demak bu topilmalar ham rus va slavyanlarning ajdodlari hisoblanadi.⁴ Ushbu mumlangan murdalarda jarrohlik amaliyotining izlari topilgan. Demak ruslarning ajdodlari tibbiyat sohasida qadimgi xitoyliklar va dunyoning boshqa xalqlaridan ham ko‘proq bilimga ega bo‘lganlar.⁵

Bundan 7,5 ming yil avval, slavyanlar va “ajdar xalqi”, ya’ni xitoyliklar o‘rtasida urush bo‘lgan. Bundan tashqari, 50-60 ming yil avval yashagan ruslarning ajdodlari butun Yevropa tamaddunining asoschilari bo‘lganlar, hatto “Odam Ato” ning o‘zi ham rus edi. “Ilmiy” qobiqqa o‘ralgan ushbu bema’niliklar Rossiyaning markaziy ko‘rsatuvarlarda “hujjatli film” sifatida efirga uzatiladi. Ushbu filmda qayd etilgan ma’lumotlar aslida mavjud, ammo ular butunlay noto‘g‘ri talqin qilingan va aniq maqsad bilan buzib ko‘rsatilgan. Rossiyaning davlat siyosatiga xizmat qiluvchi olimlari va “akademiklari” mana shunday bema’niliklardan ham qaytmaydi. Ularning maqsadi esa o‘sha-o‘sha: Yevrosiyodagi barcha bosib olingan yerlarini

xitoy) lar davlatini va u yerda hukm surgan Liao sulolasini (907 – 1125) nazarda tutganlar.

² O ‘rta asr Yevropa xaritalaridagi ushbu Tartaria joy nomiga birinchi bo‘lib qiziqish bildirgan Tataristonning sobiq prezidenti M.Shaymiev bu masalani juda ham erta ko‘targaniga pushaymon bo‘lgan bo‘lsa kerak. Axir u Tartaria joy nomi tatar xalqining tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan deb o‘ylagan edi-da. Aslida ham Tartaria deganda Yevropa xaritashunoslari rus kazaklari tomonidan bosib olingan Yevrosiyodagi turkey xalqlarning yerlarini, ya’ni Qozon, Kiyev, Qrim, Astarxon va Sibir xonliklarini nazarda tutganlar. Bu yerlar ilgari Oltin O‘rda tarkibiga, undan ham oldin esa Turk xoqonligining tarkibiga kirgan.

³ Aslida esa qadimgi rus runik yozushi qadimgi german va turk runic belgilari asosida vujudga kelgan, bu belgililar esa qadimgi turk runic yozushi vujudga kelishidan oldin III – V asrlarda Yevrosiyo hududlarida ishlataligan.

⁴ Aslida esa bu mumlangan murdalar qadimgi davrlarda Sharqiy Turkistonda yashagan eroniy va turkiy tilli xalqlarning ajdodlaridir.

⁵ Bu mumlangan murdalarning hozirgi Rossiya aholisi bilan genetic o‘xshashligi shu bilan izohlanadiki, ruslar Yevrosiyodagi bosib olingan mamlakatlar aholisining ko‘p qismini o‘ziga singdirib olgan. Hozirgi ruslarning tomirlaridagi qonda slavyanlarning ulushi juda kam qolgan bo‘lib, unda urol-oltoy xalqlarining ulushi asosiy miqdorni tashkil etadi. Tarim vohasidan topilgan mumlangan murdalarning kelib chiqishi ham xuddi shunday bo‘lgan.

abadiy o‘zlashtirish. Agar ilgari Rossiyada tarix fani sho‘rolar mafkurasiga xizmat qilgan bo‘lsa, endi u yangi rus mafkurasi – buyuk davlatchilik va milliy shovinism siyosatiga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda Rossiya Fanlar Akademiyasining Etnologiya va antropologiya institutida t.f.d. S.Abashin O‘rta Osiyo xalqlarining tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqda. Xususan, uning Farg‘ona vodiysining XIX – XX asr boshlaridagi aholisi haqidagi maqolasi [Abashin 2004] va “Nasionalizmi v Sredney Azii: v poiskax identichnosti» nomli kitobida [Abashin 2007] sartlar haqida fikr yuritilgan. S.Abashin hech qaysi mahalliy tillarni bilmay turib, asl hujjatlarni to‘la-to‘kis o‘rganmay turib, bu ilmiy masalaga siyosiy tus berishga harakat qilgan. O‘rta asrlardagi sartlarga oid manbalarni o‘rganish haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Unga ko‘ra, o‘zbek millati bolsheviklar tomonidan sun’iy ravishda tuzilgan vaqtida sartlarning huquqlari poymol etilgan va o‘zbeklar 1,7 millionli butun bir xalqni bir zumda yutib yuborganlar. Bu fikrni Qozog‘istonda faoliyat olib borayotgan amerikalik olim Djon Shoberlayn ham qo‘llab-quvvatlagan [Shoberlayn 1997: 55]. Go‘yoki ularning tadqiqot olib borishi uchun boshqa mavzu qurib qolganday. Undan ko‘ra, Rossiya va Amerikadagi yo‘q qilingan va yo‘qolib borayotgan xalqlarning tarixi bilan shug‘ullansang bo‘lmaydimi, deging keladi.

Hammaga ma’lumki, bu ikki mamlakatda qanchadan qancha kam va ko‘p sonli xalqlarning haq-huquqlari poymol qilingan va haligacha poymol qilib kelinmoqda. Agar o‘zbeklar mavjud bo‘laman “sart” larni bir zumda “yutib” yuborgan bo‘lsalar, bu Rossiya va Amerikada qilingan jinoyatlar oldida hech narsa emas. Hech kimga sir emaski, Yevrosiyoda rus bosqinchilari, Amerikada esa yevropalik istilochilar qanchadan qancha mahalliy aholini qirib tashlaganlar, tirik qolganlariga esa zo‘rlik bilan nasroniylik dinini “qabul” qildirganlar. Ular yana qandaydir haq-huquqlar haqida gapiradilar. Amerikadagi yevropalik istilochilar orasida maqol ham bor edi: “Yaxshi hindu – bu o‘lik hindudir”. Hozirgi kunda shunga o‘xshash maqol Amerika himoyasi ostida Falastinda harakat qilayotgan Isroil istilochilari orasida tarqagan: “Yaxshi falastinlik – bu o‘lik falastinlikdir”.⁶ Ko‘rib turibmizki, jahonda hech narsa o‘zgargani yo‘q. Bosqinchilar va istilochilarning qiyoғasi ko‘p asrlar ilgari qanday bo‘lgan bo‘lsa, hali ham o‘sha-o‘sha. O‘zbeklarga kelsak, ular hech qachon bosqinchilik qilmaganlar. Ular o‘zlarining yerlarida yashamoqdalar va boshqa xalqalarga hech qanday hududiy da’volari yo‘q (lekin bo‘lishi mumkin edi). Undan tashqari, ular qadimgi va yuksak rivojlangan madaniyat sohiblari sifatida ayrim qo‘shti xalqlardan farqli ravishda har

⁶ Hozirgi kunda Isroil “terrorchi dalat” va “yer yuzidagi eng ulkan qamoq” deya ta’riflanadi [Pappe 2017].

doin o‘zlarining mehmondo‘stligi va bag‘rikengligi bilan ajralib turganlar va hali ham ajralib turadilar.

Siyosatchi olimlarning sartlar masalasi bilan qiziqib qolganlarining asl maqsadi shundan iboratki, bu orqali ular ikki qardosh xalq, o‘zbeklar va tojiklar tarixidagi munozarali bo‘lgan muammolardan birini yana ham avj oldirish va ular orasiga rahna solishdir. Tojikiston olimlari va ularni qo‘llab-quvvatlab turuvchi rus siyosatshunoslariga ko‘ra, 1924-yilda O‘zbekiston Respublikasi tuzilganda, sartlar sun’iy ravishda o‘zbek xalqining tarkibiga kiritilgan, aslida esa ular tojiklar edi.

Ma’lumki sartlar masalasi bo‘yucha XX asr boshlarida Chor Rossiyasi davrida mutaxassislar va mahalliy ziyorolar, shu jumladan jadidlar, o‘rtasida keng ilmiy munozaralar olib borilgan. 1920-yillarda ham “qizil ruslar” O‘zbekiston Respublikasini tuzish arafasida bu masalaga batafsil to‘xtalganlar. Bu jarayonlarda mahalliy ziyorolar, xususan, Fayzulla Xo‘jaev, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvarqori singari jadidlar harakatining faol a‘zolari ham ishtirok etganlar. Natijada, shu xulosaga kelingan ediki, “sart” nomli xalq yo‘q. Chunki “sart” nomi ostida ma’lum bo‘lgan aholi guruhlari o‘zlarini “sart” deb atamaganlar. Bu ko‘chmanchilar o‘troq aholiga nisbatan qo‘llagan bir nom bo‘lgan. Shuning uchun uni muomaladan chiqarib, o‘rniga “o‘zbek” atamasi kengroq qo‘llanila boshlagan. Chunki bu etnik nom tarixiy asoslarga ega bo‘lgan. O‘zbekiston Respublikasining tashkil topishi bu “qizil ruslar” tomonidan o‘ylab topilgan sun’iy tuzilma bo‘lмаган, balki o‘zbek xalqining ruslar istilosi natijasida yo‘qotilgan davlatchiligining yangi tarixiy sharoitdagi tiklanishi edi. Albatta, bu “davlatchilik” huquqiy va hududiy jihatdan o‘zbek ziyorolari o‘ylaganidek amalga oshgani yo‘q. Chunki bu islohotlar “qizil ruslar” nazorati ostida olib borilgan. Ularning maqsadi esa o‘zbek davlatchiligini tiklash va rivojlantirish emas, balki uni mayda bo‘laklarga parchalab tashlash, tiklanishiga to‘sinqilik qiluvchi unsurlarni vujudga keltirish, ko‘paytirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘lgan. Bu jarayonlar amerikalik sharqshunos olim Adib Xolidning “Making Uzbekistan” (“O‘zbekistonning tashkil etilishi”) nomli kitobida batafsil yoritilgan [Khalid 2015].

Rossiya Federasiyasining o‘zida konstruktivizm nazariyasiga asoslangan sosiologik ta’limot davlat siyosatiga aylantirilgan. Unga ko‘ra, millatalarning vujudga kelishi va yashashi faqat siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq. “Millat” tushunchasi “davlat” tushunchasi bilan bog‘liq. Davlatchilik bo‘lsa, millat bor, yo‘q bo‘lsa, millat ham yo‘q. Shuning uchun Rossiya Federasiyasining barcha vatandoshlari yagona Rossiya millati, mayda millatlar esa etnik ruslardan farqli ravishda “rossiyanlar”, ya’ni rossiyaliklar hisoblanadi. Shu bilan birga ruslar ham “rossiyanlar”

deb ataladi. Ingliz tilida esa bu atamalar orasida hech qanday farq yo‘q va barcha rossiyaliklar “Russian” deb ataladi va “rus” deb tushuniladi. Bundan anglash mumkinki, bu siyosatning zaminida ruslarning bosib olingan yerlardagi hukmronligini abadiylashtirish, u yerlarning haqiqiy egalarini o‘zlariga singdirib olish va ularning milliy o‘zligini yo‘qotish maqsadlari yotadi. Xuddi shunday siyosat XX asrda sho‘rolar davlatida ham olib borilgan. U davrda “yagona sovet xalqi” g‘oyasi ilgari surilgan edi va bu bahonada barcha millatlarni ruslashtirish siyosati olib borilgan edi. Undan oldin esa bu siyosatni Rossiya imperiyasining hukumati bosib olingan koloniyaligiga nisbatan qo‘llagan edi. Demak, Sho‘rolar davlati parchalangandan keyin vujudga kelgan Rossiya Federasiysi Rossiya imperiyasining faqat bayrog‘i va gerbini, shuningdek, mustabid tuzumning madhiyasini meros qilib olmasdan, balki ularning boshqa millatlarga qarshi qaratilgan buyuk millatchilik va nasional-shovinistik siyosatini ham o‘ziga qurol qilib olgan.

1905-yilda nashr etilgan “Turkestanskie vedomosti” gazetasida shunday yozilgan edi: “Главная цель русско-туземных школ заключается в том, чтобы каждый мусульманин Туркестана говорил по возможности только по-русски и даже мыслил по-русски” (Rus-tuzem maktablarining asosiy maqsadi shundan iboratki, Turkistondagi har bir musulmon iloji bo‘lsa faqat ruscha so‘zlashsin va hattoki ruscha fikrlasin). Rus istilochilari yurtimizda bunga qisman erishdilar. Hozirgi kunda bizda o‘z ona tilini mensimaydigan va hatto o‘zining uyida faqat rus tilida so‘zlashadigan kimsalar ko‘p. Mustaqillik tufayli ruslashtirish siyosati biroz to‘xtatildi. Lekin bu siyosat o‘z vazifasini bajarib bo‘ldi. Chunki ilgari ruslashtirish majburiy kechgan bo‘lsa, endi bu jarayon ixtiyoriy bo‘lib qoldi. Rossiyada esa bu jarayonlar hali ham davlat siyosati darajasida nazorat etiladi. Buni biz har qadamda ko‘rishimiz mumkin. Masalan, 2014-yilda Sochida bo‘lib o‘tgan Olimpiya o‘yinlarining tantanali ochilishida namoyish etilgan teatr sahnasida faqat ruslarning tarixi, madaniy qadriyatları va ramzları aks etdirildi. Rossiyaning boshqa xalqlari haqida esa bir og‘iz ham eslatib o‘tilgani yo‘q. Bu hol rus kolonial siyosatining yangi qiyofasidan yaqqol namunadir. Rossiya imperiyasida ham milliy va ma‘muriy jihatdan ruslardan boshqa hech qanday xalqlar bo‘lmagan. Bosib olingan musulmon xalqlari (tatarlar, boshqirdlar, ozarbayjonlar, qrimliklar, o‘zbeklar, qozoqlar va h.k.) esa yakutlar va chukchalar singari madaniyatsiz tobe mayda xalqlar hisoblangan va hech qanday haq-huquqlarga ega bo‘lmagan.

Ayniqsa Rossiyada hokimiyatga V.Putin kelganidan so’ng, Rossiya imperiyasi va Sho‘rolar davlatining sobiq kuch-qudratini qayta tiklashga

qaratilgan davlat siyosati olib borila boshlandi.⁷ Shu bilan birga, ruslar tomonidan bosib olinib, imperiyaga “qo’shib olingan” yerlarning kam sonli mahalliy xalqlarining milliy huquqlari va erkinliklari yana ham cheklana boshlandi. Bunday vaziyatda ruslarga konstruktivizm ijtimoiy nazariyasini juda qo’l kelib, u sho’rolar olib borgan milliy siyosat bilan qandaydir o’xshashlikka ega edi. Konstruktivizm nazariyasiga ko’ra, hech bir xalqning etnogenezi va etnik tarixi yo‘q, millatlar esa faqat siyosiy tuzilmalar va jarayonlar natijasida tashkil topadi va shakllanadi. Shuning uchun Rossiyada faqat bitta millat – rossiya millati mavjud. Agar Sho’rolar davlatida olib borilgan milliy siyosatning yakuniy maqsadi barcha xalqlarni yagona sho’rolar millatiga aylantirish bo’lgan bo’lsa, bugungi kundagi Rossiyada faqat bir millat – rossiya millati mavjudligi haqida gapirishmoqda. Bugungi kunda Rossiya “kichik xalqlar”, ya’ni kam sonli xalqlar uchun haqiqiy qamoqxonaga aylangan bo’lib, ular “katta aka” ning etigi ostida xor bo’lib kelmoqda.⁸ Hech qanday shubha yo‘qki, Rossiya “Federatsiyasi” ga kiruvchi barcha kichik xalqlar vaqtin kelib yo‘q bo’lib ketadi. Ularning milliy rivojlanish istiqbollari juda cheklangan va, afsuski, ularning o’zlarining milliy kelajagi yo‘q.

V.Putin “Valday” munozara klubidagi (2018 yil 18 oktyabr, Sochi) o‘z nutqida milliy huquqlar uchun kurash olib boruvchilarni “g‘ordan chiqqan millatchilar”, o‘zini esa shunchaki “millatchi” deb atadi, ya’ni “rasmiy yoki davlat millatchisi” bo’lsa kerak. Bu bilan u o‘zining olib borayotgan kichik xalqlarni asta-sekin yutib yuborish va yo‘q qilishga qaratilgan ichki milliy siyosatining buyuk davlatchilik va milliy-shovinistik mohiyatini e’tirof etdi. Xitoy Xalq Respublikasidagi “kam sonli xalqlar” ning ahvoli bundan ham ayanchlidir.⁹

⁷ V.Putin hokimiyatasi aslida inqirozga uchragan communistlar (GKCHP) hokimiyatining yangi qiyofadagi ko‘rinishi bo’lib, unda turli xil millatchilar va irqchilar ko‘pchilikni tashkil etadi.

⁸ Qizig‘i shundaki, ruslar etikni, boshqa ko‘p kiyim turlari singari, qadimgi turklardan o‘zlashtirganlar. Hatto rus tilidagi “kabluk” so‘zi ham turkchadir. Ruslar o‘zlarining “lapti” deb atalgan milliy oyoq kiyimini Pyotr I davriga qadar keng ishlatganlar, etikni esa faqat boyarlar, ya’ni aslzodalar va boylar kiygan. Hozir esa ruslar “madaniyati past” kichik xalqlarga madaniyat olib kelganlar deb hisoblanadi.

⁹ Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bu yerda gap xorijdagini milliy jamoalar haqida emas, balki kichik xalqlarning milliy o‘chog‘idagi vaziyat haqida ketmoqda. Xorijda yashayotgan u yoki bu milliy jamoada ona tili unutilsa, bu kata fojia emas, chunki til millatning o‘z o‘chog‘ida rivojlanishda davom etadi. Lekin til millatning o‘z o‘chog‘ida rivojlanishdan to‘xtasa va muomaladan chiqsa, bu eng kata fojiadir. Rossiya va Xitoydagi kichik xalqlarning ahvoli esa aynan shundaydir.

Savollar:

1. Ruslarning ajdodlari kim bo'lgan va qaysi hududlarda yashaganlar?
2. Ukrainlar qaysi hududlarda yashaganlar?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Rossiya imperiyasining tashkil toposhi.
2. Ukraina davlatchiligining asoslari.

II bob. MARKAZIY OSIYOADAGI MUSTAQIL DAVLATLARNING MILLIY KONSEPSIYALARI

2.1. Xalqlarning kelib chiqishi haqida zamonaviy konsepsiylar

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyo mintaqasi tarixi tarixshunosligidagi nazariymuammolar va ularni yoritishdagi bir yoqlama yondashuvlar. Turkiston xalqlarining tarixiy mafkurasi. Chor Rossiyasining tarixiy konsepsiyasi. Sho‘rolar davrida tarixni yoritishdagi bir yoqlama qarashlar. Yevroposentrizm va indoyeropeizm g‘oyalari va ular asosida yotgan siyosiy maqsadlar. Xitoy va Eronda O‘rta Osiyo tarixinining yoritilishi. Markaziy Osiyo respublikalarida O‘rta Osiyo tarixini yoritishdagi bir yoqlama g‘ayriilmiy qarashlar. O‘zbekiston Respublikasida Markaziy Osiyo tarixini tadqiq etishdagi asosiy nazariy va g‘oyaviy asoslар bilan tanistirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: ruslar istilosi, sho‘rolar istibdodi, mustaqil respublikalar, milliy konsepsiylar, xalqlarning kelib chiqishi va nomlanishi, davlatchiligi, yashagan hududlari, madaniyati, milliy shovinism g‘oyalari.

Har bir xalq o‘zining tarixini, ajdodlarining merosini, ma’naviy ildizlarini bilishni istaydi – bu tabiiy hol. Busiz taraqqiyotning bo‘lishi mumkin emas. Har bir inson o‘z xalqining tarixini bilishi, boshqa xalqlarning madaniyatiga hurmat bilan qarashi lozim. Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi mushtaraklikda kechgan. Shuning uchun ularning kelajagi ham birgalikda barpo etilishi kerak. Lekin Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi va sho‘rolar davri istibdodi 125 yil davomida amalda mintaqa xalqlari o‘rtasiga rahna solib, ularni bir-biriga qarama-qarshi qilishga urinib keldi. Natijada bu xalqlar mustaqillikka erishgandan so‘ng sobiq sovet respublikalarining ba’zi olimlari orasida faqat o‘z xalqining tarixini ulug‘lab, ko‘kka ko‘tarib, uni soxtalashtirishga va qo‘shti xalqlarning mintaqa tarixida tutgan ahamiyatini kamsitishga urinishlar kuzatilmoqda. Sho‘rolar davrini qoralash bahonasida tarix sohasida erishilgan tadqiqot natijalari, ilmiy yutuqlar inkor etilib, asossiz va soxta xulosalar chiqarilmoqda.

Sho‘rolar davlati parchalangandan so‘ng Markaziy Osiyodagi mustaqillikka erishgan har bir respublikaning tarix sohasida o‘zining milliy konsepsiyasi shakllana bashladi. Yangi milliy ruhda qator-qator kitoblar, risolalar, maqolalar e’lon qilina boshladi. Bunday “tadqiqot” larni faqat

olimlar emas, balki mutaxassis bo‘lmagan va hatto ilm-fandan yiroq bo‘lgan, siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan shaxslar ham olib bordi. Bunday “tadqiqotchilar” orasida hatto davlat rahbarlarini ham ko‘rish mumkin. Bu esa muammoni hal etish o‘rniga, uni ilmiy munozara doirasidan chiqarib, unga siyosiy tus berdi va qo‘shni xalqlar o‘rtasiga rahna soldi. Ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda tarixning turli masalalari bo‘yicha keskin “munozralar” olib borildi. Ig‘vogarlik ruhida suratga olingan filmlar namoyish etildi. Bu tashviqotlarning maqsadini o‘sha olimlar odatda “yosh avlodni vatanzavarlik ruhida tarbiyalash” deb ko‘rsatishga urinadilar. Lekin bularning hammasini “axborot urushi” deb ta’riflash haqiqatga yaqinroq bo‘ladi.

Mustaqillikka erishgan sobiq ittifiq respublikalarida qabul qilingan milliy konsepsiyalarning o‘xshash tomonlari shundan iboratki, ularning har birida asosiy e’tibor bir xil masalalarga qaratilgan. U ham bo‘lsa, u yoki bu xalq *birinchidan*, eng qadimgi davlatchilikka ega; *ikkinchidan*, uning kelib chiqishi va nomlanishi juda qadimiyligi bo‘lgan; *uchinchidan*, uning yashagan yerlari juda katta hududlarni o‘z ichiga olgan; *to‘rtinchidan*, uning madaniyati juda yuqori bo‘lgan va qo‘shni xalqlarnikidan ustun turgan. Bunday yondashuv nafaqat Markaziy Osiyo respublikalari, balki sobiq ittifoqning boshqa respublikalari, xususan, Rossiya Federasiyasi va Ukrainadagi ba’zi olimlarga ham xos deb aytsak, adashmaymiz. U yerlarda nashr etilayotgan “ilmiy” asarlarni o‘qisangiz, ularda g‘ayriilmiy qarashlar, xususan, yevroposentrizm va indeoeuropeizm g‘oyalari hukmronligini yaqqol ko‘rasiz.

Savollar:

1. *Turkchilik bilan panturkizm atamalarining farqi nima?*
2. *Konstruktivizm nazariyasi nimadan iborat?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Yevroposentrizm nazariyasi haqida ma ’lumot bering.*
2. *Indoeuropeizm nazariyasi haqida ma ’lumot bering.*

2.2. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi konsepsiysi

Darsning o‘quv maqsadi. 1999 yilda O‘zbekiston tarixchilarini tomonidan qabul qilingan “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi konsepsiysi” bilan tanishtirish va uni tahlil etish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: ilk davlatchilik uyushmalari, forslar va yunonlar hukmronligi, kushonlar, Qang‘ davlati, eftaliylar, Turk xoqonligi, Arab xalifaligi, mo‘g‘ullar istilosи, Temuriylar davlati, Shayboniyalar davlati, O‘zbek xonliklari.

O‘zbekiston davlatchiligi tarixi konsepsiysi¹⁰ o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixini xolisona o‘rganishning ilmiy metodologiyasini shakllantirish, shu asosda o‘zbek xalqi va uning davlatchiliginin haqqoniy tarixini yaratish, xalqimizda, ayniqsa, yosh avlodda tarix tafakkurini va tarixiy xotira tuyg‘usini tarbiyalashga yo‘naltirilgan. Konsepsiyaning asosi, tayanch ilmiy g‘oyalari quyidagilardan iborat:

- o‘zbek xalqi davlatchiligi tarixi o‘troq, sun’iy sug‘orma dehqonchilik xo‘jaligi zaminida jez davridayoq Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida vujudga kela boshlagan. Uning tadrijiy davomida m. a. 1 ming yillik boshlarida yirik davlat uyushmalari sifatida rivoj topgan;

- o‘zbek davlatchiligi tarixi salkam 3 ming yildan buyon umumjahon tarixi hamda insoniyat jamiyatini taraqqiyotining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda. Turli nomlar bilan atalishi, sulolalarining almashinushi kabi omillar o‘zbek davlatchiligi tarixinining bosqichlari bo‘lib, uning bir butunligini va asosiy mohiyatini o‘zgartirmaydi;

- o‘zbek xalqi O‘zbekistonning mahalliy tub aholisi bo‘lib, uning antropologik qiyofasida O‘rta Osiyo – Farg‘ona antropologik tipi belgilari yetakchidir. O‘zbek xalqining tarixi Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida barcha qadimiy davrlarda kechgan etnik va madaniy jarayonlar bilan uzviy bog‘lanadi;

- O‘zbekiston hududlari sivilizasiysi O‘rta Osiyo xalqlari tarixiy-madaniy taraqqiyotining uzviy qismi sifatida ming yillar davomida jahoning ilg‘or sivilizasiyalari bilan har tomonlama aloqada rivojlandi hamda insoniyat sivilizasiyasining taraqqiyotiga ulkan ta’sir ko‘rsatdi. Bu makon umumjahon sivilizasiyasini rivojlantirishda xizmat qiluvchi ilg‘or g‘oyalarni yuzaga keltiruvchi, saqlovchi va dunyoga tarqatuvchilik rolini o‘ynab kelgan;

- konsepsiyaning manbashunoslik va tarixshunoslik asosini ulkan moddiy yodgorliklar majmui, yozma yodgorliklar va dunyo tarix fani

¹⁰ Ushbu konsepsiya “O‘zbekiston tarixi” jurnalining 1999-yil 1-sonida e’lon qilingan.

erishgan xolisona xulosalar tashkil etadi.

Konsepsiyaning maqsadi va vazifalari: O‘zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida o‘tmishning tarixiy tajribasi, o‘zbek xalqining qadimiy davlatchilik an’analari beqiyos ahamiyat kasb etishi O‘zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida o‘z aksini topgan. Shundan kelib chiqib, konsepsiada istiqlol mafkurasi va milliy o‘zlikni anglashning ajralmas qismi bo‘lgan o‘zbek davlatchiligining xolisona, haqqoniy tarixini yaratish maqsadi belgilanadi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish lozim:

- O‘zbekistonda ilk shaharsozlik madaniyatining shakllannshi va eng qadimgi davlatchilikning kelib chiqishida azaliy o‘troq aholining madaniyati hal qiluvchi omil bo‘lganini ko‘rsatib berish;
- m. a. IX – VIII va VII – VI asrlarda ilk davlatchiligidan taraqqiyoti jarayonini chuqur va izchil tadqiq etish;
- Ahamoniylar bosqini, makedoniyalik Iskandar va uning vorislari davrida qadimiy davlatchiligidan tiklash uchun kurashning mohiyatini ochib berish. Kushonlar sulolasiga davri tarixini o‘zbek davlatchiligi tarixi asosida chuqur tadqiq etish;
- Buyuk Ipak yo‘lining vujudga kelishi va uning ichki, tashqi savdo, iqtisodiy va madaniy munosabatlarda tutgan o‘rnini yoritib berish;
- ilk va rivojlangan o‘rtalarda o‘zbek davlatchiligining barcha bosqichlari tarixini yaxlit tizim sifatida o‘rganish va uning jahon sivilizasiyasi rivojlanishiga qo‘sishgan hissasini tadqiq etish;
- XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda markazlashgan o‘zbek davlatchiligi rivojlanishining o‘ziga xos qonuniyatlarini va xususiyatlarini, Amir Temurning jahon tarixida yirik davlat arbobi, madaniyat va fan homisiyasi sifatida tuggan o‘rnini chuqur yoritish;
- XVI – XIX asr birinchi yarmida o‘zbek davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlarini, siyosiy tarqoqlik sharoitida boshqarish usullaridagi nuqsonlarni, madaniyat, fan, san’at sohalaridagi tanazzul alomatlarini o‘rganish;
- o‘zbek xalqining Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va sho‘rolar istibdodi davridagi iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy ahvoliga xolisona baho berish;
- o‘zbek davlatchiligi tarixining istiqlol qo‘lga kiritilgandan keyingi eng yangi davrini har taraflama keng yoritish.

Konsepsiyaning g‘oyaviy asoslari:

- O‘zbekiston hududida tub aholi va uning ajdodlarining ko‘p ming yillar davomida o‘troq yashab kelganligi haqida mahalliy madaniyatning boy qadimgi ildizi va o‘tmishi bo‘lganligi;

- O'zbekistonda davlatchilikning vujudga kelishida va o'zbek xalqining shakllanish jarayonida tub o'troq dehqonchilik aholisining tutgan o'rni. Bugungi o'zbek xalqi tarixan shu zaminda yashagan xalq shajarasining davomi va shu yerda shakllangan turmush tarzi va madaniyatining to'laqonli vorisi ekanligi;

- O'zbekistonda davlatchilikning kelib chiqishida m. a. III va II ming yilliklarda shakllangan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik xo'jaligi, hunarmandchilik va mahsulot almashishning asosiy omil ekanligi;

- O'zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishida ilk shaharlarning muhim ahamiyati;

- O'zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va rivojlanishi jarayonida tub aholining urf-odatlari, an'analari va ma'naviyati, azaliy ijtimoiylashuv birlashtiruvchi omil bo'lganligi;

- O'zbekistonning ilk davlatchiligi tarixi geografik, hududiy ma'noda nafaqat bugungi O'zbekiston, balki butun O'rta Osiyo miqyosidagi qadimiyligi, madaniy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni qamrab olgan siyosiy-ijtimoiy hodisa sifatida talqin qilinmog'i lozim;

- O'zbekistonda davlatchilikning shakllanishi va bosqichma-bosqich rivojlanishi, o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarini, uning jahon sivilizasiyasi rivojlanishi va dunyo xalqlari tarixidagi tutgan muhim o'rni.

O'zbekiston tarixida quyidagi davrlar alohida ahamiyatga ega:

1. O'zbekistonda davlatchilikka o'tish davri (m. a. II ming yillikning o'rtalari va ikkinchi yarmi);

2. Ilk davlat uyushmalari (m. a. I ming yillikning birinchi yarmi);

3. Qadimgi davr davlatchiligi (m. a. IV asr oxiri – milodiy IV asr);

4. Ilk o'rta asrlar davlatchiligi (V – VIII asr o'rtalarigacha);

5. Rivojlangan o'rta asrlar davlatchiligi (IX – XIII asr boshlari);

6. Amir Temur va Temuriylar davlati (XIV asr ikkinchi yarmi – XVI asr boshlari);

7. XVI – XIX asr birinchi yarmi davlatchiligi;

8. O'zbekiston XIX asr 2-yarmi va XX asr mustamlakachiligi davrida;

9. Mustaqil O'zbekiston davlatchiligi bir necha ming yillik o'zbek davlatchiligining davomi va vorisi sifatida.

Konsepsiya mazmunining asosiy yo'naliishlari:

O'zbekiston jahon sivilizasiyasi o'choqlaridan biri. O'zbek xalqining dunyo tarixi va madaniyatining taraqqiyotida tutgan o'rni. Qadimgi ijtimoiy iqtisodiy, madaniy va siyosiy jarayonlarni o'rganishda arxeologik va yozma manbalarning ahamiyati. Qadimgi O'zbekiston ilk yozma manbalarda "Avesto" tarixiy manba sifatida;

- dastlabki davlatchilikka o‘tish davri. M. a. 1500 – 1000-yillar. Davlatchilikning shakllanishida ishlab chiqaruvchi xo‘jalikning ahamiyati. Sun’iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik, manzilgohlar va binokorlik, hunarmandchilik, savdo-sotiq, madaniy aloqalar, o‘troq dehqonchilik va chorvador aholining o‘zaro munosabatlari;
 - m. a. IX – VIII asrlar. Etnik va madaniy jarayonlar. “Avesto” dagi harbiy-siyosiy uyushmalar haqida ma’lumotlar. Arxeologik tadqiqotlarning natijalari;
 - m. a. VII – VI asrlarda O‘zbekiston hududida ilk davlatchilikning vujudga kelishi. Tarixiy geografiya. Tarixiy-madaniy viloyatlar. Davlatchilikning rivojlanishiga o‘troq dehqonchilik aholisining qo‘sghan hissasi. Qadimgi qabilalar va xalqlar. Moddiy va ma’naviy madaniyat. Madaniy aloqalar.
- O‘zbek davlatchiligi bosqichlari:
- Qadimgi Xorazm. Baktriya. Sug‘d. O‘zbekiston hududida eng qadimgi shaharlarning rivojlanishi;
 - Ahamoniylar tarkibida. Ahamoniylar davlatining tugashi;
 - Makedoniyalik Iskandar yurishlari. Bosqinchilarga qarshi kurash. Yunonlar hokimiyatining o‘rnatalishi. Boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot;
 - Salavka hokimiyati. Mustaqillikka intilish. Yunon-Baktriya davlati. Siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar;
 - Yuechji qabilalari. Yunon-Baktriya podsholigining tugatilishi. Kushonlar sulolasи. Boshqaruv usullari va ma’muriy tizimi. Ichki ahvoli va tashqi munosabatlari. Xo‘jalik va madaniyat. Dinlar va e’tiqodlar. Yozma yodgorliklar;
 - m. a. VI – milodiy IV asr boshlarida Xorazm. Yozma yodgorliklar asosida madaniy, xo‘jalik va ijtimoiy hayot tahlili;
 - Afrig‘ilar sulolasи. Xorazmning o‘zbek davlatchiligi tarixida tutgan o‘rni va ahamiyati;
 - Qang‘ va Dovon (Parkana) davlatchiligi davri;
 - Sug‘d va xalqaro savdo. O‘zbekistonning qulay geografik mintaqada joylashganligi. Buyuk Ipak yo‘li. Sharq va G‘arb mamlakatlarining o‘zaro ta’sir jarayonlari;
 - Sosoniylar va O‘rta Osiyo munosabatlari. Xiyoniylar, Kidariylar, Eftaliylar va Sosoniylar. Eftaliylar davlatchiligi. Ichki tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari, madaniyat;
 - Mahalliy xalqlar va Turk xoqonligi. Etnik jarayonlar. Boshqaruv tizimi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Madaniy jarayon;

- O‘zbekiston hududlari arablar istilosi davrida. Istiloga qarshi kurash. Xalifalik hokimiyatining o‘rnatalishi. Yangi boshqaruv tizimi. Islom dinining tarqalishi;

- IX – XIII asr boshlarida o‘zbek davlatchiligi tarixida Tohiriylar, Somoniylar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar sulolalari. Ularning boshqaruv tizimi, ichki va tashqi siyosati. Iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlar. Soliq tizimi. Huquq. Madaniy, ma’naviy hayot. Islom huquqshunosligi;

- Mo‘g‘ullar istibdodi davri. Ozodlik uchun kurash. Chig‘atoy ulusi. Boshqaruv tizimi. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-tarixiy vaziyat. Sarbadorlar qo‘zg‘oloni va xalqning ozodlik uchun kurashi. Mo‘g‘ullar hukmronligining tugashi;

- Amir Temur davlatining tashkil topishi. XIV asrning ikkinchi yarmida O‘rta Osiyodagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvol. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi va markazlashgan davlat tuzishi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Soliqlar tizimi. Huquq. Xalqaro diplomatik munosabatlar va savdo. Fan, madaniyat, san’atning taraqqiyoti. Amir Temurning jahon tarixida tutgan o‘rni. Temuriylar davrida Movarounnahr va Xuroson. Shohruh va Ulug‘bek;

- Shayboniylar, Ashtarxoniylar va Mang‘itlar sulolalari. O‘rta Osiyoda Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari o‘zbek davlatchiligining siyosiy parokandalik davri sifatida. Ulardagi boshqaruv tizimining o‘ziga xos xususiyatlari. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar. Soliqlar. Davlatchilikning huquqiy asoslari. Xalqaro savdo va diplomatik munosabatlar rivoji. Fan, maorif, san’at va madaniyat. Adabiyot va tarixnavislik;

- Chor Rossiyasining O‘rta Osiyoni bosib olishi. Mustamlakachilik boshqaruv tizimining o‘rnatalishi. Buxoro va Xiva xonliklariga nisbatan qo‘llangan Rossiya protektorati maqomining mohiyati. Milliy ozodlik uchun kurash. Xalq qo‘zg‘olnlari. Jadidchilik harakati;

- Turkistonda sho‘rolar istibdodining qaror topishi;

- Turkistonda ozodlik va mustaqillik uchun kurash. Turkiston muxtoriyati. Uning tugatilishi sabablari. Buxoro amirligi va Xiva xonligining tugatilishi. “Xalq jumhuriyat”larining tashkil topishi. Sho‘rolarning “milliy siyosati”. Istiqlolchilik harakati va uning yengilish sabablari;

- “milliy davlat chegaralanishi” ning siyosiy mohiyati. Totalitar tuzumning qaror topishi. Sanoatlashtirish, yer-suv islohoti, madaniy inqilob va ularning oqibatlari. Sho‘rolarning qatag‘on siyosati qurbanlari. O‘zbekiston Ikkinchi Jahon urushi yillarda. 50 – 80-yillarda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayot, fan va madaniyat. Ma’muriy buyruqbozlik tizimining kuchayishi. Sho‘rolar hokimiyati va davlatining barham topishi;

- O‘zbek davlatchiligi tarixidagi eng yangi davr. Mustaqil O‘zbekiston davlatining tashkil topishi. O‘zbekistonning o‘ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo‘li. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilinishi va uning tarixiy ahamiyati. O‘zbekistonda huquqiy demokratik fuqarolik davlati asoslarining shakllantirilishi. Islohotlar va yangilanish. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot. Xalq ta’limi, fan va madaniyat. Ma’naviyat va ma’rifat, milliy va diniy an’analar, progressiv urf-odatlar va ma’naviy qadriyatlarining tiklanishi. O‘zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi.

Savollar:

1. *O‘zbekiston nomi qachon vujudga kelgan va qaysi hududlarga nisbatan ishlataligani?*
2. *O‘zbekiston atamasi qaysi tarixiy joy nomlarining davomchisi hisoblanadi?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *O‘rta Osiyoning tarixiy nomlari.*
2. *Tarixiy xaritalarda O‘zbekiston atamasi.*

2.3. Tojikiston Respublikasining milliy konsepsiysi

Darsning o‘quv maqsadi. Sobiq ittifoq parchalangandan so‘ng Tojikiston Respublikasida avj olgan millatchilik g‘oyalari haqida tushunchalar berish va ularni tahlil etish. Tojikiston olimlari tomonidan nashr etilayotgan kitoblarning mazmun mohiyati bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: paniranizm, milliy shovinizm, nasizm, fashizm, oriyalar, irqchilik, tojiklar, tarixni soxtalashtirish.

N.Negmatovning “Tadjikskiy fenomen: teoriya i istoriya” (Dushanbe, 1997) nomli kitobida “Tarixiy Tojikiston” tushunchasi muomalaga kiritilgan. Unga ko‘ra, tarixda bu afsonaviy Tojikiston butun O‘rta Osiyo hududlarini o‘z ichiga olib, tarix sahnasida m. a. III – II ming yilliklardan boshlab mavjud bo‘lgan va o‘sha davrlarda Bobil, xettlar, finikiyaliklar va boshqa qadimiy xalqlar bilan aloqa qilgan (21-bet). N.Negmatovning yozishicha, turklar O‘rta Osiyoda faqat madaniy qadriyatlarni vayron qilish va boshqa xalqlarni yo‘q qilish bilan shug‘ullanganlar (324-bet). Uning kitobida Yusuf Xos Hojib, Mahmud Koshg‘ariy, Ahmad Yassaviy, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy singari O‘rta Osiyo tarixida o‘chmas iz qoldirgan buyuk turk hukmdorlari, olimlari va shoirlari haqida bir og‘iz ham so‘z yuritilmagan. O‘rta Osiyoda Somoniylar, G‘aznaviylar, Qoraxoniyalar singari turk sulolalari hukmronligi davrida tojik halqining madaniyati gurkirab rivojlanganligi haqida ham hech gap aytilmagan [Rtveladze 2007: 10].

N.Negmatovga ko‘ra, tojiklar qadimda nafaqat O‘rta Osiyo, balki butun Markaziy Osiyo va Sibir hududlarida yashaganlar. Sibirdagi Ob, Angara daryolari, Baykal ko‘lining nomlari tojik tilidan olingan (313, 314 betlar). Bunday talqinlar hech qanday asosga ega emas. O‘zi arxeolog bo‘lsa ham, tilshunoslik sohasida fikr yuritmoqda. Chunki uning asl maqsadi hammaga ma’lum, va unga yetishish uchun barcha choralar maqbul. Ilmiy tadqiqot natijalari va boshqa- larning fikrlari esa ahamiyatsiz [Sagdullaev 2007: 32].

Tojikiston prezidenti E.Rahmonning “Tadjiki v zerkale istorii. Kn. 1. Ot Ariysev do Samanidov” (London) nomli kitobida ham bir qancha g‘ayri ilmiy qarashlar ilgari surilgan. Xususan, 1. Tojiklar eng qadimgi davlatchilikka ega; 2. Tojik xalqi O‘rta Osiyo mintaqasidagi eng qadimgi xalqdir; 3. Tojik xalqi qadimdan butun Markaziy Osiyo hududida yashab kelgan; 4. Tojik xalqi O‘rta Osiyo hududida yaratilgan barcha madaniy qadriyatlar (dehqonchilik va shaharchilik madaniyati, hunarmadchilik mahsulotlari, savdo aloqalari, san’at asarlari, ilm-fan va h.k.) ning

yaraturuvchisi va egasidir. Turklar esa bu madaniyatni tojiklardan o‘rganganlar va ularning barcha madaniy qadriyatlarini o‘zlashtirib olganlar (125, 150, 218-betlar).

Tarixdan ma’lumki, O‘rta Osiyoda qadimdan dravid va urol-oltoy tillarida, shu jumladan, qadimgi turk tilida so‘zlashuvchi xalqlar yashagan (Anov, Kalta Minor, Hisor madaniyatları). M.a. II ming yillikda oriy qabilalari bostirib kelgandan keyin esa sug‘dlar, xorazmliklar, boxtariylar, parfyanlar, saklar va boshqa eroniy tillarda so‘zlashuvchi xalqlar tashkil topgan. Ularning tili sharqiy eroniy tillar oilasiga mansub bo‘lgan. Tojik tili esa g‘arbiy eroniy tillar oilasiga mansub bo‘lib, O‘rta Osiyoda kelgindi til hisoblanadi va arablar istilosi davrida tarqala boshlagan. Tojik etnonimining o‘zi ham dastlab “arab” ma’nosini bildirgan. Davlatchilik va madaniy qadriyatlar haqidagi da’volar ham quruq safsatadan bo‘lak narsa emas. Forslar (tojiklar) Markaziy Osiyoda hech qachon o‘z davlatchiligidagi va hatto o‘z ma’muriy hududiga ega bo‘lmaganlar. Bu yerda ular har doim kelgindi unsur hisoblanganlar va mahalliy turk aholi orasida yashab kelganlar.

Umuman olganda, Tojikiston olimlari va siyosatchilari tomonidan ilgari surilayotgan g‘oyalar va da’volarning XX asr birinchi yarmida nemis fashistlari tomonidan asos solingan “oriylar” haqidagi shovinistik nazariyasi bilan juda o‘xhash tomonlari ko‘p. A.Hitler nemislarni oliy irq deb e’lon qilgani singari E.Rahmon ham tojiklarni “oriylar”, ya’ni oliy irqning avlodlari deb hisoblaydi. Nemislар irqi va madaniy jihatdan o‘zlarini slavyanlar, fransuzlar, inglizlar va boshqa Yevropa xalqlaridan ustun qo‘ygan bo‘lsalar, hozirgi kunda tojiklar xuddi shunday o‘zlarini Markaziy Osiyoning turk tilida so‘zlashuvchi halqlaridan ustun qo‘ymoqdalar [Rtveladze 2007: 14 – 19].

Millatchilik g‘oyalari ayniqsa R.Masovning kitoblarida avjiga chiqqan. Uning yozishicha, o‘zbeklar O‘rta Osiyoda kelgindi xalq bo‘lib, mo‘g‘ul va turklardan, qipchoqlardan tarqalganlar. Shuni aytish joizki, R.Masov ilgari etnogenetika va etnik tarix yoki qadimgi davr tarixi bilan hech qachon shug‘ullanmagan. U sho‘rolar davri tarixi va siyosati sohasida ilmiy ishlар olib borgan. Hozir esa o‘zini qadimgi davr tarixi bo‘yicha eng yirik mutaxassislar qatorida ko‘radi. Shuni aytish joizki, uning barcha “ilmiy ishlari” turk tilida so‘zlashuvchi xalqlarga qarshi qaratilgan [Sagdullaev 2007: 26 – 27].

Tojikistonlik olimlar o‘zlarining “oriylar” haqidagi mafkurasini yoqlab aytadilariki, “bizning oriylar harakati XX asr birinchi yarmida Germaniyadagi fashistlarning oriylar haqidagi radikal millatchi oqimlariga aloqasi yo‘q. Bizning maqsadimiz yangi avlodni milliy o‘zligini anglash ruhida tarbiyalashdir”. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, nemis

fashistlari ham dastlab o‘z oldilariga xuddi shunday maqsadlarni qo‘ygan edilar. Keyinchalik esa ular o‘ta millatchilik va shovinistik g‘oyalari bilan sug‘orilgan irqchilik ta’limotiga aylandi. Bu g‘oyalar oxir oqibatda qanday ofatlarga olib borgani hamma ma’lum. Tojikistonda 2006-yil “oriylar sivilizasiyasi yili” deb e’lon qilinganda, “svastika” ramzining ma’nolari va talqinlari keng targ‘ib etildi. Tojikistondagi tojik bo‘lmagan xalqlar, shu jumladan o‘zbeklar, va 2-Jahon urushi qatnashchilari, shu jumladan tojiklar, bundan o‘zlarini juda noqulay sezdilar. Chunki bu ramz ularga “buyuk oriylar madaniyati” ni emas, nemis fashistlarini va 2-Jahon urushining qonli voqealarini eslatdi [Sagdullaev 2007: 30, 31].

Tojik olimlari tarixiy shaxslarni hech qanday asossiz o‘zlashtirish sohasida ham faol harakat qilmoqdalar. Xususan, N.Negmatov o‘zining maqolalaridan birida yozadiki, saklarning Tomiris ismli malikasi aslida xo‘jandlik bo‘lgan. Lekin mavjud manbalarda bunday ma’lumotlar yo‘q. Arxeologik materiallar ham bunday da‘volarga asos bo‘la olmaydi [Sagdullaev 2007: 41, 42].

Tojik olimi S.Bobomulloyevning “Tadjiki (v istochnikax i trudax issledovatelyey)” (Dushanbe, 2013) nomli kitobida “tojik” etnonimining tarixiy manbalarda ishlatilishi haqida so‘z yuritilgan. Unda qadimgi arman manbalarida qayd etilgan “tacik/tajik” lar hozirgi tojik xalqining ajdodlari deb ko‘rsatilgan (12 – 15 betlar).

Bir jihatdan bu navbatdagi tarixni soxtalashtirish bo‘lib, oriylar, “Tarixiy Tojikiston”, Somoniylarning kelib chiqishi va “tojik xalqi” singari afsonadan bo‘lak narsa emas. Bu afsonalarning hammasi “yosh avlodning milliy o‘zligini tarbiyalash” uchun emas, balki uni chalg‘itish va ongini zaharlashga xizmat qiladi. Tarixiy haqiqatni bilmaslik yoki uni yashirish esa o‘z navbatida yoshlarni yana ham ahmoq qilish va laqillatishga olib keladi. Boshqa jihatdan bu bilan tojik olimlari bilmaslikdan yoki ongli ravishda hozirgi tojiklarning ajdodlari oriylar emas, arablar ekanligini tan oladilar.

Tarixiy haqiqat esa shundan iboratki, nafaqat qadimgi arman manbalari, balki VI – VII asrlarga mansub o‘rta fors (pahlaviy) manbalarida ham *tazik/tajik/tacik* etnonimi ko‘p tilga olingan bo‘lib, ularda arablar nazarda tutilgan. Arman manbalarida Tackastan/Tajkastan, ya’ni Tojikiston toponimi ham uchraydi va turli davrlarda har xil hududlarga nisbatan ishlatilgan. Ilk o‘rta asrlarda (V – VII asrlar) armanlar bu atamani Suriya, Falastin, Iordaniya va Sinay yarim orolini o‘z ichiga oluvchi hududga nisbatan ishlatganlar, va Arvastan, ya’ni Arabiston toponimining sinonimi deb bilganlar. Arab xalifaligi (VIII – XII asrlar) va mo‘g‘ullar davrida (XIII – XIV asrlar) armanlar *tazik/tajik/tacik* atamasini umuman musulmonlarga nisbatan ishlatganlar. Usmonli imperiyasi davrida (XVI –

XIX asrlar) esa *tacik/tajik* atamasi barcha musulmonlarni, Tackastan/Tajkastan toponimi esa Usmonli imperiyasini bildirgan. Qadimgi turk tilidagi manbalarda ham *tojik* atamasi qayd etilgan va asosan forslarga nisbatan ishlatalgan. Yangi fors tilidagi manbalarda ham *tozik/tojik* atamasi uchraydi va turk atamasining muqobil shakli sifatida tushuniladi. Shu bilan birga forslar o‘zlarini tojiklardan farqlaganlar. O‘rta asrlarda yozilgan izohli lug‘atlarga ko‘ra, “*tojik*” atamasi “arablarining Eronda tug‘ilgan bolasi” ma’nosini bildirgan. Bu ma’lumotlardan ayon bo‘ladiki, *tojiklar* sof arab yoki sof fors bo‘lmaganlar, balki arablar bilan forslarning qorishuvidan hosil bo‘lgan bir qatlam bo‘lganlar. Shuning uchun ular ikki tilli bo‘lib, ham arab, ham fors tillarida erkin so‘zlashganlar. Lekin ular hech qachon alohida xalqni tashkil qilmaganlar, ular Yaqin va O‘rta Sharqdan tortib, Markaziy Osiyogacha bo‘lgan keng hududlarda turli shaharlarda alohida jamoalar bo‘lib yashaganlar. Ular hech qachon o‘zlarining davlatchiligi u yoqda tursin, hatto alohida hududiga ega bo‘lamaganlar.

Ammo Tojikistonning eng asosiy tarixchisi – prezident E. Rahmonning o‘zidir. Shunisi diqqatga sazovorki, uning kelib chiqishi tojik yoki fors emas, balki ko‘chmanchi o‘zbeklarning *loqay* qabilasi bilan bog‘liq. “Oriy” bo‘lishdan oldin u iqtisodiy ma’lumotga ega bo‘lgan kommunistik partiya xodimi edi. Uning tarixga bo‘lgan “*qiziqishi*” prezident bo‘lib saylanganidan keyin boshlangan. Bu jihatdan u yozuvchi S.Ayniyning izdoshidir, u esa Rossiya hukumati topshirig‘iga ko‘ra, V. Bartoldning asarlaridan foydalaniib, “*qizil ruslar*” (bolsheviklar) tomonidan o‘ylab topilgan “*tojik xalqi*” haqidagi afsonaning g‘oyaviy asosini yaratgan edi. Faqat u vaqtida “*tojiklar*” o‘zlarini “*oriylar*” deb atamaganlar, ularni rus mustamlakachilari shunday ataganlar. U vaqtida “*tojiklar*” turli xil siyosiy quvg‘inga uchraganlardan tashkil topgan qochoqlar yig‘indisidan iborat edilar. E.Rahmon davriga kelib ular o‘zlarini “*oriylar*” deb atay boshladilar.

E.Rahmonni Turkmanistonning sobiq prezidenti rahmatli S.Niyozov (Turkmanboshi) bilan ham taqqoslash mumkin. Garchi unisi turkman, bunisi esa “*oriy*” bo‘lsa-da, ularning qarashlari va da’volarida ko‘p o‘xshashliklar bor. Ularning ikkalasi bir-biriga o‘xshash o‘tmishga ega, ikkalasi ham o‘z xalqining tarixiga “*qiziqish*” bildirib, bir qator “*asarlar*” yozganlar. Ikkalasi ham nafaqat o‘rta asrlar, balki qadimgi tarixga ham qiziqadilar, lekin ularning “*asarları*” tarixiy manbalarga emas, afsona, rivoyatlar va siyosiy ehtiroslarga asoslangan. S.Niyozov Turkmaniston davlatchiligi tarixining boshlanishini afsonaviy O‘guzxon davlati, E.Rahmon esa Tojikiston davlatchiligi tarixining boshlanishini afsonaviy Kayoniylar va Peshdodiylar sulolasini bilan bog‘laydi. Bundan tashqari, E. Rahmon o‘zini Ismoil Somoniylar va Xusrav Anushervon bilan taqqoslaydi.

Savollar:

1. Tojikiston Respublikasi qachon va qaysi ma'muriy hudud asosida tashkil topgan?
2. "Tarixiy Tojikiston" deganda nima nazarda tutiladi?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Tojiklarning kelib chiqishi haqida ilmiy qarashlar.
2. O'rta asrlarda Turkistonda fors tilining mavqeい.

2.4. Turkmaniston Respublikasining milliy konsepsiysi

Darsning o‘quv maqsadi. Turkmaniston Respublikasida chop etilgan “Ruhnama” kitobida ilgari surilgan g‘ayriilmiy qarashlar va da’volar bilan tanishtirish va ularni tahlil etish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: o‘g‘uzlar, g‘uzlar, turkmanlar, ko‘chmanchi qabilalar, Saljuqiylar, Xorazm, Xiva xonligi, “Tarixiy Turkmaniston”.

Turkmaniston milliy konsepsiysi asosan Turkmanistonning 1-prezidenti S.Niyozov (Turkmanboshi) ning “Ruhnama” (Ashgabat, 2001) nomli kitobida bayon etilgan. Unga ko‘ra, turkman xalqining eng qadimgi davlatining asoschisi O‘g‘uzxon bo‘lib, u avval eneolit davrida, ya’ni m. a. IV ming yillikda (Anov madaniyati), keyin esa jez davrida, ya’ni m. a. III – II ming yilliklarda mavjud bo‘lgan. Uning poytaxti hozirgi Oltindepa xarobalari o‘rnida joylashgan (10-bet). Lekin bunday qarash tarixiy ma’lumotlarga mutlaqo ziddir. Avvalo O‘g‘uzxon afsonaviy shaxs bo‘lib, uning ismi ilk bor o‘rta asr manbalarida qayd etilgan. Qadimgi yunon manbalar, Eron toshbitiklari va “Avesto” da tilga olingan xalqlar orasida esa turkmanlar yo‘q. Bu etnonim ham o‘rta asrlarda vujudga kelgan [Rtveladze 2007: 7, 8].

“Ruhnama” ga ko‘ra, turkmanlar Saljuqiylar davlatiga va undan tashqari yana bir qator davlatlarga asos solganlar. Xususan, Qoraxoniylar, G‘aznaviylar, Xorazmshohlar, Mamluklar va h.k. sulolalar turkmanlardan yetishib chiqqan (14 – 15 betlar). Lekin bu qarashlar ham tarixiy haqiqatga ziddir. Qoraxoniylar sulolasiga qarluqlardan, Xorazmshohlar esa o‘g‘uz va qipchoqlarning qorishuvidan yetishib chiqqan. G‘aznaviylarning kelib chiqishi esa noma’lum. Misrdagi mamluklar asosan qipchoqlardan, shuningdek cherkes va slavyanlardan iborat bo‘lgan [Rtveladze 2007: 8; Sagdullaev 2007: 43].

Bu ham u yoqda qolib, turklarning Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron va hattoki Yaqin Sharq va Kavkazdagи davlatlariga ham turkmanlar asos solgan ekanlar. Turkmanlar sharqda Hind daryosi bo‘ylaridan g‘arbda O‘rta Yer dengizi sohiligacha bo‘lgan hududlarda yashaganlar. Ular hammasi bo‘lib 70 dan ortiq davlatlarga asos solganlar (16 – 17 betlar).

Bu kitobda O‘rta Osiyoning turk tilida so‘zlashuvchi boshqa xalqlarining tarixiy jarayonlardagi o‘rni va xizmatlari kamsitib ko‘rsatilgan. Uyg‘urlar, qirg‘izlarga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan. O‘zbeklar

esa kitobda umuman tilga olinmagan. Go‘yoki ular hech qachon bo‘lmagandek [Rtveladze 2007: 10].

Turkmaniston hududidagi jez davriga mansub Altindepa, Anov, Namozgoh, Geoksyur arxeologik yodgorliklari “Ruhnomada” afsonaviy O‘g‘uzxon davlati bilan bog‘liq deb talqin etilgan. Bu yodgorliklarda topilgan moddiy ashyolar, masalan, jez davriga oid oltin buqa boshi, loydan yasalgan aravacha (Oltindepa), mis va jezdan yasalgan buyumlar (Geoksyur, Namozgoh) turkman xalqining ajdodlari tomonidan yaratilgan ekan. Butun dunyoda eng qadimgi arava va g‘ildirakni turkmanlar ixtiro qilganlar, boshqa xalqlar esa buni ulardan o‘rgangan ekanlar. Kulolchilik ham turkmanlarning ixtirosi emish. O‘rxun-Yeniseydagagi toshbitiklarni ham turkmanlarning ajdodlari yozib qoldirgan.

Shuni aytish joizki, sho‘rolar davrida Turkmanistondagi arxeologik yodgorliklar asosan o‘zbek olimlari, xususan, Toshkent Davlat universitetining arxeologiya kafedrasi xodimlari tomonidan tadqiq etilgan. Lekin u davrda bu topilmalar faqat turkmanlarning milliy merosi emas, balki butun O‘rta Osiyo xalqlarining umumiy merosi sifatida talqin etilgan. Va bu mantiqan to‘g‘ri edi. O‘rxun-Yenisey toshbitiklari ham barcha turk tilida so‘zlashuvchi xalqlarning umumiy merosi hisoblanadi. Arava, g‘ildirak va kulolchilik esa Turkmanistonda emas, boshqa madaniyat o‘choqlari (Misr, Mesopotamiya, Hindiston) da ixtiro etilganligi hammaga ma’lum [Sagdullaev 2007: 39, 40, 41, 42].

Hozirgi kunda Turkmaniston tarixshunosligida “tarixiy Turkmaniston” tushunchasi qabul qilingan. Unga O‘rta Osiyoning ko‘p yerlari, shu jumladan O‘zbekiston hududiga kiruvchi Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi, shuningdek Janubiy Qozog‘iston yerlari kiritiladi. Xorazm va Qoraqalpog‘iston turkman olimlari tilida “Shimoliy Turkmaniston”, xorazmliklar esa “Ko‘hna Urganch turkmanlari” deb ataladi. Bu qarashlar hozircha siyosiy da’volarga aylanmagan. Lekin tarixdan ma’lumki, har qanday siyosiy da’volar zaminida ko‘pincha “ilmiy” qarashlar va nazariyalar yotgan. Misol: nemis olimi Nitcshe nazariyasi va Hitlerning olib borgan siyosati.

Aslida turkmanlar bilan xorazmliklar o‘rtasida katta farq bor. T‘og‘ri, turkman tili ham, xorazmliklarning lajhasi ham turk tilining o‘g‘uz lajhalarini guruhiга kiradi. Lekin turkmanlar va xorazmliklarning an‘anaviy hayot tarzi tubdan farq qiladi. Xorazmliklarning ajdodlari azaldan o‘troq hayot tarzi olib borganlar va qadimdan sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanib kelganlar, shaharchilik madaniyatiga ega bo‘lganlar. Ularning tili va madaniyati qadimgi o‘troq va shahar turklarining avlodlari bo‘lgan hozirgi o‘zbeklarning adabiy tili va madaniyatiga juda yaqin. Turkmanlarning ajdodlari ko‘chmanchi g‘uz qabilalaridir. Ilk o‘rta asrlarda ular Orol

dengizining shimolidagi cho‘llarda va Sirdaryoning quyi oqimi havzasida yashaganlar. IX – X asrlarda Somoniylar ularning bir qismini Buxoro vohasi va uning atrofidagi cho‘llarga ko‘chirganlar. XI asrda Mahmud G‘aznaviy ularni Balx atroflaridagi va Xurosondagi cho‘llarga ko‘chirgan. Ularning an’anaviy hayat tarzi ko‘chmanchilik bo‘lib, ularning ajdodlari asosan chorvachilik bilan shug‘ullanib kelganlar. Saljuqiylar davrida turkmanlarning bir qismi O‘rtta va Yaqin Sharq mamlakatlariga ko‘chib, u yerlardagi yaylovlarda chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Hozir ham turkmanlarni Afg‘oniston, Eron, Iroq, Suriya, Turkiya va boshqa mamlakatlarda uchratish mumkin. Hamma yerlarda ular o‘zlarining an’anaviy hayat tarzi va mashg‘ulotini saqlab qolganlar. Turkman tili ham an’anaviy ko‘chmanchilik hayat tarzi olib brogan boshqa xalqlar – qozoqlar, qirg‘izlar, boshqirdlar va qoraqalpoqlarning tili singari adabiy turk tili normalaridan uzoqlashib ketgan va buni ayniqsa fonetikada yaqqol ko‘rish mumkin. “Turkman” atamasi dastlab forslar tomonidan barcha o‘g‘uzlarga nisbatan ishlatilgan. Hozirgi Ozarbayjon va Usmonli turklarining ajdodlari ham “turkman” deb atalganlar. Keyinchalik bu atama o‘g‘uzlarning faqat ko‘chmanchi qismining nomiga aylangan.

Mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda Turkmanistonda ijtimoiy hayatning barcha sohalarini millatlashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xususan, ko‘plab shahar va qishloqlarning nomlari o‘zgartirildi, boshqa tillarida o‘qitiladigan maktablar soni cheklandi, boshqa tillardagi ommaviy axborot vositalari kamaydi va h.k. Afsuski, bu jarayon Turkmanistonda yashovchi o‘zbek aholisiga ham taalluqli bo‘ldi. Xususan, o‘zbeklar jam bo‘lib yashaydigan joylardagi o‘zbek tilida o‘qitiladigan maktablar yopildi. O‘zbek tilidagi ko‘rsatuvlar, jurnallar va gazetalar yopildi.

Asosan o‘zbeklar yashaydigan Toshhovuz (Toshdan qurilgan hovuz) shahrining tarixiy nomi Dash-Oguz (Tashqi o‘g‘uzlar) deb o‘zgartirildi. Bu yerda yashovchi xorazm o‘zbeklari endi rasmiy ravishda “shimoliy turkmanlar” yoki “Ko‘hna Urganch turkmanlari” deb ataladi. Bularning barchasi, albatta, ikki qardosh xalq – o‘zbeklar va turkmanlar o‘rtasidagi do‘stona munosabatlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi. Misol uchun, O‘zbekistonda bu yerda yashovchi turkmanlarga nisbatan bunday munosabat kuzatilmaydi. Umid qilamizki, Turkmaniston hukumati bizdan o‘rnak olib, Turkmanistondagi o‘zbeklarning milliy huquqlarini tiklaydi.

Savollar:

1. *Turkmaniston Respublikasi qachon va qaysi ma’muriy hududlar asosida tashkil topgan?*
2. *O‘rtta asrlarda turkmanlar qanday atalgan?*

Mustaqilish uchun topshiriqlar:

- 1. Turkmanlarning kelib chiqishi haqida ilmiy qarashlar.*
- 2. O'rta asrlarda turkmanlarning yashagan hududlari.*

2.5. Qozog‘iston Respublikasining milliy konsepsiysi

Darsning o‘quv maqsadi. Qozog‘iston Respublikasida O‘rta Osiyo tarixining yoritilishidagi bir yoqlama qarashlar bilan tanishtirish va ularni tahlil etish. Qozoq olimlari tomonidan nashr etilgan kitoblar, shuningdek filmlarda qozoq shovinizmi g‘oyalari va ularning mazmun mohiyati haqida tushunchalar berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: ko‘chmanchi qabilalar, saklar, qipchoqlar, qozoqlar, qozoq juzlari, Qozoq xonligi, Dashti Qipchoq, Stepnoy kray, Alash O‘rda.

Qozoq yozuvchisi O.Suleymenov o‘zining “Glinskyaya kniga” (Alma-Ata, 1969) nomli kitobida milodiy VII – VIII asrlarda yashagan o‘g‘uzlarni m. a. VII – VI asrlarda yashagan skiflar bilan bir xalq bo‘lgan, degan g‘oyani ilgari surdi [Sagdullaev 2007: 25]. O‘zining “Az i Ya. Kniga blagonamerennogo chitatelya” (Alma-Ata, 1975) nomli kitobida esa qadimgi shumerlar aslida Yaqin Sharq mintaqasiga m.a. VI – V ming yilliklarda Yevroсиyo hududlaridan ko‘chib borgan turklar bo‘lgan, deb isbotlashga uringan. Sho‘rolar davrida bu kitoblar qattiq tanqidga uchragan edi. O‘zining “Yazik pisma” (1998), “Tyurki v doistorii” (2002) nomli kitoblarida u o‘zining ilgari surgan fikrlarini yana ham rivojlantirgan. To‘g‘ri, bu g‘oyalarning hech qanday zarari yo‘q. Qadimgi skiflar orasida turk qabilalari ham bo‘lganligi haqidagi g‘oya yangi emas. Bu haqida ilmiy doiralarda ham fikr bildirilgan. Lekin bu fikr hali to‘liq o‘z isbotini topmagan. Shumer tilining qadimgi turk tili bilan o‘xshash tomonlari haqida ham bir qator ilmiy maqolalar va kitoblar yozilgan. Lekin bu masala hali ham o‘z yecimini topmagan va jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan qabul etilmagan. Shuning uchun bu g‘oyalarni bayroq qilib ko‘tarib yurish mantiqqa to‘g‘ri kelmaydi. Oldin ularni ishonchli manbalar asosida isbotlash kerak. Shundan keyin ham ularni shiorlarga aylantirish shart emas. Ilmiy xulosa yetarli darajada isbotlangan bo‘lsa, uning natijasi shundoq ham ijobjiy bo‘ladi. Qolaversa, bunday munozarali ilmiy masalalar bilan adabiyotchilar va yozuvchilar emas, mutaxassislar shug‘ullanishi kerak. Aks holda bunday g‘oyalarning foydasidan ko‘ra, zarari ko‘proq bo‘ladi.

Havaskor “tarixchi”lardan yana biri Murad Aji o‘zining “Yevropa, tyurki, Velikaya step” (M., 2004) nomli kitobida yozishicha, “Yevropadagi har ikki kishining biri turklardan tarqalgan, Dashti Qipchoqning barcha qadimiy aholisi esa qipchoqlardan iborat bo‘lgan”. Uningcha, ruslar

tarixidagi ko‘p mashhur shaxslarning kelib chiqishi qipchoqlardan bo‘lgan. Xususan, Nikolay II, L.Tolstoy, N. Ogarev, M.Kutuzov, hatto fransuz marshali I.Myurat va boshqalar shular jumlasidandir [Sagdullaev 2007: 36, 37].

Umuman, Qozog‘istonda bunday “havaskor” tarixchilar ko‘p. Ularning hammasini sanab o‘tishdan foyda yo‘q. Har qanday odam tarix bo‘yicha kitob yozishi va uni hech qanday to‘siksiz nashr etishi mumkin. Faqat pul yetarli bo‘lsa bo‘ldi.

Mustaqillik davrida Qozog‘istonda bir qancha millatchilik ruhidagi g‘oyalar ham ilgari surildi. Xususan, qozoq olimlari o‘zbek xalqining etnogenezi bo‘yicha sho‘rolar davrida qabul qilingan konsepsiyanı inkor etib, aslida o‘zbek degan xalq bo‘Imagan, ular qozoqlardan tarqalgan va ularning bir qismi bo‘lgan, kabi fikrlarni tarqata boshladilar. Agar bu yerda Dashti-Qipchoq o‘zbeklari nazarda tutilgan bo‘lsa, ularning qozoqlar bilan kelib chiqishi bir ekanligi to‘g‘ri. Ularning ikkalasi ham Yevrosiy dashtlarida ko‘chmanchilik hayot tarsi olib borib asosan chorvachilik bilan shug‘ullanganlar, ularning umumiyy nomi “o‘zbek” bo‘lgan. XVI asrda ruslar ularni sharqqa siqib chiqargandan keyin ular Markaziy Osiyoni egalladilar. Ularning bir qismi hozirgi Qozog‘iston dashtlarida ko‘chib yurgan qabilalarga kelib qo‘shilgan. “Qozoq” etnonimi bilan ruslardagi “kazak” so‘zining kelib chiqishi umumiyy bo‘lib, turkcha *qoch-* ya’ni “qochmoq” fe’lidan yasalgan, bu fe’ldan *qochoq*, ya’ni “erkin odam” so‘zi yasalgan. Bu so‘z dastlab qonunga bo‘ysunmaydigan va erkin hayot olib boradigan ko‘chmanchilarga nisbatan ishlatilgan, ya’ni ular davlatdan tashqarida hisoblanganlar, uning qonunlari va tartib-qoidalariga bo‘ysunmaganlar. Qozoqlarning an’anaviy turmush tarzi ko‘chmanchilik, mashg‘uloti esa chorvachilik bo‘lib, ular buni XX asrning boshiga qadar saqlaganlar. Qozoqlar Evroosiyoning qadimgi ko‘chmanchi qabilalari Saklar (Skiflar) madaniyatining merosxo‘rlari va davomchilari hisoblanadi.

O‘rta Osiyoda hokimiyatni egallab olgan “o‘zbeklar” ga kelsak, ular rivojlangan savdo, hunarmandchilik va qishloq xo‘jaligi madaniyatiga ega shaharlar va vohalarning egalari bo‘ldilar. Ular tez orada mahalliy aholining yuksak madaniyati va adabiy tilini qabul qildilar, shuningdek, fors tilidan ish yuritsh va ta’lim tizimida foydalana boshladilar. Ularning ko‘pchiligi asta-sekin o‘troqlashib, dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi mahalliy qishloq aholisi bilan qorishib ketdilar. Rivojlangan davlatchilik an’analariiga ega bo‘lgan mintaqaning siyosiy egalari bo‘la turib, ular o‘zlarining “o‘zbek” nomini saqlab qoldilar va bu nom ulariga tobe bo‘lgan mahalliy o‘troq aholiga nisbatan ham ishlatila boshladi.

Qozoq olimlari Toshkent shahri ilgari qozoqlarga qarashli bo‘lgan, va ularga qaytarilishi kerak, deb hisoblaydilar. Darhaqiqat, Toshkent shahri

XVIII asrda ma'lum vaqt qozoqlarga bo'ysungan edi. Ammo, agar bunday mantiqidan kelib chiqadigan bo'lsak, unda Misr ham Qozog'istonga qaytarilishi kerak, chunki XIII – XIV asrlarda Misr hozirgi qozoqlarning ajdodlari mamluklar (qipchoqlar) tomonidan boshqarilgan. Hindiston va Eron esa o'zbeklarga "qaytarilishi" kerak, chunki XV asrda Eronda hozirgi o'zbeklarning ajdodlari Temuriylar, XVI – XIX asrlarda Hindistonda Boburiylar hukmronlik qilgan. Bu esa bema'nilikdir. Toshkent har doim Markaziy Osiyoning eng asosiy sug'orma dehqonchilik rivojlangan vohalaridan biri bo'lgan, uning aholisini esa o'troq turklar va sug'dlar tashkil etgan.

Ilk o'rta asrlarda Choch alohida davlat bo'lib, Xitoy bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan. O'sha davrda uning hududi nafaqat Toshkent vohasini, balki Sirdaryoning o'rta va quyi oqimlari havzasini ham o'z ichiga olgan. Ibn Havqal (X asr) ma'lumotiga ko'ra, o'rta asrlarda Shosh viloyatining maydoni juda keng bo'lib, uning tarkibiga Taroz, Isfijob va Forob shaharlari ham kirgan. Bu ma'lumotlarni IX – XII asrlarda yozilgan boshqa manbalar ham tasdiqlaydi, ularga ko'ra, Sirdaryo havzasini va Yettisuvdag'i yerlar ham Toshkent viloyatiga qarashli bo'lgan.

Xuddi shunday holat undan oldingi (II – III va VI – VIII asrlarda) [Sims-Williams, Grenet 2006: 96-107; Xo'jaev 2005: 3-18] va keyingi manbalar va xaritalarda (XIV–XVIII asrlarda) ham qayd etilgan [Kamoliddin 2005: 36-41; Kamoliddin, Mukminova 2003: 16-26] va ruslar istilosiga qadar davom etib, bu erlarning hammasi Qo'qon xonligining tarkibiga kirgan [Kamoliddin 2009: 59-65]. Faqat XVIII asrda Toshkent qisqa vaqt davomida ko'chmanchilarga taslim bo'lib, jungarlar va qozoqlar o'rtasida talash yer bo'lgan.

Qozoq olimlarining fikriga ko'ra, Amir Temur ham aslida qozoq bo'lgan. Ma'lumki, Amir Temurning otasi Kesh amiri bo'lib, kelib chiqishi *barlas* qabilasidan bo'lgan. Aslida bu turklashgan mo'g'ul qabilasi bo'lib, keyinchalik bir nechta turkey tilli xalqlar – o'zbeklar, qozoqlar va qirg'izlarning tarkibiga kirgan. Temurbekning o'zi Kesh shahrida tug'ilib o'sgan, shahar aholisi orasida yashagan, shu yerda tahsil olgan. Uning keying hayoti ham shaharlar va shaharliklar bilan bog'liq bo'lgan. Shuning uchun u hech qaysi jihat bilan qozoq bo'lishi mumkin emas, chunki qozoqlar shahar hayotidan mutlaqo yiroq bo'lganlar.

Qozog'iston olimlari orasida qirg'izlarga nisbatan ham mensimaslik ruhidagi qarashlar ham hukmron.

Hozirgi kunda Astana shahrida Nazarboev xalqaro universitetida Xalqaro ilmiy markaz, shuningdek, Xalqaro Turk akademiyasi va boshqa bir qator xalqaro tashkilotlar faoliyat olib bormoqda. Ularda Rossiya, Amerika, Yevropa, Yaponiya va boshqa mamlakatlardan taklif etilgan

olimlar faoliyat olib bormoqdalar. Ular yordamida qozoq olimlari Markaziy Osiyo tarixini yangidan yozmoqdalar. Ular tomonidan chop etilgan ilmiy ishlarda shovinistik qarashlar hukmronligi ko‘zga tashlanadi.

Qozoqlar Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida ham yashaydilar. Ularning soni ayniqsa, Mongoliya, Sharqiy Turkistonda va O‘zbekistonda, shuningdek Rossiya Federasiyasida nisbatan ko‘proq. Lekin u yerlardagi qozoqlar orasida bunday shovinistik qarashlar kuzatilmaydi.

Savollar:

1. *Qozog‘iston Respublikasi qachon va qaysi ma’muriy hududlar asosida tashkil topgan?*
2. *Rus kolonial adabiyotida qozoqlar qanday atalgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Qozoqlarning kelib chiqishi haqida ilmiy qarashlar.*
2. *Qozoqlarning davlatchiligi asoslari.*

2.6. Qirg‘iziston Respublikasining milliy konsepsiyası

Darsning o‘quv maqsadi. Qirg‘iziston Respublikasida mustaqillik davrida millatchilik g‘oyalarining avj olishi, tarixning buzib ko‘rsatilishi. Qirg‘izlarning siyosiy da‘volari. Qirg‘izistondagi millatlararo nizolar.

Tayanch tushunchalar va iboralar: yarim ko‘chmanchi qabilalar, qirg‘izlar, xakaslar, Qirg‘iz xoqonligi, Qo‘qon xonligi, Tog‘li qirg‘iz Avtonom Respublikasi.

Qirg‘izistonning sobiq prezidenti A.Akaev “Kirgizskaya gosudarstvennost i narodniy epos “Manas” (Bishkek, 2003)” nomli kitob yozgan. Uning ta’kidlashicha, qirg‘iz davlatchiligi 2300 yil ilgari tashkil topgan. Bunda u faqat xitoy manbalaridagi ma’lumotlarga tayanadi. Lekin hammaga ma’lumki, xitoy manbalaridagi ma’lumotlar aniq emas, shuning uchun agar boshqa manbalardagi ma’lumotlar bilan tasdiqlanmasa, ularning quruq o‘ziga asoslanib bo‘lmaydi [Rtveladze 2007: 10].

Turk xoqonligi davrida (VI – VIII asrlar) qirg‘izlar uning bir chekka bo‘linmalaridan birini tashkil etgan edilar. IX asr o‘rtalarida ular xitoyliklar yordamida Uyg‘ur xoqonligining yerlarini bosib olishga qodir bo‘ldilar. Lekin ularning “davlati” uzoq yashamadi. Chunki ko‘chmanchilar taraqqiy etgan davlatchilik tizimini boshqara olmasligi tabiiy hol edi. Shuning uchun ko‘p o‘tmay ular hokimiyatni qo‘ldan boy berdilar va Qarluq xoqonligiga bo‘ysinishga majbur bo‘ldilar. Shundan keyin qirg‘izlar hech qanday davlatchilikka ega bo‘lmaganlar. Bu ma’lumotlardan kelib chiqib, qirg‘izlarning davlatchiligi 2300 yillik tarixga ega degan da‘volarning soxtaligi o‘z-o‘zidan tabiiydir. To‘g‘ri, xitoy manbalarida m. a. III – II asrlarda Xitoy yerlaridan tashqaridagi dashtlarda ko‘chib yurgan “yovvoyi” qabilalar orasida qirg‘izlar ham tilga olingan. Lekin ularning davlati haqida hech nima deyilmagan. Tarixiy manbalarda qayd etilgan IX asrdagi qisqa vaqt ichida¹¹ mavjud bo‘lgan qirg‘iz davlatidan boshqa tarixda ular bilan bog‘liq biror bir davlat bo‘lmagan. Ularning davlatchiligi faqat sho‘rolar davrida tashkil topgan.

¹¹ Qirg‘izlarning bu davlati 840 yildan 916 yilga qadar mavjud bo‘lgan deb hisoblanadi. Lekin oxirgi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, u davrda hech qanday “qirg‘iz davlati” bo‘lmagan, qirg‘izlarning Markaziy Osiyodagi hukmronligi 847 yildayoq tugagan. Ularning xoqoni Ajo o‘lgandan keyin qirg‘izlar qo‘lga kiritilgan yerlardan voz kechganlar, chunki u yerlarda talon-taroj qiladigan hech narsa qolmagan edi. Sundan keyin ular va Tuvaga qaytib ketganlar [Дробышев 2010: 106].

Qirg‘izistonda nashr etilayotgan kitob va maqolalarda “qirg‘iz” etnonimi ham eng qadimgi xalq nomlari qatorida tilga olingan, qirg‘izlar esa dunyoning eng qadimgi xalqlaridan biri va butun dunyoga mashhur bo‘lgan buyuk imperiya asoschilari deb atalgan [Sagdullaev 2007: 27, 28, 29]. Bu fikr ham Xitoy manbalariga asoslangan. Ularda qirg‘iz etnonimi m. a. III asrda qayd etilgan. Yuqorida aytganimizdek, xitoy manbalari o‘z holicha ishonchli manba hisoblanmaydi. Xitoyliklar m. a. II asrga qadar O‘rta Osiyo haqida juda yuzaki ma’lumotga ega bo‘lganlar. Faqt Chjan Czianning “G‘arbiy o‘lka”ga sayohatidan so‘ng (m. a. II asr) batafsil ma’lumotga ega bo‘lganlar. “Eng qadimgi etnonim” deganda biz shuni ham bilishimiz kerakki, qadimgi davrlarda etnik, ya’ni qabilaviy nomlar asosan ko‘chmanchi qabilalarga xos bo‘lgan. Ko‘chmanchi qabilalarning qadimgi manbalarda qayd etiganligi ham hech qanday ahamiyatga ega emas. Avstraliyadagi ayrim aborigen qabilalar 20 ming yil oldin ham o‘sha yerlarda yashaganligi aniqlangan. Shu vaqt ichida ularning madaniyati deyarli o‘zgarmagan va 20 ming yil oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham shundayligicha saqlangan. Ularda haligacha ibtidoiy jamoa tuzumi amal qiladi. Bu qabilalarning madaniy merosi etnografik jihatdan bebahो ahamiyatga ega, chunki ular insoniyat taraqqiyotidagi dastlabki bosqichlardan biri haqida jonli ma’lumot beradilar. Bunday qabilalar dunyning boshqa yerlarida ham mavjud (masalan, Afrika va Janubiy Amerikada). Yevrosiyo mintaqasidagi ayrim Sibir xalqlarini ham shular jumlasiga kiritish mumkin. Qirg‘izlar ham bundan istisno emas. X asrga qadar ular Janubiy Sibir va Oltoy tog‘larining yon bag‘rlsrida yashaganlar. Hozirgi vaqtda Sibirda yashovchi xakaslar bilan qirg‘izlar ilgari bir xalq bo‘lgan. ularning yashash tarzi va madaniyati 2300 yil oldin qanday bo‘lgan bo‘lsa, XX asr boshlarida ham deyarli o‘zgarishsiz shundayligicha saqlangan.

Markaziy Osiyo mintaqasida ko‘chmanchi qabilalardan farqli ravishda o‘troq aholi etnik nomlar bilan atalmagan. Ular ko‘proq davlat yoki hudud nomi bilan atalgan. Masalan, sug‘dlik, farg‘onalik, xorazmlik va h.k. Bu joy nomlari esa bizga m.a. VI – V asrlarga mansub qadimgi yunon manbalari va eron toshbitiklaridan ma’lum. O‘troq aholining madaniyati esa uzuksiz rivojlanishda borgan: avval dehqonchilik, keyin hunarmandchilik, savdo munosabatlari rivojlangan, shaharsozlik va shaharchilik madaniyati vujudga kelgan, pul va yozuv muomalaga kiritilgan, va nihoyat davlatchilik tizimi va an’analari taraqqiy etgan.

Tarixda dastlab ko‘chmanchi bo‘lib, keyin o‘troqlashgan qabilalar ham bo‘lgan: kushanlar, xiyoniylar, eftaliylar, turklar, o‘g‘uzlar, qarluqlar, o‘zbeklar va h.k. Lekin qirg‘izlar ularning qatoriga kirmaydi. Qirg‘izlarning an’anaviy hayot tarzi ko‘chmanchilik, xo‘jalik faoliyati esa

qadimdan yaqin vaqtargacha har doim chorvachilik va yilqichilik bo‘lgan. Ularning eng katta dushmani o‘zga yerdan bostirib kelgan tashqi yovlar emas, balki o‘zining yaqin qo‘snnisi – turk tilida so‘zlashuvchi o‘troq va shahar aholisi bo‘lgan. Qo‘sni xalqlarga qarshi ular hatto tashqi dushmanni ham yordamga chaqirishdan toymaganlar. Masalan, IX asrda ular gurkirab rivojlanib kelayotgan Uyg‘ur xoqonligiga (745 – 840) qarshi xitoylarni chaqirib kelib, uni ag‘darishga muvaffaq bo‘lganlar. XIX asrda esa o‘zbeklarga qarshi ruslarni boshlab kelib, ularga Qo‘qon xonligini yo‘q qilishda yordam bergenlar.

Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin o‘tgan yillar mobaynida Qirg‘iziston olimlari orasida millatchilik ruhidagi qarashlar avj oldi. Qirg‘izlar kam sonli xalq bo‘lsada, ularda ham shovinistik qarashlar mavjud. Masalan, O.Karatayevning “Qirg‘iz etnonimlar so‘zligi” da (Bishkek, 2003) turk xalqlari tarixida ma’lum bo‘lgan deyarli barcha qabilalar va urug‘lar qirg‘iz etnonimlari qatoriga kiritilgan. Qirg‘iz olimlariga ko‘ra, Qo‘qon xonligi aslida qirg‘izlarning davlati bo‘lgan, Farg‘ona vodiysi ham qirg‘izlarga qarashli bo‘lgan, hozirgi o‘zbeklarning tomirlarida ham qirg‘izlarning qoni oqadi. Bu gaplarning hammasi quruq safsatadan boshqa narsa emas. Farg‘ona vodiysining odamlari hech qachon o‘zlarini qirg‘iz deb hisoblamaganlar. Qirg‘izlar bilan aralashgan oilalar bor, lekin ular ko‘p emas. Bu oilaarning ko‘pchiligi 2-Jahon urushiga qadar, ya’ni bosmachilik davrida (20-30-yillar) zo‘ravonlik yo‘li bilan qurilgan qo‘shma oilalarning avlodlaridir. Qirg‘izlarda ko‘chmanchi qabilalarga xos qizlarni o‘girish va undan keyin ularga egalik qilish odati bor edi, hozir ham bor. Chunki o‘zbek hech qachon ixtiyoriy ravishda o‘zining qizini ko‘chmanchi qirg‘zga yoki bosmachiga bermagan. Bu o‘zbeklar uchun har doin or hisoblangan. Urushdan keyin bu qo‘shma oilalarning farzandlari o‘zbeklashib ketgan, hozir esa ularning avlodlari o‘zlarini o‘zbek deb biladi va o‘zbek xalqining bir qismi hisoblanadi.

Qo‘qon xonligini boshidan oxirigacha ming qabilasiga mansub o‘zbek sulolasini boshqargan. Ushbu sulolaning ayrim vakillari qipchoq va qirg‘iz qabilalaridan kelin olganlar. Natijada xon saroyida qipchoqlar va qirg‘izlarning nufuzi kuchayib, ular xon ma’muriyatida ba’zi muhim lavozimlarni egallay boshladilar. Biroq bu bilan Qo‘qon xonligidagi sulola va hokimiyatning umumiy mohiyati o‘zgarib qolgani yo‘q. Hukmronlik qilayotgan sulola o‘zbek edi va o‘zbek bo‘lib qoldi. Agar qirg‘iz olimlarining ibridoiy uslubdagi mantig‘iga rioya qilsak, unda Xorazmliklarning ayrimlari ham qipchoqlardan kelin olganlar. Demak, Xorazmsohlar sulolasini ham qipchoq (qirg‘iz), Xorazmni esa qirg‘iz davlati deb hisoblash kerak. Rossiyaning tarixida ko‘plab podshohlar Yevropaning boshqa hukmdor oilalari bilan qarindosh bo‘ganlar. Vizantiya, Abbosiy

xalifalari, Oltin O‘rda xonlari, Usmonli imperiyasining sultonlari va boshqa sulolalar ham xuddi shunday. Biroq, bu sulolalarning mohiyatiga ta’sir qilgani yo‘q: ruslar rusligicha qoldi, Vizantiya imperatorlari, Abbosiy xalifalari, Oltin O‘rda xonlari, Usmonli sultonlari ham millatini yoki tilini o‘zgartirgani yo‘q.

Umuman olganda qirg‘izlar hozirgi yashab turgan yerlarida kelgindi hisoblanadilar. Farg‘ona vodiysi haqida gapirmasa ham bo‘ladi. X asr oxirlarida yozilgan “Hudud al-Olam” geografik asarida o‘scha davrda qirg‘izlarning yashagan yerlari aniq ko‘rsatilgan: “Xirxiz yerlari sharqda Xitoy bilan, janubda Tog‘uzg‘uz va qisman Xallux (qarluq) yerlari bilan, g‘arbda qisman Kimak yerlari bilan, shimolda esa hech kim yashamaydigan yerlar bilan chegaradoshdir [Hudud al-‘Alam: 96]. Bu ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘scha davrda qirg‘izlar Oltoy tog‘larining janubida yashaganlar. Yettisuv va Tyan-Shan hududlarida ular faqat mo‘g‘ullar istilosidan keyin XV-XVI asrlarda paydo bo‘lganlar. Undan oldin Tibetdan Orol dengiziga qadar barcha yerlar uyg‘ur va o‘zbeklarning ajdodlari Xarluxlar, ya’ni qarluqlarga qarashli bo‘lgan.

Bunday bema’ni va soxta da’volarning qanday oqibatlarga olib kelishi hech kimga sir emas. Bunday oqibatlarning dastlabkisini biz yaqin o‘tmishda yuz bergan O‘sh voqealari misolida ko‘rdik. Odatda qadimiy va boy davlatchik tarixiga ega bo‘lgan xalq yuqori madaniyat sohibi bo‘lishi kerak. Ammo qirg‘izlar haqida bunday deya olmaymiz. O‘tgan 15 yil ichida men Qirg‘izistonga ilmiy ishlar bilan ko‘p borganman. Uchiga chiqqan va ashaddiy millatchilik, boshqa xalqlarga, ayniqsa o‘zbeklarga shiddatli va shafqatsiz nafrat. Men u erda har qadamda shuni ko‘rdim. Va har safar qayta borganimda bu nafrat tobora kuchayib borar edi. Oxir-oqibatda bu nafrat O‘shda o‘zbeklarning ommaviy qirg‘ini bilan tugadi. O‘shda o‘zbeklar ustidan qilgan g‘ayriinsoniy vahshiyliklar ularning haqiqiy yuzini ko‘rsatdi. O‘zbek xalqiga chuqur hurmat bilan qaragan Chingiz Aytmatov umrining oxirgi yillarida Qirg‘izistondan ketib, chet ellarda o‘tkazgani bejiz emas, chunki u vatanida yuz berayotgan bunday tubanliklarni ko‘rishni istamagan. U esa o‘z vatanini juda ham sevar edi va asarlarida har doim uni ko‘klarga ko‘tarar edi. Uning muxlislari esa, shu jumladan men ham, bu asarlarni miriqib qayta-qayta o‘qir edilar. Qirg‘iz millatchilarining qilgan bunday vahshiyliklarni hatto o‘rta asrlarda Chingizzxonning jangchilarlari ham qilmaganlar. Yana biz ularni “qardoshlar” deb ataymiz. Chindan ham o‘zbek xalqining bag‘ri juda keng va sabr-toqati ceksiz ekan-da.

Savollar:

1. *Qirg'iziston Respublikasi qachon va qaysi ma'muriy hudud asosida tashkil topgan?*
2. *Qirg'izlar ilk bor qachon va quasi manbada qayd etilgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Qirg'izlarning kelib chiqishi haqida ilmiy qarashlar.*
2. *Qadimda va o'rta asrlarda qirg'izlar yashagan hududlar.*

2.7. Uyg‘urlarning milliy mafkurasi

Darsning o‘quv maqsadi. Xitoy va Qozog‘istonagi uyg‘ur olimlarining uyg‘ur davlatchiligi haqidagi g‘ayriilmiy qarashlari va ularning tahlili.

Tayanch tushunchalar va iboralar: uyg‘urlar, Uyg‘ur xoqonligi, qarluqlar, Qarluq xoqonligi, Qoraxoniylar, Xitoy istilosи, Shin Jian Uyg‘ur avtonom o‘lkasi.

Uyg‘urlarda mustaqil davlatchilik bo‘lmasa ham o‘zlarining milliy tarixiy mafkurasi mavjud. Bu mafkura Sharqiy Turkiston, Qozog‘iston va boshqa yerlarda yashovchi bir qator uyg‘ur tarixchi olimlarining rus, uyg‘ur va boshqa tillardagi kitob va maqolalarida bayon etilgan. Xususan, Q.Masimiyning “Plemennoe obyedinenie Uygur” (Uyg‘ur qabilalari ittifoqi), “Istoriya Uygurskoy derjavi” (Uyg‘ur davlati tarixi) (Almati, 1998) kitoblari shular jumlasidandir. Unga ko‘ra, Uyg‘ur davlatchiligi 12 ming yillik tarixga ega. Tarixiy davrlashtirishga binoan, bu mezolit (o‘rta tosh) davriga to‘g‘ri keladi. U davrda esa yer yuzida hali umuman hech qanday davlatlar bo‘lmagan. O‘rta Osiyodagi aholi esa asosan ovchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan.

Mazkur kitobning 313-betida afsonaviy uyg‘ur davlatining xaritasi keltirilgan. Bu davlat Tinch okeandan Sharqiy Yevropagacha bo‘lgan barcha hududlarni egallagan. Lekin tarixiy manbalarda bunday davlat haqida hech qanday ma’lumot yo‘q. Hatto Turk xoqonligi ham bunday hududlarni egallamagan. Qolaversa, Turk xoqonligiga uyg‘urlar emas Ashina qabilasi asos solgan.

Kitobda yana ta’kidlanishicha, Amerika qit’asidagi hindu qabilalari ham aslida uyg‘urlardir (310 va 311-betlar). Bu yerda “Uyg‘ur qabilalari ning Shimoliy Amerikaga ko‘chishi” nomli xarita keltirilgan. Bizga ma’lumki, 30 ming yil oldin Amerikaga Bering bo‘g‘ozni orqali Osiyodan mo‘g‘uliy irqqa mansub qabilalar ko‘chib o‘tgan. Lekin ularning uyg‘ur bo‘lganligini hali hech kim isbotlamagan.

Kitobda yana yozilishicha (32-bet), uyg‘urlarning ajdodlari qadimgi hunlar bo‘lib, ular madaniy jihatdan xitoylardan ancha ustun bo‘lganlar. Ularning o‘ziga xos tili, ishlab chiqarishi, dini, yozuvni, madaniy yodgorliklari, yashash tarzi bo‘lgan. Bu gapga ham qo‘silib bo‘lmaydi. Hammaga ma’lumki, Xitoy sivilizasiyasi dunyodagi eng qadimgi madaniyat o‘choqlaridan biri bo‘lgan. Bu yerda jahonshumul ahamiyatga ega

bo‘lgan qator kashfiyotlar qilingan. Masalan, ierogrif yozushi, ipak, qog‘oz, o‘qdori va h.k. [Rtveladze 2007: 7, 8].

Xiyoy bosib olguncha (XVIII b.) Sharqiy Turkistonda o‘zbek xonligi bo‘lib, unda kelib chiqishi o‘zbek sulola hukmronlik qilgan. Dunganlardan tashqari mahalliy aholi dashti-qipchoq o‘zbeklariga hech qanday aloqasi yo‘q bo‘lsa ham “o‘zbek” deb atalgan. XVIII – XIX asrlarda Yevropada chizilgan xaritalarda Buxoro xonligi “Grand Boucharie”, ya’ni Katta Buxoro, Uyg‘uriston esa “Petit Bocharie”, ya’ni Kichik Buxoro deb ko‘rsatilgan. Bu esa shu ikki xonlik aholisining o‘zaro yaqin qarindosh va uzviy bog‘liq bo‘laginligidan dalolat beradi.

Hozirgi Uyg‘uriston mustaqillikga erishmaganligi sababli u yerda milliy konsepsiya yoki siyosiy da’volar yo‘q. Mahalliy aholi: uyg‘urlar, o‘zbeklar, qozoqlar va qirg‘izlar o‘zaro inoq, millatlararo nizolar faqat xitoylar va dunganlar bilan yuz bermoqda. Xitoy Uyg‘uristonni bosib olgandan keyin (XVIII asr) uyg‘urlarning bir qismi O‘rta Osiyodagi o‘zbek xonliklariga, sho‘rolar davrida esa bu yerdagi milliy respublikalariga ko‘chib kelgan. Ularning soni ayniqsa O‘zbekiston va Qozog‘istonda ko‘p. O‘zbekistondagi uyg‘urlarning ko‘p qismi madaniyati deyarli bir bo‘lgani tufayli o‘zbeklar bilan ixtiyoriy ravishda qorishib ketgan. Qozog‘istonda esa ular alohida va g‘uj yashagani tufayli o‘zligini saqlab qolganlar. Olmaota shahrida Uyg‘ur tarixini o‘rganish instituti faoliyat olib boradi. Unda uyg‘urlar tarixiga oid tadqiqot- lar olib boriladi.

Uyg‘urlarning yashaydigan hududlari Shin Jian-Uyg‘ur Muxtor tumani, ilmiy adabiyotda Sharqiy Turkiston, mahalliy aholi orasida esa Uyg‘uriston deb ataladi. Uyg‘urlarning kelib chiqishi shu mintaqada yashagan qadimgi xalqlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu yerda m. a. III ming yillikda yashagan odamlarning balzamlab qotirlgan jasadlari topilgan. Ularning qiyofalariga ko‘ra, ular yevropeoid irqiga mansub bo‘lganlar. Uyg‘urlarning etnik tarixida xunlar, saklar, yuechji va usun qabilalari, shuningdek toxarlar va sug‘dlarning ham ahamiyati katta. Bu xalqlar turli tillarda so‘zlashganlar va turli antropologik qiyofalarga ega bo‘lganlar. Keyinchalik ular uyg‘urlarning tarkibiga singib ketganlar. Shuning uchun hozirgi uyg‘urlar orasida ham mo‘g‘uliy, ham yevropeoid va aralash antropologik qiyofalardagi odamlarni uchratish mumkin. Sharqiy Turkistonda ilk o‘rta asrlarga mansub uyg‘ur, xotan-sak, toxar va sug‘d tillaridagi yozma yodgorliklar topilgan.

Uyg‘urlar boy davlatchilik tarixiga ega bo‘lganlar. Ularning bir qancha davlatlari bo‘lgan. V – VI asrlarda Sharqiy Turkistonda Gaochan va Gaoguy xonliklari bo‘lgan. VI – VII asrlarda uyg‘urlar Turk xoqonligining tarkibiga kirganlar, VIII – IX asrlarda o‘zlarining Uyg‘ur xoqonligiga, X asrda Turfan va Ganchjou davlatlari ega bo‘lganlar, Qarluq xoqonligiga

asos solganlar. X asr oxirida uyg‘urlar islom dinini qabul qilib, XI – XII asrlarda ularning Qoraxoniylar sulolasiga butun Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan. XIII – XIV asrlarda uyg‘urlar mo‘g‘ullar, XV asrda Temuriylar, XVI – XVIII asrlarda esa o‘zbeklarga tobe bo‘lganlar. XVIII asrda Uyg‘uristonndagi o‘zbek xonligini xitoylar bosib olgan. Shundan beri uyg‘urlar Xitoy istilosiga ostida yashab kelmoqdalar. XX asrning 20-yillarida turk tilida so‘zlashuvchi deyarli barcha xalqlar lotin alifbosiga o‘tganda, uyg‘urlar bu jarayondan chetda qolganlar va hozirga qadr arab alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalanadilar.

Umuman olganda, uyg‘urlar bilan o‘zbeklar madaniyat jihatidan bir-biriga juda yaqin xalqlardir. XX asrga qadar Markaziy Osiyo mintaqasida turk tilida so‘zlashuvchi xalqlar ichida faqat uyg‘urlar va o‘zbeklar asosan o‘troq hayot tarzi olib borib, shahar va qishloqlarda yashaganlar. Ularni bir xalq desa ham bo‘ladi. Uyg‘urlar va o‘zbeklar qadimgi turklarning dehqonchilik, bog‘dorchilik va shaharchilik madaniyatining davomchilari hisoblanadilar. Uyg‘ur va o‘zbek adabiy tillari qadimgi turk tilining qarluq lahjasi asosida rivojlangan va ular o‘rtasidagi farq taxminan Farg‘ona vodiysi bilan Toshkent vohasi aholisining shevalari o‘rtasidagi farq singari. Ikkala xalqning etnik shakllanishi Turk xoqonligi davrida boshlanib, Qoraxoniylar davrida tugallangan. Sharqiy Turk xoqonligi va Sharqiy Qoraxoniylar davlatida uyg‘urlar, G‘arbiy Turk xoqonliigi va G‘arbiy Qoraxoniylar davlatida esa o‘zbeklar xalq sifatida shakllanganlar. An’anaviy yashash tarzi, urf-odatlari, musiqasi va taomlari ham bir xil. Hatto bosh kiyimlari ham o‘xhash, bosh kiyim esa har qanday xalqning o‘zligini bildiruvchi eng muhim tashqi belgilardan biridir. Bunday bosh kiyim (do‘ppi) boshqa hech qaysi xalqda yo‘q. Bu esa bu ikki xalqning kelib chiqishi bir va o‘tmishi mushtarak bo‘lganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda ularni faqat chegaralar va nomlar ajratib turadi. Lekin bu omillarning ikkalasi ham o‘zgaruvchanligi tarixdan ma’lum.

Savollar:

1. *Uyg‘urlarning yerlari Xitoy tomonidan qachon bosib olingan?*
2. *Shin Jian – Uyg‘ur muxtor o‘lkasida uyg‘urlardan boshqa qaysi xalqlar yashaydi?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Uyg‘urlarning kelib chiqishi haqida ilmiy qarashlar.*
2. *Uyg‘urlarning davlatchiligi tarixi.*

2.8. O‘zbekistondagi ayrim olimlarning g‘ayriilmiy qarashlari

Darsning o‘quv maqsadi. O‘zbekistonda tarix sohasida ayrim olimlar tomonidan ilgari surilayotgan g‘ayriilmiy va yetarli ilmiy asosga ega bo‘lmagan qarashlar bilan tanishtirish va ularni tahlil qilish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: sartlar, yarim ko‘chmanchi o‘zbeklar, o‘troq madaniyat, dehqonchilik, shaharchilik madaniyati, “o‘zbek” superetnosti.

O‘zbekiston tarixchi olimlari orasida ham mustaqillik davrida turli masalalar, xususan, o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasi bo‘yicha turli fikrlar, shu jumladan, ilmiy asoslanmagan, yoki yetarli isbotlanmagan va hatto g‘ayriilmiy fikrlar ilgari surilgan. Bu fikrlarning ayrimlari chet el grantlari va ularni beruvchi tashkilotlarning ta’siri ostida vujudga kelgan. Masalan, 2002-yilda Toshkentdagি Amerika Qo‘shma Shtatlarining Soros fondiga qarashli “Open Society” (“Ochiq Jamiyat”) institutining granti asosida tayyorlangan “Etnicheskiy atlas Uzbekistana” (“O‘zbekistonning Etnik xaritasi”) qomusiy to‘plamida o‘zbek jamiyatshunos olimi A.Ilhomovning “Arxeologiya uzbekskoy identichnosti” nomli bosh maqolasi nashr etilgan. Unda muallif o‘zbek xalqining tarkib topishi asosida O‘rta Osiyoga XVI asr boshlarida bostirib kelgan Dashti Qipchoq qabilalari yotadi, degan fikrni ilgari surgan (270-bet). Bu bilan u sho‘rolar davrida qabul qilingan va ilmiy asoslangan etnogenetika nazariyasini asossiz inkor etgan. Uni harakatlantiruvchi kuch bu hozirgi kunda chet ellarda keng tarqalgan konstruktivizm nazariyasidir. Rossiyada bu nazariya V.A. Tishkov va S.Abashin tomonidan mahalliy sharoitga moslashtirilib, yana ham rivojlantirilgan. Bunday olimlarga ko‘r-ko‘rona ergashib, faoliyat olib borayotgan A.Ilhomovga ko‘ra, millatlarning hech qanday tarixi yo‘q. Har bir millat siyosiy jarayonlar orqali vujudga kelgan. O‘zbekiston va o‘zbek xalqi ham 1924-yilda bolsheviklar tomonidan sun’iy ravishda vujudga keltirilgan. Olim chet eldan grant olgandan keyin uni oqlashi ham kerakda. Bo‘lmasa boshqa grant ololmaydi. Shuning uchun bunday “tadqiqotchilar” chet elliq xo‘jayinlarga yaxshi ko‘rinish maqsadida o‘z xalqining tarixini buzib ko‘rsatishga ham tayyor. O‘zbek olimlari bunday nashrlarga o‘z vaqtida munosib javob berganlar [Alimova, Arifxanova, Kamoliddin 2004: 72 – 85].

Shunday olimlardan yana biri B.Bobojonovdir. O‘zining “Kokandskoe xanstvo: vlast, politika, religiya” (Toshkent, 2010) nomli kitobida u o‘zicha tarixiy tadqiqot olib borishning “yangi metodologiyasi” ni ixtiro etgan. O‘zining tan olishicha, bunga andoza sifatida shveysariyalik sharqshunos

olima Anke fon Kyugelgennenning Buxoro xonligi haqida yozilgan yangi kitobi xizmat qilgan ekan. B.Bobojonovning mazkur kitobini o‘qigan odam shu xulosaga keladiki, unda qo‘llanilgan “yangi metodologiya” aslida tarixiy manbalardagi ma’lumotlarni buzib ko‘rsatish va ularni noto‘g‘ri talqin qilishdan iborat. Natijada kitobda o‘zbek xalqining taniqli namoyondalari, xususan, Hakimxon to‘ra, Qo‘qon xonlari, Nodirabegim singari tarixiy shaxslarga asossiz ravishda tuhmatlar qilingan. Kitobdagi jiddiy kamchiliklar va zararli fikr-mulohazalar manbashunos olim E. Xurshutning bir turkum maqolalarida batafsil ko‘rsatilgan [Xurshut 2013].

Mazkur kitobda ilgari surilgan noto‘g‘ri ma’lumotlarga asoslangan ayrim xulosalar ilmiy yjamoatchilikni chalkashtiradi, tariximizga asossiz ravishda tuhmat qiladi, xalqimizning milliy o‘zligini anglash jarayoniga salbiy ta’sir qiladi va zarar yetkazadi [Камолиддин 2013: 217]. B.Bobojonov ma’lumoti bo‘yicha sharqshunos bo‘lmasa ham, shuningdek, sharq tillarini, ayniqsa arab tilini mukammal bilmasa ham, uning asosiyo “tadqiqot” mavzusi islomdir. Shu vaqtgacha jahon sharqshunoslida islom tadqiqotlari oxir oqibatda asosan islom dinining raqiblari va dushmanlari ning manfaatlariga xizmat qilib kelgan. G‘arbda bu sionistlar va nasroniyalar, sharqda esa ateistlar va kommunistlar edi. Shuning uchun musulmon mamlakatlaridagi olimlar sharqshunoslarning ilmiy ishlariga har doim juda ehtiyyotkorlik bilan qaraganlar. Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgach, vaziyat o‘zgardi, endi islom tadqiqotlari avvalambor ilm-fan, davlat va islom manfaatlariga xizmat qiladi. Bu O‘zbekistonda olib borilayotgan yangi siyosat doirasida ayniqsa ahamitlidir. Lekin ba’zi olimlarning fikrlashi va qarashlari hali ham eskicha qolmoqda. Masalan, B.Bobojonov islom tadqiqotlari bilan “shug‘ullanadi”, lekin respublikamizdagи islom bilan bog‘liq tashkilotlarning birorta rasmiy nashri bilan aloqa qilmaydi, shu bilan birga u Moskva patriarxatiga qarashli Toshkent nasroniyalar yeparxiyasining cherkov nashri bilan yaqin hamkorlik qiladi. Buni qanday izohlash mumkin, degan savol tug‘ildi. Mustaqillik uchun jonini qurban qilgan jadidchilarning nuqtai nazaridan, qolaversa, hozirgi kun milliy mafkurasi nuqtai nazaridan ham buni “sotqinlik”, hech bo‘lma ganda, “befarqlik” yoki “kaltafahmlik” deb izohlash mumkin.

Sho‘rolar davlating parchalanishi va mustabid tuzumning qulashi natijasida ilm-fanning komunnistik g‘oya bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sohalari bo‘yicha ixtisoslashgan minglab olimlar “ishsiz” qoldi. Masalan, marksizm-leninizm falsafasi, sho‘rolar davri tarixi, Kommunismiy partiya (KPSS) va komsomol (VLKSM) tarixi yo‘nalishlri bo‘yicha ilmiy ishlar yoqlagan mutaxassislar endi keraksiz bo‘lib qoldi. Endi ular o‘zlarini tarix

fanining boshqa yo‘nalishlariga urib, o‘zлari uchun yangi va notanish bo‘lgan sohalarda “ilmiy” faoliyatlarini davom etdirishga harakat qildilar. Natijada saviyasi past va sisfatsiz “ilmiy” tadqiqotlarning soni ko‘payib ketdi. Bu jarayon ayniqsa O‘zR FA ning Tarix institutida yaqqol ko‘zga tashlandi. Chunki sh‘orolar davrining tarixi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar asosan shu yerda to‘plangan edilar. Masalan, 1990-yillarda bu institutda etnografiya va etnologiya masalalari bilan shug‘ullanuvchi bo‘lim bor edi. Uni taniqli etnolog olim malakali mutaxassis K.Shoniyofov boshqarar edi. Umrining oxirgi yillari davomida u yosh kadrlar tayyorlash ishiga jiddiy ahamiyat berib, etnografiya va etnologiya sohasida 15 ta tarix fanlari nomzodi tayyorlagan edi. 2001-yildan keyin institut rahbariyati o‘zgargandan so‘ng bu yosh kadrlar birin-ketin institutni tark etib, tarqalib ketdilar. Ularning o‘rnini esa kechagina sho‘rolar davrining tarixi va falsafasi bilan shu‘ullanib yurgan olimlar egalladilar. Natijada ko‘p yillar davomida etnologiya sohasida turg‘unlik va bo‘shliq vujudga keldi. Bu esa O‘zbekiston etnologiyasi faniga katta zarar yetkazdi. Siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan ayrim chet ellik olimlar bundan foydalanib, o‘zbek xalqining tarixi, xususan, uning kelib chiqishi masalasi bo‘yicha xalqaro “munozaralar” va “muhokamalar” uyuştirdilar. Tarix institutida esa ularga munosib javob bera oladigan mutaxassis yo‘q edi. Sobiq etnologlarning o‘rnini egallagan “yangi etnologlar” esa tashqi dushmanlarning g‘oyaviy hamlariga javob berishga ojizlik qilishi tabiiy hol edi.

Mustaqillik davrida yuz bergen iqtisodiy qiyinchiliklar sobiq Sho‘rolar davlati hududdida, shu jumladan O‘zbekistonda ham, barcha ijtimoiy fanlarning rivojlanishiga o‘zining salbiy ta’sirini o‘tkazdi. Ilmiy tadqiqotlarning davlat tomonidan moliyalashtirishi keskin kamayib ketdi. Uning o‘rniga chet ellarning tashkilotlaridan grantlar olib, tadqiqot olib borish tajribasi tobora kengayib bordi. Umuman olganda, bu butun jahonda ilm-fan sohasida qabul qilingan jarayon. Lekin bizda u doim ham ijobji natijalar bergani yo‘q. Ko‘pincha grant oluvchilar grant beruvchilarning go‘yaviy ta’siri ostiga tushib, tadqiqotlarini beixтиyor ulaning fikrini inobatga olgan holda olib boradilar. Ayrim olimlar grant beruvchilarga yaxshi ko‘rinish uchun o‘z xalqining tarixiga tosh otishdan ham toymaydi.

Yana bir toifa olimlar grantlar qo‘lga kiritishni o‘zlariga kasb qilib olganlar. Bunday olimlar ayniqsa Tarix institutida ko‘p. Unday olimlarga grant bo‘lsa bo‘ldi, uning qaysi sohada ekanligi esa ahamiyatsiz. Shuning uchun u yerda Toshkent tarixi, jadidlar tarixi, ayollar muammolari, islam tarixi, etnogenez va etnik tarix, kolxozlar tarixi, harbiy san’at tarixi singari mavzular bilan bir xil odamlar shug‘ullanadilar. Ularni ko‘p qirrali va universal, ya’ni haqiqiy “qomusiy” olimlar desa bo‘ladi. Bu yerda chet ellik tashkilotlar bilan hamkorlikdagi grantlarga a’zo bo‘lishda olimning

mutaxassisligi va malakasi emas, ko‘proq tanish-bilish, guruhbozlik va boshqa omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shuning uchun islom tarixi sohasidagi grantda ham etnologiya bo‘limidagi singari ishtirokchilar orasida sharq tillarini biluvchi va islom davri tarixi bilan shug‘llanuvchi mutaxassislardan ko‘ra shaxsan direktorni, unga yaqin odamlarni va sho‘rolar davri tarixining mutaxassislarini ko‘proq ko‘rish mumkin. Chunki bu grantlarda oylik “valuta”, ya’ni chet el pulida beriladi, xorijiy mamlakatga safari ham bor. “O‘zbekiston tarixi” jurnali ham xuddi shunday tamoyillar asosida faoliyat olib boradi. Bu yerda ham ilm-fan manfaatlari, hatto davlat manfaatlaridan ko‘ra shaxsiy manfaatlar va ayrim guruqlar (“ilmiy mafiya”) ning manfaatlari birinchi o‘rinda turadi.

Shu o‘rinda “ilmiy mafiya” haqida ham bir og‘iz aytib o‘tish lozim. Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda ilm-fan sohasida kadrlar yetishtirish va ilmiy maktablar yaratish vazifasi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki oxirgi 25 yil davomida ilm-fanga qiziqish kamayib ketdi, ilmiy tadqiqotlarning sifati tushib ketdi va kadrlar silsilasida bo‘shliq vujudga keldi. Shuning uchun ham 2017 yilda O‘zR FA ning haqiqiy a’zoligigiga o‘tkazilgan saylovda ilmiy kadrlar tayyorlaganlik va ilmiy maktab yaratganlik omili asosiy ko‘rsatkich va talab sifatida qabul qilindi. Bir jihatdan bu to‘g‘ri talab. Lekin hozirgi mavjud sharoitda bu doim ham olimning salohiyati va ilm-fan oldidagi xizmatlari haqida haqqoniy xulosa chiqarishga imkon bermaydi. Qolaversa, jahon tajribasida bu ko‘rsatkich asosiy hisoblanmaydi. Masalan, eng yirik sharqshunos olimlardan biri V.V. Bartoldning 1 ta ham shogirdi bo‘ilmagan. Shunga qaramasdan u “akademik” ilmiy unvoniga sazovor bo‘lgan. Boshqa taniqli va yirik olimlar ham ko‘pi bilan 5 – 6 ta yosh olimga ilmiy rahbarlik qilganlar tayyolaganlar.

Lekin O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich butunlay teskari manzarani ko‘rsatadi. Oxirgi yillarda bizda ilmiy kadrlar tayyorlashdan ko‘ra, “ilmiy kadrlar chiqarish” avj oldi. Eng ko‘p “shogird” larni institut mudirlari chiqaradi, chunki odatda ular ilmiy kengashlarning raisi ham bo‘ladilar. Ma’muriy tizimdagи maqom ularga ilmiy tizimda ham xuddi shunday huquqlarni beradi. Ular o‘zining mavqeい va maqomidan foydalaniб, eng iqtidorli yoshlarni o‘zlariga “shogird” qilib oladilar. Iqtidorsiz yoshlarni “ilmiy” rahbar qilib olishga intiladilar. Chunki bunday rahbarlarning himoyasi ostida dissertasiyani yoqlash ham osonroq kechadi. Shuning uchun bunday mansabdor olimlarning “shogird” lari ko‘p bo‘ladi. Amalda esa ularning yosh olimlarga bergen bilimi va tarbiyasi juda oz va arzimas bo‘ladi. Ijtimoiy fanlar sohasida 50 – 60 ta “shogird” chiqargan rahbar olimlar bor. Lekin amalda ulardan faqat bir nechtasini ularning o‘zlarini tayyorlagan bo‘ladi. Qolganlari esa har xil yo‘llar bilan ularga birikib

qolgan bo‘ladi. Shuning uchun bizning hozirgi sharoitda ko‘p ilmiy kadrlar yetishtirgan olimlarni “ilmiy maktab” yaratdi deb aytib bo‘lmaydi. Umuman olganda, bizda “ilmiy maktab” tushunchasidan ko‘ra “ilmiy mafiya” tushunchasi haqiqatga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Har qalay tarix sohasida. Masalan, “akademik” ilmiy unvoniga nomzodlardan biri D.Alimovani olaylik. U jami 45 ta yosh olim tayyorlagan ekan, shulardan 9 tasi fan doktori ekan. Lekin biz “Alimova ilmiy maktabi” bor deb ayta olmaymiz. Chunki u “tayyorlagan” kadrlar har xil sohalar bo‘yicha yoqlaganlar, ularning ilmiy salohoyati ham har xil. Yaxshilab tekshirib ko‘rilsa, ularning ko‘pini umuman ilmiy tadqiqot deb bo‘lmaydi, doktorlik ishlarini yoqlaganlarning esa yarimi ham hozirgi kun talablariga javob bermaydi. Chunki mening bu ishlarning ba’zilariga ko‘zim tushgan. Boshqa olimlarning bu haqda fikrlarini ham ko‘p eshitganman. Menimcha, bu yerda “Alimova ilmiy maktabi” emas, “Alimova ilmiy mafiyasi” iborasi haqiqatga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Chunki u “hukmronlik” qilgan davrda Tarix institutida va umuman tarix sohasida aynan shunday vaziyat yuzaga kelgan edi.¹²

Nashr etilgan asarlarning soni ham olimning salohiyati haqida darak bermaydi. Asarlarning soni emas, ularning ilm-fanga qo‘sishgan hissasi va ilmiy ahamiyati muhimroqdir, shuningdek mavzuning katta yoki kichikligi, tadqiqotning ko‘lamni va chuqurligi ahamiyatlidir. Ko‘p asarlar yozish mumkin, lekin ularning ilmiy saviyasi past bo‘lsa, ularning ahamiyati ham past bo‘ladi. Shu bilan birga 1 ta – 2 ta asar yozgan olim ilm-fan tarixida chuqur iz qoldirishi mumkin. Masalan, shveysariyalik olim Adam Metz juda qisqa umr ko‘rib, faqat “Islom Renesansi” nomli kitob (1922) nashr etgan. Lekin bu kitob haligacha jahon sharqshunoslik fani xazinasida eng yuqori o‘rinlardan birini egallab turibdi. Bunday misollardan ko‘pini keltirish mumkin.

Shuning uchun “akademik” ilmiy unvonini berishda hal qiluvchi omillar nomzodning mansabi, shogirdlarining soni, nashr etgan ilmiy ishlarining soni, uning siyosiy qarashlari¹³ emas, avvalambor uning ilmiy salohiyati, qilgan ishlarining sifati va ilmiy ahamiyati bo‘lishi kerak. Akademiklarning saylovi ham da‘vogarlar ichida munosib nomzodni aniqlash ishonchli yo‘l emas. Chunki bu yerda ham masalaning hal qilinishiga mahalliychilik, qarindosh-urug‘chilik, tanish-bilishchilik, guruhbozlik, xushomadgo‘ylik va niroyat poraxo‘rlik kabi illatlar ta’sir qilishi mumkin. Buning uchun, kerak bo‘lsa, xalqaro expertlarning fikriga ham murojaat etish mumkin. Xolis fikni bilish uchun adolat yuzasidan bu

¹² Bu haqida tafsilotlar uchun qarang: Камолиддин 2009аб; 2013.

¹³ Bizda hali bu jihat ham hal qiluvchi ahamiyatga ega.

expertlarning kimligini e'lon qilish shart emas. Ana shunda nomzodlarlar ichida haqiqiy akademik kim ekanligini aniqlash mumkin.

Shunday qilib, o'zbek xalqining kelib chiqishi va uning shakllanishi tarixi masalasi hozirgi kunda juda dolzarb masalaga aylangan. Bu borada ayniqsa chet ellarda faol izlanishlar olib borilmoqda. Lekin bu tadqiqotlarni harakatlantiruvchi kuch ilmiy qiziqish emas, siyosiy maqsadlarga xizmat qilish ekanligi hammaga ma'lum.

Bizning olimlarimiz ham orqada qolishni istamasdan bu masala bilan shug'ullanishga harakat qilmoqdalar. Lekin, ajablanarlisi shuki, bu masala bilan O'zR FA ning Tarix institutidagi etnologiya bo'limi xodimlari emas, butunlay boshqa odamlar, hatto tarix sohasida mutaxassis bo'lmaganlar ham shug'ullanmoqdalar. Shunday tadqiqotchilardan biri filolog olim O'rol Nosirovdir. U tarixchi bo'lmasada, o'zining "O'zbeklar shajarası" nomli kitobida o'ta murakkab va katta mas'uliyat talab etadigan muammolarni hal qilishga qo'l urgan. Natijada unda ilm-fandan yiroq, asossiz va xayoliy fikr-mulohazalar ilgari surilgan. Shunday yozuvchilardan yana biri Anvar Shukurovdir. Uning "O'zbek atamasining kelib chiqishi haqida" deb nomlangan risolasi (Toshkent, 2010) afsonaviy ma'lumotlar va rivoyatlar yoki tarixiy manbalardagi ma'lumotlarni buzib ko'rsatishlar va uydirmalarga asoslangan. Havaskor "tarixchilar"dan yana biri Z.Ziyotovning "Shumerlar va turkiy qavmlar" nomli kitobida (Toshkent, 2012) qadimgi shumerlar va ularning kelib chiqishi haqida keng ma'lumot berilgan. Qozoq adibi O.Suleymenovning O'bekistonda ham izdoshlari bor ekanda. Faqat birinchisi yozuvchi bo'lsa, ikkinchisi qishloq xo'jaligi ma'lumotiga ega, lekin u "Turon fanlar akademiyasi"ning a'zosi, ya'ni "akademik".

Bu va shunga o'xshash asarlarni ilmiy deb bo'lmaydi, chunki ularni yozgan odamlar bu sohada mutaxassis emas. Ularni ilmiy-ommabop asrlar deb ham bo'lmaydi, chunki ularni ham odatda shu masalani chuqur bilgan mutaxassislar keng xalq ommasiga sodda tilda umumiylar ma'lumot berish uchun yozadilar. Ilgari bunday masalalar Fanlar Akademiyasi tomonidan nazorat etilar va rejali ravishda amalga oshirilar edi. U vaqtarda kitobning chop etilishi muhim bir voqeа hisoblanar edi. Bu ishni hamma ham uddasidan chiqa olmas edi. Chunki kitob nashr etilishi uchun bir qancha talablarga javob berishi kerak edi. Ayniqsa "Fan" nashriyotining talablari yuqori edi va unda faqat ilmiy asarlар nashr etilar edi. Oxirgi vaqtarda kitob chiqarish faqat va faqat pul bilan bog'liq bo'lib qolgan. Kim pul to'lasa, kitobi albatta nashr etiladi. Uning mazmuni esa hech qanday ahamiyatga ega emas. Buning uchun mutaxassis bo'lish ham shart emas.

Shuning uchun bizda tarixning turli mavzulari bo‘yicha har xil sohalarning vakillari – filologlar, yozuvchilar, san‘atkorlar, texnik xodimlar, ishbilarmonlar va hatto talabalar ham “qalam tebratmoqdalar”. “Fan” nashriyoti ham oldingi ahamiyatini yo‘qotib, oddiy bir kichik nashriyotga aylanib qolgan. Unda ilmiy asarlardan ko‘ra ko‘proq badiiy asarlar va ertaklar nashr etiladi.

To‘g‘ri, o‘z vatani va xalqining tarixiga qiziqish bu yaxshi fazilat. Albatta, bu kitob va risolalar yaxshi niyat bilan yozilgan. Ularning mualliflari chet ellarning fondlaridan grant olmaganlar. Shuning uchun ularning fikrlari mustaqil va xolis. Lekin birlamchi tarixiy manbalarni bilmasdan va ularni malakali tahlil qilmasdan yozilgan bunday kitoblarning foydasidan ko‘ra zarari ko‘proq. Ular ilmiy haqiqatni aniqlash yoki tariximizni to‘g‘ri anglashga emas, balki mutaxassis bo‘lmagan odamlarni chalkashtirishga va undan ham ko‘proq muammolarni keltirib chiqarishga xizmat qiladi. Mutaxassis olimlarimiz o‘z vaqtida bunday kitoblarga munosabat bildirganlar.

Nihoyat bu havaskor “tadqiqotchilar” ning asarlardan bezor bo‘lgan akademik olimlarimizdan biri yengini shimarib, o‘zbek xalqining shakllanishi tarixini yozishga kirishdi. 2005-yilda akademik A. Asqarov oriyalar haqida yangi fikrini ilgari surib, oriyalar aslida turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar bo‘lgan, keyinchalik O‘rta Osiyoning mahalliy eroniylarini ostida ular til jihatdan eroniylashib ketgan, degan faraz bilan chiqdi [Askarov 2005: 88]. Bu fikrni olim o‘zining yangi nashr etilgan monografiyasida ham ilgari surgan [Asqarov 2015]. Olimlar 200 yil mobaynida oriyalarning qayerdan kelib chiqqanligi haqida munozara olib boradilar. Ba’zilar ularni O‘rta Osiyoga Yaqin Sharqdan ko‘chib kelgan deb hisoblasalar, boshqalar, Urol tog‘larining janubiy yonbag‘rlaridan kelgan, deydilar. Lekin hali birorta jiddiy olim ularning eroniylarini tilda so‘zlashganligiga shubha bildirmagan [Rtveladze 2007: 12, 13]. A. Asqarov oriyalarning turk tilida so‘zlashuvchi qabila bo‘lganligi haqida yozganda, asosan, 2 ta manbara tayanadi. Birinchisi, jez davrining Andronovo madaniyati tarqalgan hududlarda ilk o‘rta asrlarda turk tilida so‘zlashuvchi xalqlar yashagan. Ikkinchisi, xitoy manbalarida xabar berilishicha, qadimda, ya’ni m. a. II ming yillikda, Xitoydan shimol va shimoliy arbdagi dashtlarda turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar yashagan. Lekin bu ikkala ma’lumot ham oriyalarning turk tilida so‘zlashuvchi qabila bo‘lganligiga jiddiy asos bo‘la olmaydi. Andronovo madaniyatini qoldirgan xalqlarning tili hali aniqlanmagan. Ko‘pchilik olimlar ularni eroniylarini tilda so‘zlashgan deb hisoblaydilar. Chunki buni tasdiqlovchi bir qator dalillar mavjud. Xitoy manbalaridagi ma’lumot ham boshqa manbalarda o‘z tasdiqini topmagan va ko‘pchilik olimlar tomonidan e’tirof etilmagan.

A.Asqarov tomonidan ilgari surligan yana bir g‘oya shundan iboratki, O‘rta Osiyoning oriylardan burungi eng qadimgi, ya‘ni tub aholisi eroniylardan so‘zlashgan [Askarov 2005: 86]. Bu g‘oya uning sho‘rolar davrida yozilgan ishlarida ham uchraydi [Askarov 1981: 178]. Bu fikrnинг ham isboti yo‘q. Shuning uchun ko‘pchilik olimlar unga qarshi chiqqanlar [Rtveladze 2007: 12 – 13; Sagdullaev 2007: 35 – 36]. U davrlarda yozuv hali bo‘lmagan. Arxeologik va antropologik manbalar esa til haqida hech qanday ma’lumot bermaydi. Lingvistik va toponimik tadqiqotlarga ko‘ra (biz esa ularni inkor etishga haqqimiz yo‘q), O‘rta Osiyoda oriylarga qadar dravid va urol-oltoy tillarida so‘zlashuvchi xalqlar yashagan. Ular orasida turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar ham bo‘lgan. Oriylar kelgandan keyin ularning bir qismi Hindistonga, bir qismi esa Sharqiy Turkiston va Sibirga ko‘chib ketgan. Qolganlari asta-sekin oriylar bilan qorishib ketgan. Demak, A.Asqarovning yangi g‘oyasini isbotlash uchun qo‘srimcha dalillar talab etiladi. Bunday ma’lumotlar esa hozircha yo‘q. Buning uchun yangi tadqiqotlar, izlanishlar olib borish kerak. Mutlaqo yangi fikrning ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinishi hech qachon oson kechmagan.

Ko‘rib turibmizki, o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishdagi ko‘p masalalar hali to‘liq va to‘la-to‘kis hal etilmagan. Buning uchun yangi manbalar va materiallar asosida xolis ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar olib borish lozim.

Boshqa bir akademik E.Rtveladze o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasi bilan maxsus shug‘ullanmasa ham, biroq o‘zbeklarning etnik tarixi bilan bog‘liq bo‘lgan ayrim masalalarga qiziqish bildiradi. Agar A.Asqarov o‘zining ilmiy qarashlarini ochiq izhor etib, ilmiy bahslarda har doim uni astoydil himoya qilsa, E.Rtveladze undan ko‘proq ehtiyyotkorlik bilan ish yuritadi va ishonchi komil bo‘lmagan narsalar haqida yozmaydi. Lekin u ko‘p gapiradi va har safar o‘zining xato fikrlarini takrorlaydi. Bu bilan u yosh avlodning milliy o‘zligini anglashiga katta zarar yetkazadi, ularning ongini chalkashtiradi va xalqimizning o‘tmishi haqida noto‘g‘ri tasavvur hosil qiladi. Hamma esa unga ishonadi. Axir, u akademik-ku, uning so‘zi esa qonun bilan barobar yuradi. Har qalay u o‘zi haqida shunday deb o‘yaydi. Uning noto‘g‘ri fikrlaridan biri “Turkiston” joy nomining kelib chiqishidir. Uning fikricha, yoki o‘zining chiqishlarida ko‘plab ta’kidlagan so‘zlariga ko‘ra, “Turkiston” joy nomi tarixiy asosga ega emas, u XIX asrda rus olimlari tomonidan o‘ylab topilgan va muomalaga kiritilgan. Bu xato fikr unda manbalardagi ma’lumotlarni bilmaslik va turklar tarixi haqida kommunistik targ‘ibot ta’siri ostida shakllangan eskirgan noto‘g‘ri tushunchalar tufayli yuzaga kelgan. Bizning tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatadiki, “Turkiston” joy nomi VI – VII asrlardan boshlab “Markaziy Osiyo” ma’nosida paxlaviy, so‘g‘d, boxtar, arman, gurji

va boshqa tillardagi manbalarda ishlataligani. Islom davrida “Turkiston” joy nomi mo‘g‘ullar istilosidan oldingi va keyingi davrning arab, fors va turk tillarida yozilgan deyarli barcha manbalarida uchraydi. Uning yana bir noto‘g‘ri fikrlaridan biri “O‘zbekiston” joy nomining kelib chiqishidir. Uning fikriga ko‘ra, “O‘zbekiston” joyi nomi ham tarixiy asosga ega emas, uni ham 1924 yilda rus olimlari o‘ylab topganlar. Bu xato fikr ham unda manbalardagi ma’lumotlarni bilmaslikdan va kommunistik targ‘ibot ta’siri ostida shakllangan o‘zbeklarning tarixi haqidagi eskirgan va noto‘g‘ri tasavvur natijasida vujudga kelgan. Bizning tadqiqotimiz shuni ko‘rsatadiki, “O‘zbekiston” joy nomi XVI – XVIII asrlarda fors va turk tillarida yozilgan manbalarda, Boburiylar saroyida (XVI asr) bo‘lgan Fransiya elchisining xotiralarida, shuningdek, XIX – XX asrning boshidagi ba’zi rus tilidagi manbalarda qayd etilgan. Bundan tashqari “O‘zbekiston” joy nomi XVI – XVIII asrlarda Yevropada chizilgan ko‘plab xaritalarda ham qayd etilgan.

Bizning “akademik” Markaziy Osiyo tarixiy toponimiyasida havaskor bo‘lsa, Kushan arxeologiyasi va Choch numizmatikasi sohalarida E.Rtveladze o‘zini ancha dadil his qiladi va hatto o‘zini tengi yo‘q deb hisoblaydi. To‘g‘ri, E.Rtveladze o‘zining qilgan tadqiqotlari bilan Kushon arxeologiyasiga, shuningdek, Choch numizmatikasiga bebahohi hissa qo‘sghan deb aytish mumkin. Biroq, uning bu sohalardagi xizmatlarini inkor etmagan holda shuni ham aytish kerakki, uning Choch tangalaridagi sug‘dcha yozuvlarni noto‘g‘ri o‘qishlari va ular asosida chiqargan noto‘g‘ri xulosalari odamlarda Chochning islomidan oldingi tarixi va bu yerda hukm surgan sulolalar haqida xato tushunchalar hosil bo‘lishiga sababchi bo‘ldi. Bu esa, o‘z navbatida, uzoq vaqt davomida ilmiy jamoatchilikda Chochning islomdan oldingi davrlardagi tarixi haqida yanglish tasavvur hukmronlik qilishiga olib keldi. G.Boboyorov va A.Kubatin olib borgan tadqiqotlari shuni ko‘rsatdiki, mazkur tangalardagi sug‘dcha yozuvlarning ko‘plarida, aslida, turkcha ismlar va unvonlar ifoda etilgan. Bu esa bu viloyat tarixining umumiyligi manzarasini tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu yangi o‘qishlar sug‘dshunos olim M.Is’hoqov tomonidan tasdiqlangan bo‘lsa ham, E.Rtveladze dastlab buni tan olishni istamadi. Axir u o‘zini nafaqat arxeologiya va numizmatika sohasida, balki sug‘d tili va paleografiyasi sohasida ham mutaxassis deb hisoblaydi. Faqat xalqaro ekspertlarning aralashuvi yosh tadqiqotchilarga yangi o‘qishlarini himoya qilishga yordam berdi. Lekin “burnini boshqa sohaga tiqqan” bu olim, o‘zining “akademik” ekanligidan foydalanib, uzoq vaqt davomida ilmiy jamoatchilikni aldab keldi, yoshlarimiz va umuman odamlarimizning ongiga salbiy ta’sir o‘tkazib keldi. Shuning uchun G‘arbdagi olimlar to‘g‘ri

qiladilar: har bir tadqiqotchi, unvonidan qat’iy nazar, o‘zining tadqiqot sohasiga qat’iy rioya qiladi.

“Burnini boshqa sohaga tiquvchi” olimlardan yana biri huquqshunos A.Saidovdir. Uning fikricha, huquqshunoslari Markaziy Osiyo davlatchiligi va huquqshunosligi tarixi bilan shug‘ullanishga haqlidir. Lekin tarix va sharqshunoslik sohasidagi talaba va yosh tadqiqotchi ham biladiki, har qanday tarixiy tadqiqot birlamchi manbalarga asoslangan bo‘lishi lozim. Aks holda bunday “tadqiqot” ilmiy ahamiyatga ega bo‘lmaydi. Tarjima-larga asoslangan “tadqiqot” esa umuman keraksiz yozuvdan boshqa hech narsa emas. Markaziy Osiyoda davlatchilik va huquqshunoslik tarixi bo‘yicha deyarli barcha manbalar sharq tillarida yozilgan, A.Saidov esa ulardan birortasini ham bilmaydi. Bundan tashqari, u faqat huquqshunoslik sohasida ma’lumotga ega bo‘lib, tarixiy tadqiqot o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan bilimlarga ega emas. Tarix bo‘yicha ilmiy tadqiqot yozih bu cho‘pchak aytish emas-ku. Buning uchun kerakli bilimlar va ko‘nikmalarga ega bo‘lish lozim. Universutetda bo‘lajak tarixchilarni bekorga 6 yil o‘qitmaydi. A.Saidov esa hatto klassik sharqshunoslikning vakolatiga kiruvchi soha – sharq tillaridagi manbalarni nashr etish bilan ham “shug‘ullanish” ni o‘ziga mumkin deb biladi. Bunday murakkab ishlarga esa har qanday tarixchi va sharqshunos ham qo‘l urishga jur’at etmaydi. Endi u “akademik” bo‘lganidan keyin balki islom tarixi bilan ham “shug‘ullanish” ni istab qolsa ehtimoldan holi emas. Afsuski, bunday ilm-fan qoidalariga zid bo‘lgan holatlarni O‘zbekistonda hali ham uchratish mumkin.

Bunday “olim” larning ro‘yxatini yana davom ettirilish mumkin, lekin biz o‘quvchining sabr-toqatini ehtiyoq qilib, shu yerda to‘xtashga qaror qildik.

Savollar:

1. “O‘zbek” nomi qachon vujudga kelgan?
2. “O‘zbekiston” atamasi qaysi manbalarda uchraydi?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. O‘zbek xalqining kelib chiqishi haqida ilmiy qarashlar.
2. O‘zbekistonning tarixiy xaritalari.

III bob. MARKAZIY OSIYONING ENG QADIMGI AHOLISI HAQIDA ILMIY MA'LUMOTLAR

3.1. Markaziy Osiyoning tub aholisi

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyo mintaqasida eng qadimgi davrlarda yashagan aholi haqida ilmiy ma'lumot berish. Arxeologik madaniyatlar, moddiy madaniyat yodgorliklari va ularning ilmiy talqinlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: Anov madaniyati, Kalta Minor madaniyati, Hisor madaniyati, dravid tili, urol-oltoy tillari, ugor tillari, yenisey tillari.

Markaziy Osiyo dunyodagi ibridoiy odam yashsgan eng qadimgi mintaqalardan biri hisoblanadi. Teshiktosh, Selung‘ur g‘orlari, Ko‘lbuloq, Obirahmat manzillari. M. a. VI – V ming yilliklarda Markaziy Osiyoda 3 ta madaniyat o‘choqlari mavjud bo‘lgan – Anov, Kalta Minor va Hisor madaniyatlar. Anov madaniyati hozirgi Turkmanistonning janubi-g‘arbida (Ashxobod yaqinidagi Anov qishlog‘i atrofida) m. a. VI – V ming yilliklardan boshlab tarqalgan. Ular asosan sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar va ilk sug‘orish inshootlari barpo etganlar. Bu madaniyat zaminida keyinchalik (m. a. III – II ming yilliklarda) shaharchilik madaniyati vujudga kelgan. Olimlarning taxmin qilishicha, Anov madaniyatining aholisi dravid tilida so‘zlashgan. M. a. II ming yillikda oriy qabilalarining Markaziy Osiyoga ommaviy kirib kelishi natijasida bu xalqning ko‘p qismi janubi-sharqqa ko‘chib ketgan, qolganlari esa astasekin oriyalar bilan qorishib ketgan. Ularning tilining qoldiqlari sanskrit tilida, aholisining qoldiqlari esa hozir Janubiy Hindistonda saqlangan.

Kalta Minor madaniyati neolit davrida (m. a. VII – III ming yilliklar) Orol dengizining shimoli-sharqiy va Kaspiy dengizining sharqiy sohillarida, Balxan, Mang‘ishloq yarimorolida, Oqchadaryo deltasiga, Qizilqum, Yuqori Uzboy, Mohondaryo hududlarida tarqalgan. Bu yerlarda yashagan aholi asosan ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan shug‘ullangan. Odamlar chaylalarda yashaganlar, loydan sopol idish-tovoqlar yasaganlar. Ularda ibridoiy tikuvchilik va kemasozlik ham rivojlangan edi. Olimlarning taxmin qilishicha, ular urol-oltoy, shu jumladan turk va ugor tillarida so‘zlashganlar.

Hisor madaniyati m. a. VI – III ming yilliklarda (neolit) Tojikistonning Yovonsuv, Vaxsh, Qizilsuv, Kofirnihon daryolari havzalarida tarqalgan.

Ular tosh va suyakdan qurollar yasaganlar, asosan ovchilik va terimchilik bilan shug‘ullarganlar. Jez davriga kelib dehqonchilik bilan shug‘ullana boshlaganlar. Olimlarning taxmin qilishicha, Hisor madaniyati aholisi tili hozirgi ma’lum til oilalaridan birortasiga ham mansub bo‘lmagan. Ularning tili butunlay yo‘qolib ketgan. M. a. II ming yillikda oriy qabilalarining Markaziy Osiyoga ommaviy kirib kelishi natijasida bu xalqning bir qismi Hindukush tog‘lariga ko‘chib ketgan, qolganlari esa asta-sekin oriyalar bilan qorishib ketgan. Hindukush tog‘larining baland tog‘laridan birida tili noma’lum bir guruh aholi yashaydi. Ularning lahjasidagi hech qaysi tilga o‘xshamaydi. Taxmin qilinishicha, bu lahja qadimgi Hisor madaniyati sohiblari tilining qoldiqlari bo‘lishi mumkin. Lingvistik va toponimik tadqiqotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyoda neolit va jez davrida Yenisey tillari ham keng tarqalgan. Bu tillarning qoldiqlari hozirgi Sibirdagi juda kam sonli xanti va mansi xalqlarining tillaridan iborat. Ilgari bu tillarda so‘zlashuvchilarining soni juda ko‘p bo‘lgan va ular juda keng hududlarda, shu jumladan, Markaziy Osiyoda ham yashaganlar. M. a. II ming yillikda oriy qabilalarining Markaziy Osiyoga ommaviy kirib kelishi natijasida bu xalqning ko‘p qismi shimolga ko‘chib ketgan, qolganlari esa oriyalar bilan qorishib ketgan.

Lingvistik va toponimik tadqiqotlarga ko‘ra, neolit va jez davrida Markaziy Osiyoda yenisey tillari ham keng tarqalgan edi. Ularning qoldiqlari hozir Sibirdagi kam sonli *xansi* va *mansi* qabilalari hisoblanadi. Qadimda bu tilde so‘zlashuvchilarining soni bundan ancha ko‘p bo‘lib, ular keng hududlarni, shu jumladan Markaziy Osiyoni ham egallaganlar. M. a. II ming yillikda oriy qabilalarining ommaviy ravishda Markaziy Osiyoga ko‘chib kelishi natijasida bu xalqlarning asosiy qismi Sibirga ko‘chgan, qolganlari esa oriyalar bilan qorishib ketgan.

Yozuv madaniyati Markaziy Osiyoga m. a. I ming yillikning o‘rtalarida kirib kelgan. Shu davrga mansub kam sonli yozma yodgorliklardagi ma‘lumotlar asosida Markaziy Osiyoning o‘sha davrdagi aholisi eroniy tillarda so‘zlashgan deb hisoblanadi. Bunga asosan qadimgi xalq vakillarining ismlari, ma‘lumotni qoldirgan sayohatchi bilan olib borgan muloqot tili va ulardan qolgan yozma yodgorliklarning tili dalil qilib ko‘rsatiladi. Lekin bunday qarash juda yuzaki va munozarali bo‘lib, haqiqiy holatni aks ettirmaydi. Birinchidan, yozuv tili bilan jonli til doim ham bir xil bo‘lmaydi. Yozuv tili, ya‘ni rasmiy til bitta, jonli tillar esa bir nechata bo‘lishi ham mumkin. Masalan, qadimgi Hindistonda rasmiy til sanskrit, jonli tillar esa 20 dan ortiq bo‘lgan. Qadimgi Mesopotamiyada ham shunga o‘xhash holat bo‘lgan. Ikkinchidan, u yoki bu ma‘lumotni yozib qoldirgan sayohatchi bilan olib borilgan muloqot tili ham aholining ona tilidan farq qilishi mumkin. Masalan, Arab xalifaligida xalqaro

muloqot tili arab tili, Rim imperiyasida lotin tili, Sosoniylar imperiyasida pahlaviy tili, Turk xoqonligida esa turk tili bo‘lgan. Bu tillarda davlat ishlari, rasmiy yozishmalar va tarixiy asarlar yozilgan. Lekin bu davlatlarda turli-tuman xalqlar yashagan va ularning o‘zlarining muloqot tillari ham bo‘lgan. Rasmiy til turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlarning ham muloqot tili bo‘lgan. Masalan, XII asrda samarqandlik olim Abu Hafs Umar Nasafiyning ona tili fors tili, uning oldiga Andalusiyadan kelgan olimning tili esa ispan tili bo‘lgan. Lekin ular o‘zaro arab tilida so‘zlashganlar. Shu singari hozirgi vaqtida o‘zbeklar gruzinlar bilan, tojiklar armanlar bilan, va hatto o‘zbeklar bilan ko‘pincha rus tilida muloqot olib boradilar. Shunday qilib, yozuv tili va muloqot tili ko‘pincha uni ishlatgan aholining etnik mansubligini aks etdirmaydi. Uchinchidan, odamlarning ismlari ham ularning etnik mansubligini bildirmaydi. To‘g‘ri, qadimda ba’zi ismlar odamlarning etnik mansubligini bildirgan. Turklarda turkcha, arablarda arabcha, forslarda forscha, yunonlarda yunoncha ismlar ishlatilgan. Lekin ko‘pincha ismlar odamlarning diniy e’tiqodi bilan ham bog‘liq bo‘lgan. Masalan, arablarda muslimanlar ham, nasroniylar ham bo‘lgan. Ularning ismlari tubdan farq qilgan. Qadimgi turklarda ham otashparastlik, buddaviy, nasroniy dinlari tarqalgan. Otashparast turklarda asosan eroniy ismlar, buddaviylarda sanskritcha ismlar, xristianlarda esa suryoniy yoki yunocha ismlar tarqalgan. Islom davrida esa asosan arabcha ismlar keng tarqalgan. Shuning uchun odamlarning etnik mansubligini aniqlash juda qiyin bo‘lgan. U davrlarda buning hojati va ahamiyati ham bo‘lmagan. Chunki odamlarni farqlashda asosiy ko‘rsatkich til emas, diniy va mazhabiy mansublik bo‘lgan. Turli tillarda so‘zlashgan, lekin bir dinga e’tiqod qilgan odamlar bir jamoa hisoblangan. Shu singari bir tilda so‘zlashgan, lekin har xil dinlarga e’tiqod qilgan xalq vakillari bir biriga yet bo‘lgan.

Savollar:

1. *Dravid tili qaysi tillar oilasiga mansub bo‘lgan?*
2. *Yenisey tillari qaysi tillar oilasiga mansub?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Anov madaniyatining moddiy yodgorliklari.*
2. *Kalta Minor madaniyatining moddiy yodgorliklari.*

3.2. Markaziy Osiyoning qadimgi eroniy aholisi

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyoga oriy qabilalarining kirib kelishi va ulardan eroniy tilli xalqlarning ajralib chiqishi jarayonlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: oriy qabilalari, toxarlar, sug‘dlar, boxtariylar, xorazmiylar, saklar, forslar.

M. a. II ming yillikning o‘rtalarida Markaziy Osiyo hududlariga hind-eroniy tillarda so‘zlashuvchi oriy qabilalari kirib kelgan. Ular bu yerda yashagan dravid, ural-oltoy va ugor tillarida so‘zlashuvchi xalqlarning bir qismini mintaqadan siqib chiqarganlar, bir qismini o‘zlariga singdirganlar, qolgan tub aholi esa oriy larning hukmronligi ostida yashashda davom etgan. Temir davriga kelib (m. a. I ming yillik) oriy qabilalari asosida hind va eroniy tillar bir-biridan ajralib, ularda so‘zlashuvchi bir qancha xalqlar vujudga kelgan. Markaziy Osiyoda sug‘dlar, xorazmiylar, boxtariylar, saklar, Eronda – forslar va boshqalar.

“Sug‘d” so‘zi aslida joy nomi bo‘lib, unda yashagan odamlar “sug‘dliklar” deb atalgan. “Sug‘d” atamasi ilk bor m. a. I ming yillikning o‘rtalaridagi yozma yodgorliklarda qayd etilgan. Sug‘d xalqi avval Ahamoniylar, keyin yunonlar, kushonlar, eftaliylar, turklar va nihoyat arablar hukmronligi ostida hayot kechirgan. Ayniqsa Turk xoqonligi davrida sug‘dlarning xalqaro faoliyati uchun keng imkoniyatlar ochilgan. VI – VIII asrlarda sug‘d va turk xalqlari orasida yaqin etno-madaniy aloqalar vujudga kelgan. O‘rta Osiyoni arablar va forslar bosib olgandan keyin sug‘dlarning bir qismi Sharqiy Turkiston va Xitoyga ko‘chib, keyinchalik u yerdagi turklar bilan qo‘silib ketgan. Ularning O‘rta Osiyoda qolgan asosiy qismi ixtiyoriy ravishda mahalliy o‘troq turklar bilan qorishib ketgan va keyinchalik o‘zbek xalqining tarkibiga kirgan. Ularnig bir qismi majburiy ravishda arab va fors bosqinchilari bilan qo‘silib ketgan va keyinchalik tojik xalqining tarkibiga kirgan.

Boxtariylar Markaziy Osiyoning janubiy hududlarida yashaganlar. Ularning tili kushonlar, eftaliylar va Turk xoqonligi davrining yozma yodgorliklarida saqlangan. Xususan, toshbitiklar, devoriy suratlar, sopol parchalari va tangalardagi yozuvlar shular jumlasidandir. Shimoliy Afg‘onistonda topilgan Rabatak arxivi 100 ga yaqin boxtar tilidagi hujjatlardan iborat. Boxtar tili arablar istilosiga qadar ishlatalgan. Keyinchalik (IX asrda) uning o‘rnini arab va yangi fors tillari egallagan.

Xorazmiylar shimoli-sharqiy Eron hududlari (Hirot atroflari) dan ko‘chib kelganlar va mahalliy massaget qabilalari bilan aralashib, ularga o‘z nomlarini bergenlar. Xorazmiylar ilk bor Behistun bitiklari, shuningdek Gerodot, Gekatey Miletlik asarlarida qayd etilgan. Nil daryosi bo‘yidagi m. a. V asrga mansub shahar xarobalarida topilgan yahudiy tilidagi bir hujjatda keltirilgan ma’lumotga ko‘ra, Ahamoniylarning Misrga yuborilgan qo‘sining sarkardasi xorazmlik Xarchin o‘g‘li Dargman bo‘lgan. Xorazmiylarning tili hozir o‘lik bo‘lib, u haqida juda kam ma’lumotlar saqlangan. Yozma yodgorliklari ham juda sanoqli. Tuproq qal'a yodgorligida bu tilda bitilgan qo‘lyozma topilgan. Bu til m. a. III – II asrlardan milodiy VIII asrga qadar Xorazm davlatining rasmiy tili bo‘lgan. Xorazmda oramiy yozuvi asosidagi yozuv ishlatilgan. IX asrdan keyin arab alifbosidan foydalanilgan va unga 5 ta harf qo‘sib ishlatilgan. Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” asarining 1200-yilda Xorazmda ko‘chirilgan qo‘lyozma nusxasi ana shu yozuvda bitilgan. Xorazm tili XV – XVI asrlarga qadar saroy ahlining tor doirasida maxfiy til sifatida ishlatilgan. Shundan keyin u o‘lik tilga aylangan.

Ko‘chmanchi sak qabilalari Yevrosiyo dashtlarida ko‘chib yurganlar. Markaziy Osiyoda Sirdaryo bo‘ylari, Qozog‘iston dashtlari, Kaspiy va Orol atroflarida yashaganlar. Ilk bor sak qabilalari Ossuriya poytaxtidagi Ishtar ibodatxonasini qazish vaqtida marmar taxtaga podshoh Ashurbanipal (m. a. 669 – 631 yillar) yozdirgan bitikda qayd etilgan. Bu yozuvda kimmeriyalar sardori sak podshohi deb atalgan. Yunon manbalarida ular skiflar deb atalgan. Behistun bitiklarida uch turli saklar qayd etilgan. Doro I yodgorligida unga sovg‘a keltirayotgan sak sardorlari tasvirlangan (barelief). Sharqiy Turkistonda Xotan shahridagi ilk o‘rta asrlarga mansub tarixiy yodgorliklardan birida eroniylardan yozilgan bir qo‘lyozma topilgan. Uning tilini ilm-fanda “xotan-sak tili” deb atash qabul qilingan.

Pomir tog‘larida eroniylardan tillarda so‘zlashuvchi yana bir guruh aholi yashaydi. Bu tillar hozirgacha saqlangan bo‘lib, asosan Badaxshon, Vaxon, Shug‘non, Rushon, Darvoz kabi yerlada tarqalgan. Bu yerlarda deayarli har bir qishloqning o‘ziga xos tili mavjud va ular bir-biriga o‘xshamaydi. Pomir tillari juda ham qadimiy bo‘lib, ularda eroniylardan tillarning eng qadimgi elementlari saqlangan. Lekin Pomir tillarining yozma yodgorliklari yo‘q. Bu tillarda so‘zlashuvchilar doim faqat baland tog‘larda yashaganlar va yozuv madaniyatiga ega bo‘lmaganlar. Pomir tillari ham sug‘d tili singari fors tilidan katta farq qiladi. Ilgari pomirliklar fors tilini umuman tushunmaganlar. Shu ning uchun ular tekislikka tushganda, shaharliklar ularni “g‘alcha” deb ataganlar. Aslida bu so‘z g‘archa shaklida bo‘lib, “tog‘lik” degan ma’noni anglatadi.

Bulardan tashqari Sharqiy Turkistonda *toxarlar* yashagan. Ular oriylardan ham oldingi hind-yevropa xalqlarining oilasiga mansub bo‘lib, Yaqin Sharqdan Markaziy Osiyo mintaqasiga m. a. IV – III ming yilliklarda kirib kelganlar. Ularning tili hind va eroniy tillardan farq qilib, o‘zida hind-yevropa tillarining ulardan ham qadimgi holatini aks etdirgan. Bu tilning yozma yodgorliklari ilk o‘rta asrlarga mansub. M. a. II asrda toxarlarning bir qismi *yuechji* qabilalari bilan birga Amudaryoning janubidagi Baktriya hududlariga ko‘chib, bu yerda Kushon davlatiga asos solganlar. Rasmiy muomalada ular boxtar tili va yozuvidan foydalanganlar. Kushonlarning asl tili esa haligacha aniqlanmagan. Kushonlar davrida yana bir yozuv ishlatilgan, lekin uni hali hech kim qoniqarli o‘qiy olmagan. Taxmin qilinishicha, bu yozuv kushonlarning asl tilini aks etdirishi mumkin. Ilk o‘rta asrlarda qadimgi Baktriya hududi Toxariston deb atalgan va avval eftaliylar davlati, keyin esa Turk xoqonligining tarkibiga kirgan. Bu davrga kelib kushonlar va toxarlar mahalliy boxtarlar bilan qorishib ketgan. Toxarlarning Sharqiy Turkistonda qolgan qismi ham keyinchalik tilini yo‘qotib, qo‘shni uyg‘urlar bilan qorishib ketgan va hozirgi uyg‘ur xalqining tarkibiga kirgan.

Rus va tojik tarixshunosligida Markaziy Osiyoning qadimgi eroniy tilli aholisi madaniyatining davomchisi hozirgi tojiklardir, degan fikr qabul qilingan. Aslida esa unday emas. Fors tili g‘arbiy eroniy tillar guruhiha mansub bo‘lib, O‘rta Osiyoda kelgindi til hisoblanadi. Markaziy Osiyoning qadimgi eroniy tillari esa sharqiy eroniy tillar guruhiha mansub bo‘lgan va g‘arbiy eroniy tillardan katta farq qilgan. Ilk o‘rta asrlarda sug‘dlar madaniy jihatdan forslarga emas qo‘shni o‘troq va shahar turklariga yaqinroq bo‘lganlar. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha, sug‘dlar o‘zlarini forslar bilan qorishishdan asraganlar va ularning asosiy qismi ixtiyoriy ravishda turklar bilan qorishib ketgan. Ularning faqat bir qismi majburiy ravishda arab va fors bosqinchilari bilan qorishgan. Sug‘d tilining lajhalaridan biri Tojikistondagi Yag‘nob qishlog‘ida hozirgacha saqlangan. Yag‘- nobliklar haligacha atrofdagi tojiklar bilan qorishib ketmaganlar va o‘zlarini ulardan ajratadilar. Bu yerda yashovchi tojiklar yag‘nob tilini tushunmaydilar. Shu bilan birga yag‘nob tilida qadimgi turk tilidan o‘zlashtirilgan so‘zlar ko‘p. Demak, yag‘nobliklarning uzoq o‘tmishdag‘i ajdodlari qadimgi turklar bilan yaqin muloqotda bo‘lganlar. Pomir tillari bilan ham ahvol xuddi shunday. XIX – XX asr boshlarida pomirliliklar fors tilini begona til, tojiklarni esa “turli yerlardan ko‘chib kelgan kelgindilar” deb hisoblaganlar. Ularning farqi yana shundan iboratki, pomirliliklar XI asrdan boshlab hozirgacha islom dinidagi shi‘a mazhabining “ismoiliya” firqasiga mansubdirlar. Tojiklar esa o‘zbeklar va afg‘onlar singari islom dinining sunna mazhabiga rioya qiladilar.

Umuman olganda, tarixda hech qachon “tojik tili” va “tojik xalqi” degan alohida etnik birlik bo‘lmagan. Bu tushunchalarni rus mustamlakachilari o‘ylab topganlar. Aslida “tojik tili” bu fors tilidir. Fors tili esa is lom dinini qabul qilgan turklarning ikkinchi tili hisoblangan. Su‘gd tili yo‘qolgandan keyin uning o‘rnini fors tili egallagan. Arab alifbosiga asoslangan fors tilining yuksalishida ham turklarning xizmati katta bo‘lgan. Forslarning o‘zi dastlab “yangi fors tili” ni inkor etganlar va faqat arab tilida muomala qilganlar. Erondagi fors hukmdorlari fors tilida ijod qiluvchi shoirlarni qabul qilmaganlar va ular yozgan she’rlarni “shirk” deb, yoqib tashlaganlar. “Tojik xalqi” degan tushunchani V.V.Bartold rus hukumatining topshirig‘iga binoan “asoslab” bergen. Chunki ruslarning maqsadi oriylarning avlodи bo‘lmish “tojik xalqi” ni turklardan “ozod etish” va ular bilan birga Turkistonga abadiy egalik qilish edi.

Savollar:

1. *Toxar tillari nechta bo‘lgan, ular qachon va qaysi hududlarda tarqalgan?*
2. *Saklarning yozuvi bo‘ganmi?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Markaziy Osiyodagi “noma‘lum yozuv” yodgorliklari.*
2. *Xotan sak tili yodgorliklari.*

3.3. Markaziy Osiyoning qadimgi turk aholisi

Darsning o‘quv maqsadi. Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan qadimgi turklar va ularning yodgorliklari haqida ilmiy ma’lumot berish.

Tushunchalar va tayanch iboralar: qadimgi turklar, urol-oltoy tillari, turk joy nomlari, Turk xoqonligi.

Qadimgi turklar Markaziy Osyoning eng qadimgi aholisining bir qismini tashkil etgan. Qadimgi turk joy nomlari buning dalilidir. Qadimgi turkcha so‘zlardan yasalgan joy nomlari Markaziy Osyoning deyarli barcha qismlarida uchraydi. Bu esa shundan dalolat beradiki, turklar mintaqa qadimgi aholisining bir qismini tashkil etgan. Qadimgi turk joy nomlari zichroq jamlangan yerlar – Xorazm, Buxoro vohalari, Farg‘ona vodiysi va Tian-Shan (Tangritog‘) tog‘lari bo‘lgan. Buni arxeologiya va antropologiya ma’lumotlari ham tasdiqlaydi.

Qadimgi turklar Markaziy Osyoda, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar va ko‘chmanchilik hayot tarzi olib borganlar. Chunki iqlim sharoiti shuni taqozo etgan. Ba’zi olimlar turklar faqat ko‘chmanchi bo‘lganlar, shahar va qishloqlarda yashamaganlar, va bunga moslashmaganlar, singari fikrlarni ilgari suradilar. Shu o‘rinda aytish joizki, o‘troq yoki ko‘chmanchilik hayot tarzini olib borish u yoki bu xalqning milliy xususiyati emas, balki iqlim xususiyatlari bilan bog‘liq. Bir xalqning o‘zida o‘troq aholi ham, ko‘chmanchilar ham bo‘lishi mumkin. Masalan, arablarning bir qismi ko‘chmanchi bo‘lgan, bir qismi esa shaharlarda yashagan (Palmira, Petra, Makka, Madina). Qadimgi forslarning ham 10 ta qabilasidan 6 tasi o‘troq, 4 tasi ko‘chmanchi bo‘lgan. Qadimgi turklarda ham shunday bo‘lgan. Qayerda qaysi xo‘jalik turini olib borish qulayroq va unumliroq bo‘lsa, aholi shu bilan shug‘ullangan. Dashti Qipchoq yerlari chorvachilik uchun qulay bo‘lgan. Shuning uchun bu yerlarda yashagan qabilalar qaysi tilda so‘lashishidan qat’iy nazar, asosan, chorvachilik bilan shug‘ullanganlar va muayyan belgilangan hudud ichida ko‘chib yurganlar. O‘rtal Osiyo hududlarida yashagan aholi esa qaysi tilda so‘zlashishidan qat’iy nazar qadimdan, asosan, dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan va o‘troq hayot tarzi olib borgan. Chunki buni mahalliy iqlim xususiyatlari taqozo etgan. Keyinchalik bu madaniyat zaminida hunarmandchilik va shaharchilik madaniyati vujudga kelgan.

Bu jarayonlarda qadimgi turklar ham ishtirok etganlar. Turklarning qadimdan O‘rtal Osiyoda yashab kelganini nafaqat toponimik, balki lingvistik ma’lumotlar ham tasdiqlaydi. Lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, m.

a. V – IV ming yilliklarda qadimgi hind-yevropa qabilalari Yaqin Sharqdan sharq tomon ko‘chib, O‘rta Osiyoga kelganda, bu yerda turk tilida so‘zlashuvchi aholiga duch kelganlar va ular bilan uzoq vaqt davomida yonma-yon yashaganlar. Boshqa lingvistik tadqiqotlarga ko‘ra, qadimda turklar va dravid tilida so‘zlashuvchilar o‘zaro yaqin qo‘shni bo‘lganlar va oriylarning kirib kelishi natijasida ajralib, bir-biridan uzoqlashib ketganlar.

Ahamoniylar istilosi (m. a. VI – V asrlar), undan keyin yunonlar istilosi (m. a. IV – III asrlar) natijasida O‘rta Osiyo aholisining bir qismi, shu jumladan, turklar, Yevrosiyo va Sharqiy Turkiston hududlariga ko‘chishga majbur bo‘lganlar. Shuning uchun O‘rta Osiyoda kushonlar (m. a. II – milodiy III asrlar), xiyoniylar (IV asr), eftaliylar (V asr) va turklar (VI – VIII asrlar) ning hukmronligini ko‘chmanchi-larning bosqinchilik davri emas, balki bu yerlarning haqiqiy egalarining o‘z yerlariga qaytishi va ularni chet el boqinchilaridan ozod etishi deb baholanishi lozim.

Kushonlar, xiyoniylar va eftaliylarning kelib chiqishi va ularning tili noma’lum, bu masala haligacha o‘z yechimini topmagan. Olimlar bu masala bo‘yicha 100 yildan oshiq vaqt davomida munozara olib boradilar. Ba’zi olimlar ularning tili eroniy tillar oilasiga mansub bo‘lgan, deb hisoblaydilar, ba’zilar esa ularning kelib chiqishi turk bo‘lgan, keyin ular eroniylashib Xurosonning mahalliy aholisi bilan qorishib ketgan, deydilar. Xitoylik bir olim kushonlarning kelib chiqhishini Yevrosiyo turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar, eftaliylarning kelib chiqishini esa qadimgi Koreyadagi qabilalar bilan bog‘laydi. Bu masala shunday noaniq va munozarali bo‘lsa ham, Tojikiston olimlari kushanlar va eftaliylarni “tojik xalqining ajdodlari”, ularning davlatini esa, “tojik davlatchiligi tarixining bosqichlari” deb ko‘rsatmoqdalar. Xitoy olimlarining tadqiqotlriga asoslanib, ular II – VIII asrlarda afsonaviy Kirpand imperiyasi mavjud bo‘lgan va u tojiklarning davlatchiligi tarixining bir qismidir, deb da’vo qilmoqdalar. Tojiklarning bu da’volarining g‘oyaviy asoslari sho‘rolar davrida rus olimlari tomonidan yaratilgan. Chunki o‘sha davr tarix fanidagi asosiy g‘oyaviy ko‘rsatmalardan biri Yevrosiyo hududlarida, shu jumladan Markaziy Markaziy Osiyo mintaqasi tarixida turklarning ahamiyatini kamsitish va asosiy e’tiborni eroniy tilli xalqlarga qaratishdan iborat edi. Mazkur ko‘rsatmaning zaminida esa Chor Rossiyasi davrida olib borilgan kolonial siyosatning asosiy maqsadlaridan biri yotgan edi. U ham bo‘lsa, qadimgi turklarning ruslar tomonidan bosib olingan barcha yerlarini o‘zlashtirish va ularga abadiy egalik qilish uchun huquqiy zamin yaratish edi. Shuning uchun ruslar o‘zlarini “yangi oriylar” va Yevrosiyo hududlaridagi “eroniy tillarda so‘zlashuvchi xalqlarni turk-mo‘g‘ul istilosidan ozod etgan xaloskorlar” deb e’lon qilgan edilar. Sho‘rolar davrida “tojik xalqi” va Tojikiston respublikasi ham Turkiston birligini

sindirish maqsadida va o‘zbek xalqiga qarshi kurash vositasi sifatida o‘ylab topilgan edi.

Turk xoqonligi davriga kelib turklarning asosiy qismi o‘troqlashib, shahar va qishloqlarda yashaganlar. VIII asr boshlariga mansub To‘nyuquq bitigida yozilishicha, o‘sha davrda “turklarning faqat kichik bir qismi ko‘chib yurgan”. Bu ma’lumotdan ayon bo‘ladiki, VIII asr boshlarida turk qabilalari ittifoqiga kiruvchi 30 ta qabila va urug‘larning asosiy qismi o‘troq hayot kechirgan. Demak, ular shahar va qishloqlarda yashaganlar. Qadimgi turklarning sug‘orma dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganligini ularning bu sohalardagi boy atamalar to‘plami isbotlaydi. Bu tarixiy atamalar qadmigi turk toshbitiklari, yozma yodgorliklari va lug‘atlarida o‘z ifodasini topgan. Ayrim o‘simliklar, hayvonlar va qushlarning nomlari shundan dalolat beradiki, bu atamalarni ishlatgan turk tilida so‘zlashuvchi xalqlar Markaziy Osiyo mintaqasining aynan janubiy hududlarida yashaganlar.

Turk xoqonligi davrida turklarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi nufuzi, harbiy-siyosiy qudrati va xalqaro mavqeい nihoyat darajada ortdi. U davrda Markaziy Osyoning deyarli barcha viloyatlarida turk sulolalari hukm surdi. Ko‘p yerlarda, ayniqsa, Sug‘dda mahalliy eroniy va turk tilida so‘zlashuvchi aholining qorishuv jarayonlari kechdi. Diniy e’tiqodlarning mushtarakligi (zardushtiylik, buddaviylik, moniylik), siyosiy hokimiyatning yaxlitligi, turk va sug‘d ikki tilligi muhiti oxir oqibatda eroniy tilli xorazmliklar va sug‘dliklarning o‘troq turklar bilan etnomadaniy qorishuviga olib keldi. Natijada bu xalqlar mintaqaning o‘troq va shahar turklari ichiga ixtiyoriy ravishda singib ketdi. Bu qorishuv jarayonlarini arablar va forslarning bosqinchilik siyosati yana ham tezlashtirdi.

Arab xalifaligi tarkibida ham turklarning nufuzi juda baland bo‘lgan. Xalifalardan Horun ar-Rashid va uning o‘g‘li al-Ma’mun birinchi bo‘lib turklarni ko‘plab harbiy xizmatga jalb eta boshladilar. Xalifa al-Mu’tasim hukmronligi davrida esa turklar ommaviy ravishda Bag‘dodga ko‘chib kela boshladilar. Xalifalarning Samarrada qurilgan yangi saroyi atrofidagi yerlar turk sarkardalariga mulk sifatida bo‘lib berildi. Ayrim viloyatlarning hokimligi ham turklarga topshirildi. Masalan, Misrda va Suriyada farg‘onalik Tuluniylar va Ixshidiylar sulolalari hukm surdi. Ayrim arab xalifalari turk qizlariga uylanib, ulardan tug‘ilgan bolalar ulg‘ayib, taxtaga o‘tirganda, turklarga yana ham ko‘proq homiylik qila boshladilar. Natijada IX – X asrlarda turklar Abbosiylar xalifaligidagi deyarli barcha muhim lavozimlarni egallagan edilar. XI asrga kelib esa hokimiyat to‘la turklar, ya’ni Saljuqiylar qo‘liga o‘tdi.

Markaziy Osiyo mintaqasida Turk xoqonligi davridan boshlab deyarli uzlusiz turklar hukmronlik qilganlar. Arablar va forslar istilosи (VII – VIII asrlar) dan keyin turklar islam dinini qabul qilib, ulardan birinchi bo‘lib Somoniylar hokimiyatni qo‘lga olganlar. Ular turk xoqonlarining avlodlari bo‘lganlar. Shundan keyin birin-ketin Qoraxoniylar, G‘aznaviyilar, Saljuqiylar va Xorazmshohlar, mo‘g‘ullar istilosи (XIII – XIV asrlar) dan keyin esa Temuriylar, Shayboniylar va Ashtarkoniylar hukmronlik qilganlar. Shuning uchun ham bu mintaqa mazkur davrlarning tarixiy manbalarida “Turkiston” deb atalgan.

Savollar:

1. *Turk xoqonligining janubiy chegaralari qayerdan o‘tgan?*
2. *Qaysi Eron shohi turk xoqoni bilan qarindoshlik rishtalarini o‘rnatgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Turk xoqonligining ma’muriy bo‘linishi va boshqaruvi.*
2. *Turk xoqonligining diplomatik va savdo aloqalari.*

3.4. Markaziy Osiyoda o‘rta asrlarda etnik holat

Darsning o‘quv maqsadi. Arab xalifaligi, ya’ni VIII asr o‘rtalari – XIII asr boshlarida, O‘rta Osiyoda yashagan xalqlar va etnik holat haqida ilmiy asoslangan ma‘lumotlar asosida tushuncha berish. Chunki bu davr, xususan, Somoniylar davri haqida sho‘rolar mafkurasi tomonidan tarqatilgan xato ma‘lumotlar tufayli odamlarda noto‘g‘ri tushuncha hosil bo‘lgan.

Tayanch tushunchalar va iboralar: arablar istilosи, islom dini, Abbosiylar, Movarounnahr, ajamlar, mavlolar, tojiklar, yangi fors tili.

Arablar VII asrda Markaziy Osiyoning janubiy hududlariga yetib kelganlarida, bu yerlar Turk xoqonligiga qarashli edi. Amudaryo orqasidagi yerkarni arablar Movarounnahr deb atashar edi. Arab tilida bu so‘z “daryo ortidagi yer” ma’nosini anglatadi. Bu nom qadimgi yunonlarning xuddi shu ma’noni bildiruvchi Transoksiyana nomining arabcha tarjimasi edi. Arablarning qo‘sishinda Eron hududlaridan yig‘ilgan islom dinini qabul qilgan forslar ham ko‘p edi. Arablar ularni “ajamlar” (ya’ni arab bo‘lmaganlar) deb atar edilar. Ajamlarni yana *mavlo* deb ham atashar edi. *Mavlo* so‘zi “himoya ostidagi odam” degan ma’noni bildirgan. Arab bo‘lmagan, lekin islom dinini qabul qilgan odamlar u yoki bu arab qabilasining himoyasi ostida bo‘lganlar. Boshqa arab qabilalarining odamlari ularga tegishga haqi yo‘q edi.

Turklar va sug‘dlar bilan to‘xtovsiz olib borilgan urushlar natijasida VIII asrning o‘rtalariga kelib musulmonlar, ya’ni arablar va ularning mavlolari, O‘rta Osiyoni uzil-kesil egalladilar. Ular mahalliy aholini talontaroj qilish, bosib olingan yerkarni o‘zlashtirish va bu yerlarda o‘rnashish siyosatini olib bordilar. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” da yozilishicha, Buxoro va Movarounnahrning boshqa shaharlari arablar va ajamlar o‘rtasida bo‘lib olindi. “Tarixi Tabariy” kitobida yozilishicha, Qutayba ibn Muslim Samarqandni qo‘lga olganda, butun shahar aholisini shahardan tashqariga haydar chiqargan va ularning uylariga o‘z askarlarini joylashtirgan. Shahar darvozala- rini berkitib, sug‘dlar va turklarni shaharga kiritmaslikni buyurgan. Shunday qilib, Samarqand va Buxoro shaharlari arablar va forslarning tayanch nuqtalariga aylantirilgan.

Abbosiyalar davrida Buxoro va Samarqand g‘ayridinlar, ya’ni sug‘dlar va turklarga qarshi g‘azavot (*jihad*) urushlarining markazlari bo‘lgan. Bu yerga butun islom xalifaligidan, ayniqsa Iroq va Erondan musulmonlar to‘xtovsiz kelib turganlar. VIII – IX asrlar davomida Buxoro va Samarqand

shaharlarida arab tili muomalada bo‘lgan. Keyinchalik Somoniylar davrida yangi fors tili muomalaga kira boshlagan. Bu yerda yana shuni aytish joizki, O‘rta Osiyoga kelgan arablar aslida arablarning Eronda tug‘ilgan farzandlari bo‘lib, ular ikki tilli bo‘lganlar, ya’ni arab va fors tillarini yaxshi bilganlar. Shuning uchun ular fors *mavlolari* bilan bir qatorda yangi fors tilining tarqalishiga qarshilik qilmaganlar. Yangi fors yoki “forsiy” tili deganda, arab alifbosiga moslashtirilgan fors tili tushunilgan. Asta-sekin yangi fors tili keng tarqalib, natijada arab tili asosan din va diniy fanlar doirasida ishlatilgan. XI asrda Buxoro va Samarqand shaharlari Qoraxoniylar qo‘l ostiga o‘tgandan keyin ham yangi fors tilining ahamiyati yo‘qolGANI yo‘q. Shuning uchun bu 2 shaharning aholisi kelib chiqishidan qat‘iy nazar asosan fors tilida so‘zlashgan. Bu yerlarga ko‘chib kelgan turklar han asta-sekin fors tiliga o‘ta boshlaganlar.

IX – X asrlarda O‘rta Osiyoda arablar va forslarning istilosini muhitida sug‘dlar va turklarning qorishuv jarayoni o‘zining yakuniy bosqichiga kirdi. Bu hol Mahmud Koshg‘ariyning “Devon lug‘ot at-turk” asarida o‘z ifodasini topdi. Koshg‘ariyning yozishicha, uning davrida, ya’ni XI asrning o‘rtalarida “Balosog‘un va Taroz shaharlarining aholisi asosan turk va sug‘d tilida so‘zlashgan. Faqat turk tilini biluvchi odamlar ham ko‘p bo‘lgan. Lekin faqat sug‘d tili biluvchi odamlar deyarli qolmagan edi”. Yana boshqa yerda Koshg‘ariy yozadiki, “sug‘dlar o‘zlarini forslar bilan qo‘silib ketishdan saqlaganlar”. Bu ma’lumotlardan ko‘rinadiki, o‘sha vaqtida sug‘dlarning turklar bilan qorishuv jarayoni o‘zining oxirgi bosqichiga kirgan edi. Shundan keyin sug‘dlar turklarning ichiga tabiiy va ixtiyoriy ravishda singib ketganlar. Shu bilan birga sug‘dlar o‘zlarini forslardan yiroq tutganlar va ular bilan qorishib ketishni istamaganlar. Bu holat, shubhasiz, butun Movarounnahr hududlariga xos bo‘lgan. Bu qorishuvdan hosil bo‘lgan etnik qatlama bo‘lajak o‘zbek xalqining asosini tashkil etgan.

Movarounnahr shaharlarini bosib olgan arab va fors istilochilarini mahalliy aholini qul qilib, bola-chaqalari va xotin-xalajlarini zo‘rlab tortib olganlar. Natijada ulardan tug‘ilgan farzandlar dastlab ikki tillik bo‘lganlar, ya’ni fors va sug‘d yoki turk tillarida so‘zlashganlar. Sug‘d tili yo‘q bo‘lgach, faqat fors va turk tillari qolgan. Lekin ularning asosiy tili fors tili bo‘lgan. Bu qorishuvdan hosil bo‘lgan etnik qatlama keyinchalik “tojik” deb atalgan. Keyingi asrlarda uning tarkibi Erondan ko‘chib kelganlar hisobiga ko‘payib borgan. Lekin bu qatlama hech qachon alohida bir xalqni tashkil etmagan. Chunki uning ichida hech qanday yaxlitlik bo‘lmagan. Tojiklar sunna mazhabiga, forslar esa shi‘a mazhabiga rioya qilganlar. Qolaversa, fors tili turklarning ham ikkinchi tili hisoblangan, chunki madrasalarda darslar shu tilda olib borilgan, diniy matnlar, ya’ni Qur’on-i Karim

oyatlarining tafsirlari va hadislar ham ko‘pincha fors tilida bo‘lgan. Umuman O‘rta Osiyoda til hech qachon etnik mansublik ko‘rsatkichi bo‘lmas. Chunki bu mintaqaga qadimdan ikki har xil madaniyatning chegarasi emas, qorishuv zonasiga bo‘lib kelgan. Shuning uchun bu yerning aholisi har doim ikki tilli bo‘lgan. Islomgacha sug‘d va turk tillari, islom davrida esa turk va fors tillari barobar ishlatilgan.

Xorazmda etnik jarayonlar biroz boshqacha kechgan. Bu yerda qadimdan eroniylar va turk tillarida so‘zlashuvchi 2 etnik guruh yashab kelgan. Eroniy xorazmiy tili yozma til vazifasini bajargan. Turk xoqonligi davriga kelib bu yerda turk tilida so‘zlashuvchi aholining soni tobora ko‘payib brogan. Arablar va forslar bosqini davrida ular Xorazmda o‘zlashtirish va o‘rnasish siyosatini olib bormaganlar. Shuning uchun bu yerda fors tili keng tarqalmagan. Xorazmliklar o‘zaro faqat turk tilida so‘zlashganlar. Fors tili esa faqat diniy til vazifasini bajargan. XIII asrdan keyin Xorazm Oltin O‘rda davlati tarkibiga kirgandan keyin esa bu yerda rasmiy muomalada va ijtimoiy hayotning barcha sohalaida faqat turk tili ishlatilgan.

Savollar:

1. Arab tili O‘rta Osiyoda qachon rasmiy til deb e’lon qilingan?
2. Somoniylar hukmronligi davrida qaysi til rasmiy til bo‘lgan?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Yangi fors tili va adabiyotining vujudga kelishi va rivojlanishi.
2. Islom davrida turk tilida yozilgan ilk asarlar.

3.5. Somoniylar sulolasining kelib chiqishi

Darsning o‘quv maqsadi. O‘rta Osiyoda IX – X asrlarda hukm surgan Somoniylar sulolasining kelib chiqishi va ularning huquqiy maqomi haqida olib borilgan yangi ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: Bahrom Chubin, Balx, To‘xoriston, Yabg‘ular sulolasi, Somon-xudot, Ismoil Somoniy, Buxoro, Xuroson va Movarounnahr.

O‘rta Osiyo tarixida Somoniylar sulolasining hukmronlik qilgan davri (IX – X asrlar) alohida ahamiyatga egadir. Chunki bu davrda Buxoro, Samarqand va boshqa shaharlar islam dunyosining eng yirik madaniy va ilmiy markazlariga aylandi, mahalliy xalqlarning islam davridagi davlatchiligi asoslari yaratildi. Yozma manbalarda Somoniylar sulolasining turli vakillari, ular hukm surgan davrdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvol haqida batafsil ma’lumotlar mavjud. Lekin Somoniylar sulolasining kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlar juda ham kam va bir-biriga ziddir. Shuning uchun bu masala shu paytgacha hali aniq yechimini topmagan. Somoniylarning asl kelib chiqishi noma’lum bo‘lsa ham, ko‘pchiilik mutaxassislar orasida ularning kelib chiqishi fors va Sosoniylar sulolasi bilan bog‘liq degan xato fikr hukm surib kelmoqda. Bu esa boshqa mutaxassis bo‘lidan olimlarning tadqiqotlarida va deyarli barcha ensiklopedik nashrlarda o‘z ifodasini topgan. Tojikistonda esa Somoniylarning hukmronlik davri “tojik davlatchiligi” deb ta’riflanadi va Tojikiston Respublikasining davlat ramzlarida ham aks etdirilgan. Dushanbeda Ismoil Somoniyning bahaybat haykali o‘rnatilgan, pul birligi “somoniy” deb ataladi va h.k. “Tarixiy Tojikiston” deganda ham tojik olimlari Somoniylar davlatining hududlarini nazarda tutadilar va bu Tojikiston Respublikasining davlat ramzlarida ham o‘z ifodasini topgan.

2000 yilda muomalaga kiritilgan Tojikiston milliy pul birligi “somoniy” deb nomlangan. Somoniylaning nomini abadiylashtirish davlat miqyosida olib boriladi. Ismoil Somoniy nomi ko‘chalarga, aholi turar joylariga, geografik mavzelarga berildi. Ismoil Somoniy yodgorliklari va boshqalar Dushanbeda Ismoil Somoniyning bahaybat haykali, shuningdek, Kulob, Isfara, Tursunzoda va Qo‘rg‘on-Tepa shaharlarida ham uning haykallari o‘rnatildi, va h.k. Bularga qarab, tarixiy mazkur shaxsning yangi qiyofasining vujudga kelgani va mustahkamlanganini ko‘rish mumkin [Bolashenkova 2017: 309]. “Tarixiy Tojikiston” deganda ham tojik olimlari Somoniylar davlatining hududlarini nazarda tutadilar. Buxoro va Samar-

qand shaharlariga bo‘lgan da’volar ham shunga asoslangan. E.Rahmon o‘zining barcha nutqlarida albatta Somoniylarni eslab o‘tadi va ularning “tojik xalqiga” qilgan “xizmatlari” ni aytib o‘tadi. Uning ilmiy asoslanmagan fikriga ko‘ra, Somoniylar xizmatlaridan biri shundan iborat ediki, arablarning kirib kelishi va islom dinining tarqalishiga qaramasdan ularning hukmronligi davrida “tojik tili” (ya‘ni fors va doriy) davlat tili sifatida saqlanib qoldi...” [Bolashenkova 2017: 310]. Bu so‘zlardan kelib chiqadiki, “tojik tili”, ya‘ni fors tili Markaziy Osiyoda arablar istilosiga qadar ham ishlatilgan, bu ham u yoqda tursin, hatto davlat tili bo‘lgan.

Lekin, har bir tarixchi va sharqshunosga malumki, Markaziy Osiyoda arablar bosqiniga qadar sug‘d, boxtar, xorazm va turk tillari ishlatilgan. Yangi fors tili arablar bosqinidan keyin IX – X asrlarda shakllana boshlagan. Yangi fors tilidagi she’riyat dastlab Safforiylar saroyida qo‘llab-quvvatlandi, ulardan keyin esa fors tilida ijod qiluvchi shoirlar Somoniylar saroyida boshpana topdilar. Somoniylarning kelib chiqishi turk bo‘lsa ham ular yangi fors tiliga homiylik qildilar. Ammo Somoniylar davrida ham yangi fors tili faqat saroy ichida tor doirada ishlatilgan. Davlat tili sifatida arab tili ishlatishda davom etgan. Somoniylar saroyida shoirlarning ko‘pchiligi arab tilida ijod qilganlar, faqat bir nechta shoir ikki tilda – arab va yangi fors tillarida she’r yozganlar [Kamoliddin 2011: 545-551; Kamoliddin 2018: 9-20]. Somoniylarga tobe bo‘lgan aholining aksariyatini turklar va ular bilan qo‘silib ketgan sug‘dlar tashkil etgan, ular esa turk va sug‘d tillarida so‘zlashishda davom etganlar [Kamoliddin 2005: 231-241]. Yangi fors tili Buxoro va Samarqand aholisi orasida ham ishlatilgan, chunki arab va fors bosqinchilari mahalliy aholi, ya‘ni sug‘dlar va turklarni shahardan haydab chuqarib, ularning uylarini egallagan edilar.

Somoniylarning qilgan yana bir xizmati, E.Rahmon fikriga ko‘ra, shundan iboratki, “ular oriylar yashagan keng hududlarni, ya‘ni Movarounnahr va Xuroson o‘z hukmronligi ostida birlashtirishga muvaffaq bo‘ldilar va u erlarda markazlashgan hokimiyat o‘rnatdilar [Bolashenkova 2017: 311-312]. Birinchidan, o‘sha davrda Movarounnaxr va Xuroson aholisi juda turli xil edi va uning katta qismini turklar tashkil etgan edi, chunki arablar va forslar bosqiniga qadar Movarounnahr va To‘xoriston Turk xonligining tarkibiga kirgan. Xurosonga ham turklar xiyoniylar va eftaliylar davri (IV-V asrlarda) dan boshlab ko‘plab kirib borganlar [Kamoliddin 2004: 299-311; 2005: 231-241; 2006: 30 - 36]. Ikkinchidan, hech qanday “Somoniylar davlati” yo‘q edi. Rasman ular Abbosiylar xalifalarining voliylari bo‘lib, ularga itoat qilganlar va ularning barcha buyruqlarini so‘zsiz bajarganlar. Somoniylarning mahalliy ma’muriyati Abbosiylarning boshqaruv tizimi bilan bir xil edi. Ismoil Somoniy hech qachon mustaqillikka intilmagan, aksincha, u bir necha marta Bag‘doddagi

boshliqlaridan xalifaning shaxsiy soqchilari qatorida xizmat qilishni so‘ragan. Ammo har safar uning iltimosi rad etilib, u amir unvonli oddiy voliy lavozimi bilan qanoatlanishga majbur bo‘lgan [Kamoliddin 2012: 219 - 265].

Albatta, E.Rahmon, bu davr bo‘yicha mutaxassis emas, hatto tarixchi ham emas, Somoniylar tarixi bo‘yicha chet ellik olimlarining yangi tadqiqotlarni bilmaydi. Lekin Tojikistonlik olimlar biladilar, ammo o‘zlarini bilmaslikka olib, o‘z xalqini va prezidentini aldashda davom etmoqdalar. Chunki ularda bu yangi tadqiqotlarga javob berishga yaraydigan hech narsa yo‘q, bu yangi tadqiqotlar esa Tojikistonning yolg‘onga asoslangan milliy davlatchilik konsepsiyasini butunlay bekor qiladi. Ammo haqiqatni faqat ma’lum vaqtgacha yashirish mumkin, shunday vaqt keladiki, haqiqat baribir yuzaga chiqadi va g‘alaba qozonadi.

E.Rahmon Somoni davlatini “tojiklarning birinchi milliy davlati” deb ataydi, ammo tojiklar davlatchiligining boshlanishi afsonaviy Kayoniylar va Peshdodiydlar davriga to‘g‘ri kelishiga ishora qiladi. Shu bilan birga u Tojikiston davlatchiligining tarixiga nafaqat Ohamoniylar, Arshakiylar va Sosoniylar sulołalarining hukmronligi davrini, balki Kushonlar va Eftaliylarni ham kiritadi [Bolashenkova 2017: 312]. Demak, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo tarixida “tojiklar” bo‘lgan, ularning tarkibiga esa barcha eroniylardan so‘zlashuvchi xalqlar kirgan. Bu haqiqiy paneroniy milliy shovinizmdan boshqa narsa emas, shunga o‘xhash qarashlarni qirg‘izlarning “milliy mafkurasi” kuzatish mumkin, faqat ularda panturk-chilikka asoslangan millatchilik da’volari ilgari surilgan. Balki bu sun’iy ravishda tuzilgan mayda “millat” larga xos jihat bo‘lsa kerak. Ular orasidagi farq shundan iboratki, qirg‘izlar yaqin o‘tmishda ham ko‘chmanchi qabila hisoblangan, “tojiklar” esa – bu Markaziy Osiyoda turkiy tilli aholi orasida yashovchi turli eroniylardan so‘zlashuvchi va kelib chqhshi har xil bo‘lgan guruhlardan “qizil ruslar” tomonidan sun’iy ravishda tuzilgan odamlar to‘plamidir.

Bundan keyin E.Rahmon “Somoniylarning xalqaro aloqalari va tashqi siyosati” haqida so‘z yuritadi, lekin faqat savdo aloqalari haqida misol keltiradi [Bolashenkova 2017: 312]. Shu o‘rinda aytish kerakki, Somoniylar chet ellarning hukmdorlari bilan hech qanday diplomatik aloqalarga ega bo‘lmagan. Bunday huquq faqat xalifalarga tegishli edi. Manbalarda Buxoro shahriga Somoniylar huzuriga faqat bir marta elchilar kelganligi haqida ma’lumot bor. Bu elchilar 327/938-39 yilda amir Nasr ibn Ahmad huzuriga “al-Sin”, ya’ni Sharqiy Turkistondan kelgan edilar. Elchilar Nasr ibn Ahmadga al-Sin hukmdorining maktubini keltirgan edilar. Maktubda u amirdan o‘tgan 27 yil uchun tovon to‘lashni va al-Sin hukmdoriga bo‘ysunganini rasman e’tirof etishni talab qilgan edi. Aks

holda u Somoniylarga qarshi qo'shin yuborishini, keyin esa Iroqqa va butun xalifalikka qarshi yurish qilishini aytib do'q qilgan edi. Elchilar Nasr ibn Ahmad tomonidan qabul qilindi. Amir ularga quyidagi mazmundagi javob maktubini berdi: "Ey, bolakay, bilginki, men seni va senga o'xshashlarni inkor qilganimning sababi qo'rquvdan, zaifligimdan yoki qo'shinlarim va qurol-yaroq 'larim yetishmaganidan emas. Menga oliv hukmdorim (ya'ni xalifa) harakat qilishimga buyruq bermaganligi sababli men o'zimni biror harakat qilishdan tiyib keldim. Mening dinimda buyruqsiz biror harakatlarni qilish ruxsat etilmaydi... Shundan keyin al-Sin hukmdori Islomni qabul qildi". Bu parchada, aftidan, Sharqiy Turkistondagi qarluqlarning hukmdori haqida so'z yuritilgan. Mazkur elchilar bilan Somoniylar tomohdan Abu Dulaf ismli arab Sharqiy Turkistonga boqdi. Ko'p o'tmay qarluq hukmdori islam dinini qabul qilib, Somoniylar bilan qarindoshlik aloqalari o'rnatdi. Manbalarda Somoniylarning yaqin yoki uzoq mamlakatlarning hukmdorlari bilan aloqalari haqida bundan boshqa ma'lumot yo'q.

Yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Tojikistonda hukumat darajasida tarixni soxtalashitirish olib borilmoqda. Suning uchun Somoniylar sulolasining asl kelib chiqishini aniqlash hozirgi kunda tarix fani oldida turgan eng dolzarb masalalardan biridir.

Somoniylarning kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi manbalar ko'p emas. Ularning ko'pchiligi so'nggi asrlarga mansub. Bu manbalarda Somoniylarning ajdodlari turk bo'lganligi qayd etilgan. Somoniylarning bobokaloni Somon-xudotning shajarasida turkcha ismlar borligi aniqlangan. Lekin shu vaqtgacha bu ma'lumotlar ilmiy jihatdan ishonchli hisoblanmas edi. Chunki bu "tojik xalqi va uning davlatchiligi" konsepsiyasiga zid edi. Oxirgi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida Somoniylarning kelib chiqishi qadimgi turklar bilan bog'liq bo'lganligiga ishora qiluvchi asl manbalar topildi. Xususan, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, Somon-xudotning bobokaloni Bahrom Chubin Sosoniylarning harbiy xizmatida bo'lgan o'g'uz qavmiga mansub sarkarda bo'lgan. U Xuroson volysi etib tayinlangan va Balx shahrida yashagan. Bu yerda unga qarashli yerlar va mulklar bo'lgan. 590-yilda u Sosoniylarga qarshi qo'zg'olon ko'tarib, mag'lubiyatga uchragandan so'ng turklar tomonga qochib o'tgan va Buxoroda turk xoqonining qiziga uylangan. Ana shu oilaning avlodlari Somon-xudotning ajdodlari bo'lgan. Taxmin qilinishicha, ular Farg'ona vodiysidagi Qubo shahrida yashaganlar.

Ayrim manbalarda yozilishicha, Somoniylarning ajdodlari islomdan oldin butun Movarounnahr hukmdorlari bo'lganlar. Bu ma'lumot shunga ishora qiladiki, Somoniylar o'zlarini turk xoqonlarining avlod lari deb hisoblaganlar. Chunki islomga qadar butun Movarounnahr hukmdorlari faqat turk xoqonlari bo'lishi mumkin edi. Bu ma'lumotni aniq tasdiqlovchi

dalil ham topildi. Buyuk Britaniyadagi Oksford universitetining numizmatik fondida amir Mansur ibn Nuh tomonidan 358/968-69 yilda Buxoroda zarb etilgan kumush dirham saqlanadi. Uning old tarafida arabcha yozuvlar, orqa tarafida esa o'ng tomonga qarab turgan hukmdor surati tasvirlangan. Uning yuz tuzilishi, qulog'idagi ziragi va boshidan orqasiga osilib turgan kokili uning qadimgi turk hukmdori ekanligidan dalolat berib turibdi. Taxmin qilinishicha, bu suratda Somoniylarning islomdan oldingi ajdodlaridan biri, ehtimol, Somon-xudot yoki turk xoqoni El-tegin tasvirlangan.

Turk xoqonligi To'xoristonni ishg'ol qilgandan keyin (618-yil) Farg'onadagi Bahrom Chubin avlodlarining ba'zilari Balx shahriga kelib, ilgari bobolariga tegishli bo'lган mulk yerlarini o'zlariga qaytarib olganlar. Ulardan biri Barmak ismli kohin bo'lib, Balxda Nawbahor ibodatxonasi asos solgan. Uning avlodlari Nawbahor ibodatxonasida kohinlik ishini davom etdirib, ular ham Barmak deb atalganlar. Arablar Nawbahor ibodatxonasini xarobaga aylantirgandan keyin Barmak islom dinini qabul qildi va uning avlodlari Barmakiylar arablarning ma'muriyatida xizmat qildilar. Shunday qilib, Barmakiylar va Somoniylar oilalari o'zaro qarindosh bo'lganlar va Bahrom Chubinning avlodlari hisoblanganlar.

Arablar O'rta Osiyoga bostirib kelganda, Somon-xudot Farg'onadan Balxga, u yerdan esa Marv shahriga kelib, bu yerda islom dinini qabul qilgan va Xuroson volysi al-Ma'munning Marvdagi saroyida xizmat qilgan. 204/819-20 yilda Bag'dodga ketishdan oldin al-Ma'mun yaxshi xizmatlari uchun uning 4 ta nabirasini Movarounnahr shaharlariga hokim etib tayinlashni buyurgan. Ular dastlab Xuroson voliyları Tohiriylarga bo'ysinib xizmat qilganlar. 261/874-75 yildan boshlab Nasr ibn Ahmad yangi tuzilgan ma'muriy birlik Movarounnahr volysi deb e'lon qilingan.

O'rta asr manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, Somoniylarning ajdodlari islom dinini qabul qilishdan oldin otashparast bo'lganlar, ya'ni zardushtiylik diniga e'tiqod qilganlar. Lekin ularning tangalari, Buxorodagi oilaviy maqbarasi va Samarcanddagi saroyining devorlarida tasvirlangan ramzlar zardushtiylik diniga hech qanday aloqasi yo'q. Bu ramzlar buddaviy din yoki moniylik bilan bog'liqidir. O'rta asrlarda har qanday maxfiy ma'lumot ko'pincha ramzlar orqali ifoda etilgan. Masalan, ilk islom davrida taqiqlangan sufiylik ta'limotida ham ramzlar ko'p islatilgan. Bu ma'lumotlardan ayon bo'ladiki, Somoniylarning ajdodlari buddaviylik diniga yoki moniylikka e'tiqod qilganlar va bu ramzlarni ishlatganlar. Islom davrida Somoniylar ajdodlarining ramzlarini tangalarida, maqbara va saroy devorlarida ifoda etish orqali ajdodlarining ruhlarini yod etib, ularga hurmat izhor etganlar. Bu bilan ular o'zlarini ajdodlar bilan ma'naviy bog'liqlikda deb his etganlar.

Somon-xudotning asl ismi Arquq bo‘lgan. “Somon” so‘zi sanskrit tiliga mansub bo‘lib, buddaviy martabalaridan biri hisoblangan. O‘g‘uzlarning rivoiy kitoblarida Somon-xudot “Somon-yabg‘u” deb atalgan va o‘g‘uzlar-ning ajdodlari qatorida tilga olingan. Al-Muqaddasiyning geografik asarida “Somon turklari” qayd etilgan. Ma’lumki, Somoniylarning qo‘sishlari, harbiy qo‘mondonlari va saroy xizmatchilar asosan turklardan iborat bo‘lgan. Lekin Somoniylar saroyda turk tilini joriy qilishga urinmaganlar. Uning o‘rniga yangi fors tilini qo‘llab-quvvatlaganlar va bu tilda ijod qilgan shoirlarga homiylik qilganlar. Bu xususiyat ulardan keyin hukmronlik qilgan turk sulolalari – G‘aznaviyalar, Qoraxoniylar, Saljuqiylar va Xorazmshohlarga ham xos bo‘lgan. Mo‘g‘ullar, Temuriylar va Shayboniy-ler ham bu an’anani davom ettirganlar.

Hozirgi tarixshunoslikda Somoniylar hukmronligi davrini “Somoniyalar davlati” deb ta’riflash qabul qilingan. Lekin aslida ular huquqiy jihatdan mustaqil bo‘lmaganlar. O’sha davrning qonunchiligiga ko‘ra, Somoniylar Abbosiy xalifalarining Movarounnahrdagi noiblari hisoblanganlar. Ular zarb etgan tangalarda birinchi o‘rinda xalifalarning ismlari qayd etilgan. Xalifalarning maxsus yorlig‘i (*manshur*) siz ularning hukmronligi qonuniy hisoblanmagan. Juma namozidan oldin o‘qiladigan *xutba* (va’z) da xalifa-larga hamdu-sano o‘qish majburiy bo‘lgan. Somoniylarga qarashli yerlar bilan xalifalik yerlari o‘rtasida davlat chegarasi bo‘lmagan. Somoniylar chet ellarning hukmdorlari bilan diplomatik munosabatlar olib bormaganlar. Bunday huquq faqat xalifalarga tegishli bo‘lgan.

Shunga qaramasdan Somoniylarning hukmronligi o‘zbek davlatchiligi tarixining ajralmas bir bosqichi hisoblanadi. Chunki bu davrda o‘zbek xalqining asosiy o‘zagi shakllandı, uning yashash hududi belgilandi, bosh-qaruv tizimi shakllandı va g‘oyaviy asoslari yaratildi. Shuning uchun Somoniylarning ramzlari Tojikistonda emas O‘zbekistonda joriy qilinishi lozim. Toshkentda Amir Temur va Temuriylar muzeysiiga o‘xhash Ismoil Somoniy va Somoniylar muzei tashkil etilishi, Ismoil Somoniy haykali o‘rnatalishi, Somoniylar tarixiga bag‘ishlangan xalqaro konferensilar o‘tkazilishi kerak. Bu konferensiyalarga birinchi navbatda Markaziy Osiyodagi qo‘sni davlatlardan, shu jumladan Tojikistondan ham olimlar ishtirok etishi kerak, chunki Somoniylar tarixi Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak merosidir.

Tojik millatchilari (R.Masov va uning izdoshlari) ning Buxoro va Samarqand shaharlariga da’volari ham asossizdir. Narshaxiyning “Buxoro tarixi” da yozilishicha, Buxoro shahrini turk xoqonining o‘g‘li Sher-i Keshvar tomonidan qurdirgan, uning haqiqiy ismi esa El Arslon edi. U Buxoro shaxristonini, shuningdek, Buxoro viloyatida bir necha qishloqlar ham qurdi. Uning o‘g‘li El-tegin (Parmuda) qurilishni davom ettirdi va bu

erda yana bir nechta qishloqlar qurdi. U Xitoy imperatorining qiziga uylandi va uning uchun buddaviy ibodatxona qurdi. Buxoroliklar uni *bukar* (*buqar*) deb ataganlar, bu esa sanskritcha vihara so‘zining turkcha talaffuzi edi. Shaharning nomi ham shu so‘z bilan bog‘liq, ilgari esa bu shahar Navak-metan deb atalgan. Turk xoqonligi davrida (VI – VIII asrlar) Buxoro yaqinidagi Baykand shahrida turk xoqonlarining butun O‘rta Osiyo ustidan nazorat qiluvchi boshqaruvchilari yashagan, ya’ni o’sha davrda Buxoro butun O‘rta Osiyoning poytaxti edi. Shu sababli, manbalarda “Somoniylarning ajdodlari islomdan oldingi davrda butun Movarounnahrning hukmdorlari bo‘lganlar”, deb yozilgan. Bu ma’lumotdagи hukmdorlar faqat turk xoqonlari oilasiga mansub shaxslar bo‘lishi mumkin edi.¹⁴ Arablar Buxoroni birinchi marta yurish qilganlarida, shaharda turk xoqoni va uning oilasini uchratdilar, o’sha vaqtida shahar aholisi turklar va turklashgan buxoroliklardan iborat edi. Qutayba ibn Muslim Xuroson amiri bo‘lganda, Buxoroni bosib olib, mahalliy aholini har bir uyning yarmini arablarga bo‘shatib berishga majburladi, so‘ngra bu uylarga arab askarlarini va ularning fors *mawlo* larini joylashtirdi. Shundan boshlab, Buxoro arab va fors istilochiilarining tayanch nuqtasiga aylanib, ular bu yerdan turib turklar va sug‘dlarga qarshi bosqinchilik urushlari olib bordilar. Keyinchalik Buxoro islom madaniyatining asosiy markaziga aylandi va bu yerda asosiy muloqot tili avval arab tili edi, keyinchalik uning o‘rnini fors tili egalladi. Fors tili Buxoroda ruslar bosqiniga qadar an’anaviy tili bo‘lib keldi. Shu sababli, bu shaharga ko‘chib kelgan barcha odamlar, shu jumladan turklar ha, asta-sekin fors tiliga o‘tganlar. Buxoro turk hukmdorlari sulolalari – Somoniylar (IX-X asrlar) va Shayboniylar (XVI-XVIII asrlar), so‘ngra Mang‘itlar (XIX – XX asr boshlari) ning poytaxti bo‘lgan. Yigirmanchi asr boshida mashhur jadidchi Abdurauf Fitratning ona tili fors tili bo‘lsa ham, u o‘zini o‘zbek deb hisoblagan va hatto panturkchilikda ayblangan. Shuning uchun bugungi kunda ham buxoroliklarning ko‘pchiligi garchi fors tilida so‘zlashsalar ham o‘zlarini o‘zbek deb biladilar.

Samarqand ham shunga o‘xhash holat bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Koshgariy va boshqa bir qancha o‘rta asr mualliflariga ko‘ra, Samarqand shahrining nomi “semiz shahar” degan ma’noni bildirgan. Bu rivoyat bo‘lsa-da, unda haqiqat bor. Har qalay bu shahar nomining kelib chiqishi hali ham ishonchli tarzda izohlanmagan. Arab bosqiniga qadar Samarqand Turk xoqonligining asosiy shaharlaridan biri edi. Bu yerda

¹⁴ Boshqa barcha hukmdorlar (Samarqand iksidlari, Farg‘ona ixshidlari, Panjikent afshinlari, Usrushana afsinlari, Choch tudunlari, Buxor-xudotlar, Chag‘an-xudotlar va boshqalar) mahally hukmdorlar hisoblangan, va ularning hokimiyati o‘zining viloyati bilan chegaralangan.

kelib chiqishi turk bo‘lgan ixshidlar sulolalasi hukronlik qilgan. Arablar Samarqandga ilk bor yurish qilganda, uning aholisi sug‘dar va turklardan iborat edi. Samarqandni bosib olgan Qutayba ibn Muslim shahar aholisi bilan ularning shaharni butunlay tark etishi va uni arab askarlari va fors *mawlo* lariga bo‘shatib berishi sharti bilan bitim tuzdi. Shundan keyin Samarqand Markaziy Osiyodagi barcha musulmonlarning tayanch nuqtasiga aylandi. Bu shahar butun islom dunyosidan “jihod” urushlari olib boorish uchun keluvchi ko‘ngilli jangchilarning yig‘ilish yeri edi, bu jangchilarning ko‘pchilagini forslar tashkil etgan edi. Dastlab Samarqandda asosiy til arab tili edi, keyinchalik uning o‘rnini fors tili egalladi. Shundan keyin fors tili Samarqandda an’naviy til bo‘lib, bu yerga ko‘chib kelgan odamlar asta-sekin fors tiliga o‘tgan. Masalan, Qoraxoniylar hukmronligi davrida (XI-XII asrlar) Samarqand ularning poytaxti bo‘lganda, shahar aholisining asosiy qismini turklar tashkil etgan edi, keyinchalik ular fors tiliga o‘tganlar. Turk shoiri Adib Ahmad (VIII asr) ning otasi, xalifa al-Mu’tasim (IX asr) ning turk xotini Marida Samarqanddan edilar. XIII asrda Samarqandda turkcha yozuvli tangalar zARB etilgan. Bu ma'lumotlar shindan dalolat beradiki, ilk o‘rtalarda turklar Samarqand aholisining katta qismini tashkil etganlar. XX asr bosida yashagan mashhur jadidchi Mahmudxo‘ja Behbudiyning ona tili fors tili edi, lekin u Fitrat singari o‘zini o‘zbek deb bilgan.

XIV – XV asrlarda Samarqand Amir Temur va Temuriylarning poytaxti bo‘lganda, Buxoro va Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi, shunda bu yerga Erondan minglab me’morlar, hunarmandlar va quruvchilar taklif etildi, chunki Eron Temuriylarga qarashli yer edi. XVI-XVIII asrlarda, Shayboniylar Safaviylar bilan uzoq vaqt olib borgan urushlar davomida asir qilib olingan barcha eronliklar qulga aylantirilib, Buxoro va Samarqandda qoldirilgan. 1810 yilda Marvdan Turkistonga taxminan 40 ming eroniy oilalari (!) ko‘chirilgan, va asosan Samarqand va Buxoro atroflariga joylashtirilgan edi. Ularning bir qismi turk, lekin asosiy qismi fors edi. XIX-XX asr boshlarida qul savdosi bilan asosan hindlar va turkmanlar shug‘ullanganlar, ular Turkistonning qul bozorlariga Erondan minglab qullarni keltirganlar. Buxoroda ham katta qul bozori bor edi. Fors qullari eng arzon edi – bir rus qulining narxiga 6 ta fors qullarini sotib olish mumkin edi. XIX asr o‘rtalarida Buxoro aholisining chorak qismini o‘zbeklar, to‘rtadan uch qismi esa fors qullari tashkil qilar edi. Erondan odamlarni ko‘chishlar 1917 yildagi rus inqilobiga qadar davom etgan. Shi‘a mazhabiga e’tiqod qiluvchi aholining ko‘pligi sababli 1910 yilda Buxoro xonligida sunniylar va shi’alar o‘rtasida katta to‘qnashuv sodir bo‘ldi. Buxoro va Samarqand shaharlarining aholisi ana shunday shakllangan,

lekin ulardagi hokimiyat Turk xoqonligi davridan boshlab rus istilosiga qadar har doim turklarning qo‘lida bo‘lgan.¹⁵

Savollar:

1. *Nima sababdan Somoniylarning poytaxti Buxoro bo‘lgan?*
2. *Nima uchun manbalarda Somon-xudot otashparast deb ta’riflangan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Somon-xudotning ajdodlarining diniy e’tiqodi.*
2. *Somoniylarning huquqiy maqomi.*

¹⁵ Faqat arablar istilosi davrida (VIII – IX asrlar) bu shaharlarda arab voliylari hukm surganlar.

IV bob. O‘ZBEK XALQINING KELIB CHIQISHI

4.1. “O‘zbek” atamasining kelib chiqishi

Darsning o‘quv maqsadi. O‘zbek xalqining kelib chiqishi haqidagi turli xil qarashlar bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: etnogenetika, etnik tarix, etnonimlar, “o‘zbek” etnonimi, etnik qorishuv.

1941-yilda sovet olimi A.Yu.Yakubovskiyning “Proisxojdenie uzbeks-kogo naroda” (“O‘zbek xalqining kelib chiqishi”) nomli kichik bir risolasi nashr etilgan. Unda “Milliy avtoxtonizm” nazariyasini ilgari surilgan edi. Unga ko‘ra, O‘rtacha Osiyo hududida XI – XII asrlarda, ya’ni Qoraxoniylar davrida, mahalliy sug‘d, xorazm va boxtar etnik jamoalarining turk qabila va elatlari bilan qorishuvidan yangi etnos shakllangan edi. Aynan shu etnos o‘zbek xalqining asosini tashkil etgan. XVI asrda O‘rtacha Osiyoga Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko‘chmanchi o‘zbek qabilalari ana shu etnos tarkibiga qo‘silib, unga o‘z nomlarini bergenlar. Bu konsepsiya ko‘pchilik olimlar, shu jumladan, S.P.Tolstov, L.V.Oshanin, Ya.G‘ulomov singari olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan va sho‘rolar davrida rasmiy qabul qilingan edi. O‘zbek olimi K.Shoniyozov shu konsepsiya asoslanib, o‘zbek xalqi IX – X asrlarda etnos bo‘lib shakllandi va hududiy jihatdan Amudaryo va Sirdaryo oralig‘i, shuningdek, Janubiy Qozog‘iston, Yettisuv va Sharqiy Turkistonning g‘arbiy hududlarini egallagan, degan xulosaga keldi. Tojik olimi B.G‘afurov ham bu konsepsiyaniga ma‘qullab, “o‘zbek xalqi nafaqat XVI – XIX asrlarda, balki ungacha bo‘lgan barcha davrlar tarixida teng huquqli qatnashchi hisoblanadi”, deb ta’kidlagan edi.

Sho‘rolar davlati parchalangandan keyin A.Yu.Yakubovskiyning “Milliy avtoxtonizm” nazariyasi tanqid qilinib, uning o‘rniga “Konstruktivizm” ijtimoiy nazariyasi rivojlana boshladi. Qolaversa, o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasi hammani qiziqtirib qoldi va “xalqaro ahamiyat” ga ega bo‘ldi. Bu masala bo‘yicha xalqaro “ilmiy” munozaralar olib borildi. Xususan, Rossiyaning “Etnograficheskoe obozrenie” jurnalida (2005, № 1) bu masalaga katta bir bo‘lim bag‘ishlandi. Buning tagida, albatta, siyosiy maqsadlar yotgan edi. Natijada o‘zbek xalqiga va uning o‘tmishiga bo‘htonlar yog‘dirildi. 2015-yilda akademik A.Asqarov o‘zining “O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi” nomli kitobida mazkur masala bo‘yicha mavjud konsepsiylar va aytilgan fikrlarni batafsil tahlil etib, o‘zining xulosasini chiqardi. Umuman olganda, bu kitobning asosiy g‘oyasi

A.Yu.Yakubovskiyning “Milliy avtoxtonizm” nazariyasiga asoslangan. Faqat bunda A. Asqarov o‘zbek xalqining 2 ta o‘q tomiri, ya’ni “turkiy va eroniy o‘q tomirlari” bor, degan fikrga ko‘proq urg‘u bergen.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, dunyodagi hech bir xalq bitta etnik tomirdan tashkil topmagan. Har bir xalqning etnik tarixida turli xil etnoslar ishtirok etgan. Lekin har bir xalq o‘zining etnogenezini, ya’ni kelib chiqishidagi boshlang‘ich o‘q tomirini faqat bitta etnos bilan bog‘laydi. Ruslarning kelib chiqishi slavyanlar, forslarning kelib chiqishi oriylar, Turkiya xalqining kelib chiqishi qadimgi turklar bilan bog‘lanadi. Boshlang‘ich o‘zakka keyingi davrlarda kelib qo‘shilgan qatlamlar etnik tarixga kiradi. Hech qaysi xalq o‘zini 2 yoki 3 o‘q tomirli deb hisoblamaydi. Har bir daraxtlarning o‘q tomiri bitta bo‘lgani singari har bir xalqning ham o‘q tomiri bitta bo‘ladi. Turli millat vakillari qurban oilaning farzandi metis bo‘ladi. Lekin metislar hech qachon alohida millatni tashkil etmaydi. Ular voyaga yetganda, u yoki bu millatga mansublikni tanlaydilar va o‘sha millatning vakiliga aylanadilar. O‘zbek xalqi ham bundan istisno emas. O‘zbek xalqining etnik tarixida turli etnostlar ishtirok etgan, lekin ularning boshlang‘ich o‘q tomir bitta – qadimgi turklar bo‘lgan.

Kitobda ilgari surilgan oriylarning turk tilida so‘zlagani haqidagi fikr hali o‘z isbotini talab qiladi. Uni faqat masalaning qo‘yilishi sifatida qabul qilish mumkin. Uning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini vaqt ko‘rsatadi. O‘rta Osiyoning tub aholisi eroniy tillarda so‘zlashgan, degan fikr ham, bizningcha, asossiz va isbotlanmagan. Qolaversa, u hozirgi fonda ko‘pchilik mutaxassis olimlar tomonidan qabul qilingan fikrga mutlaqo ziddir. Bizningcha, o‘zbek xalqining kelib chiqishi Markaziy Osiyoning tub aholisining bir qismini tashkol etgan Kalta Minor madaniyatini qoldirgan qavmlar bilan bog‘liq. Bu madaniyatni qoldirgan aholi urol-oltoy tillarida, shu jumladan, turk tilida so‘zlashgan. Ular dastlab ovchilik, terimchilik va baliqchilik bilan shug‘ullanganlar. Keyinchalik dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullana boshlaganlar va shaharchilik madaniyatining vujudga kelishida faol ishtirok etganlar. Shuning uchun qadimgi turk tilida nafaqat dehqonchilik va bog‘dorchilik, balki hunarmandchilik va shaharchilik sohalarida boy tarixiy atamalar majmuasi mavjud va boshqa o‘troq xalqlarnikidan qolishmaydi. Oriy qabilalari Markaziy Osiyoga kirib kelganda, ularning bir qismi shimolga va sharqqa ko‘chib ketgan, qolganlari esa oriylarning hukmi ostida shahar va qishloqlarda yashagan. M. a. I ming yillikda ular Ahamoniylar, keyin yunonlar qo‘l ostida bo‘lganlar. M. a. II asrda shimoldan ko‘chmanchi xalqlarning kirib kelishi boshlanib, avval kushonlar, keyin xiyoniylar, eftaliylar va turklar hukmronligi o‘rnatalgan. Ko‘chmanchi turklar O‘rta Osiyodagi mahalliy o‘troq turklarga kelib qo‘silib, ularning madaniyatini qabul qilganlar va

mahalliy aholiga o‘zlarining etnik nomlarini bergenlar. Shunga o‘xhash jarayonlar o‘rta asrlarda, xususan, XVI asrda ham yuz bergen. Unda Dashti Qipchoq o‘zbeklari O‘rta Osiyoning o‘troq turklariga kelib qo‘silganlar va unga o‘z nomini bergenlar.

Shunday qilib, O‘rta Osiyoning mahalliy o‘troq turklari qadimdan bu mintaqada yashab kelganlar, ularning nomi turli davrlarda ularga qo‘silib turgan ko‘chmanchi qabilalarning hokimiyatga kelishi tufayli o‘zgarib borgan. Lekin ularning madaniyatini belgilovchi asosiy xususiyatlar o‘zgarmagan. Birinchidan, ular o‘zaro turk tilida so‘zlashganlar, ikkinchidan, ular asosan o‘troq hayat tarzi olib borib, shahar va qishloqlarda yashaganlar, uchinchidan, ular dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganlar, shaharchilik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanshida faol ishtirok etganlar. Hozirgi o‘zbek xalqining madaniyati ham xuddi shu xususiyatlarga ega. Chunki o‘zbek xalqi qadimgi turklarning dehqonchilik, bog‘dorchilik va shaharchilik madaniyatining davomchisidir.

Savollar:

1. O‘zbek atamasi qachon va qaerda vujudga kelgan?
2. Amir Temir davrida o‘zbeklar qaysi hududlarda yashaganlar?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. O‘zbek xalqining etnik tarixidagi komponentlar va qatlamlar.
2. O‘zbeklar shajerasi va uning etnik tarkibi.

4.2. O‘zbek adabiy tilining shakllanishi

Darsning o‘quv maqsadi. O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: turkiy tillar, yozma til, chig‘atoy tili, eski o‘zbek tili, sart tili, o‘zbek tili.

Ma’lumki, adabiy til asosan yozuv madaniyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Qadimgi turklarda yozuv madaniyati nisbatan kech rivojiana boshlagan. O‘rta Osiyodagi o‘troq turklar eroniy xalqlar orasida yashagan uchun ularning yozuvidan foydalanganlar. Buni biz ilk o‘rta asrlar misolida ko‘rshimiz mumkin. O‘rta Osiyoda yashagan turklar sug‘d yozuvi va tilidan keng foydalanganlar. Qadimda ham xuddi shunday hol bo‘lgan. Hatto Oltoydagি ko‘chmanchi turklar ham avval pahlaviy, keyin sug‘d yozuvlaridan, Sharqiy Turkistondagi turklar esa brahmi va kharoshti yozuvlaridan foydalanganlar. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, qadimgi xunlarda o‘zlarining yozuvi bo‘lib, uni o‘rta asrlarda “xatti yabg‘u” deb ataganlar. Lekin uning yodgorliklari bizgacha saqlanmagan. Olmaota shahri yaqinidagi Issiq nomli yerdagi m. a. V asrga mansub sak podshohining qo‘rg‘onida topilgan kumush ko‘za sathidagi yozuv haligacha qoniqarli o‘qilmagan. Shuning uchun u “noma’lum yozuv” deb ataladi. Ba’zi olimlar uni eroniy tilda o‘qisa, ba’zilar turk tilida o‘qiylilar. Ehtimol, “xatti yabg‘u” deganda, shu yozuv nazarda tutilgandir.

Turklarning ilk yozuvi runik belgili yozuv hisoblanadi. Bu yozuvning ayrim belgilari va ramzları ming yil davomida ishlatalib kelgan va milodiy V – VI asrlarga kelib, to‘la-to‘kis bir yozuv tizimi sifatida shakllangan. Sharqiy Yevropa, Qora dengizning shimoliy sohili va Kavkazda xunlar davriga mansub runik yozuvlar topilgan. Milodiy I asrda xunlar imperiyasi parchalangandan keyin bu yozuv va adabiy til ikkiga bo‘lingan: sharqiy xun va g‘arbiy xun yozuvi. G‘arbiy xun yozuvi va tili asosida keyinchalik qadimgi bul‘gar, xazar, avar va venger tillari va yozuvlari shakllangan. Sharqiy xun yozuvi va tili asosida qadimgi o‘g‘uz, uyg‘ur va qipchoq tillari va yozuvlari shakllangan.

Turk adabiy tili VI – VII asrlarga kelib yuksak darajada rivojlangan til bo‘lib, uning o‘sha davrdagi holati uzoq vaqt davomida rivojlanib kelganligidan dalolat beradi. Bu tilda ko‘plab yuksak darajadagi she’riy asarlar yaratilgan. Bu she’riy uslub hatto Xitoy she’riyatiga ham o‘za’sirini o‘tkazgan. Xitoyliklar turk tilini yaxshi bilganlar va VII asrda ilk

bor turk-xitoy lug‘atini tuzganlar. Runik yozuvda yozilgan eng so‘nggi yodgorliklar X asrga mansub.

VII – VIII asrlarda Sharqiy Turkistonda runik yozuv bilan bir qatorda sug‘d yozuviga asoslangan uyg‘ur yozuvi muomalaga kiri-tildi. Bu yozuv O‘rtal Osiyoda ham ishlataldi va hatto islam davrida ham turk sulolalari, xususan, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va Shayboniylar o‘zaro ichki yozishmalarda undan foydalanganlar. Usmonli imperiyasida XVI asrda bu yozuvni bilgan kotiblar bo‘lgan, Xitoydagagi turklar esa uni XVIII ga qadar saqlaganlar.

Islam davrida turk tilidagi adabiy asarlar arab alifbosida yozila boshladi. Adabiyotshunoslikda bunday asarlar XI – XII asrlarda yozilgan deb hisoblanadi. Bular Ahmad Yugnakiyning “Hibat al-haqoiq”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”, Ahmad Yassaviyning “Devon-i hikmat” asarları, Mahmud Koshg‘ariyning “Devon lug‘ot at-turk” va Mahmud Zamaxshariyning “Muqaddimat al-adab” lug‘atlaridir. Bulardan Ahmad Yugnakiyning aniq yashagan davri noma’lum edi. Oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, Ahmad Yugnakiy VIII asrning oxiri – IX asrning boshlarida avval Bag‘donna, keyin Samarqandda yashagan bo‘lishi mumkin. U holda bu islam davrida turk tilida yozilgan birinchi adabiy asar bo‘ladi. Demak, islam davridagi o‘zbek adabiyotining tarixi XI asrdan emas, IX asrdan boshlangan deb aytishimiz mumkin.

X asrda Somoniylar buyurtmasiga ko‘ra Qur‘on-i Karim turk tiliga tarjima qilingan, lekin uning asl nusxasi saqlanmagan. Bizgacha uning faqat XII va XIII asrlarda ko‘chirilgan nusxalari yetib kelgan. Bu davrdagi ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilgan, saroy shoirlari ham asosan arab tilida ijod qilganlar. Lekin shu bilan birga yangi fors tilida ijod qiluvchi shoirlarning soni tobora ortib bordi. Somoniylarning kelib chiqishi turk bo‘lsa ham, ular fors she’riyatini qo‘llab-quvvatladilar. Ulardan keyin hukm surgan turk sulolalari ham shunday qilganlar. Shu bilan birga turk tilidagi adabiyot ham rivojlanib bordi. Qoraxoniylar davrining adabiy tili “xoqoniya” deb atalgan, unda qarluq lahjasining xususiyatlari asosiy o‘rin egallagan. Xorazmshohlar davrida adabiy tilda o‘g‘uz lahjasining ta’siri ortdi. Mo‘g‘ullar davrida ham turk adabiy tili rivojlanishda davom etdi. Hozir bu davrning tilini “chg‘atoj tili” deb atash qabul qilingan. Temuriylar davrida Alisher Navoiy bu tilni arab va fors tillaridan o‘zlashtirilgan ko‘plab yangi so‘zlar bilan boyitdi va o‘zining “Muhokamat al-lug‘atayn” asarida uning adabiyotda fors tilidan qolishmasligini isbotladi. Keyingi davrlardagi adabiy til hozir “eski o‘zbek tili” deb ataladi. Ko‘chmanchi xalqlar uni “sart tili” deb ataganlar.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uyg‘ur tili bilan bir qatorda qadimgi turk runik yozuvli yodgorliklar, Mahmud Koshg‘ariy va Yusuf Xos Hojibning

tili (ya'ni, qarluq tili) ga eng yaqin turgan til hisoblanadi. Demak, o'zbek tili uyg'ur tili bilan birga qadimgi turk adabiy tilining, uning ilmiy va adabiy an'analarining davomchisidir. XX asr boshlariga qadar eski o'zbek tili umumiy turk tili hisoblangan va ko'chmanchi turklar (qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar) undan rasmiy til sifatida foydalan-ganlar. Tatarlar, boshqirdlar va ozarbayjon turklarining adabiy tillari ham bu tilga yaqin bo'lган. Shuning uchun eski o'zbek tilini mazkur xalqlarning hammasi yaxshi tushunganlar.

1991-yildan keyin mustaqillik qo'lga kiritilganligi natijasida turk lahjalarida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar rivojlandi. Shunda bu xalqlar o'rtasidagi muloqot tili qanday bo'lishi kerak degan masala ham bir necha bor ko'tarildi. Bu masala bo'yicha asosan 2 ta taklif ilgari surildi. O'zbekistonlik olim B.Karimov "o'rta turk" tili g'oyasini ko'tarib chiqdi. Unga ko'ra, turk tilining turli lahjalarida qo'llaniladigan barcha atamalar umumiylashtirilib, ularning bir-biriga eng ko'p mos keladiganlari qabul qilinadi. Bu fikrga birinchi bo'lib Turkiya turklari qarshi chiqdilar. Chunki bu g'oya ularning ko'zlagan siyosiy maqsadlariga javob bermaydi. Turkiya turklarining maqsadi esa hammaga ayon. XX asr boshlarida Usmonli imperiyasi davrida Anadolu turkchasi barcha turk lahjalarida so'zlashuvchi xalqlarning o'zaro muloqot tili bo'lган. Keyin sobiq ittifoq davrida va hududida uning o'rnini rus tili egalladi. Hozirgi Turkiya turklari hech ham ikkilanmasdan turk lahjaliariuda so'zlashuvchi qardosh xalqlar o'rtasidagi muloqotda rus tilining o'rnini Turkiya davlatining turkchasi egallashi kerak, deb hisoblaydilar. Bu masalada ularni, xususan, Ozarbayjon turklari qo'llab-quvvatlaydilar. Chunki ularning tillari bir-biriga juda yaqin.

Tarixiy va tilshunoslik nuqtai nazaridan hozirgi Turkiya turkchasi barcha turk lahjalarida so'zlashuvchilar o'rtasidagi xalqaro muloqot tili bo'la olmaydi. Bu tilni faqat turklar va ozarbayjonlar, shuningdek, turkshunoslar va Turkiyada tehsil olganlar talabalar tushunadilar. Qolaversa, bu til chin ma'nodagi haqiqiy turk adabiy tili emas, uni shartli ravishda "Otaturk tili" deb atash mumkin. Chunki bu til XX asrning 20-yillarida Mustafa Kamol Otaturk davrida o'tkazilgan yozuv va til islohoti natijasida sun'iy ravishda kiritilgan. Turkiyaning haqiqiy adabiy tili esa Usmonli davrining davlat tili edi. Bu til eski o'zbek, uyg'ur va tatar tillariga juda yaqin edi, ozarbayjon tili bilan esa ayni bir xil edi.

Menimcha, turk lahjalarida so'zlashuvchi xalqlar o'rtasidagi xalqaro muloqot tili XI – XII asrlarda ishlatalgan qadimgi turk adabiy tili bo'lishi kerak. O'sha til barcha tuklar uchun yagona adabiy til vazifasini bajargan edi. Misol uchun, arab dunyosida ham 22 ta mamlakat bor. Ularning umumiy tili mumtoz arab tili, ya'ni Qur'oni Karim tili asosida shakllangan

yozma adabiy tildir. Turk lajhalarida so‘zlashuvchi xalqlar (ularning soni ham 20 dan kam emas) ning ham mumtoz turk tili bo‘lgan. U ham bo‘lsa, Qoraxoniylar davrining adabiy tilidir. Demak, biz o‘scha tilni qayta tiklashimiz va xalqaro muloqot til sifatida hayotga joriy qilishimiz va maktablarda o‘qitishimiz kerak. To‘g‘ri, hozirgi kunda Turkiya butun turk dunyosining yetakchisi hisoblanadi. Bu – fakt, ya’ni voqelikdir. Lekin biz tarixiy qadriyatlarni ham unutmasligimiz lozim. Taraqqiyot har doim bir yerda turmaydi. Ertangi kunning qanday bo‘lishini hech kim bilmaydi. Balki Turkiston ham kelajakda buyuk davlat bo‘lar. Buning uchun hozir hamma imkoniyatlar mavjud. Shuning uchun biz bo‘lajak munosabatlаримиз uchun hozirdan adolatli zamin yaratishimiz kerak. Tarixiy ma’lumotlar asosida chiqarilgan adolatli qarorni hech kim hech qachon inkor eta olmaydi. Garchi Turkiya turklari Turkistonni “ota yurt” deb tan olar ekanlar, uning tarixiy tilini ham qabul etishlari kerak.

XI asr yodgorliklarida o‘troq dehqonchilik, bog‘dorchilik, hunarmandchilik, savdo va shaharchilik madaniyatining deyarli barcha jihatlarini o‘zida aks etgan boy tarixiy atamalar majmuasining mavjudligi shundan dalolat beradiki, bu tilda so‘zlashuvchilar, ya’ni hozirgi o‘zbeklarning ajdodlari XI asrga kelib alohida xalq (etnos) sifatida shakllanib bo‘lgan edilar. Ular o‘zlarining adabiy tili, yuksak rivojlangan madaniyati va davlatchiligiga ega bo‘lganlar. Shu vaqtga kelib Sharqiy Qoraxoniylar davlatida uygur xalqi, G‘arbiy Qoraxoniylar davlatida esa o‘zbek xalqining shakllanishi tugallangan edi. Bu xalqlarning undan keyingi bosqichlardagi etnik tarixi ana shu boshlang‘ich asosda rivojlangan. Unga turli etnik komponentlar, shu jumladan, turk va eroniy tilli guruhlar qo‘silib kelavergan.

Hozirgi kunda uygur tili og‘ir kunlarni boshidan kechirmoqda. Xitoyda uygurlaning milliy qadriyatlarini tahqirlash siyosati olib borilmoqda. Uygur tilida ta’lim beruvchi maktablar yopilgan. Uygur tilining ishlatilish doirasi juda torayib ketgan. Barcha rasmiy hujjatlar faqat xitoy tilida olib boriladi. Uygurlarning ko‘p sonli xitoyliklar orasida yo‘q bo‘lib ketish xavfi bor, tashqi olam bilan aloqalar qilishga hech qanday imkoniyat yo‘q. Bu esa oxir oqibatda Xitoyda uygur tilining yo‘qolishiga olib kelishi shubhasiz. Lekin uygur tili boshqa mamlakatlarda, xususan, Turkiya, Amerika Qo‘shma Shtatlari va Kanadada yashovchi ko‘p sonli uygur jamoalari orasida rivojlanishda davom etmoqda. Bundan tashqaru uygur tili dunyodagi ko‘p universitetlarning turkologiya markazlarida turk, o‘zbek va qozoq tillari qatorida o‘qitiladi.

Yaqin vaqtargacha o‘zbek tili ham shunga o‘xshash ahvolda edi. Lelin Sho‘rolar davlatining parchalanishi va O‘zbekistonning mustaqillikka erishgani tufayli o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi va uning rivojlanishi

uchun keng imkoniyatlar ochildi. Ayniqsa Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universitetining ochilishi muhim voqeа bo‘ldi. Shu bilan birga O‘zbekiston FA ning O‘zbek tili va adabiyoti instituti ham saqlanib qoldi. Lekin amalda o‘zbek tili hali ham o‘zining qonun bilan belgilangan ijtimoiy hayotdagi o‘rnini egallaganicha yo‘q. O‘zbek tili rasman davlat tili hisoblanadi. Lekin ko‘p davlat idoralarida rasmiy hujjatlar hamon rus tilida olib boriladi. Davlat idoralarida davlat tilini bilish shart emas. Radio va teleko‘rsaturlarning faqat yarmi o‘zbek tilida olib boriladi. Mamlakatimizda rus tili rasmiy til bo‘lmasa ham, o‘zbek tili bilan barobar ishlataladi. Aralash maktablarda rus tilida o‘qitilayotgan sinflar haddan tashqari ko‘p va ularning soni hech kim tomonidan nazorat qilmaydi, bu esa o‘zbek tilining rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Lekin asosiy fozia shundan iboratki, o‘zbek tili kiril alifbosidan “lotin alifbosiga o‘tish” dek murakkab va mavhum bir davrni boshidan kechirmoqda. Mana 20 yildan oshdiki, o‘zbek tilida 2 ta alifbo qo‘llanilmoqda. O‘tish davri uchun qonun bilan belgilangan hamma muddatlar tugasa ham, hamon lotin alifbosiga o‘tish joyidan siljiyotgani yo‘q. Turkmaniston va Ozarbayjonda 25 yil oldin hech qanday “o‘tish davri”siz lotin alifbosiga o‘tilgan, va bundan hech kim zarar ko‘rmagan. Bizda esa bu masalaning hal bo‘lishi juda sust kechmoqda. 1940 yilda bizda ham lotin alifbosidan kiril alifbosiga o‘tish hech qanday “o‘tish davri”siz bir kunda amalga oshirilgan. 1928 yilda esa arab alifbosidan lotin alifbosiga o‘tish jarayoniga ham bor yo‘g‘i 1-2 yil vaqt ketgan. Bu esa boshqalariga nisbatan ancha murakkab va qiyin jarayon hisoblanadi.

Hamma gap shundaki, bizda hali ham rus tilining maqomi va ta’siri kuchli. Buning ustiga o‘zbek ziylilarining bir qismi lotin alifbosiga o‘tishga hojat yo‘q, chunki hamma kiril alifbosiga o‘rganib qolgan, shuning uchun uni o‘z holida qoldirish kerak deb hisoblaydi. Mening fikrim shuki, o‘zbek tilini albatta lotin alifbosiga o‘tkazish lozim, qancha tez bo‘lsa, shuncha yaxshi. Chunki o‘zbek tili kiril alifbosida qolsa, u hech qachon rus tilining ta’siri ostidan chiqib keta olmaydi, va oxir oqibatda rus tili uni yutib yuboradi. “Qizil ruslar” aynan shu maqsadda arab alifbosiga asoslangan eski o‘zbek alifbosini avval lotin, keyin kiril alifbosiga o‘tkazganlar. Rus tili shundoq ham o‘zbek tiliga juda katta ta’sir o‘tkazishga ulgurdi. Natijada juda ko‘p arabcha, forscha va hatto asl o‘zbekcha so‘zlar muomaladan chiqib ketdi va ularning o‘rnini ruscha so‘zlar egalladi. Agar biz o‘zbek tilining bundan keyingi rivojlanishi mustaqil bo‘lishini istasak, biz albatta kiril alifbosidan voz kechishimiz kerak. Qolaversa, bu masala siyosiy ahamiyatga ega.

Yana bir muammo shundan iboratki, o‘zbek tili uchun 90-yillarning o‘rtalarida qabul qilingan yangi lotin alifbosi mukammal emas va

ishlatishga noqulaydir. Buning ustiga bu noqulay alifbo majburiy hisoblanadi va boshqa qulayroq bo‘lgan lotin alifbolaridan foydalanish mumkin emas. Bu faqat mening fikrim emas, balki bu masalada men bilan so‘zlashgan deyarli barcha odamlar, shu jumladan maktabda shu alifboda o‘qigan yoshlarning ham fikridir. Ular ichida shunday yoshlar ham borki, maktabni bitirgandan keyin o‘zlari ixtiyoriy ravishda yozuvda lotin yozuvida voz kechib kiril yozuvini ishlatadilar. Shuning uchun bu yangi lotin alifbosini rasman qabul qilishdan oldin uni qayta isloh qilish kerak. Menimcha, eng mukammal va qulay alifbo bu XX asrning 20-yillarida Abdurauf Fitrat tomonidan taklif etilgan va 40-yillargacha ishlatilgan lotin alifbosidir. Bu alifboda o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan 9 ta unli o‘z aksini topgan, hozirgi alifboga esa ulardan faqat 6 tasi kiritilgan. Bundan tashqari, eski lotin alifbosida undosh *sh*, *ch*, *g'* va unli *o'* harflari 2 ta belgi bilan emas 1 ta belgi bilan ifodalanadi, bu esa amalda ishlatishga juda qulaydir. Fitrat bu alifboni o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda 1925 yilda Bakuda Xalqaro turkologiya kongressida bir ovozdan qabul qilingan umumturk lotin alifbosi asosida tuzgan edi.

Savollar:

1. *O‘zbek tili turk tillari oilasining qaysi til guruhiga kiradi?*
2. *Temuriylar davrining tili qanday atalgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Turk tillari oilasi.*
2. *Qadimgi shumer tili.*

4.3. “Turk”, “Sart” va “O‘zbek” atamalarining mazmuni

Darsning o‘quv maqsadi. Tarixiy va etnografik manbalarda uchraydigan “turk”, “sart” va “o‘zbek” atamalarining mazmuni, mohiyati va ishlatalish doirasi bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: turklar, turk tilida so‘zlashuvchi xalqlar, Turk xoqonligi, ko‘chmanchi qabilalar, savdo aloqalari, Dasht-i Qipchoq, O‘zbekxon, o‘zbek qabilalari, o‘zbek xalqi.

“Turk” atamasi VI asrda Turk xoqonligiga asos solgan Ashina qabilasining nomi bo‘lgan. Turk xoqonligi davrida ularga tobe bo‘lgan turk tilida so‘zlashuvchi ko‘chmanchi qabilalar “turk” deb atalgan. Lekin dastlab barcha turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar “turk” deb atalmagan. Masalan, uyg‘urlar “uyg‘ur”, qirg‘izlar esa “qirg‘iz” deb atalganlar. Arab xalifaligi davrida barcha turk tilida so‘zlashuvchi qabilalar, hatto sug‘d, tibet va boshqa tillarda so‘zlashuvchi xalqlar ham umumiy nom bilan “turk” deb atala boshlagan. Shu bilan birga arablar ularning alohida qabila va urug‘lardan tashkil etganligi haqida ma’lumotga ega bo‘lganlar.

Turk xoqonligi davrida turklar juda keng hududlarga tarqalgan edilar. Ularning yashagan hududlari g‘arbda Dunay daryosi, sharqda Tinch okean, shimolda Shimoliy muz okeani (Qar dengizi), janubda esa Hindukush tog‘larigacha bo‘lgan yerlarni o‘z ichiga olgan. Boshqa xalqlar ularni umumiy nom bilan “turklar” deb ataganlar. Turk xoqonligi Xitoy imperiyasiga bo‘ysingandan keyin ularning ko‘p siyosiy arboblari va harbiy qo‘mondonlari Xitoy poytaxti va boshqa shaharlarida xizmat qilganlar. Xitoylar ularni *tu-kiue*, ya’ni “turk” deb ataganlar. Vizantiya manbalarida bulg‘arlar, madyarlar, pecheneglar, xazarlar va turk tilida so‘zlashuvchi boshqa xalqlar “turklar” deb atalganlar. G‘arbda turklar Italiya va Fransiya, hatto Ispaniyagacha yetib borganlar. Arab xalifaligi davrida turklar Yaqin Sharq va Shimoliy Afrikaga ham tarqalganlar. Xususan, O‘rtal Osiyolik turklar Bag‘dod shahrining qurilishida faol ishtirok etganlar, keyinchalik esa xalifalarning eng yaqin odamlariga aylanib, davlat ishlarini boshqarishda faol qatnashganlar. IX – X asrlarda Misr va Suriyada asli farg‘onalik bo‘lgan Tuluniylar va Ixshidiylar sulolalari hukm surgan. XIII – XIV asrlarda esa turklar bu yerlarda o‘z davlatiga ega bo‘lganlar va unda turk tili davlat tili hisoblangan. XI – XII asrlarda Saljuqiylar hukmronligi davrida turklar Xalifalikning deyarli

barcha hududlari ustidan o‘z hukmronligini o‘rnatganlar. XII asr oxiri – XIII asr boshlarida ularning o‘rnini qisqa vaqt davomida Xorazm turklari egalladi. Mo‘g‘ullar istilosiga davrida ham turklar davlat boshqaruvi ishlarida yetakchi o‘rinlarni egallaganlar. XV asrda turklar Vizantiya imperiyasini qulatib, Usmonli imperiyasiga asos solganlar va XX asr boshlariga qadar Yaqin Sharq mintaqasida hukmronlik qilganlar.

Bu ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, juda ko‘p hududlarda yashagan turk tilida so‘zlashuvchi xalqlar barcha yerlarda “turklar” deb atalganlar. “Turk” atamasi ularning umumiyligi nomi bo‘lib, superetnos vazifasini bajargan. Shu o‘rinda bir masalaga to‘xtalish lozim. Bizda ayrim olimlar “Biz turk emasmiz, turkiymiz” deb isbotlashga urinadilar. Bu bilan ular o‘zlarini Turkiyadagi turklardan ajratib ko‘rsatmoqchi bo‘ladilar. Bu mutlaqo noto‘g‘ri va asossiz tushuncha bo‘lib, tillarni va etnik atamalarning yasalish qonuniyatlarini yaxshi bilmaslikdan kelib chiqqan. “Turkiy” so‘zida arabcha -iy qo‘sishimchasi bo‘lib, bu so‘z etnonim sifatida emas, tilga nisbatan ishlatiladi. Fors tilida *zabon-i forsiy* – “fors tili” va *zabon-i arabiyy* – “arab tili” singari *zabon-i turkiy* – “turk tili” iborasi ishlatiladi. Shu so‘zdan o‘zbek tilida “turkiy tillar” va “turkiy tilli xalqlar” iboralari hosil bo‘lgan. “Turkiy” degan xalq yoki millat hech qachon bo‘lamagan. Bizning yurtimiz tarixiy manbalarda “Turkiyiston” emas, “Turkiston” deb atalgan. Turkiston dunyodagi barcha turklarning, ya’ni turk tilining turli lahjalarida so‘zlashuvchi xalqlarning vatani hisoblanadi, shu jumladan, Turkiyadagi turklarning ham. Shuning uchun ular Turkistonni “ota yurt” deb ataydilar. XX asr boshlaridagi jadidlar harakatining namoyondalari “turk” deganda avvalambor O‘rta Osiyoning turk tilida so‘zlashuvchi o‘troq aholisini tushunganlar. Ular “Turon”, “Turkiston”, “Ulug‘ Turkiston”, “Sadoi Turkiston”, “Turk so‘zi”, “Turk eli” va shunga o‘xshash nomli gazeta va jurnallar nashr etganlar. Turkiyadagi turklarni ular “Usmonli turklari” deb ataganlar. Turk tilining turli lahjalarida so‘zlashuvchi ko‘chmanchi xalqlarni esa “turklar” qatoriga kiritmaganlar. Shunday qilib, asl turklar bu bizmiz, chunki “Turkiston” vatanimizning tarixiy nomidir (keyingi bo‘limga qarang).

To‘g‘ri, Markaziy Osiyoning turk tilida so‘zlashuvchi xalqlari turli davrlarda turli nomlar bilan atalgan. Undan tashqari ko‘chmanchi xalqlar qabilaviy nomlar bilan, o‘troq xalqlar esa joy nomlari bilan atalganlar. Ularning umumiyligi nomi ham bo‘lib, ko‘pincha siyosiy hokimiyat va hukmdorlarning ismlari bilan bog‘liq bo‘lgan (Turk, O‘g‘uz, Chig‘atoy, O‘zbek va h.k.). Lekin ularning umumiyligi nomi har doim “turk” bo‘lgan va bu atama superetnos vazifasini bajargan. Buni Mahmud ibn Vali (XVII asr) quyidagicha ta’riflagan: “Turkiston xalqlari turli davrlarda turli nomlar bilan atalganlar: Turk ibn Yofas hukmronligi davrida “turk”, Mo‘g‘ulxon

hukmronligi davrida “mo‘g‘ul”, O‘zbekxon hukmronligi davrida “o‘zbek”. Lekin atrofdagi boshqa xalqlar ularni ilgarigidek “turk” deb ataydilar.

Undan tashqari ko‘chmanchi qabilalar o‘troq xalqlarni “sart” deb ham ataganlar. Bu so‘zning kelib chiqishi haqida turlicha fikrlar aytilgan. Aslida bu so‘z etnonim bo‘lmagan. Hech qaysi etnik guruh o‘zini “sart” deb atamagan. Bu so‘zning kelib chiqishi sanskrit tilidagi *sarthaka* – “savdogar”, “karvonboshi”, “karvon” so‘zi bilan bog‘liq. Sug‘d tilida ham *sart* so‘zi ishlatilgan va xuddi shu ma’noni bildirgan. Ma’lumki, sug‘dlar asosan savdo bilan shug‘ullanganlar. Markaziy Osiyoda Buyuk ipak yo‘li, asosan, ko‘chmanchi qabilalarning yerlaridan o‘tgan. Ko‘chmanchilar karvonlarga tez-tez hujum qilib turganlar va dastlab ularning “siz kimsizlar?” degan savoliga karvondagilar “biz sartmiz”, ya’ni “savdogarmiz” deb javob berganlar. Shu bilan bu so‘z turk tiliga ham “savdogar” ma’nosida o‘zlashtirilgan va Mahmud Koshg‘ariyning “Devon lug‘ot at-turk” asarida aynan shu ma’noda talqin etilgan. Karvon tarkibidagi odamlar asosan shaharlklar bo‘lgani sababli keyinchalik *sart* so‘zi umuman o‘troq aholiga nisbatan ishlatila boshlagan.

O‘zbek etnonimining kelib chiqishi haqida ham turli fikrlar bildirilgan. Xalq talqiniga ko‘ra, bu so‘z “o‘ziga bek” ma’nosida ishlatilgan. Lekin aslida bu so‘z Oltin O‘rda davlatining hukmdori O‘zbekxon ismi bilan bog‘liq. Xususan Mahmud ibn Valining yuqorida keltirilgan ma’lumoti bunga dalildir. XVI – XVIII asrlarda “o‘zbek” so‘zi etnosiyosiy ma’noga ega bo‘lib, o‘ziga xos superetnos vazifasini bajargan. O‘zbeklarning shajaraiga ko‘ra, Dasht-i Qipchoq o‘zbeklarning birlashuvi 92 ta qabila va urug‘lardan iborat bo‘lib, ularning har biri o‘zining etnik nomiga ega bo‘lgan. Ularning umumiyligi nomi esa oliy hukmdor O‘zbekxon ismi bilan “o‘zbek” edi. Markaziy Osiuoga ko‘chib kelgandam keyin ular mahalliy shahar turklarining yuksak madaniyati va adabiy tilini qabul qildilar. Qo‘sni xalqlar ularni “turklar” yoki “chig‘atoy turklari” deb atar edilar. O‘zbeklarning asosiy qismi asta-sekin o‘troqlashib, mahalliy aholi bilan qorishib ketdi. Siyosiy hokimiyat o‘zbeklarga qarashli bo‘lgani uchun bu etnosiyosiy nom superetnos vazifasini bajarib, barcha aholiga nisbatan ishlatila boshladi. Shuning uchun “o‘zbek” nomi o‘zidan oldingi “turk” nomiga zid bo‘lmasdan, uning sinonimi va davomchisi sifatida ishlatildi.

Amerikalik olim Adib Xolid o‘zining 2015 yilda nashr etilgan “Making Uzbekistan” (“O‘zbekistonning taskil topishi”) nomli kitobida “sart”, “turk” va “o‘zbek” atamalarining mazmuniga ahamiyat bergen. Uning yozishicha, bu atamalarning o‘zaro bog‘liqligi aniq emas edi, 1897 yilda aholini ro‘yxatga olish vaqtida ular bir vaqtida barobar ishlatilgan (270-bet). Shundan keyin “o‘zbek” atamasi to‘g‘ri deb tan olingan, “sart” atamasi esa unutilgan (260-bet). Lekin “o‘zbek” atamasi Markaziy Osiyoning barcha

turkuy tilli aholisini o‘z ichiga olmagan va butun mintaqani birlashtiruvchi ma’noga ham ega olmagan. Qozoq ziyolilari hech qachon “chig‘atoychilik” harakatiga moyillik va amir Temurga ixlos bildirmaganlar (266-bet). 1924 yilga kelib, Turkiston va Buxoro ziyolilari shu xulosaga keldilarki, Movarounnahrning o‘troq musulmon aholisini “o‘zbek” deb hisoblash kerak (ular ko‘chmanchi qo‘shnilar, ya’ni qozoqlar va turkmanlardan katta farq qilganlar) (269-bet).

Yuqorida qayd etganimizdek, XVI – XVIII asrlarda O ‘zbekiston joy nomi Turkiston va Turon joy nomlarining sinobimi va davomchisi bo‘lib, Markaziy Osiyodagi bir-biriga qarindosh barcha xalqlarni birlashtiruvchi siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan. Mahmud ibn Valining yuqorida keltirilgan so‘zleri bunga yaqqol dalildir. Bu jihatdan Markaziy Osiyo va Buxoro ahlining boshqa xalqlar orasida, ya’ni o‘zga yurtlarda qanday atalganligi diqqatga sazovordir. Falastinda Quddus shahrining musulmonlar yashaydi-
الزاوية (الزاوية الباخارية) qismidagi al-Aqsa masjidi yaqinida al-Zawiya al-Naqshbandiyya
الزاوية الازبكية (الزاوية الازبكية) nomli bir qadimiy xonaqoh joylashgan bo‘lib, o‘rta asrlarda u Markaziy Osiyodan kelgan “naqdshbandiya” tariqatiga mansub sufylarga qarashli bo‘lgan. Bu xonaqoh yana al-Zawiya al-Buxoriyya
الزاوية الازبكية (الزاوية الازبكية) deb ham atalgan, u 1010/1602 yilda qurilgan va hozirgacha mavjud. 400 yil oldin asos solingan sufylarning bu xonaqohini Markaziy Osiyolik shayxlar boshqargan bo‘lib, ularning ismlariga al-Buxoriy va al-Turkistoniy nisbalari bilan bir qatorda al-Uzbekiy
الازبكي (الازبكي) nisbasi qo‘silgan. Bir qarashda bu nisba ularning Markaziy Osiyoda Shayboniylar davlatiga asos solgan Dasht-i Qipchoq qabilalridan kelib chiqqanligiga ishora qiladi, deyish mumkin. Boshqa manbalarda bunday nisba uchramaydi. Markaziy Osiyoda Shayboniylar davrida fors tili hukmron edi. Ilmiy va diniy doiralarda tug‘ilgan yoki yashagan joylardan, shuningdek, kasb-hunar va diniy mansablardan yasalgan nisbalar ishlatilgan. Siyosiy hokimiyatga ega bo‘lgan o‘zbek hukmdorlari va ularga qarashli Dashti Qipchoq qabilalari o‘zlarini mahalliy aholidan farqlamaganlar. Ular Temuriylar davridan qolgan madaniy merosni qabul qilib, mahalliy aholining yuksak madaniyatiga sherik bo‘lganlar. Shuning uchun Markaziy Osiyo hududida yozilgan manbalarda o‘zbeklarning etnik kelib chiqishini anglatuvchi nisbalar uchramaydi. O‘zga yurtlarga ko‘chib borgan Markaziy Osiyoliklar ko‘pincha o‘zlarining kelib chiqqan joyidan yasalgan nisbalarni ishlatganlar. Masalan, al-Buxoriy, al-Samarqandiy, al-Balxiy, al-Farg‘oniy va h.k. Ba’zilari mintaqaning umumiyligi nomidan yasalga al-Turkistoniy nisbasini ishlatganlar. Bizningcha, Falastindagi Markaziy Osiyolik shayxlarning al-Uzbekiy
الازبكي (الازبكي) nisbasi ham ularning etnik kelib chiqishini emas, balki umuman

Markazi Osiyodan ekanligini bildirgan. Boshqachsiga aytganda, al-Uzbek (الإشك) nomi XVI – XVIII asrlarda Turkiston (ترکستان) nomining sinonimi bo‘lib, Markaziy Osiyo mintaqasining umumiyligi nomi sifatida ishlatilgan. Bu nom XVI – XVIII asrlarda Markaziy Osiyoning Yevropada chizilgan lotin va yunon yozuvli xaritalari va globuslarida Usbek, Usbekia, Özbegistan shakllarida qayd etilgan. XVI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda Dasht-i Qipchoq o‘zbeklari hukmronlik qilgan. Mahalliy aholi ularga Temuriylar va ulardan ham oldingi sulolalarning merosxo‘rlari va davomchilar deb qaragan. XVI – XVIII asrlarda ularning hududi, adabiy tili va madaniyati umumiyligi bo‘lgan. Shuning uchun o‘sha davrning siyosiy xaritalari va globuslarida Markaziy Osiyo mintaqasi Usbeck, Usbekia va Özbegistan nomlari bilan atalgan. Falastinda yashagan O‘rta Osiyolik shayxlarning al-Uzbekiy nisbasi ham buning yaqqol dalilidir.

Savollar:

1. XX asr bosqlaridagi jadidlar harakatining vakillari “turklar” deganda kimlarni nazarda tutganlar?
2. “Sart” atamasi qaysi tildan olingan va nimani bildiradi?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. “Sart” atamasining kelib chiqishi haqida ilmiy munozaralar.
2. “Turk” atamasining kelib chiqishi va ishlatilishi.

4.4. “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” atamalarining o‘zaro bog‘liqligi

Darsning o‘quv maqsadi. “Turon”, “Turkiston” va “O‘zbekiston” tarixiy atamalarining ishlatilish davrlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi haqida tushuncha berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: *Transoksiyana, Mavarounnahr, Varorud, “G‘arbiy o‘lka”, Turon, Turkiston, O‘zbekiston, O‘rta Osiyo, Markaziy Osiyo.*

Turli davrlarning tarixiy manbalarida O‘rta Osiyo mintaqasi turli nomlar bilan atalgan. Xususan, yunon manbalarida (m. a. IV – III asrlar) Transoksiyana (Transoxiana), ya’ni “Oks daryosining orqa tomoni” atamasi ishlatilgan. Xitoy manbalarida *Xi yu* (m. a. II asrdan boshlab), ya’ni “G‘arbiy o‘lka” atamasi ishlatilgan. Arablar O‘rta Osiyonni Mavarounnahr, ya’ni “daryoning orqa tomoni” deb ataganlar. Bu atama yunonlarning Transoksiyana atamasining tarjimasi edi. Keyinchalik forslar uni o‘z tillariga tarjima qilib, ba’zan Varorud, ya’ni “daryoning orqa tomoni” deb ham atar edilar.

Bulardan tashqari O‘rta Osiyo mintaqasiga nisbatan Turon va Turkiston atamalari ham ishlatilgan. Turon atamasi ilk bor Firdavsiyning “Shohnoma” asarida qayd etilgan deb qabul qilingan. Shuning uchun bu afsonaviy tushuncha va uning zaminida faqat rivoyat yotadi, lekin haqiqatda Turon nomli muayyan bir hudud bo‘limgan deb uqtiriladi. Aslida esa unday emas. Buni keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar tasdiqlaydi. Tehrondagi muzeylardan birida Forug‘iy fondi deb atalgan Sosoniylar davrining muhrlar majmuasi bor. Unda IV – V asrlardan VII – VIII asrlarga qadar Sosoniylarning boshqaruv tizimi va uning mahalliy ma’muriyatlarida ishlatilgan muhrlar jamlangan. Barcha muhrlarning bir tomonida pahlaviy tilidagi yozuvlar, orqa tomonida esa odamlar va turli hayvonlarning suratlari yoki ramzlar tasvirlangan. Mazkur muhrlarning V – VI asrlarga mansub bir nechtaida “Turon” va “Turonlik” so‘zлari qayd etilgan. Bu muhrlarning egalari Sosoniylar ma’muriyatida xizmat qiluvchi turonliklar bo‘lib, ular “Turon” atamasining muayyan bir hududga nisbatan ishlatilganligidan dalolat beradi. Sosoniylar davrida “Turon” atamasi Eronning shimol va shimoli-sharqdagi qo‘slnisi, ya’ni eftaliylar davlatiga nisbatan ishlatilgan. Mazkur kolleksiyaning boshqa muhrlarida “Turkiston” atamasi ham qayd etilgan. Bu atama Sosoniylar davlatida Turk xoqonligiga

nisbatan ishlatilgan. Bu ma'lumotlardan ko'riniň turibdiki, "Turon" va "Turkiston" atamalari tarixiy atamalar bo'lib, forslarda muayyan davlatlarga nisbatan ishlatilgan – IV – V asrlarda "Turon" atamasi xiyoniylar va eftaliylar davlati, VI – VIII asrlarda "Turkiston" atamasi Turk xoqonligiga nisbatan qo'llanilgan. "Turon" va "Turkiston" atamalari o'zaro bog'liq bo'lib, sinonimlar sifatida ham ishlatilgan.

Arab xalifaligi davrida, xususan, Somoniylar hukmronligi davrida, O'rtalik Osiyo "Movarounnahr" deb atalgan. Lekin "Turon" va "Turkiston" atamalari unutilmagan, balki Markaziy Osiyoning Arab xalifaligidan tashqaridagi yerlarga, xususan, Turgash, Qarluq va Uyg'ur xoqonliklariga nisbatan ishlatilgan. XI asrda hokimiyat Qoraxoniylar qo'liga o'tgandan keyin O'rtalik Osiyo yana "Turkiston" deb atala boshlagan. Mahmud G'aznaviy o'ziga qarashli yerlarni "Xuroson", Amudaryo orqasidagi yerlarni, ya'ni Qoraxoniylarga qarashli hududlarni "Turkiston" deb atagan. Mo'g'ullar istilosidan davrida O'rtalik Osiyo "Chig'atoy ulusi", uning aholisi esa "chig'atoy xalqi" deb atalgan. Temuriylar davridagi manbalarda O'rtalik Osiyo mintaqasi yana "Turkiston" deb atala boshlagan.

XVI asrdan boshlab Shayboniylar hukmronligi davrida O'rtalik Osiyo mintaqasi "O'zbekiston" deb atalgan. "O'zbekiston" atamasi XIV – XV asrlarda ham mavjud bo'lgan, lekin bu davrda "O'zbekiston" deganda, Oltin O'rda davlati nazarda tutilgan. Amir Temur To'xtamishxon ustidan g'alaba qozonib, o'zbeklar mamlakati zaiflashgandan keyin rus podshohi Ivan Grozniy Qozon xonligini bosib oldi. Shundan keyin birin-ketin Astraxan, Qirim, Sibir xonliklari tugatildi va Rossiyaga qo'shib olindi. Natijada u yerlarda yashagan turk tilida so'zlashuvchi aholining k'op qismi o'z yerlarini tashlab, Markaziy Osiyo mintaqasiga ko'chishga majbur bo'ldilar va bu yerda hokimiyatni Temuriylardan tortib oldilar. Natijada "O'zbekiston" atamasi Markaziy Osiyoga nisbatan ishlatila boshlandi. Shu bilan birga "Turon" va "Turkiston" atamalari ham muomalada qoldi va "O'zbekiston" atamasining sinonimi sifatida ishlatildi. XIX asrning ikkinchi yarmida, ya'ni rus istilosidan esa mintaqasi yana "Turkiston" deb atala boshladidi. Shunday qilib, "Turon", "Turkiston" va "O'zbekiston" atamalari Markaziy Osiyo mintaqasining mahalliy asosda vujudga kelgan tarixiy nomlari bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan va biri birining davomchisi bo'lgan. Shuning uchun bu tarixiy atamalar huquqiy jihatdan eng to'g'ri, ilmiy jihatdan esa mahalliy aholining haqiqiy etnik tarkibini aks etdiruvchi asl atamalardir. Mintaqaning qolgan atamalari, ya'ni "Transoksiana", "G'arbiy o'lka", "Movarounnahr", "Varorud", "Chig'atoy", chet el bosqinchilari tomonidan muomalaga kiritilgan, ularning har biri qisqa davr, ya'ni istilo davri, davomida ishlatilgan va keyinchalik unutilib ketgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan e'tiboran rus istilochilar "Turkiston" siyosiy atamasining o'rniga "O'rta Osiyo" va "Markaziy Osiyo" geografik atamalarini muomalaga kiritib, ularni ilmiy va siyosiy sohalarda ishlatila boshladilar. "O'rta Osiyo" deganda, muayyan geografik hudud tushuniladi. Uning chegaralari g'arbda Kaspiy dengizining sharqiy sohili, sharqda Tian-Shan, Pomir va Oloy tog'lari, janubda Hindukush tog'lar tizmasi, shimolda esa Orol-Irtish suv ayrigichi bo'ylab o'tgan. Geografik adabiyotda bu hudud "Turkiston tabiiy-geografik o'lkasi" deb ataladi. Uning asosiy qismini tog'lar bilan o'ralgan "Turon" past tekisligi egallaydi. Ko'rib turganimizdek, "Turon" va "Turkiston" atamalari siyosiy muomaladan chiqarib yuborilgan bo'lsa ham, geografik muomalada saqlangan va haligacha ishlatiladi. Siyosiy jihatdan bu hududlar O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Janubiy Qozog'iston yerlarini o'z iciga oladi. "Markaziy Osiyo" geografik atamasi ancha kengroq hududlarni o'z ichiga oladi. Uning tarkibiga O'rta Osiyodan tashqarida joylashgan Qozog'iston, Janubiy Sibir, Oltoy tog'lari, Mo'g'uliston, Sharqiy Turkiston, Kashmir, Pokiston va Afg'onistonning shimoliy qismlari, Eronning Xuroson viloyati ham kiritiladi. "Markaziy Osiyo" atamasi siyosiy muomalada ham ishlatilib, mintaqadagi sobiq ittifoq tarkibiba kirgan 5 ta respublika – O'zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'istoni o'z ichiga oladi.

Savollar:

1. *Movarounnahr atamasi ilk bor qachon qayd etilgan?*
2. *O'zbekiston atamasi qachon ilk bor qayd etilgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *O'rta Osiyoning tarixiy nomlari.*
2. *O'zbekiston atamasi haqida tarixiy ma'lumotlar.*

4.5. O‘zbekistonning tarixiy xaritalari

Darsning o‘quv maqsadi. Yevropada XVI – XVIII asrlarda nashr etilgan O‘rta Osiyo xaritalarida “Uzbekiya” va “O‘zbekiston” atamalari-ning ishlatalishi va ularning ilmiy talqini bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: kartografiya, tarixiy xaritalar, globuslar, sayohatchilar, geografik kashfiyotlar, geografik jamiyatlar.

XVI – XVIII asrlarda Yevropada nashr etilgan xaritalarda Markaziy Osiyo mintaqasi *Usbek* (*Usbec*, *Usbeck*, *Vsbek*), *Usbekia* (*Usbechia*), uning ayrim qismlari esa *Usbek Bucharia*, *Usbek Bochara*, *Usbek Chowaresmia*, *Usbek Mawaralnahra*, *Usbek Turkistan*, *Usbek Turan*, *Usbek Tartaria*, *Usbek Zagatay* singari nomlar bilan atalgan. Shuni alohida qayd etish kerakki, bu barcha nomlar etnonim emas, balki toponim sifatida berilgan. Ayniqsa holland xaritashunosi Abraxam Maas (1730-yil) va yunon sayohatchisi Vasilio Vatatzi (1732-yil) ning xaristalari alohida ahamiyatga ega.

A.Maas xaristasi “Kaspiy dengizi va O‘zbek mamlakati” deb ataladi. Bu rangli siyosiy xarita bo‘lib, unda Markaziy Osiyo va unga tutash hududlardagi davlatlarning siyosiy chegaralari ko‘rsatilgan. O‘sha davrning boshqa ko‘pchilik xaritalaridagi singari bu xaritada ham yozuvlar lotin tilida berilgan. Har xil ranglarga bo‘yalgan Persiya, Rossiya, Indostan, Chin singari mamlakatlar qatorida butun O‘rta Osiyo mintaqasi alohida rangga bo‘yalib, unga lotin harflari bilan “Usbek” deb yozilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, xaritada “Usbek” mamlakatining tarkibiga Amudaryo-dan janubda joylashgan Hindukush tog‘larigacha bo‘lgan yerlar ham kiritilgan. Chunki o‘sha davrda bu yerlarda o‘zbeklarning Balx xonligi bo‘lgan, lekin ko‘p o‘tmay u afgo‘onlar tomonidan bosib olingan. Hozir bu yerlar Afg‘oniston tarkibiga kiradi.

V.Vatatzi xaristasi oq-qora rangli etnografik xarita bo‘lib, unda mintaqada yashagan xalqlar haqida ko‘p ma’lumotlar keltirilgan. Xaritadagi barcha yozuvlar 2 tilda – lotin va yunon tillarida berilgan. Xaritada Sirdaryo havzası *Tourkistan*, ya’ni Turkiston, Amudaryo havzası esa *Özbegistan*, ya’ni O‘zbekiston deb ko‘rsatilgan. Xaritadagi “Turkiston” toponimi Qo‘qon xonligini, “O‘zbekiston” toponimi esa Buxoro xonligini bildirgan.

Bunday nomlar bilan atalgan tarixiy xaritalar 200 dan ko‘p. Bu xaritalar shundan dalolat beradiki, “O‘zbekiston” nomi 1924-yilda ruslar tomonidan o‘ylab topilgan emas, u o‘rta asrlarda Yevropaning siyosiy va tarixiy-geografik tizimida ishlatalgan. *Usbeck* va *Usbekia* toponimlari o‘zbeklar

mamlakati *Özbegistan* toponimining lotincha shakllari bo‘lgan. Bu nomlar XVI – XVIII asrlarda O‘rta Osiyoga nisbatan ishlatalgan va unda Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar davlati nazarda tutilgan. Keyinchalik bu davlat markazlari Buxoro, Xiva, Qo‘qon va Balxda bo‘lgan bir nechta o‘zbek xonliklariga bo‘linib ketgan. Xaritalardagi O‘zbekiston toponimi tarixiy Turkiston toponimining davr nuqtai nazardan davomchisi va sinonimi bo‘lgan. Bu ikkala etnotoponim XVI – XVIII asrlarda etnik jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lgan turli qavmlarni siyosiy jihatdan birlashtiruvchi ahamiyatga ega bo‘lgan.

Markaziy Osiyoning boshqa xalqlaridan xaritalarda *Usbeck* (*Usbekia*, *Özbegistan*) mamlakati hududlarida yashovchi turkmanlar (*Turkmenoi*), qozoqlar (*Kazakoi*), qirg‘izlar (*Khrkizoi*), qoraqalpoqlar (*Karakalpakoi*) qayd etilgan. Ba’zi xaritalarda *Usbeck*, *Usbekia* va *Özbegistan* mamlakati ning hududida Turkmania (janubi-g‘arbida) va Karakalpakia (shimoli-g‘arbida) viloyatlari ko‘rsatilgan. Lekin ko‘pchilik xaritalarda ular etnonim sifatida qayd etilgan. Shuni alohida qayd etish lozimki, XVI – XVIII asrlarga mansub birorta tarixiy xaritada yoki globusda *tojik* etnonimi qayd etilmagan. Bu etnonimdan yasalgan toponim, ya’ni joy nomi haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Bu ma’lumotlardan shu xulosaga kelish mumkinki, rus bosqini arafasida, ya’ni XIX asr o‘rtalarida Markaziy Osyo xalqlari ijtimoiy siyosiy taraqqiyotning turli bosqichlarida bo‘lganlar. Demak, oxirgi 500, hatto 1000 yil davomida ularning mintaqasi tarixida tutgan o‘rni va ahamiyati ham turlicha bo‘lgan. Dashti Qipchoq o‘zbeklari XVI asrdan boshlab O‘rta Osiyoning siyosiy egalari edilar. Ular mahalliy o‘troq va shahar turklari ning yuksak rivojlangan madaniyati va adabiy tilini qabul qilib, Temuriylar va ulardan oldingi turk sulolalarning davlatchilik an’analaring davomchilari sifatida qabul qilingan edilar. XVI – XVIII asrlarda ularning yaxlit hududi, yozma adabiy tili va madaniyati mavjud edi. Shuning uchun o‘sha davrning siyosiy xaritalari va globuslarida ularning mamlakati *Usbeck*, *Usbekia* va *Özbegistan* deb atalgan.

O‘rta Osiyoning boshqa etnik guruhlari – turkmanlar, qozoqlar, qirg‘izlar va qoraqalpoqlar, asosan ko‘chmanchilik hayat tarzi olib borganlar. Ulardan faqat qozoqlar o‘z davlatchiligidagi ega bo‘lganlar. Qolgan xalqlar, ya’ni turkmanlar, qirg‘izlar va qoraqalpoqlar, XVI – XVIII asrlarda o‘zlarining siyosiy hokimiyatiga ega bo‘lmaganlar va mahalliy aholining bir qismi sifatida o‘zbek xonliklarining tarkibiga kirganlar. Shuning uchun o‘sha davrning siyosiy xaritalari va globuslarida ular faqat yashash joyini ko‘rsatuvchi etnonim sifatida qayd etilgan. Tojiklar esa tarixiy xaritalarda umuman qayd etilmagan. Ko‘chmanchilar o‘troq va shahar turklarini singari ularni ham «sart» deb ataganlar, ularning o‘zlarini

esa o‘zlarini joy nomi bilan – buxorolik, samarqandlik, farg‘onalik, xivalik va h.k. deb ataganlar va Özbegistan davlatining vatandoshlari hisoblanganlar. Demak, *Usbeck*, *Usbekia* va *Özbegistan* toponimlari XVI – XVIII asrlarda turli xalqlarni etnik, madaniy va siyosiy jihatdan birlashtiruvchi ahamiyatga ega bo‘lib, nafaqat o‘zbeklar, balki bu davlatning madaniy asosini tashkil etuvchi “sart” deb atalmish o‘troq va shahar turklarini, shuningdek ularga birikkan ko‘chmanchi qabilalar va boshqa milliy guruhlar, ya’ni tojiklar (shu jumladan eroniylar), arablar, yahudiylar va boshqalarni o‘z ichiga olgan. Bu etnik guruhlarning barchasi adabiy yozma til sifatida chig‘atoy turk tilidan foydalanganlar. Ular uchun bu til XX asr boshlariga qadar o‘ziga xos inerdialekt, ya’ni xalqaro muloqot tili rolini o‘ynagan. Bugungi O‘zbekiston ham turli xalqlarni etnomadaniy va etnosiyosiy jihatdan birlashtiruvchi xuddi shunday davlatdir.

Savollar:

1. *Markaziy Osiyo xaritalaridagi “O‘zbekiston” qaysi hududlarni o‘z ichiga olgan?*
2. *XIV – XV asrlarda “O‘zbekiston” deganda qaysi davlat nazarda tutilgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Abraxam Maasning Markaziy Osiyo xaritasi.*
2. *Vasilio Vatatzining Markaziy Osiyo xaritasi.*

V bob. O‘ZBEK XALQI RUSLAR ISTILOSI DAVRIDA

5.1. O‘zbekistonning Rossiya tomonidan bosib olinishining mohiyati

Darsning o‘quv maqsadi. Ruslar istilosi davrida kolonial ma’muriyat tomonidan olib borilgan mustamakachilik siyosatining asl mohiyati va undan ko‘zlangan maqsadlar bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: Chor Rossiyasi, ruslar, Turkiston general-gubernatorligi, rus sharqshunoslari, rus-tuzem maktablari, ruslar-ni ko‘chirish siyosati.

Sho‘rolar davrida yozilgan kitoblarda Rossiya O‘rta Osiyonini qo‘shib oldi va mahalliy xalqlar ixtiyoriy ravishda Rossiyaga qo‘shilganlar deb ta’riflanar edi. Xozirgi kunda ham Rossiyada bunday qarash hukmron. Aslida esa O‘rta Osiyo xalqlaridan faqat qozoqlar va qirg‘izlar Rossiyaga ixtiyoriy ravishda qo‘shilganlar va keyinchalik o‘lkani boshqarishda ularning xizmatida bo‘lganlar. Xususan, ular Turkiston general-gubernatorligida rus kolonial ma’muriyatida tarjimonlik vazifasini bajarganlar. Qolgan yerlarda Rossiya O‘rta Osiyo xalqlarini qurol kuchi bilan bosib olgan. Bu ishlarda ham ularga qozoqlar, qirg‘izlar va tatarlar yordamchi bo‘lganlar. Qozoqlar va qirg‘izlar mahalliy aholining tili, ya’ni o‘zbek tilini, urfodatlarini va yashash sharoitlarini yaxshi bilganligi bilan ruslarga asqotgan. Tatarlarning ham mahalliy aholi bilan dini bir bo‘lganligi ruslarning bosqinchilik siyosatini olib borishiga yordam bergan.

O‘rta Osiyonini bosib olgandan so‘ng Rossiya hukumati mintaqada mustamlakachilik siyosatini olib bordi. Natijada mahalliy aholining tabiiy boyliklari talon-taroj qilindi, diniy, ma’naviy va madaniy qadriyatları poymol qilindi. Ruslar Turkistonda mahalliy aholining yerlarini o‘zlashtirish siyosatini olib bordilar. Xususan, rus bosqinchilari Turkistonga Rossiyadan yersiz kambag‘al dehqonlarni ko‘chirib kela boshladidi. Bu ishlar muntazam va rasmiy ravishda maxsus tuzilgan tashkilotlar orqali olib borildi. Undan tashqari g‘ayrirasmiy yo‘llar bilan minglab yersiz va uysiz kambag‘allar Turkistonga ko‘chib keldi. Ayniqsa temir yo‘l qurilgandan keyin bu ishlar yana ham avj oldi. Rossiyadagi katta ocharchilik davrida (1871-yil) odamlar “Toshkent – non shahri” deb ommaviy ravishda poyezdlarga osilib kela boshladilar. Mahalliy rus kolonial ma’muriyatini ko‘chib kelgan odamlarga yashash ucun shahar chetidagi “bo‘sh yotgan yerlar” ni bo‘lib berar edi. Aslida esa bu yerlar shahar aholisining

tirikchilik uchun foydalanadigan dala hovlilari bo‘lgan. Bu yerlardan mahrum bo‘lgan shaharliklar ularni go‘sht, sut, sabzavot va mevalar bilan ta’minlab turgan tirikchilik manbaidan ayridilar.

Viloyatlar va qishloqlarda esa ahvol bundan ham yomon edi. Rus “chinovnik” lari mahalliy dehqonlarning yerlarini zo‘rlik bilan tortib olib, ko‘chib kelgan ruslarga bo‘lib berar edilar. Bunday harakatlar ko‘pincha qonli to‘qnashuvlar va xalq qo‘zg‘olonlariga olib kelar edi. Shunday qo‘zg‘olonlardan biri 1898-yilda Andijonda Dukchi Eshon boshchiligidagi ko‘tarilgan. Ayniqsa, Qozog‘istonda ko‘chib kelgan ruslar va mahalliy ko‘chmanchi qozoqlar o‘rtasida qonli to‘qnashuvlar ko‘p bo‘lgan va 1920-yilgacha davom etgan. U yerda ko‘chmanchilarning tirikchilik manbai bo‘lgan barcha yaylovlari “bo‘sh yotgan yerlar” deb e’lon qilinib, u yerlarga ruslar va kazaklar ommaviy ravishda ko‘chirib kelindi va quroq bilan ta’minlandi.

Turkiston tabiiy boyliklarini talon-taroj qilish va aholisining yerlarini tortib olish bilan birga rus istilochilar mahalliy aholini ruslashtirish siyosatini olib bordilar. Bu maqsadda rus-tuzem maktablari ochilib, ularda rus tili, adabiyoti va madaniyati targ‘ib qilindi. Bu maktablarni bitirgan musulmonlarning bolalari rus mustamlakachilarining ma’muriyatida xizmat qildilar. Natijada mahalliy aholi orasida rus istilochilariga moyil munosabatda bo‘lgan qatlamlar vujudga keldi. Bir rus amaldori Toshkentda rus tilida nashr etilgan “Turkestanskie vedomosti” gazetasida shunday yozgan edi: “Bizning asosiy maqsadimiz shundan iboratki, Turkiston musulmonlari iloji bo‘lsa faqat rus tilida so‘zlashsinlar, hatto rus tilida fikrlasinlar”. Bu so‘zlar rus istilochilarining asl maqsadi nimadan iborat bo‘lganining yaqqol isbotidir. Ular Turkistonga abadiy egalik qilish, mahalliy aholini asta-sekin yo‘qotish, qolganlarini esa islomdan uzoqlashtirib, ruslashgan manqurtlarga aylantirish edi. Rossiya Federaciyasida hozir ham sunday siyosat olib borilmoqda.

Rus bosqinchilari Turkiston aholisiga nisbatan ham zo‘ravonlik siyosatini olib bordilar. Xususan, Birinchi jahon urushi boshlanganda (1914-yil), ruslar mahalliy aholini Rossiyaga front orqasidagi qurilish ishlariga majburan jalb etmoqchi bo‘ldilar. Bu tadbir 1916-yilda umumxalq qo‘zg‘olonini keltirib chiqardi.

Savollar:

1. *Qo‘qon xonligining tugatilishida rus istilochilariga kimlar yordam bergan?*
2. *Buxoro va Xiva xonliklarining tugatilishida ruslar bilan kimlar hamkorlik qilgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. Turkistonga ruslarni ko‘chirish siyosati.
2. Turkistonda rus-tuzem maktablari.

5.2. Turkistonda jadidlar harakatining ahamiyati

Darsning o‘quv maqsadi. Turkiston o‘lkasida XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidlar ma’rifiy harakatining mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari va uning oldiga qo‘ygan asosiy maqsadlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: jadidlar, islohotlar, yangi usul maktablari, ma’rifatparvarlik g‘oyalari, savodsizlikka qarshi kurash, diniy aqidaparastlikka qarshi kurash, duyoviy hayot va taraqqiyotga intilish.

Jadidchilik madaniy-ma’rifiy harakati XIX asr oxiri va XX asr boshida Usmonli va Rossiya imperiyalaridagi musulmon ziyoliylari orasida keng tarqalib, Turkistonga ham kirib kelgan. Rossiyada jadidchilik harakatining asoschisi Qrimlik Ismoil Gasprali (Gasprinskiy) edi. U uzoq yillar davomida Yevropada yashab, u yerda tahsil oldi, u o‘z yurtidagi va, umuman, musulmon dunyosidagi xalqlarning taraqqiyotdan juda ortda qolganini anglab yetib, buning asosiy sababi savodsizlik va diniy aqidaparastlikda ekanligiga amin bo‘ldi hamda islom jamiyatida islohot o‘tkazish kerak deb chiqdi. Islohotni maktablardan boshlash kerak, dedi u. Buning uchun maktab dasturlarida faqat diniy fanlar emas, dunyoviy fanlarni ham o‘qitish kerak. Shunda odamlar dunyodagi taraqqiyat parvar fikrlar va hozirgi zamon ilm-fani yutuqlari bilan tanishadilar va qoloqlikdan xalos bo‘ladilar. *Usuli jadida*, ya’ni “yangi usul maktablari” deb atalgan bunday maktablar dastlab Qrimda ochildi. Gasprinskiy Turkistonga ko‘p umid bog‘lagan edi, chunki Rossiya imperiyasida Turkiston eng aholisi zich mintaqasi hisoblanib, bu yerda musulmolarning soni ko‘p bo‘lgan. Shuning uchun u o‘z g‘oyalari shu yerda amalga oshirishga qaror qildi. U bir necha marta Turkistonga kelib, bu yerdagи mahalliy ziyolilar o‘rtasida o‘z g‘oyalarni targ‘ib qildi va uni qo‘llab-quvvatlagan ziyolilarning soni tobora o‘sib bordi. Farg‘ona, Samarqand, Toshkent, Buxoro va boshqa shaharlarda yangi usul maktablari ochila boshladi.

Turkiston jadidlari o‘zlarini “jadid” deb atamaganlar. Bu atamani ularga nisbatan ruslar qo‘llaganlar. Ular esa o‘zlarini “xodimi millat”, ya’ni millat uchun xizmat qiluvchilar, o‘zaro muloqotda esa “mujohidlar” deb atar edilar. Turkiston jadidlari millat vatanparvarlari bo‘lib, jamiyatni taraqqiyot uchun davr talablariga binoan isloh qilish yo‘llarini izlaganlar. Buning uchun ular ta’lim tizimida yangi usuldagagi maktablarni joriy etishni va ularda diniy fanlar bilan birga dunyoviy fanlarni ham o‘qitishni taklif etganlar. Ular odamlarni jamiyatning taraqqiyotiga to‘sqinlik qiluvchi g‘ayriislomiy va keraksiz urf-odatlardan voz kechishga chaqirganlar. Lekin

ular mustamlakachilarga qarshi hech qanday kurash olib bormaganlar va faqat belgilangan qonun doirasida unga rioya qilgan holda faoliyat olib borganlar. Faqat 1910 – 1917 yillarda ularning “Milliy Ittihod” (“Birlik”) nomli siyosiy tashkoloti maxfiy faoliyat olib borgan.

1917-yil oktyabr to‘ntarishidan keyin Turkiston 2 yil davomida Rossiyaning siyosiy markazidan uzilib qoldi. Bu davrda Turkistonda ikki hokimlik vujudga keldi. Toshkentda ruslar hokimiyati, Qo‘qonda esa jadidlar Milliy muxtoriyat e’lon qildilar. Lekin quroq faqat ruslarda bor edi. Tez orada ruslar Qo‘qonga yurish qilib, Milliy muxtoriyatni yo‘q qildilar, aholini ayovsiz qirg‘in qilib, shaharga o‘t qo‘ydilar. Shundan keyin jadidlarning siyosiy faolligi sustlashdi. Ularning ba’zilari chet ellarga ketdilar, ba’zilari esa maxfiy faoliyat olib bordilar. Ayrim jadidlar “qizil ruslar”, ya’ni bolsheviklar bilan hamkorlik qilish yo‘liga o‘tdilar va ular bilan til biriktirib, kommunistik shiorlar ostida islam ulamolariga qarshi kurash olib bordilar. Ularning asosiy faoliyati Toshkentda o‘tdi. Ba’zi jadidlar mahalliy hokimiyat organlariga ishga qabul qilinib, u yerda o‘z g‘oyalarini amalga oshirish yo‘llarini qidira boshladilar.

1920-yilda ruslar milliy yosh kommunistlar va ular bilan hamkorlik yo‘liga o‘tgan jadidlar yordamida Buxoro xonligini ag‘dargandan keyin, 2 yil davomida hokimiyat jadidlar qo‘lida edi. Jadidlar Buxoroda milliy davlatchilik asoslarini yarata boshladilar. Milliy hukumat, parlament, vazirliklar tuzildi, xalqaro aloqalar o‘rnatila boshladi, yoslar chet ellarga o‘qishga yuborildi. Lekin jadidlarning nisbatan mustaqil olib borgan siyosati uzoq davom etmadi. 1922-yilda “qizil ruslar” Buzoroda ham hokimiyatni o‘z nazorati ostiga oldilar va milliy davlatchilik asoslarini yo‘q qildilar.

1920-yillarda Turkistonda milliy yosh kommunistlar “qizil ruslar” rahbarligida jadidlarga qarshi kurash boshladilar. Natijada ularning ba’zilari qatag‘on va surgun qilindi. 30-yillarda esa Stalin boshchiligidagi Bolsheviklar barcha milliy ziyorilarni, shu jumladan Turkistonda ham jadidlarni va ularga xayrixoh bo‘lganlarni yalpi ta’qib va qatag‘on qila boshladilar. Natijada deyarli barcha o‘zbek ziyorilari, shu jumladan surgun qilingan ziyorilar, ommaviy ravishda otib tashlandi. Bu ishlarda “qizil ruslar” ga tojik millatchilari yaqindan yordam berdilar [Kamoliddin 2016: 341 – 252].

Savollar:

1. *Rossiya imperiyasining musulmon xalqlari orasida jadidchilik harakatiga kim asos solgan?*
2. *Turkiston o‘lkasida jadidlar harakatining ilk nashri qaysi?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

- 1. Turkistonda eski maktablar va yangi usul maktabalari.*
- 2. Turkiston jadidlarining nashrlari.*

5.3. Turkistonda milliy muxtoriyat g‘oyalari va loyihalari

Darsning o‘quv maqsadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi”, Abdurauf Fitratning “Buxoroda islohot loyihasi”, “Turkiston muxtoriyati” loyihasi, qozoqlarning “Alash O‘rda” loyihasi, Fayzulla Xo‘jaevning “O‘zbekiston Respublikasi” loyihasi.

Tayanch tushunchalar va iboralar: madaniy muxtoriyat, milliy muxtoriyat, milliy armiya, iqtisodiy mustaqillik, mustaqil boshqaruv tizimi, tashqi aloqalar, dinlar erkinligi, ruslarning kolonial siyosatiga qarshi kurash.

1905 – 1907 yillardagi birinchi rus demokratik inqilobiy harakati Turkistonda mahalliy aholini milliy haq-huquqlar uchun siyosiy kurash olib borishga undadi. Aynan shu davrda Mahmudxo‘ja Behbudiylar o‘zbek tilida “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasini tuzib (1907-yil), uni 3-Davlat dumasining Musulmon fraksiyasiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etdi. Unda Turkiston o‘lkasining madaniyat sohasida qanday bo‘lishi kerakligi haqidagi jadidlarning tasavvurlari aks etgan. Bu loyiha Duma tomonidan rad etilgan edi va Ismoilbey Gasprali (Gasprinskiy) ning shaxsiy arxivida saqlanib qolgan. Sho‘rolar davrida Gasprinskiyning qizi Shafiqa Xonim bu arxivni Turkiya hukumatiga taqdim etgan va u hozirgacha Anqara shahridagi Milliy kutubxona fondida saqlanadi. Bu loyihaning matni 2004 yilda Turkiyada professor Temur Xo‘ja o‘g‘li tomonidan nashr etilgan. Unda Rossiya mustamlakasi bo‘lgan Turkiston o‘lkasida joriy kolonial qonun-qoidalar va tartiblarni mahalliy aholining manfaatlarini, haq-huquqlarini inobatga olgan holda isloh qilish va o‘zgartirishga qaratilgan takliflar bayon etilgan. Loyihaning moddalarida Turkiston o‘lkasining madaniy ishlarda mustaqil siyosat olib borishi taklif etilgan edi, xususan, unda ta’lim tizimi, diniy tashkilotlar, qozilik tizimi, til masalasi va boshqa masalalar ko‘rib chiqilgan. Hozir mazkur loyihaning eski o‘zbek yozuvidagi matni, uning tabdili va faksimili surati so‘zboshi, ilmiy sharhlar va izohlar bilan birga Toshkentda nashrga tayyorlanmoqda.

1918-yilda Abdurauf Fitrat Buxoro jadidlar qo‘mitasining topshirig‘iga binoan o‘zbek tilida “Buxoroda islohot loyihasi” ni yozdi. Unda bo‘lajak Turkiston jumhuriyatining siyosiy dasturi loyihasi e’lon qilingan edi. Amalda u mustaqil Turkiston davlatining konstitusiyasi loyihasi edi. Unda faqat madaniyat ishlari emas, balki davlat qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa masalalar, xususan, davlat boshqaruvi va qonunchilik tizimi, harbiy va mudofaa tashkilotlari, askarlikga chaqirish tartibi, yer-mulk masalalari,

xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar batafsil yoritilgan. Bu loyiha dastlab rasmiy maqomga ega bo‘lmasdan, taklif sifatida kam nusxada chop etilib tarqatilgan. 1920-yilda Buxoroda “qizil ruslar” tomonidan xon hukmronligi ag‘- darilib Buxoro Xalq Jumhuriyati e’lon qilingandan kejin 2 yil davomida jadidlar milliy davlatchilik asoslarini tuzgan paytda ularga bu loyiha asos bo‘lib xizmat qilgan. Uning bir nusxasi Buxoro shahar arxivida hozirgacha saqlanadi va 2005 yilda Toshkentda ilmiy izohlar bilan birga nashr etilgan. 2015-yilda esa uning ruscha tarjimasi nashrdan etildi.

Shunga o‘xshash yana bir loyiha 1918-yilda, ya’ni Rossiyada Chor hukumati ag‘darilib, oktyabr to‘ntarishi yuz bergandan keyin Qo‘qon shahrida e’lon qilingan Turkiston muxtoriyati uchun yozilgan. Bu davrda Turkiston o‘lkasining bo‘lajak taqdiri noma’lum bo‘lib turgan edi. Lekin bu hujjat ham qog‘ozda qolib ketgan va amaga oshirilmagan. Chunki Qo‘qon muxtoriyati tez orada Toshkentdan bostirib kelgan rus askarlari tomonidan yo‘q qilingan.

Turkistonda sho‘rolar hukumati o‘rnatilib, Buxoro va Xiva xonliklari tugatilgandan keyin 1924-yildagi milliy-hududiy chegaralinish arafasida Buxoro Xalq Jumhuriyati jadidlar hukumatining rahbari Fayzulla Xo‘jaev “O‘zbekiston Respublikasi” loyihasini tuzdi. Unda O‘rtta Osiyo mintaqasining asosan o‘troq aholisini va barcha tarixiy shaharlarini o‘z ichiga oluvchi davlat nazarda tutilgan edi. Jadidlar va o‘zbek ziyorilari uchun bu davlat o‘zbek xalqining yo‘qotilgan davlatchiligining, Qoraxoniylar, Temuriylar, Shayboniylar davlatchiligi an‘analaririning qayta tiklanishi deb baholangan edi [Kamoliddin 2016: 325 – 340].

Arxivlarda bunday loyihalardan hammasi bo‘lib 7 tasi saqlangan bo‘lib, ularni Turkiston (O‘zbekiston) konstitusiyasining ilk loyihalari deb hisoblash mumkin.

Savollar:

1. *Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Turkiston madaniy muxtoriyati” loyihasi qachon yozilgan?*
2. *Abdurauf Fitratning “Buxoroda islohot loyihasi” qachon yozilgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *“Turkiston muxtoriyati” loyihasi.*
2. *Fayzulla Xo‘jaevning “O‘zbekiston Respublikasi” loyihasi.*

5.4. Milliy-hududiy chegaralanishning maqsadlari va oqibatlari

Darsning o‘quv maqsadi. 1924 yilda qizil ruslar tomonidan o‘tkazilgan “milliy-hududiy chegaralanish”ning asl mohiyati va buning salbiy oqibatlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: Turkiston musulmonlari, xalqar, millatlar, chegaralar, “respublikalar”.

1924 yild qizil ruslar “milliy-hududiy chegdrdlanish” o‘tkazdilar, natijada 3 ta xonlik o‘rnida O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston respublikalari, shuningdek Qirg‘iz va Tojik muxtor viloyatlari tashkil etildi.

O‘zbek xalqining uzoq va yaqindagi dushmanlari uni ayblab deydilarki, mazkur “chegaralanish” vaqtida o‘zbeklar majburiy ravishda sartlar va tojiklarni, shuningdek uyg‘urlar, qipchoqlar va boshqa mayda xalqlarni o‘zlariga singdirib yuborganlar. Shunday qilib, “o‘zbek xalqi” 1924 yilda qizil ruslar tomonidan sun’iy ravishda o‘ylab topilgan emish. Savol tug‘ilishi tabiiy, nima sababdan qizil ruslar o‘zbeklarga bunday iltifot ko‘rsatganlar. Nima, o‘zbeklar ularning erkatoi edilarmi? Aslida gap butunlay boshqacha bo‘lgan edi. Dashti Qipchoq o‘zbeklari O‘rta Osiyoni bosib olgan bo‘lsalar ham, mahalliy o‘troq turklar bilan yaqin qarindosh edilar. Shuning uchun ular tezda uning yuksak madaniyatini qabul qilib, u bilan qorishib ketdilar. O‘zbeklar hech qachon o‘zlarining nomini boshqalarga berishga harakat qilmaganlar. Aksincha, boshqa xalqlar o‘zlarini o‘zbek deb ko‘rsatishga intilganlar, chunki o‘sha davrda o‘zbek bo‘lish sharafli hisoblanar edi.

Venger olimi A.Vamberi shunday deb yozgan edi: “Qo‘qon aholisi o‘zbek, tadshik, kaysak, qirg‘iz, qipchoqlardir. O‘zbeklar aholining o‘troq qismii tashkil qiladi, ular Buxoro va Xiva o‘zbeklaridan katta farq qiladilar ... O‘zbeklar Turkistonda hukmronlik qiluvchi qavm bo‘lganligi sababli... shahar va qisgloqlarda o‘rnasib qolgan qirg‘izlar, qipchoqlar va kalmyklar, bir zumda o‘z millatidan voz kechib, o‘zlarini “o‘zbek” deb ataydilar” Vambery 1867: 316].¹⁶ Boshqa bir joyda u quyidagicha yozadi: “Xitoy Tatariyasi aholisining ko‘pchiligi, ya’ni 4 viloyat – Kashghar, Yarkand,

¹⁶ Xuddi shu holni bugun ham kuzatish mumkin. Agar 1924 yilda O‘zbekiston hududida qolib ketgan fors tilida so‘lashuvchilar zo‘rlab o‘zbeklarga “aylantirilgan” bo‘lsalar, o‘tgan vaqt ichida ularda millatini o‘zgartirishga va pasportlariga “tojik” deb yozdirishga ko‘p imkoniyatlar bo‘lgan. Lekin ular hech narsani o‘zgartirishni istamaydilar va “o‘zbek” bo‘lib qolishni afzal ko‘radilar. Chunki ularga shunday bo‘lish qulayroq tuyuladi.

Aksu va Xotan – dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholidan iborat. Ular o‘zlarini “o‘zbek” deb ataydilar, lekin ularning kelib chiqishi kalmiq ekanligi birinchi qarashnad ko‘zga tashlanadi. Buxoro va Xivada “o‘zbek” deb ataluvchi odamlar Xitoy Tatariyasida hech qachon bo‘lmagan. Bu yerda “o‘zbek” nomi bilan shimoldan ko‘chib kelgan, kalmiqlar, qirg‘izlardan va bu yerlarning tub aholisi – forslarning aralashmasi ataladi” [Vambery 1867: 333]. XIII – XIV asrlarda. Ko‘p turkiy tilli qabilalar va xalqlar “tatarlar” va “mo‘g‘ullar” deb atalar edi, chunki ular “o‘zlarining buyukligi va qadr-qimmatini ularga mansub bo‘lishda deb ishonganlar, shuning uchun ularining nomi bilan tanilganlar” [Rashid ad-Din I (1): 102].

Rus istilosidan oldin Turkiston aholisi, siyosiy jihatdan tarqoq bo‘lishiga qaramasdan, etno-madaniy jihatdan bir va iqtisodiy jihatdan bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yaxlit xo‘jalik birligini tashkil etgan. Bunday munosabatlar turli xil etnik guruhlarning uzoq vaqt davomida o‘zaro aloqalari natijasida vujudga kelgan edi. 1917 yildan keyingi bir necha yillarda, ayniqsa 1924 yildagi milliy-hududiy chegaralanishdan oldingi va keyingi davrda yuzaga kelgan milliy nizolarga kelsak, ular ruslarning milliy siyosati natijasida vujudga kelgan edi. Qozog‘iston dashtlarida qurollangan rus bosqinchilari tomonidan yerlarni o‘zlashtirish siyosati va buning natijasida 1916-1917 yillarda qozoqlar bilan sodir bo‘lgan qonli to‘qnashuvlar shunga olib keldiki, qozoq ko‘chmanchilarining katta qismi janubga Turkistonga qochib ketishga majbur bo‘ldi. Shu sababli, ular o‘zbeklarning mehmondo‘stligi va mehr-shafqatidan foydalanib, Turkistonga tegishli hududlarda bo‘sh yotgan va bo‘sh bo‘limgan yerlarni egalladilar, keyinchalik esa milliy-hududiy chegaralanish jarayonida bu yerlarga da’vo qildilar. Ularning soxta da’vosiga ko‘ra, bu yerlarda aholining 93 foizini qozoqlar tashkil qilgan ekan, holbuki hatto bugungi kunda ham bu yerlarda qozoqlar aholining buncha qismini tashkil etmaydi. Aslida esa qozoqlarning na Manqishloqqa, na Sirdaryo va Yettisuv viloyatlariga egalik qilishga hech qanday haqi yo‘q edi.

Manqishloq yarim orolida o‘rta asrlarda *ghuzz* qabilalari, XVI – XVIII asrlarda esa turkmanlar yashaganlar. Faqat XIX asrda Kaspiy dengizining sharqiy sohillarini ruslar bosib olgandan keyin, ruslar homiyligiga o‘tgan qozoqlar ularni Manqishloqdan asta-sekin siqib chiqardilar [Barthold 1965: 479 – 480]. Hozirgi vaqtida u yerda asosan qozoqlar va ruslar yashaydi. Demak, turkmanlarni siqib chiqarish va u yerga qozoqlarni “jolashtirish” Chor Rossiyasining strategik ahamiyatga ega bo‘lgan Kaspiy dengizi sohillarini egallah uchun olib borgan siyosati edi. Sirdaryoning o‘rta va quyi oqimlari havzasasi, shuningdek, Yettisuv yerlari so‘nggi 1,5 ming yil davomida XVIII asrda qisqa muddatga jungarlar va qozoqlar bosib olganini hisobga olmaganda, Choch, ya’ni Toshkentga qarashli bo‘lgan. Yuqorida

tilga olingan B.Vatatzi (1730 y.) xaritasida TOUPKIΣTAN (Turkiston) yozuvi ostida ikki tilda, yunon va lotin tillaridagi yozuvda shunday deyilgan: “O‘tmishda bu mashhur viloyat edi, unda muslimmonlar yashaganlar, ularni ba’zab “sart” (*Sartae – σαρται*) deb atar edilar. Ular kimda qurol ko‘proq bo‘lishiga qarab, qazaqlar (*Casacis – καζακων*) ga yoki *Condosides* (*κονδοσιδων*) ga bo‘ysunar edilar”.

Choch (arabchada al-Shash) Markaziy Osiyoning o‘troq turk aholisi yashaydigan eng muhim viloyatlaridan biri bo‘lib, ularning avlodlari hozirgi kundagi o‘zbeklardir. O‘rtta asrlarda butun Sirdaryo havzasasi va Yettisuv yerlarida o‘g‘uzlar va qarluqlar yashaganlar, “j” lovchi lahjalarda so‘zlashuvchilar, ya’ni hozirgi qozoqlarning ajdodlari bu yerlarda mo‘g‘ullar davrida (birinchi oqim) va Shayboniyalar (ikkinchi oqim) davrida paydo bo‘lganlar [Kamoliddin 2009: 59-65].

1924 ylgacha Markaziy Osiyo shaharlaridagi turk va fors tillarida so‘zlashuvchi vatandoshlar o‘rtasida hech qanday millatlararo nizolar yo‘q edi. Fors tilini har bir o‘qimishli odam bilar edi, til amalda o‘zbeklar uchun ikkinchi til vazifasini bajarar edi. Madaniyat, ya’ni din, urf-odatlar, an’analar va turmush tarzining umumiyligi, o‘zbeklar va ularning fors tilida so‘zlashuvchi qo‘snilari o‘rtasidagi etnik farqlarni yo‘qotar edi, bu esa aralash nikohlar va ikkitillilikning keng tarqalishiga olib keldi. Etnografik ma’lumotlarga ko‘ra, Buxoroda fors tilining keng tarqalishuga qaramay, shaharning ko‘pchilik aholisi o‘zlarini tojik emas, o‘zbeklar deb hisoblar edi. 1926 yilgi aholini ro‘yxatga olishda mahalliy aholining 41 839 kishisidan 27 825 nafari o‘zlarini o‘zbek deb ataganlar, faqat 8 646 kishi esa o‘zini tojik degan. XIX asrda buxoroliklar o‘zlarini o‘zbek deb hisoblashgan, tojik deb ular o‘zlarini emas, Erondan ko‘chirib kelingan forslarni ataganlar [Suxareva 1958: 79]. Ingliz sayohatchisi A.Borns shunday deb yozgan edi: “Buxorolik o‘zbekning qiyofasida turk yoki tatarga o‘xshashlik topish qiyin, chunki unga forslarning qoni ko‘p qo‘shilgan” [Puteshestvie 1848 II: 389-390]. Turk va fors tilli o‘zbeklar orasiga nizo aynan 1924 yilda milliy-hududiy chegaralanish vaqtida kiritilgan edi. A.Xolid o‘zining mazkur kitobining 9-bobida aytganidek, bu yilni “tojik xalqi” ning tug‘ilgan kuni deb hisoblash mumkin, shundan keyin “tojiklar” bolsheviklarning shiorlari bilan quollanib, “Turkiston xalqining milliy ziyolilariga qarshi ochiq urush boshlaganlar”.

“Tajik as a Residual Category” (“Tojiklar qoldiq tabaqa sifatida”) maqolasida muallif Tojik muxtoriyati shakllanganidan keyin tojiklarning shakllanishi jarayonini ko‘rib chiqqan. Maqolaning boshida muallif yozadiki, 1924 yilda tojik nomli xalq yo‘q edi, keyin esa (292-300-betlar) bu masalaga “The Absence of the Tajiks” (“Tojiklarning yo‘qligi”) nomli maxsus bo‘lim bag‘ishladi. “Tojik xalqi” ning nazariy asoschisi S.Aini edi.

309-betda u shunday yozadi: "... Ayni paytda "tojik xalqi" S.Ainiy ta'rifida fors tilida so 'zlashuvchi boshqa xalqlar – eroniylar, afg'onlar va Eronning o'zining aholisi forslarni o'z ichiga olmas edi. Bu erda S.Ayniy "tojik xalqi"ning abadiylik, tarixiy birlamchilik va mahalliylikka da'volarini ularning madaniy ustunlikka bo'lgan da'vosi bilan birlashtirgan edi". Bundan keyin, 310-betda o'qiyimiz: "Shuni ta'kidlash kerakki, S.Ayniyning "tojiklik" siyosati Eronga hech qanday aloqasi yo'q edi. "Tojik xalqi" Movarounnahr va Turkistonda tub aholi edi, uning o'zining haq-huquqi, o'zining madaniyati va adabiyoti bor edi."

Manbalardagi ma'lumotlarni o'rganish ham shuni ko'rsatadiki, Tojikiston Respublikasining tuzilishidan oldin, S.Ainiy yozgan "tojik xalqi" haqiqarda ham yo'q edi. Turkistondagi fors tilida so'zashuvchi odamlar, asosan, Erondan Markaziy Osiyoga, arablarning bosqini davridan boshlab XX asr boshigacha turli davrlarda ko'chib kelganlar. Ko'plab etnografik ma'lumotlarning tasdiqlashicha, ularning orasida fors tiliga o'tgan turklar ham ko'p edi. Masalan, XIX asrning oxiri – XX asr boshida Afg'oniston va Buxoro amirligining sharqiy qismida ko'plab turkiy qabilalar va urug'lar o'troqlashgan, shi bilan birga ular fors tiliga o'tganlar [Karmisheva 1976].

O'sha vaqtarda Markaziy Osiyoda ikki tillilik keng tarqalgan edi, til esa etnik mansublikning belgisi emas edi. Bu masalada, birinchi navbatda, diniy mansublik (sunniy, shia, yahudiy, va h.k.), keyin hayot tarzi (o'troq yoki ko'chmanchi) va, albatta, siyosiy mansublik muhimroq ko'rsatkichlar edi. Turli xil xonliklarda yashovchi bir xil qabilalar va xalqlarning vakillari turlicha atalgan. Misol uchun, Turkistonga Erondan ko'chirib kelingan turkiy tilli odamlarni mahalliy aholi xuddi forlarni singari "eroniylar" deb atagan. Shu singari, o'zbeklar ham 1924 yilgacha 2 tilda – turk va fors tillarida so'zlashganlar (*dhu-l-lisonayn* – "ikki tilli").

Ko'rib turganimizdek, Markaziy Osiyodagi barcha millatlararo nizolar rus bosqinchilarining olib borgan siyosati tufayli bo'lgan. Ular o'zlarga tegishli bo'lgan qonuniy hokimiyatni tortib olib, ular bir kun uni tiklay olmasligi uchun hamma chora-tadbirlarni qildilar. Bugungi kunda barcha qo'shni respublikalarning O'zbekistonga hududiy da'volari bor: qozoqlar Toshkent va Qoraqalpog'istonni istaydilar, qirg'izlar butun Farg'ona vodiysiga, tojiklar Samarqand va Buxoroni, turkmanlar esa Xorazmga da'vo qiladilar.

Bundan chiqdi, o'zbeklarning o'zlarining erlari yo'q ekan-da. Aslida esa 1924 yilgi milliy-hududiy davrida davrida eng ko'p yo'qotishlarni boshdan kechirgan o'zbeklar edi, chunki ruslar bosib olgunga qadar 300 yildan ortiq vaqt davomida Markaziy Osiyodagi barcha yerlarning siyosiy egasi o'zbeklar edi. Buni o'rta asrlarda Yevropada chizilgan xaritalarda ko'rish

mumkin. Ularda Usbeck (Usbekia, Özbegistan) mamlakati hududida yashovchi turkmanlar (*Turkmеноi*), qozoqlar (*Kazakoi*), qirg‘izlar (*Khrkizoi*) va qoraqalpoqlar (*Karakalpakoi*) qayd etilgan. Ba’zi xaritalarda Usbek, Usbekia va Özbegistan hududining ichida Turkmania (janubig‘arbda) va Karakalpakia (shimoli-g‘arbda) viloyatlari ko‘rsatilgan. Biroq, ko‘pchilik xaritalarda ular joy nomi emas, balki xalq nomi sifatida qayd etilgan. Bu esa ularning O‘zbekiston hududida yashaganliklarini bildiradi. XVI – XVIII asrlarda chizilgan tarixiy xaritalar yoki globuslarning birortasida ham “tojik” nomi qayd etilmagan, bu nomdan tuzilgan toponim haqida gapirmasa ham bo‘ladi [Kamoliddin 2005: 30 - 33; 2005: 36 - 41].

Ushbu ma’lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, XX asr boshida Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-siyosiy rivojlanishning turli darajalarida bo‘lganlar. Demak, ularning mintaqasi tarixidagi o‘rni va ahamiyati ham bir xil emas edi. Dashti Qipchoq o‘zbeklari XVI asr boshidan boshlab Markaziy Osiyoda siyosiy hokimiyat egalari edilar. Ular Markaziy Osiyoning mahalliy turk o‘troq va shahar aholisining madaniyatini qabul qildilar, mahalliy aholi ularga Temuriylar va ulardan oldingi turl sulolalari davlat an’analarining davomchisi va merosxo‘ri sifatida qaraganlar. XVI - XVIII asrlarda. ularning umumiyligi hududi, yozma adabiy tili va madaniyatini bor edi. Shu sababli, o‘sha paytdagi siyosiy xaritalar va globuslarda ularning mamlakati Usbek, Usbekia va Özbegistan deb nomlangan. Markaziy Osiyodagi turkmanlar, qozoqlar, qirg‘izlar va qoraqalpoqlar kabi boshqa etnik guruuhlar asosan ko‘chmanchilik turmush tarzi olib borganlar. Ulardan faqat qozoqlar mustaqil edilar va o‘z davlatchiligiga ega edilar (Kosaki Horda). Markaziy Osiyoning boshqa xakqlari – turkmanlar, qirg‘izlar va qoraqalpoqlar XVI - XVIII asrlarda o‘zlarining siyosiy hokimiyatiga ega emas edilar, ular mintaqasi aholisining bir qismini tashkil etib, o‘zbek xonliklarining tarkibiga kirganlar. Shu sababli, o‘sha davrning siyosiy xaritalari va globuslarida ular faqat o‘zlarining yashash joylarini ko‘rsatuvchi etnonimlar sifatida qayd etilgan. Tojiklarga kelsak, ular tarixiy xaritalarda umuman qayd etilmagan. “Sartlar”, ya’ni o‘troq va shahar turklari singari ular yashash joylarning nomi bilan atalgan – buxorolik, samarqandlik, farg‘onalik va h.k., va O‘zbekiston davlati aholisining bir qismi bo‘lganlar [Kamolidin 2004: 63-64]. Shunday qilib, XVI – XVIII asrlarda Usbeck, Usbekia va Özbegistan joy nomlari birlashtiruvchi etnomadaniy va etno-siyosiy ahamiyatga ega bo‘lib, bu uyushma faqat mintaqada siyosiy hokimiyatga ega bo‘lgan etnik o‘zbeklarni emas, balki bu davlatning o‘zagini va madaniy asosni tashkil qilgan “Sartlar”, ya’ni qishloq va shahar turklarini, shuningdek, ularga qo‘shilgan Markaziy Osiyoning ko‘chmanchi qabilalari va kam sonli kelgindi millat vakillari – tojiklar, arablar, yahudiylar va boshqalarni ham o‘z ichiga olgan. Bu aholi

guruqlarining barchasining umumiy adabiy yozma tili “chig‘atoy tili”, ya’ni o‘zbek tili edi. Bu til XX asr boshlariga qadar interdialect, ya’ni xalqaro muloqot tili vazifasini bajarib kelgan. [Kasymova 2004: 270-273]. Bugungi O‘zbekiston ham turli xalqlarning xuddi shunday etno-madaniy va etno-siyosiy birlashuvidan iboratdir. Shuning uchun, mening fikrimcha, “qizil ruslar” mintaqaviy rivojlanish jarayoniga hech qanday yangilik kiritmadilar, ularning xizmati “yangi o‘zbek” millatini vujudga keltirish [Ilxomov 2002: 288-290] emas, balki siyosiy jihatdan markazlashgan bo‘lmasa ham, etno-madaniy jihatdan yaxlit birlashuvni parchalab tashlash edi.

1924 yildagi “milliy hududiy chegaralanish” natijasida o‘zbeklar o‘zlarining ko‘p yerlaridan ayrildilar, chunki rus istilochilar ularni o‘zlarining xizmatkorlari – qozoqlar, qirg‘izlar va tojiklarga berib yubordilar. Rus istilochilarining eng katta raqibi va dushmani bu yerlarning qonuniy egalari o‘zbeklar edi. Shuning uchun rus istilochilarining barcha siyosati o‘beklarga qarshi qaratilgan edi.

Qadimgi yunon manbalaridan ma’lum bo‘lishicha, Ohamoniylar davrida fors bosqinchilari Markaziy Osiyodagi barcha yirik suv manbalarini to‘sib, 7 ta katta to‘g‘onni qurbanlar. Ekin maydonlarini sug‘orishga suv olish uchun mahalliy yer egalari forslarga tovon to‘lab turishga majbur edilar. Aks holda, forslar suvni to‘sib, ularning ekinlari nobud bo‘lar edi. Shunga o‘xhash siyosatni Turkistonda rus mustamlakachilari olib borganlar. Chor Rossiyasi davrida Turkistonning barcha suv manbalari Rossiya mulki deb e’lon qilingan edi. «Milliy hududiy chegaralanish» o‘tkazilgandan so‘ng, rus istilochilar o‘beklarni nazorat ostida olib turish maqsadida barcha asosiy suv manbalarida O‘zbekistonga «ajratilgan» hududning atroflariga to‘g‘onlar qurdilar. Ushbu to‘g‘onlar ataylab O‘zbekiston chegarasidan tashqarida boshqa respublikalar – Qozog‘iston, Qirg‘iziston va Tojikiston hududlarida qurilgan, va bosh egmagan o‘beklarga bosim o‘tkazish uchun vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bu to‘g‘onlar yordamida kerak bo‘lganda, o‘zbek dehqonlarining hosiliga zarur bo‘lgan suvni kesish mumkin edi. Ularning boshqa maqsadi kerak bo‘lganda qo‘shni xalqlar o‘rtasida milliy nizolar qo‘zg‘ash edi. Ushbu to‘g‘onlar hali ham o‘zining mazkur vazifasini bajarib kelmoqda va, kerak bo‘lganda, O‘zbekistonga bosim o‘tkazish uchun xizmat qiladi.

Savollar:

1. “Milliy-hududiy chegaralanish” ning asl maqsadi nimadan iborat edi?
2. 1924 yilda Turkiston o‘lkasining qaysi hududlari Qozog‘iston respublikasiga berib yuborilgan?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. 1924 yilgacha bo'lgan Turkiston o'lkasining tarixiy geografiyasi.
2. Buxoro va Xiva xonliklarining tarixiy geografiyasi.

5.5. O‘zbekistonda “bosmachilik” harakatining ahamiyati

Darsning o‘quv maqsadi. O‘zbekistonda 1920-yillarda yangi hokimiyatga qarshi vujudga kelgan “bosmachilik” harakatining asl mohiyati, harakatlantiruvchi kuchlari va oldiga qo‘ygan maqsadlari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: yosh communistlar, jadidlar, milliy ozodlik g‘oyalari, ulamolar, bosmachilar, qo‘rboshilar, grajdalar urushi, milliy qatag‘on, ma’naviy qadriyatlarning tugatilishi.

1917-yil oktyabr to‘ntarishidan keyin Turkistonning viloyatlaridagi qishloq aholisi orasida ulamolar rahbarligida bosmachilik harakati boshlandi. Bizda uni ko‘pincha ruslarga va bolsheviklarga qarshi qaratilgan milliy ozodlik harakati deb anglatiladi. Lekin aslida masala bundan murakkabroq bo‘lgan. Bosmachilik harakati birinchi navbatda ulamolarning ashaddiy dushmani bo‘lgan jadidlarga qarshi qaratilgan edi. Bu qarama-qarshilikda bosmachilar ba’zan hatto “qizil ruslar”, ya’ni bolsheviklar bilan ham hamkorlik qilganlar. Ular uchun eng katta dushman rus mustamlakachilari emas, shaharlik ziyyolilar bo‘lgan. Bu yerda shahar bilan qishloq, yangi taraqqiyot bilan eski urf-odatlar tafovuti birinchi o‘rinda bo‘lgan. Shuning uchun bu harakatga “milliy ozodlik uchun kurash” deb emas, “grajdanlar urushi”, ya’ni vatandoshlar urushi deb baho berilsa, to‘g‘riroq bo‘ladi.

Bosmachilik harakatining tarkibidagi qurolli kuchlar tarkibida turli maqsadlar uchun kurashgan qo‘sishlar bor edi. Ularning ba’zilari ongli ravishda “qizil ruslar” ga va, umuman, ruslarga qarshi kurash olib broganlar va Turkistonni ulardan ozod etib, siyosiy va iqtisodiy mustaqillikka erishishini orzu qilganlar. Masalan, Fayzulla Xo‘jaevning amakisining o‘g‘li Usmon Xo‘ja (1878 – 1968) Buxoroda unga berilgan oliy mansabni tark etib, turkiyalik harbiy emissar Anvar Poshoning qurolli kuchlariga qo‘shilgan va u bilan birga “qizil ruslar” ga qarshi kurash olib borgan. Keyinchalik u oilasi bilan Afg‘onistonga qochishga majbur bo‘lgan va butun umri muhoxirlikda o‘tgan. Usmon Xo‘ja o‘zining vatan istiqolli uchun siyosiy kurashini Turkiyada davom etdirdi. Bu yerda uning atrofiga Turkistondan “qizil ruslar” zulmidan qochgan ziyyolilar to‘plandilar. Ular o‘zlarining siyosiy taskilotini tuzdilar, gazeta va jurnallar chop etdilar. Nashr etilgan maqolalarda, asosan, Turkistonni ruslar istilosidan ozod etish g‘oyasi ilgari surilgan edi. Turkiston muhoxirlari xalqaro tashkilotlarga va chet ellarning hukumatlariga ham moliyaviy va harbiy yordam so‘rab

murojaat etdilar va Turkistonga harbiy yurish qilib, uni “qizil ruslar” dan ozod etishni rejalashtirgan edilar. Usmon Xo‘janing o‘g‘li Temur Xo‘ja o‘g‘li hozirgi kunda turk tillari tarixi va etnografiyasini bo‘yicha yirik mutaxassis, u Turkiyadagi Koch universiteti va Amerikadagi Michigan universitetinig professori. Uning aytishicha, Usmon Xo‘ja umrining oxirigacha vatanini qumsab, uning taqdiri uchun qayg‘urib yashagan, bir kun unga qaytishni, rus istilochilaridan va kommunistlardan ozod etishni orzu qilgan. Sho‘rolar davrida Usmon Xo‘ja sotqin va vatan xoini deb qoralangan edi. Mustaqillik davrida uning nomi oqlanib, 2014-yilda Toshkentda unga bag‘ishlangan maxsus risola nashr etildi.

Turkiston musulmonlarining milliy ozodligi uchun ruslarga qarshi qurolli kurash olib borgan fidoiylardan yana biri boshqird ziyolisi Ahmad Zakiy Validi To‘g‘on (1890 – 1970) edi. U ham dastlab o‘z vatanida siyosiy kurash olib borishga harakat qilgan. Uning foydasi yo‘qligini anglagach, Turkistonga kelib, bu yerda sho‘rolarga qarshi qurolli kurash olib borgan. U ham chet elga qochishga majbur bo‘lgan va avval Germaniyada tehsil olgan, keyin Turkiyada qo‘nim topib, u yerlarda Turkiston tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarini davom etdirgan. Uning qizi Esonbeka To‘g‘on xitoy tilidagi manbalar va Markaziy Osiyo tarixi bo‘icha yirik mutaxassis, professor, Turkiya Fanlar Akademiyasining haqiqiy a‘zosi. Uning aytishi bo‘yicha, otasi boshqird bo‘lsa ham, Turkistonni o‘z vatani deb hisoblagan va umrining oxirigacha Turkistonga qaytishi va uni communistlardan ozod etishni orzu qilgan. Sho‘rolar davrida u ham sotqinlikda ayblanib, uning qilgan ishlari qoralangan edi. Sobiq ittifoq parchalanib sho‘rolar hokimiyati ag‘darilgandan keyin uning nomi ham oqlanib, Boshqirdistondagi Ufa shahrida una haykal o‘rnatildi.

Bular singari insonlar ko‘p bo‘lgan. Turkistondan XX asrning 20-yillarida yuz minglab odamlar rus istilochilari va bolsheviklarning zulmidan chet ellarga qochishga majbur bo‘lganlar. Sho‘rolar davrida ular sotqin, ularning faoliyati esa vatanga xoinlik deb ta’riflangan va qoralangan. Lekin biz ularni ham farqlashimiz kerak. Ba’zi odamlar iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ketganlar, ba’zilar diniy qadriyatlar poymol qilingani tufayli ketganlar, ba’ziar esa siyosiy kurashni davom etdirish va vatan istiqloliga erishish uchun yangi imkoniyatlarni izlash uchun ketganlar. Agar biz bunga hozirgi kun nuqtai nazaridan, ya’ni istiqlol mafkurasi nigohidan qaraydigan bo‘lsak, bu odamlar, ya’ni Usmon Xo‘ja, Validi To‘g‘on va ularning safdoshlari sotqin emas, millat fidoiylari, vatan istiqloli uchun haqiqiy kurash olib borgan vatanparvar insonlar bo‘lganlar.

Lekin biz Turkistonda qolgan hamma ziylolar haqida ham bunday deya olmaymiz. Jadidlar Chor hukumati davrida rus mustamlakachilariga qarshi ochiq siyosiy faoliyat olib bormaganlar. Siyosiy kurash haqida gapirmasa

ham bo‘ladi. Chunki bunga imkoniyat ham bo‘lmagan edi. Yangi taraqqiy-parvar g‘oyalar bilan chiqqan yosh ziylilarga ergashuvchilar juda kam edi. Savodsiz omma ulamolarga ko‘r-ko‘rona ishonar edilar. Ulamolar esa rus mustamlakachilari bilan til biriktirgan edilar. Jamiyat 2 ga bo‘lingan edi. Turkistonda butun xalqni birlashtirib, mustamlakachilarga qarshi kurashga boshchilik qiluvchi siyosiy kuch yo‘q edi. Misol uchun Hindistonda ham ingliz mustamlakasi o‘rnatilgan edi. U yerning aholisi turli tabaqalardan va turli tillarda so‘zlashuvchi xalqlardan tashkil topgan edi, odamlar turli xil dinlarga e’tiqod qilgan edilar. Lekin u yerda bu xalqlarning hammasini birlashtirib, ingliz mustamlakachilariga qarshi kurashga boshchilik qilgan siyosiy rahbar bor edi. U ham bo‘lsa, Mahatma Gandhi edi. U Angliyada huquqshunoslik fanidan tahsil olgan, ko‘p tillarni bilgan o‘qimishli va savodi baland odam edi. U mustamlakachilarining qonunchiligini, shuning-dek, xalqaro qonunlarni yaxshi bilar edi. Shuning uchun ham u xalqlarni ketidan ergashtirib, mustamlakachilarga qarshi malakali siyosiy kurash olib borishni tashkil eta oldi. Metropolianing Hindistondan yiroqda joylashganligi ham yordam berdi.

Afsuski, Turkistonda bunday rahbar yetishib chiqmadi. Ruslarning nisbatan yaqin yerlarda joylashganligi, yaxshi qurollanganligi va o‘ta shafqatsizligi ham ularga qarshi ochiq siyosiy kurash olib borishga hech qanday imkoniyat qoldirmadi. Ulamolar “oq podshoh” ning manfaatiga xizmat qildilar, savodsiz xalq ularga ergashdi, yosh jadidlarning esa tarafdorlari ko‘p emas edi. Shuning uchun ular rus “chinovnik” lari belgilagan chiziqdan chiqmasdan faoliyat olib borishga majbur edilar.

Sho‘rolar hukumati davrida jadidlarning ba’zilari “qizil ruslar” ga qo‘shilganlar, ularning idoralarida xizmat qilganlar va kurashni ruslarga qarshi emas, ulamolarga qarshi olib borganlar. Ulardan keyin milliy yosh kommunistlar yetishib chiqib, “qizil ruslar” ning madadkorlariga aylanganlar. Ulamolar Chor hukumati davrida rus kolonial ma’muriyatining sodiq tayanchi bo‘lganlar va jadidlarning taraqqiy-parvar g‘oyalarini inkor etganlar. Natijada jamiyat ikkiga bo‘linib, ruslarning kolonial siyosatiga qarshilik qilishga ojizlik qilgan. Sho‘rolar davrida ham ular xalqni “qizil ruslar” ga qarshi kurashda birlashtirish o‘rniga jadidlarga qarshi kurash olib borganlar. Bosma-chilar esa, asosan, omi qishloq aholisi bo‘lganigi tufayli ularga ergashganlar, ular hech qanday siyosiy maqsadlarni ko‘zlamaganlar, ularning asosiy maqsadi vatan istiqlol va millat ozodligi emas, balki yangi g‘oyalar va taraqqiy-parvar islohotlar, va ularni tarqatuvchilar, ya’ni shaharlik ziylilarga qarshi kurash olib borish bo‘lgan. Ular olib borgan faoliyatda mahalliy aholini talon-taroj qilish, ularga nisbatan kuch ishlatish,adolatsizliklarga yo‘l qo‘yish holatlari ham ko‘plab yuz bergen. Shuning uchun biz ularga nisbatan “istiqlol uchun kurashchilar”, “millat qahramon-

lari” kabi iboralarni ishlatganimizda, ularni hech bo‘lmasa farqlay bilishimiz kerak.

Hozirgi vaqtida chet ellarga ketishga majbur bo‘lgan o‘zbek istiqlolchilarining avlodlari Saudiya, Turkiya, Amerika va Yevropaning turli mamlakatlarida yashaydilar. Ularning ko‘pchiligi o‘z millatining urfodatlari, tili, dini va ma’naviy qadriyatlariga sodiq qolganlar. Shuning uchun biz ularga sotqinlar va vatan xoinlari deb emas, millatimizning bir qismi, vatandoshlar, qolaversa, istiqlolchi fidoiylarning avlodlari deb qarashimiz kerak.

Savollar:

1. “Bosmachilik” harakati qachon uzil kesil tugatilgan?
2. O‘zbekistonda olib borilgan qatag‘on siyosati kimga qarshi qaratilgan edi?

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. “Bosmachilik” harakatining asosiy o‘choqlari.
2. “Bosmachilik” harakati bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tarixnavisligi.

5.6. O‘zbek ziyyolilariga qarshi qatag‘onlar

Darsning o‘quv maqsadi. Tojik muxtor viloyati asoschilarining “partiya saflarida tozalik uchun kurash” shiori ostida o‘zbek ziyyolilariga qarshi olib brogan faoliyati bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: panislamizm, panturkizm, o‘zbek ziyyolilari, tojik millatchilari, tozalashlar, “qizil terror”, qatag‘onlar, otib tashlashlar.

Tarixdan ma’lumki, I.V.Stalin boshchiligi ostida ayniqsa 20- va 30-yillarda faol olib borilgan “qizil terror” va qatag‘onlar davomida o‘zbek ziyyolilarining deyarli hammasi otib tashlangan edi. Ulardan faqat o‘z hamkasblari va do‘sraliga qarshi ko‘rsatma berishga rozi bo‘lgan bir nechtasi omon qolgan. Lekin bu voqealarda bizning tojik qo‘snilarimiz qizil ruslar tarafida faol ishtirok etganligini ko‘pchilik bilmaydi. Amerikalik sharqshunos olim Adib Xolid o‘zining “Making Uzbekistan” (“O‘zbekistonning tashkil etilishi”) nomli kitobida bu masalaga maxsus bo‘lim bag‘ishlagan (155 – 179-betlar).

Uning yozishicha, “o‘zlarini turk ummoni ichidagi eroni (yoki oriy) uchqunlarini saqlovchi tojik ziyyolilari fors madaniyatining qadimiy markazlari O‘zbekistonga qarashli ekanligidan hafa bo‘ladilar. Buning uchun aybni ular birinchi navbatda 1920-yillardagi tojik ziyyolilariga qo‘yadilar, chunki ular o‘z xalqining manfaatlarini himoya qila olmaganlar. Ikkinchidan, aybni “o‘zbek panturkchilari va shovinistlari” ga qo‘yadilar, chunki ular tojiklarning haq-huquqlarini o‘zlashtirib olganlar. Ularning fikricha, milliy chegaralanish boshidan tojiklarga qarshi qaratilgan edi” (155-bet).

Tojiklarning bu da’volariga javob berib, muallif yozadi: “Tojikistonning bunday shaklda vujudga kelishining sababi shuki, 1924 yilda hech qanday “tojik xalqi” yo‘q edi. Fors tilida so‘zlashuvchi ziyyolilar va siyosat arboblari o‘zlarini “tojik” deb bilmaganlar. Shuning uchun ular tojik xalqining haq-huquqlarini himoya qilmaganlar. Ularning ko‘pchiligi O‘rta Osiyoga “chig‘atoy” nuqtai nazaridan qaraganlar. O‘sha davrda barcha ziyyolilar qaysi tilda so‘zlashishidan qat’iy nazar “turkchilik” go‘yasining tarafдорлари bo‘lganlar. Milliy chegaralanish bu madaniy-siyosiy jarayonga chek qo‘ydi. Ziyyolilar tojiklarga asosan Sharqiy Buxoroning tog‘li hududlarida yashovchi qishloq aholisi sifatida qaraganlar. Chunki fors tilida so‘zlashuvchilar faqat o‘sha yerda g‘uj bo‘lib yashaganlar. Tojokistonning tashkil topishi “chig‘atoy” go‘yasining

rivojiga biroz salbiy ta'sir o'tkazdi, lekin bu ziyolilarning tojiklarga bo'lgan umumiylar qarashini o'zgartirmadi. Eng muhim shuki, XX asr boshidagi millatlar haqidagi mulohazalarda fors tilida so'zlashuvchilar nomidan qandaydir harakatlar va targ'ibot umuman yo'q edi. U davrda jadidlar faqat O'rta Osiyonning turkiy ildizlari va boshqa turkiy tilli xalqlar bilan yaqinligi haqida so'z yuritganlar. Lekin eroniylar ildizlari va Eron bilan yaqinlik haqida hech kim hech qanday fikr bildirmagan. Qolaversa, fors tili hech qachon milliy go'ya uchun kurash vositasi bo'lмаган. Fors tili Buxoro va Turkistobda "forsi" deb atalgan, "tojik" so'zi bu tilga nisbatan hech qachon ishlatilmagan. Buxoro va Turkistondagi siyosatda faoliyat olib borgan fors tilida so'zlashuvchi ziyolilarning ko'pchiligi "turkchilik" go'yasiga ishonganlar. Chunki o'sha davrda eng kuchli va rivojlangan musulmon davlati Usmonli imperiyasi edi, va hamma musulmonlar uchun namuna edi. U yerda olib borilayotgan islohotlarga hamma taqlid qilar edi. Xususan, buxoroliklar uchun ham Usmonli imperiyasidagi islohotlar taqlid qilish uchun namuna edi. Eron esa o'sha davrda juda kichik, qoloq va obro'si yo'q mamlakat edi. Shu sababli u boshqalar uchun taqlid qilish uchun namuna bo'la olmas edi. Buning ustiga Eronda islomning shi'a mazhabi hukmoni edi, lekin sunna mazhabidagi buxoroliklar uchun buning hech qanday ahamiyati yo'q edi" (155-bet).

O'zbekistonda Tojik muxtoriyatini tashkil etishni mavjud bo'lмаган "tojik komiteti" emas, Fayzulla Xo'jayev taklif qilgan edi. Amalda esa Tojikiston Buxoroda siyosiy kurashlarda mag'lub bo'lganlarning axlatxonasini edi. Shunday qilib, Tojikistonning vujudga kelishi O'zbekiston tashkil topishining orqa tomoni edi. Agar O'zbekiston Markaziy Osiyoda Temuriylar davlatchiligining merosxo'ri bo'lsa, Tojikiston Mang'itlar davlatining eng qoloq o'lkalaridin biri edi. Tojikistonning tashkil topishi o'zbek rahbariyati uchun keraksiz narsadan qutulish chorasi edi. 1924 yilda Markaziy Osiyoda fors tilida so'zlashuvchilar ko'p edi, lekin hech qanday tojik xalqi yo'q edi. Hatto asosiy tojik xalqi nomidan gapira oladigan, uning talablarini ilgari suradigan va tan olinishi uchun kurash olib boradigan tojik milliy harakati ham yo'q edi. Bunday vaziyatda fors tilida so'zlashuvchilarbi ularning turkey tilli qo'shnilaridan farq qiluvchi yagona ko'rsatkich til edi, til esa Turkistonda hech qachon fors tilida so'zlashuvchilar uchun o'zlik ko'rsatkichi yoki siyosiy harakat manbai bo'lмаган. Haqiqatan, 1924 yilda tojiklar xalq sifatida mavjud bo'lмаганлар.

Adib Xolidning yozishicha, "Tojik muxtor viloyatining tashkil topishi tojik millatchiligi natijasida yuz bermagan, aksincha, uning tashkil topishi tojik millatchiligini keltirib chiqargan. Tojik millatchilari boshidan partiyadagi panislamizm va panturkizmga qarshi g'oyalarni o'z manfaatiga xizmat qildirib, ularni o'zbeklarga qarshi qaratganlar. Bu "q'oyaviy"

kurashda ular o‘zlarini haqiqiy bolsheviklar sifatida ko‘rsatishga harakat qilganlar. Ular partiya rahbarlariga o‘zbeklarni shunday salbiy tarzda ko‘rsatganligi natijasida o‘zbek ziyolilari juda ham og‘ir yo‘qotishlarni boshidan kechirdi” (314-315-betlar).

Haqiqatni bilish uchun shu so‘zlarning o‘zi kifoya va hech qanday izoh talab etmaydi. Bundan kelib chiqadiki, minglab o‘zbek o‘glonlarining hayotiga zomin bo‘lgan siyosiy qatag‘onlarda rus bosqinchilari bilan til biriktirgan “tojik” millatchilarining ham qo‘li bo‘lgan. Shuni ham aytish joizki, “tojik” ziyolilari bunday yo‘qotishlarga duchor bo‘lmadi. Ularning birortasi ham qatag‘on qilinmadni va uzoq umr ko‘rib, o‘z o‘limi bilan vafot 50- va 60- yillarda etdi.

Har yili 31 avgustda o‘zbek xalqi qatag‘on qurbonlari xotirasi kunini nishonlaydi, lekin shu vaqtgacha bu qatag‘on qurbonlarining ko‘pchiligi Tojik muxtor viloyati asoschilarining sotqin faoliyati natijasida otib tashlanganligi haqida hali hech kim eslamagan.

Savollar:

1. *Tojik muxtor viloyatining asoschilarini kim bo‘lgan?*
2. *Tojik millatchilarini o‘zbek ziyolilariga qarshi kurashda kim bilan til biriktirgan edilar?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Tojik respublikasi va tojik millatchiligining vujidga kelishi va shakllanishi.*
2. *Tojik millatchilarining o‘zbek ziyolilariga qarshi sotqinlik faoliyati.*

5.7. Sho‘rolarga qarshi demokratik harakatlar

Darsning o‘quv maqsadi. Sho‘rolar davrida ularga qarshi faoliyat olib borgan insonlar va demokratik harakatlar haqida tushunchalar berish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: inson huquqlari uchun kurash, so‘z erkinligi, demokratiya, dissidentlar, demokratik harakatlar.

Sho‘rolar davrida ularga qarshi kurash olib borgan va hatto fikr bildirgan odamlar 60-yillardan boshlab “dissident” deb atalar edi. O‘zbeklar ichida bunga jur’at etganlar yo‘q edi yoki deyarli yo‘q edi. Biror narsa deyishi mumkin bo‘lganlar 30-yillardagi qatag‘on davomida otib tashlangan edi, urushdan keyin esa hech kim bunga jur’at etmas edi. Lekin urush vaqtida bunday odamlar hali bor edi. Shunday odamlardan biri Boymirza Hayit edi. U Ikkinchiji jahon urushida ishtirok etib, nemislar qo‘liga tushgan va ularning qo‘shini tarkibidagi “Turkiston legioni” da sho‘rolarga qarshi kurash olib brogan edi. Sho‘rolar davrida u vatan xoini, sotqin deb ta’riflanar edi. To‘g‘ri, sho‘rolar va ruslar nuqtai nazaridan u albatta sotqin va vatan xoini edi. Lekin jadidlar va vatan ozodligi uchun kurashchilar nuqtai nazarida u xoin emas edi. Boymirza Hayitning o‘zi esa o‘zini millat vatanparvari va rus istilochilariga qarshi kurash olib boruvchi fidoiy deb hisoblagan. Urushdan keyin u Germaniyada qolib, o‘zbek adabiyoti sohasida ilmiy ishllar olib brogan va professor ilmiy unvoniga erishgan. Uning “Sovet Ittifoqida turklilikning va Islomning ba’zi masalalari”, “Markaziy Osiyoda Sovet hukumatiga qarshi kurash”, “Turkistonda milliy ozodlik harakati”, “Turkiston va Chin orasida” va boshqa ko‘plab asarlari turli tillarda chop etilgan. Umrining oxirigacha u vatanini qumsab yashagan. 1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganda, u birinchilar qatorida vataniga kelib, uni chin yurakdan qutladi va o‘zining shaxsiy kutubxonasini O‘zbekistonga taqdim etish istagini bildirdi. Lekin o‘sha vaqtda bizning hukumat hali bunga tayyor emas edi va uning taklifi rad etildi. U 2006-yilda 90 yoshda Germaniyada vafot etdi. Hozir oradan 25 yil o‘tdi. Zamon o‘zgardi, yondashuvlar ham. Hozirgi kunda biz bunga O‘zbekiston milliy mafkurasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo‘lsak, Boymirza Hayit taqdir taqozosi bilan urushda dushmanlarning qo‘liga asir tushgan. Lekin u yerda uning oldida yangi imkoniyatlar ochildi. 1930-yillardagi shafqatsiz qatag‘on va qirg‘inlardan keyin ilk bor rus istilochilariga qarshi kurash olib borish ucun imkon tug‘ildi. Uning maqsadi mustabid tuzumni sotish emas, vatani Turkistonni rus istilochilaridan ozod etish va millatining erkinligiga erishish bo‘lgan. Xalqini va vatanini chin yurakdan sevgan har bir inson ham shunday qilgan bo‘lar edi.

Shuning uchun biz Boymirza Hayitning olib borgan faoliyatiga “sotqinlik” yoki “vatanga xoinlik” deb baho berishimiz kerak emas, hech bo‘lmasa, uning ilmiy merosini tan olishimiz va o‘rganishimiz kerak.¹⁷

1980-yillarning o‘rtalarida Sho‘rolar davlati inqirozga yuz tutib, parchalanish arafasida turgan edi. Iqtisod tang ahvolda, poraxo‘rlik, ko‘zbo‘yamachilik, ichkilikbozlik avj olgan, millatlararo munosabatlar keskinlashgan edi. Bu L.I.Brejnev hukmronligi davridagi uzoq yillar davom etgan “turg‘unlik” davrining oqibati edi. Brejnev vafotidan so‘ng qisqa vaqt hokimiyatga kelgan Andropov qattiq va keskin choralar qo‘llab, vaziyatni o‘nglashga harakat qildi. O‘scha davrda xalqimiz “o‘zbek ishi” nomi bilan tarixda qolgan mash’um jarayonni boshidan kechirdi. Aslida bu kommunistlarning qatag‘on siyosatining yangi bir ko‘rinishi edi. 1980-yillarning ikkinchi yarmi tarixga “oshkoraliq davri” nomi ostida kirdi. Kommunistik rejim qulash arafasida edi. Hokimiyatga kelgan M.S.Gorbachev yakka hokimlik (diktatura) ga asoslangan jamiyatni isloh qilishga urinib, demokratik qadriyatlarni hayotga joriy qila boshladi. Hukumat inson huquqlari, erkinliklari va boshqa xalqaro qonunchilik normalari bilan hisoblashishga majbur bo‘ldi. Ko‘p o‘tmay sho‘rolar hokimiyati va kommunistlar diktaturasiga qarshi xalq demokratik harakatlari boshlandi. Rossiyada demokratik harakatga B.N.Yelsin boshchilik qildi. Sunday vaziyatda barcha “sosialistik” mamlakatlarda va sobiq ittifoqning milliy respublikalarida ham kommunistlarga qarshi demokratik harakatlar boshlanib, ayniqsa Sharqiy Yevropa va Boltiqbo‘yi respublikalarida avj oldi. Tez orada u yerlardagi kommunistik rejimlar ag‘darildi, Boltiqbo‘yi respublikalari esa siyosiy mustaqillik e’lon qilib, demokratik davlatchilik asoslarini qura boshladilar. Bunday demokratik harakatlar boshqa milliy respublikalarda, shu jumladan, O‘zbekistonda ham bor edi. U “Birlik” xalq harakati deb atalar edi. Uning negizida “Erk” demokratik partiyasi tuzilib, rasmiy ro‘yxatdan o‘tgan edi. Uning siyosiy dasturi “Erk” gazetasida e’lon qilingan edi, unda o‘scha davrda millatimiz taqdiri uchun dolzarb bo‘lib turgan barcha masalalar aks etgan edi. Masalan, jamiyatga demokratik qadriyatlarni joriy qilish, o‘zbek tiliga davlat tili maqomini berish, iqtisodiy qaramlikdan xalos bo‘lish va, nihoyat, siyosiy mustaqillik e’lon qilish. O‘scha davr, ya’ni 1980-yillarning oxiridagi siyosiy vaziyat va jarayonlar nuqtai nazaridan bu siyosiy tashkilotlarning faoliyati, ular ko‘tarib chiqqan takliflar va talablar tabiiy edi. Qolaversa, “Erk” demokratik partiyasi qonuniy asosda faoliyat olib brogan edi. Lekin bizning tarixshunoslikda haligacha bu demokratik harakat va siyosiy tashkilotlarning faoliyatiga salbiy baho berish yoki

¹⁷ Professor Boymirza Hayit haqidagi fikr-mulohazalar tuzuvchining shaxsiy fikridir, ular uchun mas’uliyat ham faqat uning o‘zidadir.

umuman bu haqida so‘z yuritmaslik qabul qilingan. Xuddi ular tarixda umuman bo‘lmaqandek. Chunki sho‘rolar davlati parchalangandan keyin O‘zbekistonda hokimiyat communistlar qo‘lida qoldi. Ular zudlik bilan nomini o‘zgartirib, demokratlar ko‘tarib chiqqan talablar va takliflarni o‘zlari hayotga joriy qila boshladilar. G‘oyaviy ko‘rsatmalar va siyosiy dastursiz qolgan communistlar va komsomol yetakchilari o‘zlarini yo‘qotmasdan bularni demokratlardan o‘zlashtirdilar.¹⁸ Masalan, Rossiyada kompartiya o‘zining go‘yasidan voz kechgani yo‘q, va hozir ham siyosiy faoliyatini davom etdirmoqda. Demak, bizda haqiqiy communistlar bo‘lmaqan ekan-da. O‘zini “kommunist” deb yurganlar esa aslida g‘oyasi yo‘q mansabparastlar va oqimga qarab suzuvchi “manqurtlar” edi. Boshqachsiga ularning o‘z qarashlarini bunchalik tez o‘zgartirganini izohlash qiyin.¹⁹

Mustaqillik davrida demokratik tashkilotlarning maqsad-vazifalari va huquqiy maqomi o‘zgarib, ular muxolafatga aylangan edi. Endi bu voqealar tarixga aylandi, biz tarixchilar esa ularga haqqoniy baho berishimiz kerak. Hozirgi kunda jamiyatimizda tub o‘zgarishlar yuz bermoqda, islohotlar olib borilmoqda. Kun tartibida yana “demokratik qadriyatlar”, “oshkoraliq”, “so‘z erkinligi”, “inson huquqlari”, hatto “muqaddas islom dinining qadriyatları” kabi tushunchalar dolzarb bo‘lib turibdi. Balki yaqin tariximizdagи demokratik harakatlar va ularning tajribasiga xolisona baho berish vaqt ham kelgandir.²⁰

Savollar:

1. *Boumirza Hayitning qanday ilmiy asarlarini bilasiz?*
2. *Sovet Ittifoqida demokratik harakatlar qachon boshlangan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Boymirza Hayitning ilmiy merosi.*
2. *Sovet Ittifoqi respublikalarida demokratik harakatlar.*

¹⁸ Communistlar demokratlardan hatto ularning nomini ham o‘zlashtirdilar: endi ularning partiyasi “xalq demokratik” deb atala boshladi. “Birlik” harakati haqiqatda xalq va demokratik harakat edi.

¹⁹ Bu yerda hamma communistlar emas, balki communistik mafkurani o‘zining kasbiga aylanirib olgan kompartiya rahbarlari va “komsomol” yetakchilari nazarda tutilgan. Stalin qatag‘onlari davrida ko‘p odamlar jonini saqlash va ta’qiblardan xalos bo‘lish uchun partiya safiga kirganlar. Stalin vafotidan so‘ng odamlar communistlarga o‘rganib qoldilar va ularning go‘yasiga ishona boshlagan edilar. Oddiy communistlar orasida insofli, halol va pok odamlar ko‘p edi, ular uchun eng muhim narsa communistik go‘ya emas, balki kasb manfaatlari edi.

²⁰ Demokratik harakatlar haqidagi fikr-mulohazalar tuzuvchining shaxsiy fikridir, ular uchun mas’uliyat ham faqat uning o‘zidadir.

5.8. Markaziy Osiyoda sho‘rolar hukmronligining mohiyati

Darsning o‘quv maqsadi. Sho‘rolar hokimiyati davrining o‘zbek xalqi taraqqiyoti uchun keltirgan zarari va ijobjiy taraflari bilan tanishtirish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: quloglashtirish, kollektivlashtirish, sovet kolonializmi, ateizm, ruslashtirish siyosati, milliy nizolar, iqtisodiy qaramlik, o‘g‘rilik, ikki yuzlamachilik, joususlik, ma’naviy tubanlik, manqurtlik, yalpi savodxonlik, dunyoviy hayot, diniy ekstremizm xavfidan xaloslik.

1991-yilda erishilgan mustaqillikdan keyin xalqimiz sobiq sho‘rolar davrining mustabid tuzumi va kommunistik g‘oya hukmronligidan xalos bo‘ldi. Lekin oramizda hali ham sho‘rolar davrini qumsab, uning faqat ijobjiy jihatlarini ko‘rvuchilar kam emas. Bu o‘z davrida faol ravishda olib borilgan ruslashtirish siyosatining oqibatidir. 70 yildan ortiq vaqt davom etgan sho‘rolar hokimiyati o‘zbek xalqini tubdan o‘zgartirib yubordi. Dunyoviy hayot afzalliklarini targ‘ib qilish bahonasida muntazam va rejali ravishda ruslashtirish siyosati olib borildi. Ayniqsa ruscha maktablarni bitirganlar bu siyosatning qurbaniga aylandilar. Chunki ruscha maktablarning o‘quv dasturlari shunday tuzilgan ediki, ularda bolalarga kerakli bilimlar bilan birga ularning ongini zaharovchi ko‘rsatmalar singdirilar edi. Natijada xalqimiz ichida ruslarga taqlid qiluvchi va faqat rus tilida so‘zlashuvchi kimsalar paydo bo‘ldi va borgan sari ko‘payib bordi. Biz ularni hozir ham har qadamda ko‘rishimiz mumkin, chunki bu jarayon hali ham davom etmoqda. Ilgari bu jarayon majburiy kechgan bo‘lsa, endi ixtiyoriy bo‘lib qoldi. Sho‘rolar davrida bu illat asosan communistlarning “oliy tabaqasi” ga xos bo‘lgan bo‘lsa, endi ommaviy tus oldi. Rus tili va madaniyatiga sajda qiluvchilar, o‘zining ona titli va milliy madaniyatini unga almashtirganlarni men “manqurtlar” deb atayman. Bundaylar ayniqsa Toshkentda ko‘p. Chunki Toshkent rus mustamlakachilarining siyosiy va madaniy markazi bo‘lgan. Rus maktablarni bitirgan o‘zbeklar ichida o‘zining ona tilini, milliy urf-odatlarini va umuman madaniyatini mensi-maydigan kimsalar ko‘paydi. O‘zaro muloqotda va oilada faqat rus tilida so‘zlashuvchilar safi borgan sari kengayib bordi. Ahvol shu darajaga yetib bordiki, boshqalar uchun ham rus tilida so‘zlashish madaniyatlik belgisiga, o‘zbek titlida so‘zlashish esa qoloqlik belgisiga aylanib qoldi. Chunki bunday tushuncha rus maktablarida 1-sinfdan boshlab muntazam ravishda bolalarning ongiga singdirib borilgan.

Rus maktablarining o‘qituvchilari bolalar rus tilni tezroq o‘rganishlari uchun ota-onalariga uyda ular bilan rus tilida gaplashishni maslahat beradilar. Ba’zi rus o‘qituvchilari esa buni ota-onalardan buni talab qiladilar. Bizning ishonuvchan va, yumshoq qilib aytganda, “uzoqni ko‘ra olmaydigan” ota-onalarimiz buni jon deb bajaradilar.²¹ Axir ular uchun bu “madaniyatli” odamlar bo‘lishning yagona yo‘lidir. Bularning barchasi o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan keyingi “o‘tish davri” davomida yuz bergen. Ota-onalarning hech biri o‘qituvchilarning bu talabi aslida jinoyat ekanligi va buning ular jazolanishi kerakligi haqida o‘ylab ham ko‘rgani yo‘q. Birinchidan, bu vasiyliги ostidagi odamlarning shaxsiy hayotiga aralashishdir. Ikkinchidan, bu davlat tiliga mensimaslik munosabatidir. Yana bu ishlar demokratik taraqqiyot yo‘lidan borayotgan mustaqil davlatda sodir bo‘lmoqda. Hatto Stalin davrida ham, O‘zbekiston Rossiya ning mustamlakasi bo‘lgan paytda ham, o‘qituvchilar ota-onalardan uyda o‘z farzandlari bilan rus tilida gaplashishni talab qilmaganlar. Ehtimol, u vaqtarda bunday talablarni qo‘yiish uchun hali juda erta edi. Chunki u paytda rus tili hali bunchalik keng tarqalmagan edi. Hozir esa boshqa gap – mustamlakachilar boshlagan va communistlar davom etdirgan mahalliy aholini ruslashtirish siyosati o‘z maqsadiga deyarli erishdi, rus tili O‘zbekistonda g‘alaba qozondi va hukmronlik qilmoqda. Biroq, bu o‘qituvchilar biz hozir boshqa davrda va bosqa sharoitda yashayotganimiz- ni bilishlari kerak. O‘zbekiston endi Rossiya mustamlakasi emas, biz esa “o‘tish davri” ning qiyinchiliklarini yengib chiqdik. Bugungi kunda mustaqil davlatimizda demokratik qadriyatlар hukmronlik qiladi va “katta aka” ning ko‘rsatmalariga o‘rin yo‘q.²² Bundan tashqari, endi rus tiliga muqobil til ham bor, yoshlar jon deb ingliz tilini o‘rganishmoqda. Ishon-chim komilki, ingliz tili asta-sekin O‘zbekistonda keng tarqalib, rus tilining ta’sir doirasini cheklaydi. Yana umid qilamanki, o‘zbek maktablarida ta’lim sifati yaxshi-

²¹ Misol uchun Amerika maktablarida bolalar o‘z ona tili va madaniyatini unutmasligi va o‘rganishi uchun o‘qituvchilar ota-onalarga uyda ularga ona tilida kitob o‘qib berishni tavsiya etadilar. Birorta amerikalik o‘qituvchi hech qachon ota-onalarga bolalari bilan uyda ingliz tilida gaplashishni tavsiya etmagan. Ularning fikricha, bolalar shundoq ham ingliz tilini martab dasturi bo‘yicha tez o‘rganib oladilar. Ular hatto ota-onalardan bolalarning ona tilidagi kitoblarni mакtabga olib kelishni iltimos qiladilar. Shunda bolalar o‘zlarining milliy madaniyati bilan sinfdoshlarini ham tanishtiradilar. Boshlang‘ich maktabda esa o‘qituvchilar har kuni dars boshlashdan oldin har bir o‘quvchi (!) bilan uning ona tilida salomlashadilar.

²² Hech kimning odamlarning shaxsiy hayotiga aralashishga va ularga o‘zining tilini tiqishtirishga haqi yo‘q. Agar ota-onalar bolalarini rus maktabiga o‘qishga bergen bo‘lsalar, bu ulaning ona tilidan voz kechishi va rus tilli bo‘lishi kerak degani emas. Bu ota-onalarning maqsadi Цель этих родителей не менять свой менталитет, а по мере возможности обесбололарига сифатли та’лим берлишини та’минлашадир, о‘qituvchilarning vazifasi esa bolalarga bilim berish va bundan boshqa narsa emas.

lanadi, va bizning yurtdoshlarimiz farzandlarining ona tilida ta’lim olishini istaydilar. Shu bilan birga, ingliz, rus va boshqa chet tillarini o‘rganish uchun hech qanday to‘siq bo‘lishi kerak emas.

Hozirgi kunda Toshkentda hatto o‘zbek maktablarida o‘quvchilar orasi-da ham o‘zaro rus tilida so‘zlashuvchilarni ko‘plab uchratish mumkin. Oxirgi yillarda esa ko‘plab o‘ilalar buning oqibatini anglab yetmasdan bola-larini o‘qishga rus maktablariga bermoqdalar. Demak 10 – 15 yildan keyin ahvol hozirgidan ham battar bo‘lishi aniq. O‘zbeklar rus tili va madaniyatini o‘rganish uchun milliy o‘zligini ham qurban qilishga tayyor. Bu haqi-qiy millat fojiasidir va hech qanday yaxshilikka olib kelmasligi tabiiy. Har qalay vatan istiqlolli uchun kurash yo‘lida qurban bo‘lgan millat fidoiyilar bunday keljakni orzu qilmaganlar deb qat’iy aytishimiz mumkin.

Ammo o‘zbek xalqi uchun eng katta yo‘qotish ularga qarashli hudud-larining boshqalarga berib yuborilishi edi. 300 yildan ortiq vaqt mobaynida o‘zbeklar butun Markaziy Osiyoning siyosiy egalari bo‘lib, bu davrda (XVI asrning boshi – XIX asrning birinchi yarmi) bu mintaqqa “O‘zbekiston” deb atalgan. Buni yozma manbalardagi ma’lumotlar, shuningdek, o‘rta asrlarda Yevropada chizilgan xaritalar tasdiqlaydi, ularda Uzbek (Usbekia, Özbegiston) hududi ichida yashovchi turkmanlar (*Turkmenoi*), qozoqlar (*Kazakoi*), qirg‘izlar (*Khrkizoi*) va qoraqalpoqlar (*Karakalpakoi*) lar qayd etilgan. O‘sha davrdagi tarixiy xaritalar yoki globuslarning birortasida ham tojik etnonim qayd etilmagan, bu nomdan tasalgan joy nomi haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Rus mustamlakachilari o‘zbeklarning davlatchiligi-ni yo‘q qilib, ularga qonuniy jihatdan qarashli bo‘lgan yerlarni tortib oldilar, “qizil ruslar” esa ularni mayda bo‘laklarga bo‘lib tashlab, ularni o‘zlarining qo‘li ostidagi qozoqlar, qirg‘izlar va tojiklarga berib yubordilar.²³

To‘g‘ri, sho‘rolar davrining o‘ziga yarasha ijobjiy jihatlari ham bo‘lgan. Buni inkor qilib bo‘lmaydi. Lekin aslida sho‘rolar tuzumi Chor Rossiya-sining mustamlakachilik siyosatini davom etdirgan. Xususan, ruslashtirish siyosati yana ham jadal suratlar bilan olib borildi. 1928 yilda eski o‘zbek yozuvi lotin alifbosiga, 1940-yilda esa majburiy ravishda kirill rus alifbosiga o‘tkazildi. Natijada xalqimiz o‘zining adabiy, ilmiy va ma’naviy merosidan ayrilib, odamlar hatto 20 – 30 yil oldin chiqqan gazeta va jurnallarni ham o‘qiy olmaydigan bo‘lib qoldilar.

Rossiyadan aholini ko‘chirib kelish siyosati yana ham jadal sur’atlar bilan olib borildi. Ayniqsa 2-Jahon urushi yillarida va 1966 yildagi zilzila oqibatlarini bartaraf etish ularga bahona bo‘ldi. Shaharni tiklash uchun

²³ Bu yerda bu atamalar etnik ma’nida emas, balki etno-siyosiy ma’noda ishlataliga: “qozoqlar” deganda, Qozoq Respublikasi, “qirg‘izlar” deganda, Qirg‘iz Muxtor viloyati, “tojiklar” deganda, Tojik Muxtor viloyatining asoschilari nazarda tutilgan.

kelgan quruvchilarning deyarli hammasi shu yerda qoldilar. Natijada Toshkentning 60 – 70 foyizini ruslar va rus tilida so‘zlashuvchilar tashkil etdi. Rasmiy til rus tili edi, o‘zbek tilining ishlatalish doirasi nihoyat darajada torayib ketdi. Buning oqibatida xalqimiz o‘zligini tanimaydigan, haq-huquqsiz ruslashgan manqurtlarga aylandi. Sho‘rolar davrida millatchilik avj ola boshladi. Oqibatda 1980-yillarga kelib ko‘p joylarda, shu jumladan O‘zbekistonda ham, milliy nizolar, ayrim hollarda esa qonli to‘qnashuvlar kelib chiqdi.

Ruslashtirish siyosatining yana bir usuli pasportlashtirish jarayoni edi, bunda sho‘rolar hukumati barcha vatandoshning familiyasi va ismi-sharifi bir shaklda, ya’ni rus shaklida bo‘lishini talab qilgan. Shuning uchun familiyalarga -ov (-ova) yoki -yev (-yeva), otasining ismiga esa -vich va (erkaklarda) -vna (ayollarda) qo‘sishchalari qo‘sila boshladi. Familiylar va otasi ismlarining ruslashtirilishi millatning bundan keyingi shakllanishiga katta ta’sir qildi. Axir odamning familiyasi va ism-sharifi shaxsning shakllantirish jarayonida juda katta ahamiyatga ega. Familiylar va otasi ismlarini ruslashtirib, ruslar strategic jihatdan juda muhim g‘alaba qozondilar – endi Turkiston musulmonlari, shaklan bo‘lsa ham, ruscha familiyalalar va otasi ismlariga ega bo‘ldilar. Mustaqillikka erishilgandan keyin O‘zR Oliy Majlisi familiylar va otasi ismlarini milliylashtirish haqida vfxsus qonun qabul qildi. Biroq, bu huquqdan kamdan-kam odamlar foydalandilar. Chunki bu qonun haqida bat afsil ma’lumot berilmadi, uni targ‘ib qilish haqida gapirmasa ham bo‘ladi. Hukumatning o‘ziga hech narsa o‘zgarmasdan avvalgidek qolishi qulay edi. Shuning uchun, bu qonun asosida ko‘pchilik o‘z ism-shariflarini milliylashtirishga harakat qilganida, pasport idoralarining xodimlari ularni bu niyatdan qaytarishga astoydil harakat qildilar va hatto to‘sinqinliklar ham qildilar. Hozir esa rasmiy idoralar – milisiya, hukumat muassalari, davlat idoralari va h.k. larning mas’ul xodimlari va mansabdor shazslariga murojaat qilinganda, ruscha shakldagi ism-shariflar ochiq targ‘ib qilinmoqda. Bularning hammasi hujjatli va badiiy kinofilmlar, seriallar, teleko‘rsatuvlar va boshqa ommaviy axborot vositalari orqali targ‘ib qilinadi. Davlat idoralarida barcha mansabdor shaxslar kabinetlarining eshiklaridagi lavhalarda albatta ruscha shkldagi familiya va otasining ismi ko‘rsatiladi. Endi bu “moda” bo‘lgan va rasmiylik belgisiga aylangan. Shuni eslatib o‘tish joizki, Fayzulla Xo‘jayev o‘zining familiyasini “Xo‘jayev” deb yozishga rozilik bildirgan, uning qarindoshi Usmon Xo‘ja esa buni qat’ian rad etgan.

Alifboni o‘zgartirish va ruslashtirish siyosatining oqibatlarini 1950-1955 yillarda O‘z SSR Fanlar akadimiyasi tomonidan tayyorlangan va nashr etilgan 5 jildli rus-o‘zbek lug‘atining mazmunida ayniqsa yaqqol ko‘rish mumkin. Ilmiy-texnika taraqqiyoti va o‘zbek tilida ayrim atama-

larning yo‘qligi bahonasida mazkur lug‘atda rus atamalari barcha bo‘shiliqlarni “to‘ldirib”, milliy atamalarning rivojlantirishi uchun hech qanday imkoniyat qoldirmadi. Ruscha atamalar ko‘pgina kelib chiqishi arab va fors bo‘lgan atamalarni ham siqib chiqardi. Bundan tashqari, lug‘atda ko‘plab ruscha so‘zlar o‘zbekcha so‘zlarning sinonimlari sifatida kiritildi. Rus tilining mutlaq hukmronligi va o‘zbek tilining ishlatalish doirasi juda cheklanganligi sharoitida ushbu rus sinonimlari asta-sekin o‘zbekcha so‘zlarni siqib chiqardi va ular kundalik muomaladan chiqib ketdi. Keyingi yillarda nashr etilgan lug‘atlarda ruscha so‘zlarning soni yana ham ko‘paydi, o‘zbekcha so‘zlarning soni esa aksincha kamaydi.²⁴ Natijada, o‘zbek tili ruscha so‘zlar bilan to‘lib-toshib ketdi. Ikki jiddlik katta ruscha-o‘zbekcha lug‘at (1984 y.) ning yarimi ruscha so‘zlardan iborat. Chunki o‘sha davrda nashr etilgan o‘zbekcha-ruscha lug‘at faqat 1 jiddan iborat.²⁵ Bu ruscha so‘zlarning hammasi turli sohalar bo‘yicha tuzilgan ruscha-o‘zbekcha lug‘atlarga ko‘chirildi, chunki ularni tuzishda katta ruscha-o‘zbekcha lug‘at asosiy manba bo‘lib xizmat qilgan. Unda yo‘q bo‘lgan, ayniqsa, sanoat sohasidagi ruscha so‘zlar bilan yana ham “boyitildi”. Eng muhimmi, bu lug‘atlar hamma uchun namuna bo‘lib, qonuniy maqomga ega edi, faqat ularga kiritilgan so‘zlardan foydalanish mumkin edi. Mustaqillik davridan keyin nashr etilgan lug‘atlarda deyarli hech narsa o‘zgarmadi, hozirgi paytdagi adabiy o‘zbek tilining so‘z boyligi sho‘rolar davridagi o‘zbek tilidan deyarli farq qilmaydi. “Tilimiz sofligini saqlovchilar”, ya’ni filologlarimizning “sa’yi-harakatlari” tufayli sho‘rolar davrida kiritilgan barcha ruscha so‘zlar yangi 2 jiddli ruscha-o‘zbekcha lug‘at (2013) ga undan ham ko‘paygan holda ko‘chib o‘tdi, va hatto 5 jiddli o‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006-2008) da ham o‘rin oldi (!). Holbuki, bunday lug‘atda asosan faqat sof o‘zbekcha so‘zlar bo‘lishi kerak edi. Jonli tilda esa vaziyat bundan ham dahshatlidir. Nafaqat kelib chiqishi arabcha yoki forscha bo‘lgan so‘zlar, balki asl o‘zbekcha so‘zlar ham asta-sekin muomaladan

²⁴ Bu masala bilan filologlarimiz shug‘ullanib, maxsus tadqiqot o‘tkazsalar yazshi bo‘lar edi.

²⁵ Shuni aytib o‘tish joizki, rus istilosiga qadar buning teskarisi edi – Rus tilidagi turkcha so‘zlar lug‘ati (444 bet) hajmi bo‘yicha V.I.Dalning 4 jiddlik “Buyuk rus tilining izohli lug‘ati” ning taxminan 1 jiddiga (554 bet) to‘g‘ri keladi [Шипова 1976; Даль 1981]. Bu degani turkcha so‘zlar rus tili so‘z boyligining $\frac{1}{4}$ qismini taskil etgan. Dal lug‘atining “izohlili” ekanligigi hisobga olsak, unda bu nisbat $\frac{1}{3}$ va hatto $\frac{1}{2}$, ya’ni yarimini taskil etishi mumkin.

chiqib ketmoqda, ularning o‘rnini esa ruscha so‘zlar egallamoqda. O‘zbek alifbosini 2 marta o‘zgartirganda (1928 va 1940 yillar) rus mustamlakachilari va “qizil ruslar” aynan shuni rejalashtirgan edilar. Tan olish kerakki, ular o‘z maqsadlariga deyarli etdilar. Lekin bundan ham ayanchli ahvolni Rossiya Federasiyasining milliy respublikalarida ko‘rish mumkin, u yerlarda milliy tillar yo‘qolib ketish arafasida turibdi. Bizda hali hamma imkoniyatlar yo‘qotilganicha yo‘q. Mustaqillik sharofati bilan bizda hali vaziyatni o‘zgartirish imkoni bor. Faqat buning uchun dadil va qat’iy harakatlar amalga oshirilishi kerak.

Sho‘rolar xalqimizning diniy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarini poymol etishda davom etdilar. Masjidlar, eski maktab va madrasalar bekor qilindi. Ulamolar va dindor odamlar ta’qib qilindi. Diniy qadriyatlar oyoq osti qilindi. Ateizm va kommunizm g‘oyalari targ‘ib qilindi. O‘zbekistonning chet ellar bilan, ayniqsa islom dunyosi bilan madaniy aloqalari uzildi. Natijada ko‘pchilik odamlar xudosiz, dinsiz, iymonsiz kimsalarga aylandilar. Ichkilikbozlik avj oldi. Milliy urf-odatlar buzilib ketdi, ularga bema’ni, millatimiz mentalitetiga yot jihatlar kirib bordi. O‘g‘rilik, poraxo‘rlik, ikki yuzlamachilik, soxtalik, xushomadgo‘ylik kabi illatlar ko‘paydi.

Sho‘rolar mamlakatimizning tabiiy boyliklarini ham talon-taroj etishda davom etdilar. Ular O‘zbekistonni sanoati rivojlanmagan va xom ashyo yetkazib beruvchi mustamlakaga aylantirdilar. Paxta yakkahokimligi jamiyatning barcha sohalariga, ayniqsa, odamlarning sog‘ligiga, yosh avlodning ulg‘ayishiga salbiy ta’sir o‘tkazdi. Respublikamizdag‘i mavjud foydali qazilmalar va strategik xom ashyolar (oltin, kumush, uran va h.k.) Rossiyaga hech qanday nazoratsiz tashib olib ketildi. Ularning haqiqiy miqdorini mahalliy rahbarlar, hatto birinchi shaxslar ham bilmas edi. Bu ham kamlik qilganday, 1980-yillarda sho‘rolar xalqimizga qarshi “Paxta ishi” ochib, uni boqimandalikda aybladilar. Ko‘plab aybsiz odamlar qamalib ketdi, ba’zilar joniga qasd qildilar. Aslida bu o‘zbek xalqiga qarshi qilingan yangi qatag‘onlar jarayoni edi.

Qurilgan sanoat korxonalari mustaqil ishlay olmas edi. Ulardagi nafaqat muhandislar va mutaxassislar, balki oddiy ishchilar ham, asosan, kelgindi ruslardan iborat edi. Inqilob paytida va’da qilingan o‘zbek ishchilari sinfi 70 yildan keyin ham vujudga kelgani yo‘q. Asbob-uskunalar va xom ashyo Rossiyaning boshqa yerlaridan ketirilar edi. Natijada bu yerda qurilgan korxonalar faqat markaz bilan bog‘liq holda ishlashi mumkin edi. Bunday holat albatta tasodifiy emas edi, balki boshidan “qizil ruslar” tomonidan maxsus va ataylab shunday qilib tashkillashtirilgan edi. Shuning uchun

1991 yilda Sho‘rolar davlati parchalangandan keyin ularning hammasi to‘xtab qoldi va keraksiz temir-tersakga aylandi.

Sho‘rolar hokimiyati davrida professional sport bilan asosan “katta akalar”, ya’ni ruslar shug‘ullanar edi. “Milliy” lar, ya’ni o‘zbeklar, faqat paxta ekib, yetishtirib, uni terishi, shuningdek, mol boqishi va pista sotishi kerak edi. Ularning sport bilan shug‘ullanishga vaqt yo‘q edi. Shuning uchun musobaqalarda sportning deyarli barcha turlarida asosan faqat ruslarni ko‘rish mumkin edi. Ayniqsa sportning muzda badiiy uchish, badiiy gimnastika, tennis va shahmat singari “oliy tabaqalar” uchun bo‘lgan turlariga o‘zbeklar umuman yaqinlastirilmas edi. Ularni hatto ko‘pincha bu sport turlariga shug‘ullanishga qabul ham qilmas edilar. Bu sport turlari asosan ruslar uchun edi. Mustaqillik qo‘lga kiritilgandan keyin respublikamizda vaziyat o‘zgardi. Hayot bizning xalqimiz ham sportning barcha turlari bo‘yicha yosh iqtidorli sportchilarga qanchalik boy ekanligini ko‘rsatdi. Bizda ham qator-qator jahon championlari bo‘lishi mumkin ekan. Yoshlarimizning sportdagi yutuqlari biz katta yosgdagilarga faxr tuyg‘usini bag‘ishlaydi. Sho‘rolar davrida bizning yoshlarda bunday imkoniyatlar yo‘q edi. Qoida bo‘yicha sport mashg‘ulotlari hamma uchun ochiq edi, lekin amalda butunlay boshqa hol edi. Ko‘p sport mashg‘ulotlarining murabbiylari asosan ruslar yoki rus tilida so‘zlashuvchilardan iborat edi, ular esa navbatdagi saralash imtihonlarida mashg‘ulotlarni davom etdirishga “o‘zlariga tegishli” larni, ya’ni ruslarni va rus tilida so‘zlashuvchilarni qoldirar edilar. “Milliyar”, ya’ni milliy tillarda so‘zlashuvchilarni esa har xil bahonalar bilan mashg‘ulotlardan chetlatishga harakat qilar edilar. Rag‘batlantirish haqida gapirmasa ham bo‘ladi.

Kamsitishlar ilm-fan sohasida ham bor edi, har qalay sharqshunoslik sohasida shunday edi. Moskva va Leningradlik olimlar aytgan ediki, ilmiy tadqiqotlarni faqat ular yozishu kerak, o‘zbeklar esa faqat tarjima bilan shug‘ullansinib, ularga tadqiqot uchun materiallar tayyorlab bersinlar. Bundan tashqari O‘zbekistonda islom tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish taqiqlangan edi. Lekin Moskva va Leningradda islom tarixi bilan shug‘ullanuvchi sharqshunoslar ko‘p edi. Bizda esa islom bilan sharqshunoslar emas, faylasuflar va huquqshunoslar, albatta, ateizm va marksizm-leninizm nuqtai nazaridan “shug‘ullanar” edilar.

Sho‘rolar hukmronligi davrining o‘zbek xalqining taraqqiyoti uchun ijobjiy taraflari ham bor edi. Odatda bu holda ruslar va sho‘rolar davrining tarafdarlari quyidagilarni ko‘rsatadilar: zavod va fabrikalar qurildi, universitetlar ochildi, ilm-fan rivojlandi, baland uylar, metro qurildi va h.k. Ularning yana bir asosiy argumentlaridan biri shundan iboratki, “Agar ruslar va sho‘rolar hokimiyati bo‘lmaganda, biz hozirgi Afg‘onistonga o‘xshash qolqoq bir o‘lka bo‘lar edik”. Bunday qarashlarning ostida tarixiy

voqelikni bilmaslik va mustaqil taraqqiyotning afzalliklarini anglab yetmaslik yotadi. Undan tashqari bu sho‘rolar hokimiysi davrida olib borilgan tashviqotlarning natijasidir. Bu gaplarga javoban shuni aytish kerakki, bizning yurtimiz Turkistonni Afg‘oniston bilan solishtirish kerak emas. Turkiston o‘z vaqtida tarixda yuksak taraqqiy etgan buyuk davlat bo‘lgan. Turk xoqonligi davrida Samarqand, Buxoro, Choch, Xorazm, Farg‘ona sin-gari yirik madaniyat markazlari bo‘lgan. Islom davrida bu yerdan Somoniylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar, Temuriylar singari jahonga mashhur sulolalar yetishib chiqqan. Bir vaqtlar Shimoliy Afg‘oniston To‘xoriston deb atalgan. Bu yerda Balx nomli yirik madaniyat markazi bo‘lgan. O‘rta asrlarda bu yerlar Somoniylar, G‘aznaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar, Temuriylar va Shayboniylarga qarashli bo‘lgan. Shayboniylar davrida bu yerda o‘zbeklarning Balx xonligi bo‘lgan, lekin XVIII asrda uni ko‘chmanchi afg‘on (pushtun) qabilalari bosib olganlar. Shundan keyin Balx tushkunlikka tushib, qoloq o‘lkaga aylangan. Shunday qilib Afg‘oniston ruslar bosqini arafasida Turkistonning chekka bir qishlog‘i bo‘lgan. U oldin qanday qoloq bo‘lgan bo‘lsa, hozir ham shunday. Hatto Pokiston ham o‘zining tarixiy merosi, madaniy va ma’naviy salohiyati bilan Turkistonga tenglasha olmaydi. Tarix davomida Turkistonning bitta raqibi bo‘lgan, u ham bo‘lsa bu Eron. Sosoniylar davridan boshlab bu ikki davlat bir-biri bilan raqobatlashib kelgan. Xorazmshohlar va Temuriylar davrida esa Eron Turkistonga qaram bo‘lgan. Shayboniylar davrida Erondagi Safaviylarning eng katta raqibi va dushmani ham Turkiston bo‘lgan. XVIII asrdan keyin yagona Turkiston davlati inqirozga uchragandan keyin xonliklarga bo‘linib ketdi. Uyg‘uristondagi o‘zbek xonligini xitoylar, Balx xonligini afg‘onlar, Qo‘qon xonligini ruslar bosib oldi. Buxoro va Xorazmni esa sho‘rolar yo‘q qildi. Vatan ozodligi va taraqqiyoti uchun kurashgan jadidlar ana shu tarixiy Turkiston davlatini qayta tiklashni orzu qilgan edilar. Lekin kommunistlar bunga yo‘l qo‘ymadilar va Turkistonni undan ham mayda bo‘laklarga bo‘lib tashladilar. Tarixiy Turkistonning davlatchiligi va madaniy merosining asosiy davomchisi o‘zbek xalqidir. Ruslar istilosini va sho‘rolar istibdodiga qaramasdan o‘zbek xalqi o‘zining asosiy fazilatlari – mehnat-sevarlik, tirishqoqlik, bilimga intilish, bag‘rikenglik kabi xislatlarini yo‘qotgani yo‘q.

XX asr boshlarida butun islom dunyosida g‘aflatdan uyg‘onish, taraqqiyot va ma’rifatga intilish jarayonlari kechayotgan edi. Turkistonda “qizil ruslar” bu jarayonlarni o‘z qo‘llariga oldilar va o‘zlarining nomidan amalga oshirdilar. Zavod va fabrikalar ularsiz ham qurilar edi, universitetlar ularsiz ham tashkil etilar edi. Taqqoslash uchun misol – Eron

va ayrim arab davlatlari. Turkiya haqida gapirmasa ham bo‘ladi.²⁶ Ularning hammasida bu narsalar bor. Ularni ruslar yoki inglizlar qurib bergani yo‘q. Hozirda Eron dunyodagi eng nufuzli va tez suratda rivojlanayotgan davlatlardan biridir.²⁷ Agar Turkiston rus bosqinchilariga yem bo‘lmagan-da, Eron singari kuchli va taraqqiy etgan davlat bo‘lar edi, balki undan ham o‘tib ketar edi.

Shu bilan birga biz sho‘rolar davrining ijobiy taraflarini ham e’tirof etishimiz kerak. Sharq mamlakatlari, xususan Pokiston, Hindiston, Afg‘oniston, Eron va boshqalarda hozirgacha aholining ko‘p qismi savodsiz. Bizda esa aholining 100 foyiz savodliligiga bundan 60-70 yil oldin erishilgan. Bu ko‘rsatkich dunyo miqyosidagi katta yutuq hisoblanadi. Sho‘rolar davrining bizga bergen ijobiy jihatlaridan yana biri shuki, O‘zbekistonda zamonaviy ilm-fan va madaniyat yuksak darajada rivojlandi. Bu sohalarda biz Eron, Turkiya va boshqa sharq mamakatlaridan ortiq bo‘lsa bormiz, lekin hech ham qolishmaymiz.

Savollar:

1. *O‘zbek tili qachon lotin alifbosiga o‘tkazilgan?*
2. *O‘zbek tili qachon kirill alifbosiga o‘tkazilgan?*

Mustaqil ish uchun topshiriqlar:

1. *Sho‘rolar davrida O‘zbekistonda islam dini va musulmonlarning hayoti.*
2. *Sho‘rolar davrida o‘zbek tili alifbosini o‘zgartirish bosqichlari va maqsadlari.*

²⁶ Masalan, hozir O‘zbekistonda 33 mln aholiga 62 ta oliy o‘quv yurti mavjud bo‘lib, ularning ko‘plari 1991 yildan keyin, ya’ni mustaqillik davrida tashkil etilgan. Eronda bu ko‘rsatkich ancha yoqori – 77 mln aholiga 587 ta, Turkiyada 76 mln aholiga 189 ta, Pokistonda 197 mln aholiga 128 ta, Afg‘onistonda esa 35 mln aholiga 26 ta oliy o‘quv yurti bor. Agar O‘zbekistondagi faqat sho‘rolar davrida tashkil etilgan universitetlar hisobga olinsa, ularning soni Afg‘onistonnikidan unchalik ko‘p bo‘lmaydi, ikkala davlatning aholisi ham deyarli bir xil.

²⁷ Sanoatining rivojlanishiga ko‘ra, Eron barcha Markaziy Osyo davlatlarini qo‘shganda ham ustun bo‘ladi. Erondag‘i katta va kichik nashriyotlarning soni 2 mingdan ko‘p, bu esa aholining savodxonlik darajasi, kitobat madaniyati va kitobsevarlikning yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Misol uchu O‘zbekistonda xususiy nashriyotlarni qo‘shib hisoblaganda, hammasi bo‘lib 82 ta nashriyot faoliyat olib boradi, butun Markaziy Osiyoda esa 200 ga ham bormaydi. Buning ustiga ularning ko‘pchiligi 1991 yildan keyin, ya’ni mustaqillik davrida tashkil etilgan.

XULOSA O'RNIDA

Markaziy Osiyoda mustaqil davlatlarning tashkil topishi va ularning istiqbollari

Darsning o'quv maqsadi. Sobiq ittifoq parchalanib, Markaziy Osiyo respublikalarining mustaqillikka erishganidan keyingi davrda kuzatilgan o'ziga xos rivolanish xususiyatlari va ularning istiqbollari haqida fikr yuritish.

Tayanch tushunchalar va iboralar: milliy nizolar, o'tmishni qadimiy-lashtirish, hududiy da'veolar, siyosiy raqobat, paniranizm, panturkizm g'oyalari, neokolonializm, pansovetizm, ruslashtirish, jahonda hukmronlikka intilishilar.

1991 yilda O'rta Osiyo xalqlari mustaqillikka erishgandan keyin ular oldida yangicha milliy taraqqiyot istiqbollari ochildi. Lekin sho'rolar davrida loyihalashtirilib, amalga oshirilgan milliy siyosat mintaqa xalqlari o'rtasida sun'iy ravishda vujudga keltirilgan, lekin shu vaqtgacha Moskvadan nazorat qilib turilgan milliy adovatlar va hudud tortishuvlari yangi kuch bilan o'zini namoyon qildi va xalqlar orasidagi munosabatlarga rahna soldi. Mustaqillikka erishgan har bir respublika o'zining taraqqiyot yo'lini tanlab, rivojlana boshladi. Rossiyada demokratik hukumat vaziyatni o'z qo'lida uslab qololmadi, mamlakatni yangi rivojlanish yo'liga qo'ya olmadi. 2000-yillarning boshida hokimiyatga kelgan V.Putin sobiq Sho'rolar davlatining totalitar tuzumni, Rossianing oldingi kuch-qudratini, jahondagi o'rmini tiklashga intilmoqda. Markaziy Osiyoda Qozog'iston, Tojikiston va Qирг'изистон Rossiya bilan yaqin aloqalarni saqlab, eski vaqtлага qaytishga qarshi emas. Turkmaniston o'zini betaraf davlat deb e'lon qildi. O'zbekiston ham o'zining siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini xorijiy tajovuzlar va ta'sirlardan himoya qilishga harakat qilmoqda.

